

Bardiyarov R.T

Qurbonov Z.N.

SOLIQ HUQUQI

BERDIYAROV R. T, QURBONOV Z. N

SOLIQ HUQUQI

(O'QUV QO'LLANMA)



TOSHKENT – 2010

UDK: 336.22:34 (575.1)

67.402

B55

Berdiyarov R.T.,

Soliq huquqi [Text]: o'quv qo'llanma /

R.T. Berdiyarov, Z.N. Qurbonov; mas'ul muharrir:
Sh.N. Ro'zinazarov; taqrizchilar: Sh. Bilolxo'jayeva
[va boshq.]. – T.: YURIST-MEDIA MARKAZI,
2010. 320 b.

I. Qurbonov Z.N.

BBK 67.402я73

Mas'ul muharrir: **RO'ZINAZAROV SH. N** –

yuridik fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Bilolxo'jayeva SH – TDYUI «Ma'muriy va moliya huquqi»
kafedrası dotsenti, yuridik fanlari nomzodi;

Isroilov B. X – Soliq akademiyasi «Buxgalteriya hisobi va
audit» kafedrası mudiri, professor, iqtisod fanlari doktori;

Hakimov R. X – Soliq akademiyasi «Yuridik fanlar»
kafedrası dotsenti v.b., yuridik fanlari nomzodi;

Quziyeva N – Soliq akademiyasi «Soliqlar va soliqqa
tortish» kafedra mudiri, iqtisod fanlari doktori.

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Soliq akademiyasi tomonidan tasdiqlangan «Soliq huquqi» fani bo'yicha o'quv rejasi, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada har bir mavzu alohida boblar asosida yoritilgan bo'lib, unda tayanch so'z va iboralar, talaba o'z bilimlarini tekshirishi uchun nazorat savollari, amaliy seminar mashg'uloti rejalari, ilmiy tadqiqot faoliyati uchun mustaqil ish mavzulari, har bir mavzuni mustahkamlash uchun test savollari, fanni chuqurroq o'rganish maqsadida barcha mavzularga doir foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan. O'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida mamlakatimizda va xorijda e'lon qilingan huquqiy, iqtisodiy adabiyotlardan, yetuk mutaxassis olimlar ilmiy asarlaridan hamda amaldagi yangi qonun hujjatlaridan foydalanildi.

Mazkur o'quv qo'llanma Davlat soliq qo'mitasi Soliq akademiyasi va boshqa Oliy o'quv yurtlari talabalari hamda soliq huquqi va qonunchiligiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Mazkur «Soliq huquqi» o'quv qo'llanmasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Soliq akademiyasi Ilmiy kengashining 2010-yil 27-fevraldagi majlisida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9943-387-03-4

© «Yurist-media markazi» nashriyoti

© R.T.Berdiyarov, 2010

© «Dizayn-print» MCHJ 2010

MUNDARIJA

KIRISH	6
I bob. Soliq huquqi fanining predmeti, tizimi va boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqasi	
1.1. Soliq huquqi tushunchasi va predmeti.....	9
1.2. Soliq huquqi fanining vazifalari hamda tizimi.....	12
1.3. Soliq huquqi asoslari fanining boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqasi.....	15
II bob. Soliq huquqi manbalari va prinsiplari, ularning umumiy tavsifi	
2.1. Soliq huquqi fanining yuridik manbalari tushunchasi va turlari.....	20
2.2. Soliq huquqi fani va soliq qonun hujjatlari prinsiplari.....	29
2.3. O'zbekiston Respublikasida soliq qonun hujjatlarining vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi.....	34
III bob. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi, mohiyati hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari	
3.1. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning shakllanishi hamda rivojlanishi	38
3.2. Soliqlar tushunchasi, uning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari.....	41
3.3. Majburiy to'lovlar tushunchasi, turlari va ularning o'ziga xos belgilari	45
3.4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati.....	50
IV bob. Soliq huquqiy munosabatlari, soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari hamda majburiyatlari	
4.1. Soliq huquqiy munosabatlari tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari..	53
4.2. Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari. Rezident va norezident tushunchalari.....	58
4.3. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari.....	61
V bob. Soliq tizimini boshqarishdagi davlatning vakolatli organlari	
5.1. Soliq tizimini boshqarishdagi davlat vakolatli organlari tushunchasi va tizimi.....	66
5.2. Soliq sohasidagi umumiy va maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari.....	69
5.3. Soliq tizimi boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat vakolatli organlari faoliyatida qonuniylik tamoyili.....	78
VI bob. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar	
6.1. Jismoniy shaxslar tushunchasi va ularni soliqqa tortish.....	81
6.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol mulk solig'i.....	83
6.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.....	86
6.4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i.....	100
6.5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.....	103

VII bob. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning huquqiy tavsifi

7.1. Yuridik shaxslar tushunchasi, turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	105
7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.....	109
7.3. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i.....	116
7.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i.....	121
7.5. Qo'shilgan qiymat solig'i.....	128
7.6. Aksiz solig'i.....	139
7.7. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.....	144
7.8. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.....	145
7.9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.....	148

VIII bob. Davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlarning huquqiy tabiati

8.1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarning huquqiy asoslari.....	152
8.2. Davlat maqsadli jamg'armalari, ularga majburiy to'lovlar va yig'imglar	153

IX bob. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

9.1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	164
9.2. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	167
9.3. Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	171
9.4. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	173
9.5. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	176

X bob. Soliq nazoratining huquqiy asoslari

10.1. Soliq nazorati tushunchasi, vazifalari va uning huquqiy asoslari.....	180
10.2. Soliq nazoratining shakllari.....	183
10.3. Soliq tekshiruvlari tushunchasi va ularning turlari.....	187

XI bob. Davlat boji va bojxona to'lovlarini huquqiy tartibga solish

11.1. Davlat boji to'lovlarining huquqiy asoslari.....	192
11.2. Davlat bojxona to'lovlarini undirish masalalari.....	211
11.3. Davlat bojxona qo'mitasi va uning asosiy vazifalari.....	212

XII bob. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalash

12.1. Tadbirkorlik subyektlarini davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy asoslari	217
12.2. Tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy shakl va usullari	220
12.3. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlariga soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida etkazilgan zararni qoplash masalalari	220
12.4. Tadbirkorlik subyektlari huquqiy himoyasini ta'minlashda soliq maslahatining ahamiyati.....	226

XIII bob. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari	
13.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi va turlari.....	231
13.2. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari.....	235
13.3. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy, ma'muriy hamda jinoyit javobgarlik.....	237
XIV bob. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi	
14.1. O'zbekiston Respublikasi soliq organlari faoliyatining huquqiy asoslari.....	245
14.2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va uning huquqiy maqomi.....	248
14.3. Soliq xizmati organlari tuzilmalari tomonidan bozorlar faoliyatini nazorat qilish masalalari.....	260
14.4. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmat o'tashning o'ziga xos xususiyatlari.....	267
14.5. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari xodimlarining yuridik javobgarligi.....	270
XV bob. O'zbekiston Respublikasining soliq sohasida xalqaro hamkorligi masalalari	
15.1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida soliq sohasidagi xalqaro hamkorlikning afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlari	274
15.2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro soliq munosabatlaridagi hamkorligining huquqiy masalalari.....	278
«Soliq huquqi» fanidan amaliy mashg'ulotlarning savollari.....	282
«Soliq huquqi» fanidan mustaqil ish mavzulari.....	288
Test savollari.....	292
Foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.....	303
ILOVALAR.....	310

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgach, jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi davlat ijtimoiy hayotining muhim yo'nalishlaridan biri – soliq sohasidagi islohotlar ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Istiqlol yillarida soliq siyosatining eng muhim yutuqlari shundaki, bu yo'nalish yosh mustaqil davlat uchun Yangi soha bo'lsa-da, uzoq yillik davlatchilik an'analari hamda rivojlangan xorijiy davlatlar ilg'or tajribalarining samarali yutuqlaridan foydalangan holda milliy soliq tizimi va uning huquqiy asoslari shakllantirildi. Navbatdagi muhim vazifalardan biri jamiyatda soliqqa oid huquqiy bilimlarni o'rganilishini yanada takomillashtirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy hayotni olg'a siljituvchi kuch ilm-fan ekanligini keng tushuntirish lozim. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek¹, barkamol avlodni tarbiyalashda, ularning zamonaviy bilimlar asosida kamol topishida davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, ularni bugungi kun talablari nuqtayi-nazardan qayta ko'rib chiqish lozimligi, shu bilan birga intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetga chiqib qolishi mumkin.

Mamlakatni yangilash, modernizatsiya va isloh etishda O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos taraqqiyot yo'li shakllantirilganligi va bu yo'l mashhur besh tamoyil asosida olib borilayotganligi mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot mezonlarini belgilab berayotgan asosiy omillardan bo'layotganligini e'tirof etish joiz. Biz istiqloqlning dastlabki yillarida qabul qilgan, mashhur besh tamoyilga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli yildan-yilga ilgarilab borganimiz sari o'zini amalda oqlab, naqadar to'g'ri va puxta ekanligini isbotlamoqda².

Ma'lumki, davlatchilikning tarixiy taraqqiyoti dalolat beradiki,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir // Xalq so'zi. 2009-yil 6-dekabr.

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston. 2009. 31-b.

soliq munosabatlari jamiyatda davlatchilik shakllangandan buyon mavjud bo'lib ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida rivoj topib kelmoqda. Insoniyat hayotida shunday ijtimoiy munosabatlar borki, tili, millati, dini, fuqaroligi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi kabilardan qat'i nazar soliq munosabatlarida har bir shaxs o'z umri davomida albatta ishtirok etishi tabiiy. Shunday ekan, soliq munosabatlari bilan bog'liq bilimlarni har bir shaxs bilishi, undagi o'z huquq va majburiyatlaridan bevosita xabardor bo'lishi, soliqlar xalq, davlat va jamiyat xavfsizligi, tinchligi va farovonligining ta'minlanishidagi ahamiyati beqiyos ekanligini anglab yetishi lozim. Soliq huquqiga doir saboqlarni o'rgatishda har bir shaxsni kichik yoshidan, kerak bo'lsa maktabgacha tarbiya muassasalaridan tortib, oliy o'quv yurtlari talabalarigacha dars mashg'ulotlari olib borish, ularning soliq to'lovchi sifatida, lozim bo'lsa, jamiyat hayotidagi turli kasb faoliyatida qanday soliq munosabatlariga kirishishi to'g'risida atroflicha bilimlar berish lozim. Zero, rivojlangan xorijiy davlatlarning soliq amaliyoti shundan dalolat beradiki, insonlar soliqqa doir bilimlarni albatta egallashlari lozim, chunki ular qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar ushbu jamiyat a'zosi sifatida, albatta soliq munosabatlarida ishtirok etishadi, shuni inobatga olib ta'lim tizimining barcha bosqichlarida soliqqa oid dars mashg'ulotlari atroflicha o'rgatiladi. Chunki, jamiyatda soliq to'lovchilarning huquqiy ongi va soliq madaniyatini shakllantirmasdan, ularning soliq majburiyatlarini ixtiyoriy to'lanishiga erishmasdan turib, soliq tizimidagi huquqiy islohotlarning taraqqiy etishiga to'la erishib bo'lmaydi.

Soliq munosabatlarida soliq to'lovchining huquqiy ong va madaniyatining yuksak darajada bo'lishida qonun ustuvorligiga qat'iy rioya etilishi muhim bo'lib, qonuniylik soliq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning so'zsiz ijrosini ta'minlanishida zaruriy shartlaridan biridir. «Qonuniylik va huquq tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquq va erkinliklari qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa bu vazifani bajarishning iloji bo'lmaydi»¹.

Mazkur o'quv qo'llanma jamiyatda soliq huquqiy ong va madaniyatning yuksalishida muhim ilmiy-o'quv manbalaridan biri bo'lib, undagi mavzular mazmuni va tuzilishi jihatdan boblarga

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlovlari va taraqqiyoti yo'li –T.: O'zbekiston. 1992. 17-b.

ajratilgan. O'quv qo'llanmada soliq tushunchasi, uning belgilari, shakllanish bosqichlari, boshqa majburiy to'lovlardan farqi, jamiyat va davlat hayotidagi huquqiy ahamiyati, soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, soliq tizimini boshqarishdagi vakolatli davlat organlari va ularning vazifalari, soliq xizmati organlari, ularning huquqiy maqomi, soliq sohasidagi xalqaro hamkorlikning huquqiy ahamiyati kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari, davlat boji va bojxona to'lovlari, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar, soliq nazoratining huquqiy asoslari, tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalash kabi masalalar xususida har bir bobda atroflicha tushuntirishlar berishga harakat qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanmada ba'zi juz'iy kamchiliklar uchrashi va ayrim masalalar atroflicha yoritilmagan bo'lishi mumkin. Hurmatli kitobxonlar ushbu o'quv qo'llanmaning sifatini yanada yaxshilash borasida o'z mulohazalarini bildirishi kelajakdagi ilmiy tadqiqot ishlarining samarali va mukammal bo'lishiga yordam beradi.

I bob. **SOLIQ HUQUQI FANINING PREDMETI,
TIZIMI VA BOSHQA YURIDIK FANLAR BILAN
O‘ZARO ALOQASI**

- 1.1. Soliq huquqi tushunchasi va predmeti.
- 1.2. Soliq huquqi fanining vazifalari hamda tizimi.
- 1.3. Soliq huquqi asoslari fanining boshqa yuridik fanlar bilan o‘zaro aloqasi.

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq huquqi tushunchasi, mazmuni. Soliq huquqi fanining predmeti va obyekt tushunchalari. Fanning asosiy vazifalari. Soliq huquqi fanining tizimi. Soliqlarning iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatidagi ahamiyati. Soliq huquqi fanining ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik huquqi va boshqa huquqiy fanlar bilan o‘zaro aloqasi. Soliq huquqi fanining huquq sohasi sifatida shakllanishidagi o‘ziga xos o‘rni.

1.1. Soliq huquqi tushunchasi va predmeti

Ma‘lumki, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda har bir shaxs bevosita yoki bilvosita qatnashadi. Soliq munosabatlari ana shunday munosabatlardan biri bo‘lib, bunda shaxs bevosita soliq xodimi bo‘lib ishtirok etmasa-da, lekin albatta soliq to‘lovchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Shu jihatdan bugungi kunda soliq huquqining tadqiqot obyekti kengayib, huquqiy fanlar tizimidagi o‘rni va ahamiyati ham kun sayin ortib bormoqda.

Har bir fan o‘zining tadqiqot predmetiga, izlanish va o‘rganishi lozim bo‘lgan obyektiga ega. *Soliq huquqi fani* bevosita soliqlar bilan bog‘liq iqtisodiy-ijtimoiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlarda yuzaga keladigan jarayonlarni tartibga solishni o‘rganadi. Soliq huquqi fanining obyekti bevosita iqtisodiy va huquqiy tushunchalar bilan chambarchas bog‘liqdir.) Soliqlarga yuridik ta‘rif berish, yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri yechimini topish va

mavjud munozarali masalalarni hal etish fanning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Soliqqa oid bilimlarni fuqarolarga soddaroq va tushunarli qilib yetkazish, jamiyatda soliqqa oid munosabatlarda huquqiy qoidalar va me'yorlarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash, soliq to'lovchilarning huquqiy ongi va soliq madaniyatini shakllantirish jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi iqtisodiyotning yuksalib borishidagi muhim mezonlardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida yoshlarning bilimi va tarbiyasini yuksaltirishda maxsus adabiyotlar zarurligi xususida to'xtalib «...barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning Yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurishning faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi – jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur»¹, deya ta'kidlab o'tgan edi.

Soliq huquqi huquqiy fan sifatida soliqqa doir qonunchilik hujjatlari va soliq huquqiy munosabatlari shakllangandan so'ng vujudga kelgan va rivojlanib borayotgan fan sohasidir. Lekin bu boradagi nazariy qarashlar ham tahlil qilinsa, turlicha fikrlar yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. Mazkur nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda soliq huquqini moliya huquqi normalari negizida shakllangan huquqning alohida sohasi deyish mumkin. Shunday qilib, *(soliq huquqi – bu soliq qonunchiligi me'yorlari bilan tartibga solinadigan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, undirib olish hamda soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy moliyaviy munosabatlarni o'rganuvchi fan sohasidir.)*

Soliq huquqi fani o'z tadqiqot predmetiga ega huquqiy fan sohasi sifatida shakllanib, davlat tomonidan soliqlarning joriy qilinishi, soliq to'g'risidagi nazariy qarashlar, soliq sohasidagi munosabatlar, uning obyektlari va subyektlari, soliq munosabati ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, yuridik javobgarlik masalalari va boshqa ijtimoiy-huquqiy munosabatlarini o'rganuvchi fandır.

Soliqlar bevosita iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solganligi

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008. 124 – 125-b.

bois moliya huquqi me'yorlari bilan ham bog'langandir. Soliq huquqi moliya huquqi predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlarning muayyan qismini birlashtiradi va shu sababli soliqqa doir huquqiy munosabatlar moliyaviy huquqiy munosabatlar uchun xos bo'lgan barcha umumiy belgilarga egadir. Soliq huquqiy munosabatlarining ajralib turadigan o'ziga xos xususiyati shundaki, ular davlat moliyaviy faoliyati elementlarining butun majmuyi bilan bog'lanmagan. Soliq huquqi me'yorlari o'z predmeti bilan ko'rsatilgan davlat pul jamg'armalarini tashkil etish bo'yicha va bunda ular faqat soliq to'lovlarini belgilash va undirib olish, soliq munosabatlari barcha subyektlari tomonidan qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan qismi bo'yicha ijtimoiy munosabatlarga ega. Soliqlarning aniq turlari bo'yicha tushumlar hajmini belgilash va ularni davlat budjet tizimi darajalari bo'yicha taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar esa budjet huquqi me'yorlari bilan tartibga solinadi.

(Soliq huquqi fani predmetining boshqa iqtisodiy-huquqiy fanlardan farqli xususiyati shundaki, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga iqtisodiy-huquqiy kategoriya sifatida tushunish, ular bilan bog'liq davlat boshqaruv organlari va boshqa ishtirokchilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga huquqiy yondashish, tadqiq etish va o'rganish hisoblanadi.) Odatda, nazariyotchi olimlar tomonidan soliq huquqi fanining predmeti — bu o'rganilgan va tadqiqot etilgan iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy tushunchalar sifatida qarashsa, fanning obykti tushunchasiga esa o'rganilganligi bilan birga hali o'rganilmagan va to'la tadqiq etilmagan huquqiy tushuncha va munosabatlarni ham qamrab olishini ifoda etishadi.

Ma'lumki, mamlakat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri soliqlar hisoblanadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish sharoitida davlatlar soliq tizimini to'g'ri tashkil etish va tartibga solish, uni takomillashtirishga qaratilgan samarali davlat iqtisodiy siyosatini yuritish mamlakat moliyaviy tizimini ham rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning iqtisodiy-ijtimoiy va yuridik asoslantirilgan, huquqiy jihatdan mukammal tartibga solingan soliq qoidalari — jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashga, soliq intizomini muttasil yaxshilanib borishiga, mamlakatda olib borilayotgan soliq tizimidagi islohotlarning samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1.2. Soliq huquqi fanining vazifalari hamda tizimi

Jamiyatda asosiy muhim huquqiy-iqtisodiy tushunchalardan biri soliq institutlarining yuzaga kelishi davlat va bozor infratuzilmasi mavjudligi hamda ularning faoliyati bilan bog'liq obyektiv zaruriyatning mahsulidir. Ijtimoiy hayotda soliqlarning paydo bo'lishi va shakllanib borishi jamiyatning demokratlashuvi, huquqiy davlat g'oyasi bilan bevosita bog'liqdir. Soliqqa tortish huquqiy tabiati jihatidan ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish bilan davlat o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, jamiyat barqarorligini, tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan soliq siyosatini muayyan doirada tartibga solib borishga qaratilgan chora-tadbiridir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgach, iqtisodiy huquqiy sohada yangicha shakllanayotgan yo'nalish bo'lgan soliq siyosatini yuritish va uning huquqiy asoslarini yaratish muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Istiqloq yillari boshida soliqqa oid qonunlarning qabul qilinishi bilan bog'liq jarayonlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ko'zda tutuvchi soliq siyosatidagi islohotlarning dastlabki bosqichi boshlandi, u bozor iqtisodiyotiga o'tish hamda bozor munosabatlari va pul muomalasini me'yorlashtirishni ta'minlovchi umumdavlat dasturining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ldi. Dastlabki yillar davomida soliqlarni undirish amaliyoti va tizimi o'zining kamchiliklarini ham namoyon etdi, natijada soliq tizimi o'zgarishlarni, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishni talab qildi. Bunday iqtisodiy-huquqiy islohotlar konsepsiyasi amaldagi soliq tizimini tubdan qayta qurishdan emas, balki uni asta-sekinlik bilan mavjud kamchiliklarni bartaraf etgan holda bosqichma-bosqich o'zgartirib borishdan iborat bo'ldi.

Soliq sohasidagi nazariy masalalarini, soliq bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tizimga solish, takomillashtirish va umumlashtirilgan bilimlarni tadqiq etish soliq huquqi asoslarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish sharoitida soliqlar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy zarurat, balki davlat boshqaruvi mexanizmining faoliyatini ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Shu bois soliq huquqiy munosabatlarini chuqur tahliliy o'rganish, mukammal bilimlarga ega bo'lish nafaqat maxsus davlat xizmati xodimlari

uchun, balki soliq huquqiy munosabatlari subyektlari hisoblangan har bir fuqaro uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»¹ deb nomlangan asarida ilgari surilgan g'oyalar iqtisodiy, yuridik fanlarni shu jumladan, soliq huquqini o'rganish borasida ham muhim vazifalarni belgilaydi. Soliq huquqining asosiy vazifalaridan biri jamiyatda mulkchilik munosabatlarini huquqiy tartibga solish, davlatning noqonuniy va cheklanmagan da'vo talablaridan muhofaza qilish, soliq to'lovchilar bilan davlat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatini ta'minlab turishdan iborat. Soliq huquqi fani ijtimoiy munosabatlarni o'rganuvchi huquq sohasi sifatida bir qator ustuvor vazifalarni belgilagan bo'lib, jumladan soliq sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, ushbu yo'nalishdagi huquqiy madaniyatni yuksaltirish, soliq qonun hujjatlarini tahlil qilgan holda umumnazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, soliq sohasidagi munozarali masalalarning qonuniy yechimlarini topishga va soliq qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Soliq huquqi fanini o'rganish jarayonida soliqlarni iqtisodiy jihatdangina emas, balki yuridik jihatdan yoritish va tahlil qila olish, huquqiy asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur o'quv fanining *asosiy vazifalari sifatida* quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

birinchidan, soliqlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, yuridik ta'rifi hamda o'ziga xos xususiyatlari, boshqa to'lovlardan farqi, soliq qonunchiligining huquqiy asoslari kabi nazariy bilimlarni talabalarga keng yoritib berish;

ikkinchidan, soliq huquqiy munosabatlarining nazariy asoslarini, ularning ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, soliq solish sohasidagi davlat boshqaruv organlari hamda ularning vakolat va vazifalarini, soliq yo'nalishidagi umumiy va maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlarining huquq va majburiyatlarini, ularning vakolatlari hamda milliy qonunchiligimizdagi yangiliklarni o'rgatish;

uchinchidan, iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyot yo'nalishlarini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari, soliqlar tizimi, soliqqa tortishdagi ayrim o'ziga xos xususiyatlar haqida tushuntirishlar berish;

to'rtinchidan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning davlat,

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari // I.A.Karimov.- T: O'zbekiston, 2009. 56 – b.

jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatish hamda fuqarolarning soliq sohasidagi huquqiy bilimlari va madaniyatini yuksaltirishdan iborat.

Soliq huquqi fanini nazariy jihatdan o'zining tadqiqot va o'rganilish obyektlariga ko'ra shartli ravishda ikki bo'limga ajratish mumkin. Lekin bu tartibda, tizimlarga ajratish Soliq kodeksining joylashuv tartibiga ya'ni kodeks tizimiga to'la mos kelmasligi ham mumkin. Soliq huquqi fanining umumnazariy tushunchalarini shartli ravishda ikki qismga ajratamiz.

Birinchi qismda – soliq bilan bog'liq umumnazariy qoidalar ya'ni soliq va boshqa majburiy to'lovlarga doir asosiy tushunchalar va ularning mohiyati, soliqlarning funksiyalari, soliq solish tamoyillari, soliq munosabatlarining ishtirokchilari tushunchasi, soliq to'lovchilarning asosiy huquq va majburiyatlari, majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq umumiy talablar, soliq hisobotlari hamda ularni yuritish tartibi, soliqlarning belgilari va o'ziga xos xususiyatlari, soliq munosabatlarining shakllanishi hamda soliq huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi yuridik manbalar tavsifi va turlari, soliqqa oid huquqbuzarliklar tushunchasi va turlari, soliq huquqbuzarligi uchun yuridik javobgarlikka tortish shartlari va asoslari, huquqiy ta'sir choralari, ularni qo'llash tartibi hamda boshqa o'ziga xos xususiyatlarni qamrab oladi.

Ikkinchi qismda – soliq huquqiy munosabatlari tushunchasi, huquqiy munosabat ishtirokchilari hamda ularning huquqiy maqomi, soliq sohasidagi umumiy va maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari, soliq organlari faoliyatining huquqiy asoslari, davlat soliq xizmatiga kirish tartibi va shartlari, xizmat o'tash qoidalari va uning o'ziga xos xususiyatlari, soliq xodimlarini ijtimoiy muhofazalash masalalari, soliq idoralarining ma'muriy huquqiy maqomi, yuridik va jismoniy shaxslarning soliqqa tortilishi bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi, soliq tizimidagi nazorat organlari tizimi, ularning vakolatlari va majburiyatlari, umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig'imglar, davlat boji va bojxona to'lovlari, ayrim toifadagi soliq to'lovchilarning soliqqa tortishdagi o'ziga xos xususiyatlar kabi jarayonlarni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganiladi.

Shuningdek, soliq huquqini mukammal o'rganish, MDH va boshqa xorijiy davlatlarning soliq munosabatlarini tartibga solishini va ularning samarali tajribalarini tahlil etish mamlakatdagi soliq qonunchiligi va soliq munosabatlarining takomillashtirishga xizmat qiluvchi va milliy qonunchilikni rivojlantirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar tayyorlanishiga xizmat qilishi mumkin.

1.3. Soliq huquqi fanining boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqasi

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etishni ko'zlagan mamlakat sifatida O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan jamiyat, davlat hayoti uchun yangi yo'nalish bo'lgan soliq sohasini shakllantirishni mazkur yo'nalishdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan islohotlarning yuridik bazasini, qonunchilik asosini yaratishdan boshladi. Soliq munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi yaratildi va ari raliyotga joriy etildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy zarurat, balki davlat boshqaruvi mexanizmi barqarorligini ta'minlovchi asosiy bo'g'inga aylanishiga jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning izchil rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratdi. Yaratilgan sharoitlar samarasida moliya huquqi me'yorlari asosida soliq huquqiy munosabatlarini tartibga solishga yo'naltirilgan soliq huquqi asoslari ham rivojlantirildi.

Hozirgi kunda ko'pgina nazariyotchi huquqshunos olimlar tomonidan soliq huquqi asoslari faniga yuridik fanlar tizimining alohida sohasi sifatida tavsif berib kelishmoqda. Lekin yana bir guruh olimlar soliq huquqi alohida fan sohasi emas, balki moliya huquqining bir bo'limidir, deya e'tirof etishmoqda. Mazkur qarashlarga ma'lum ma'noda umumlashtirgan holda, soliq huquqi asoslari moliya huquqining bir qismi sifatida rivojlanib borayotgan huquqiy fan yo'nalishlaridan biri bo'lib, huquq sohasi sifatida shakllanishda davom etmoqda, deyish mumkin.

Ma'lumki, soliqlar qadimdan davlat moliyaviy resurslarining muhim manbai sifatida namoyon bo'lib, davlat oldida turgan vazifalarini bajarish uchun davlat idoralari faoliyatini ta'minlab turishga yo'naltiriluvchi moliyaviy vositalardan biri tarzda xizmat qilgan. Soliq huquqi fani huquqiy manbalarining ko'lami tartibga solishdagi munosabatlarning o'ziga xosligi va boshqa jihatlar bilan huquq fanining yangi rivojlanib borayotgan alohida sohasi sifatida qarash mumkin. Har bir fan sohasi paydo bo'lishi va rivojlanishida boshqa fan yo'nalishlari bilan o'zaro munosabatga kirishadi hamda chambarchas bog'liq holda rivojlanib boradi. Soliq huquqi asoslari fani ham boshqa yuridik fanlar singari bir qancha huquq sohalari bilan o'zaro bog'liqdir.

Soliq huquqiy munosabatlarining tushunchalarini atroflicha o'zlashtirish, yetarlicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uning ko'pgina institutlarini tahlil etish o'quvchidan davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi va boshqa huquq yo'nalishlariga oid bilimlarni atroflicha o'rganish va oqilona foydalanishni talab etadi. Soliq huquqi huquqning maxsus sohasi bo'lib, uning yuridik tabiati moliya huquqi bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, boshqa huquqiy fanlar bilan bog'liq bo'lgan o'zaro munosabatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, soliq huquqini mukammal o'rganishda *davlat va huquq nazariyasi* fanining o'rni muhim ahamiyat kasb etib, huquqiy fanlar tizimida davlat va huquq nazariyasi bilan o'ziga xos huquq sohaslarini o'rganishda yuridik poydevor, huquqiy fanlar tizimining alifbosi tarzda namoyon bo'ladi. Chunki davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquq tushunchalarining paydo bo'lishini, ularning belgilarini, rivojlanish bosqichlarini, davlatchilikning asosiy talablarini, davlatchilik belgilari tarzda soliqlarni, soliqqa oid huquqiy tushunchalarning mohiyatini, soliqlarning davlat hayotidagi ahamiyatini ochib beradi, shuningdek turli davlatlarning soliq siyosati shakllanishi va o'ziga xosligi xususida ham ma'lumotlar beradi. Davlatning asosiy belgilaridan biri soliq tizimining mavjudligini, uning huquqiy asoslanishi va yuridik manbalarini, shuningdek o'ziga xos demokratik xususiyatlarini o'rganadi. Ma'lumki, davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqqa oid umumlashtirilgan nazariy – uslubiy bilimlar tizimini ifodalaydi. Davlat va huquq nazariyasi turli davlat va huquqiy tizimlarning paydo bo'lishi va bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlarini tahlil etish barobarida soliq tizimiga ham ahamiyat beriladi, boshqa huquqiy fanlar qatori soliq huquqi uchun ham umumnazariy tushuncha va qoidalarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Soliq huquqini o'rganishda bevosita *konstitutsiyaviy huquq* fani ham beqiyos bo'lib, soliq munosabatlarini tartibga solishda har bir davlatning asosiy qonunchilik hujjati ya'ni Konstitutsiyasi muhim o'rin tutishi bilan izohlanadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining ham davlat soliq siyosatining huquqiy asoslari bevosita konstitutsiyaviy normalarda ifodalangan bo'lib, uning har bir qoidasi soliq huquqiy munosabatlarida ham birlamchi ahamiyat kasb etadi. Bevosita soliq tushunchasi bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi konstitutsiyaviy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

qator moddalarida¹ ifodalanishi soliq huquqi fanning konstitutsiyaviy huquq bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ifodalaydi. Jumladan, «Fuqarolarning burchlari» deb nomlangan IX bobning 51-moddasida soliqlar va mahalliy yig'implarni barcha fuqarolar to'lashga majburligi belgilangan bo'lsa, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi» XVIII bobining 78-moddasi to'qqizinchi bandida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar joriy etish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikda amalga oshiradigan vakolatlaridan ekanligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasi qoidalarida mahalliy soliqlar bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari belgilangan bo'lsa, 123-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli ekanligi ko'rsatilgan. Mazkur konstitutsiyaviy tamoyil va qoidalar bugungi kunda davlat soliq siyosatining hamda soliq sohasidagi huquqiy islohotlarning poydevori sifatida o'z ifodasini topgan va konstitutsiyaviy huquq normalari bilan uyg'unlashgan holda o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi.

Davlat soliq xizmati idoralari bevosita ijroiya faoliyatini amalga oshirishi ma'muriy vakolatli davlat organlari bo'lganligi bois, soliq munosabatlari ma'muriy munosabatlar tizimiga xosligi kabi jihatlari bilan *ma'muriy huquq* normalari bilan ham chambarchas bog'langandir. Soliq huquqi asoslarining ma'muriy huquq bilan o'zaro aloqasi ijroiya hokimiyat organlari sifatida soliq huquqi me'yorlari va huquqni qo'llovchi davlat soliq xizmati organlari ko'rinishida amalga oshiriladigan davlat boshqaruvi sohasida jamiyatdagi soliq munosabatlarni tartibga solishda ifodalanadi. Bundan tashqari, har ikkala sohada huquqiy tartibga solishning bir xil usullari davlat organlari, hukumat ko'rsatmalaridan foydalaniladi. Amaldagi soliq qonun hujjatlarini tegishli tarzda bajarmaganlik yoki sodir etgan soliq huquqbuzarliklar nisbatan ma'muriy jazo choralarining qo'llanilishi mumkinligi soliq huquqi fanining ma'muriy huquq bilan uzviy aloqasini ko'rsatib beradi.

Soliq huquqi asoslari *fuqarolik huquqi va protsessi* bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi. Masalan, soliq huquqida ayrim sivilistik institutlar birlashtirilgan bo'lishi mumkin, ammo tegishli ko'rsatmalar va yechimlar

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-T.; O'zbekiston, 2009-v.

fuqarolar huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Ma'lumki, fuqarolar huquqining predmeti mulkiy (unga tovar-pul munosabatlari ham kiradi) va mulkiy xarakterga ega bo'lmagan shaxsiy munosabatlar bo'lishi mumkin. Bevosita fuqarolik huquqiga doir qonun hujjatlarida¹, bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy bo'ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlarga, shu jumladan, soliq, moliyaviy va boshqa ma'muriy munosabatlarga nisbatan fuqarolik hujjatlari qo'llanilmaydi, deya belgilangan. Lekin soliq munosabatlari bo'yicha da'vo talablari va shartlari, oddiy shirkat shartnomasiga oid talablar, soliq to'lovchilar majburiyatlari, majburiyatlarining xususiyatlari, soliq qarzlari va ularning sud orqali undirishga doir munosabatlar, soliq nizolarining xo'jalik sudlarida ko'rilishiga doir o'ziga xos xususiyatlar, soliq to'lovchilarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarning sudlar tomonidan qo'llanilishi, tadbirkorlik subyektlariga soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zarar va uni undirish masalalari bevosita fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessual huquqi qoidalari asosida hal etiladi. Mazkur jihatlar soliq huquqining fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessi, xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi fanlari bilan uzviy aloqadorlikda o'rganilishi lozimligini ifodalaydi.

Soliq huquqbuzarligini oldini olish, soliq huquqbuzarliklariga nisbatan yuridik javobgarlikka tortish masalalari, soliq to'lashdan bo'yin tovlash shu kabi qator huquqbuzarliklar soliq huquqi fanining *jinoyat huquqi* bilan ham o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Jinoyat huquqining me'yorlari qator soliq jinoyatlarini tasniflashda boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat va soliq huquqining me'yorlari ayrim hollarda ayni bitta obyekt (davlat budjeti, uning ijrosini qonuniy yuritilishini) himoya qiladi, bunda soliq jinoyatlari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish va yuridik javobgarlikni to'g'ri kvalifikatsiya qilish jinoyat huquqining tegishli vazifalaridandir.

Shuningdek, soliq huquqi fani boshqa noyuridik ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan ham shu jumladan, tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, iqtisod, buxgalteriya hisobi asoslari, moliya kabi qator fanlar bilan ham aloqada rivojlanib soliqqa oid tegishli o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, soliq huquqi fani yuridik fanlar tizimda rivojlanib borayotgan huquqiy fan sohasi sifatida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda va mamlakat soliq boshqaruv tizimida

¹O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat., 2007-y. 6-b.

hamda iqtisodiy munosabatlarini huquqiy tartibga solishda muhim o'ringa ega bo'lmoqda. Soliq huquqiga oid bilimlarni mukammal o'rganish davlat iqtisodiy boshqaruvi samarali rivojlanishini ta'minlashda, jamiyatda aholining huquqiy ongi va soliq munosabatlari ishtirokidagi madaniyati yuksalishida, soliq sohasidagi ijtimoiy masalalarni hal etishda hamda qonun ustuvorligini ta'minlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. «Soliq huquqi» o'quv fanining predmeti va obyektini tushuntiring.

2. «Soliq huquqi» o'quv fanining tizimini sharhlang va ular nimalardan iborat?

3. O'quv fanini o'rganilishida o'ziga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

4. «Soliq huquqi» o'quv fanining maqsadi hamda vazifalarini tushuntirib bering.

5. «Soliq huquqi» fanining konstitutsiyaviy huquq, moliya huquqi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi kabilar bilan aloqadorligini izohlang.

6. «Soliq huquqi», «soliq qonunchiligi asoslari», «soliq huquqi asoslari» kabi tushunchalarini sharhlang.

7. «Soliq huquqi» o'quv fanining noyuridik ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligida rivojlanishiga misollar keltiring.

II bob. SOLIQ HUQUQI MANBALARI VA PRINSIPLARI, ULARNING UMUMIY TAVSIFI

2.1. Soliq huquqi fanining yuridik manbalari tushunchasi va turlari.

2.2. Soliq huquqi fanining prinsiplari va soliq qonun hujjatlarining prinsiplari.

2.3. O'zbekiston Respublikasida soliq qonun hujjatlarining vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi.

Tayanch so'z va iboralar

Soliq huquqining yuridik manbalari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Soliq huquqi prinsiplari tushunchasi, turlari. Soliq huquqining umumnazariy prinsiplari. Qonuniylik, insonparvarlik va demokratizm prinsiplari. Soliq huquqining maxsus prinsiplari. Soliqqatortish munosabatlarida oshkoralik, aniqlik, majburiylik prinsiplari. Soliq to'lovchilarning haqligi prezumpsiyasi. Soliq qonun hujjatlarining vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi.

2.1. Soliq huquqi fanining yuridik manbalari tushunchasi va turlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach soliq tizimidagi huquqiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirib bormoqda va bu samarali faoliyat soliq sohasidagi milliy qonunchiligimizdagi huquqiy bazasini yanada mustahkamlashga va takomillashtirib borishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida soliq munosabatlari bir qator huquqiy manbalar asosida tartibga solinib, ularni ilmiy-nazariy jihatdan keng o'rganish, mazmun-mohiyatini tushuntirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda yuridik manbalarga og'ishmay rioya etish lozimligini ifodalash soliq huquq fanining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Soliq huquqi fanining manbalari deganda, soliq munosabatlarini o'rganishga xizmat qiluvchi umumnazariy qoidalar, tushunchalar,

Soliqqa oid ilmiy tadqiqot ishlari, yuridik manbalar va boshqa soliq sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi bilimlar majmuyiga aytiladi.

Soliq huquqi fanining manbalari ushbu fan haqida kengroq tushunchalarga ega bo'lish, soliq qonunchiligi va soliq munosabatlarining mazmun-mohiyatini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etib, u bilan soliqqa doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik manbalarni farqlash lozim.

Yuridik fan sohasi sifatida soliq huquqi fanining manbalariga soliq munosabatlarini tartibga solishni o'rganuvchi ilmiy nazariy qarashlar, soliqqa oid ilmiy asarlar, qonunchilik hujjatlari va ularning sharhlari, soliq va sud amaliyoti materiallari, soliq xodimlarining kasbiy odob qoidalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar soliqqa doir samarali tajriba amaliyoti va qonunchilik manbalari kabilarni keltirish mumkin.

Soliqqa doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik manbalarga esa faqatgina davlatning vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan yoki ma'qullangan soliq munosabati subyektlari uchun umummajburiy xarakterga ega bo'lgan barcha normativ me'yoriy hujjatlar majmuyi tushuniladi. Boshqacha aytganda, soliqqa doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy manbalar davlatning vakolatli organi tomonidan qabul qilingan barcha soliq huquqiy munosabat subyektlari uchun majburiy bo'lgan, soliq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi, amaldagi konstitutsiyaviy me'yorlarga zid kelmaydigan qoidalar majmuyi bo'lishi mumkin.

Soliq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik manbalarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular huquqiy bazaga ega bo'ladi, soliqqa oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi, hamma uchun majburiy, bajarilish lozirligi belgilangan, davlat vakolatli organlari tomonidan qo'riqlanadigan hamda bajarilishi ta'minlanadigan qonunchilik hujjatlari majmuyidir.

Soliq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladigan, soliq huquqining huquqiy manbalari yuridik kuchiga ko'ra tasniflashni 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni asosida belgilash mumkin. Mazkur Qonunning 5-moddasiga ko'ra, normativ me'yoriy hujjatlar quyidagilardan iborat:

a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

- b) O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- d) Oliy Majlis palatalarining qarorlari;
- e) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- f) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- g) vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;
- h) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Mazkur qonunning 6-moddasi qoidalariga asosan, normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlari hisoblanadi va ular O'zbekiston Respublikasining *qonun hujjatlari majmuyini* tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, kodekslar, konstitutsiyaviy qonunlar, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari **qonunlar hujjatlari** hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyish va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari **qonun osti hujjatlari** hisoblanadi.

Soliq sohasidagi qonun hujjatlari turkumida konstitutsiyaviy normalar birlamchi ahamiyatga ega bo'lib, barcha qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari asosida shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – soliq huquqi fanining hamda soliqqa oid huquqiy munosabatlarning asosiy, birlamchi yuridik manbaya bo'lib, jamiyatni demokratlashtirish va Yangilash, mamlakatda davlat soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish, soliq sohasidagi islohotlarni yuridik asoslantirish va ularni amalga oshirishdagi o'rni beqiyosdir. Ma'lumki, milliy huquqiy tizimni tartibga solishda Konstitutsiyaning tutgan o'rni va roli birlamchi ahamiyatga egadir. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi barcha yuridik fanlarni rivojlantirish barobarida soliq sohasidagi huquqiy masalalarni tadqiq etishda ham muhim o'rin tutadi. Konstitutsiya faqatgina yuridik fan nazariyasini boyitibgina qolmay, balki huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda ham salmoqli o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, mamlakatni jadal rivojlantirish borasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishda fanni va ilmiy infrastrukturani rivojlantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega¹. Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining haqiqiy mustaqil davlat maqomiga ega ekanligiga qonuniy asos soldi,

¹Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida .T.6 – T.: O'zbekiston. 1998. 212-b.

uning tegishli normalarida jamiyatning tuzilishida va davlat qurilishida fuqarolarning huquq va erkinlikka erishishida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar o'z aksini topdi va mustahkamlandi. Shu bilan birga, Konstitutsiya mamlakatimizda qonunchilik faoliyatini rivojlantirish va bu sohada erkin ijod qilish uchun imkoniyat yaratib berdi¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov ta'kidlaganidek, «...biz mamlakatimizda huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini eng oliy va ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirish borasida o'tgan davr mobaynida qonunchilik sohasida va amaliy siyosatimizda qanday natija va yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsak, ularning barchasi Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan talab va tamoyillar bilan uzviy bog'liqdir»².

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yuridik fanlarni, shu jumladan, soliq huquqini ham rivojlantirishning ustuvor va asosiy manbayidir. Konstitutsiya demokratik jamiyat va fan taraqqiyoti uchun sizmat qiladi. Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy va ustuvor huquq manbayi bo'lganligi sababli yuridik fanlarni shu jumladan, soliq huquqini Konstitutsiyaviy normalar, qoida va prinsiplari asosida rivojlantirish istiqbolli vazifa bo'lib hisoblanadi.

Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosat bilan uzviy bog'liqdir. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan bu yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish davlat suverenitetining eng muhim atributlarining mohiyatini tizimli tahlil etish, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayi ekanligi, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidan amalga oshirilishi, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlar oliy qadriyat ekanligi,

¹ Rahmonqulov X. Yuridik fanlarni rivojlantirishning istiqbollari // Yuridik fanlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari / Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Mas'ul muharrir: F.H Otaxonov.-T.: TDYUI nashriyoti 2006. 57-b

² Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamizdir / Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi – 2006. 8-dekabr.

demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi, shuningdek, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat vaqonuniylik prinsiplari asosida tashkil etishi soliq qonun hujjatlarini ishlab chiqishda ham muhim huquqiy qoidalar bo'lib hisoblanadi¹.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bugungi kunda davlat soliq siyosatining ustuvor tamoyillarini belgilab beruvchi va yo'naltiruvchi hamda tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbadir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majbur ekanligi va fuqaroviy burch sifatida belgilab qo'yilishi (51-modda), O'zbekiston Respublikasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy etish vakolati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolati sifatida ko'rsatilganligi (78-moddaning 9-bandi) hamda O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi, mahalliy soliq va yig'implarni amalga oshirishda mahalliy davlat organlarining ko'maklashishi (100-modda), soliqlar joriy qilishiga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi vakolatli ekanligi (123-modda) konstitutsiyaviy normalarda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, davlat organlari xalq manfaatini ko'zlab faoliyat yuritishi, teng huquqlilik, mulkdor bo'lish va uni himoyalash, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini hurmat qilish kabi qator konstitutsiyaviy normalar mazmuni ham soliq huquqiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy manba vazifasini bajaradi. Mazkur Konstitutsiyaviy me'yorlar amaldagi yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qoidalarida hamda soliq huquqiy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan boshqa qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatida ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri soliq sohasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohot jarayonlari bo'lib, ushbu islohotlar mamlakatimizni modernizatsiya qilish, jamiyatimizni yangilash, iqtisodiyotimizning jadal sur'atlar bilan o'sishi va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, bu

¹Ro'zinazarov Sh. Huquqiy monitoring va xavfsizlik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. – T.: 2007. 6 – 7 b.

yo'nalishlarni amalga oshirishning asosiy sharti bo'lmish tadbirkorlik, kichik biznes harakatining izchil qadamlar bilan erkin rivojlanishiga kafolat beradigan siyosatning uzviy davomidir. Ayniqsa, bu borada davlat soliq sohasidagi islohotlarni yanada takomillashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur munosabatlarni tartibga solishda yuridik manbalardan biri O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi soliq huquqi va soliqqa oid munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov 2005-yilning 28-yanvarida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirishni nazarda tutadigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tayyorlash va tasdiqlash uchun kiritishlari zarurligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Ushbu vazifani samarali bajarish natijasida mamlakatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida soliq tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi tomonidan «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2007-yil 23-noyabrda qabul qilinib, 2007-yil 30-noyabrda Senatning o'n ikkinchi yalpi majlisida ma'qullandi hamda 2007-yil 26-dekabr kuni matbuotda e'lon qilinib, 2008-yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi.

Mamlakatimizda mustaqillikdan so'ng davlat iqtisodiyotining muhim va o'ziga xos Yangi ijro yo'nalishi bo'lgan soliq sohasida amaldagi qonun hujjatlarning rivojlanishini shartli ravishda bir necha bosqichlarga ajratib o'rganish mumkin.

Birinchi bosqich bu mamlakat mustaqilligining dastlabki yillaridan 1997-yilgacha bo'lgan davr bo'lib, ushbu muddat davomida soliq qonunchiligi hamda soliq ijro hokimiyati tizimi shakllandi va dastlabki huquqiy qonunchilik asoslari yaratildi. Soliq xizmati organlari tashkil etildi, soliq munosabatlarini tartibga soluvchi dastlabki qonunchilik hujjatlari yaratilib amalda tatbiq etildi. Davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi belgilandi. Shuningdek, soliq sohasidagi boshqaruvni

amalga oshiruvchi markazlashgan tashkiliy tuzilma Davlat soliq qo'mitasi tashkil etilib, uning vazifa va faoliyati yo'nalishlari belgilandi.

Ikkinchi bosqich bu 1997 – 2008 yillargacha bo'lgan davr bo'lib, bu muddat davomida soliq sohasidagi me'yoriy hujjatlar takomillashtirildi va huquqiy qonunchilik bazasi yaratildi. 1998-yilning 1-yanvaridan boshlab kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining qabul qilinishi (ushbu Soliq kodeksi 11 bo'lim, 41 bob, 135 moddadan iborat edi) ma'lum darajada ilgari amalda bo'lgan soliq solish jarayonini tartibga soluvchi me'yor va qoidalarni tizimlashtirish va o'sha davrda yagona qonunchilik bazasini yaratish imkonini berdi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan, soliq qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinib, doimiy tarzda Soliq kodeksiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib borildi. O'tgan yillar mobaynida ushbu normativ-huquqiy hujjatga kiritilgan ko'plab tuzatishlar soliq tizimining murakkablashuviga, uning normalarini bir xil talqin qilinmasligiga, soliq solish bazalarini hisoblab chiqarishning aniq me'yorlari aksariyat hollarda qonunosti hujjatlari (yo'riqnomalar) bilan tartibga solinishiga olib keldi. Shuningdek, ushbu davrlar mobaynida davlat soliq siyosatini amalga oshiruvchi tashkiliy tuzilmalar soliq idoralari faoliyati takomillashtirildi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlari muntazam yo'lga qo'yildi.

Uchinchi bosqich bu 2008-yildan keyingi yillar bo'lib bu davrda davlatning soliq siyosatida erkinlashtirish va unifikatsiyalash bilan bog'liq tadbirlar amalga oshirilmoqda. Soddalashtirilgan soliq tizimi takomillashtirilib, soliqlarning rag'batlantiruvchi xususiyatiga alohida e'tibor qaratildi, soliq to'lovchilarga qator soliq imtiyozlari berish orqali ularning daromadlari oshib borishiga va soliq to'lovchilarning soni ko'payishiga erishilmoqda.

Yangi tahrirda qabul qilingan Soliq kodeksi soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan prinsip va yondashuvlar asosida, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalangan holda amaliyotga tatbiq etilgan mamlakatda soliq solish masalalarini tartibga soluvchi barcha amaldagi me'yor va qoidalarni takomillashtirish hamda tizimlashtirish orqali ishlab chiqilishi natijasida to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi yagona hujjat maqomiga ega bo'ldi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra, umumiy va maxsus qismlarga ajratilgan bo'lib, 21 bo'lim, 64 bob hamda 392 ta moddadan iborat.

Mazkur Soliq kodeksining umumiy qismida birinchi bor soliq va boshqa majburiy to'lovlarga yuridik ta'rif berilib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish, nazorat-qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlarni tartibga solish, soliq to'lovchilarni huquqiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator yangi huquqiy qoidalar o'z ifodasini topdi. Shuningdek, soliq qonunchiligining umumiy prinsiplari bilan bir qatorda, «soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi» tamoyilining kiritilishi o'z navbatida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinishini ta'minlamoqda. Bu esa soliq to'lovchining huquqlarini himoya qilish doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qonunchilik hujjatining o'ziga xos jihatlari shundaki, uning umumiy qismida kodeksda qo'llaniladigan asosiy tushunchalarni belgilovchi maxsus modda kiritildi, soliq majburiyatini bajarishning umumiy qoidalari belgilandi, soliq qarzini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash tartibi joriy qilindi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish hamda qaytarib berishning aniq mexanizmlarini belgilovchi qoidalar o'z aksini topdi, soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralari qayta ko'rib chiqilib, huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi, soliq nazoratining shakllari va tartibiga oid qoidalar alohida bo'limda belgilandi, davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat berishni tartibga solib turuvchi alohida bobda belgilab qo'yildi.

Soliq kodeksining maxsus qismida soliq munosabatlarining asosiy mazmunini tashkil etuvchi obyektlar bilan bog'liq qoida belgilab qo'yilgan. Ushbu qismda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va ularning o'ziga xos jihatlari, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning o'ziga xos xususiyatlari, qo'shimcha qiymat solig'i, aksiz soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilardan olinadigan soliq va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlarini to'lash bilan bog'liq munosabatlari tartibga solindi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy tuzilmalarni rivojlantirish soliqlari, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqlar, ijtimoiy jamg'armalarga

to'lovlar, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar, davlat boji va bojxona to'lovlari, tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilgan va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im, soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartiblari maxsus qismda o'zining huquqiy ifodasini topdi. Shuningdek, amalda joriy etilgan yangi soliq solish tizimi soliq qonunchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibini belgiladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga oid muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi. Soliq tizimi islohot jarayonining tarkibiy qismi, uning ichki harakatlantiruvchi omili bo'lgani holda, iqtisodiy islohot maqsadlariga eng ko'p darajada muvofiq kelishi shart. Avvalo, soliq tizimi o'ziga xos vazifani — fiskal (xazinani to'ldirish), qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak. Soliqlar xazinani to'ldirish siyosatining asosiy unsuri bo'lib, davlat budjetining daromad qismi eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashi lozim. Soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bilan birgalikda yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyot tuzilishini o'zgartirishda, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi¹.

Soliq huquqi va soliq huquqiy munosabatlarining asosiy manbalari sifatida **qonunosti hujjatlari** ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyish va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari soliq qonun hujjatlarini ijrosini ta'minlashda, ularni amaliyotga joriy etishda muhim o'rin tutmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

¹ Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.T.3. –T.: «O'zbekiston». 1996. –B.321-325.

to'g'risida»gi, 2005-yil 24-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarlikni erkinlashtirish to'g'risida»gi Farmonlari, 2009-yil 26-yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida»gi 2010-yil 8-yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilda belgilab beriladigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi Qarorlarining qabul qilinishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori va boshqa qator qonunosti hujjatlari soliq munosabatlarini o'rganish va tartibga solishda muhim huquqiy manbalar hisoblanadi.

2.2. Soliq huquqi fani va soliq qonun hujjatlari prinsiplari

Prinsip deganda, (principiium lot. – asos, negiz so'zidan) ma'lum ijtimoiy munosabatlarning boshlang'ich asosi, rahbariy g'oyalari, yo'naltiruvchi va tartib soluvchi qoidalari tushuniladi.

Soliq huquqining prinsiplari deganda bevosita soliq munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy qoidalar va yo'naltiruvchi umumnazariy boshlang'ich mezonlar, asoslar, huquqiy qoidalar mazmunining majmuyi tushuniladi. Soliq huquqi nazariyasida soliq masalalarini huquqiy tartibga solish prinsiplari ifodalanish jihatidan turlicha yondashiladi. Mazkur masalalarni o'rganishda soliq huquqi prinsiplari bilan soliq qonun hujjatlari prinsiplarini farqlash lozim. Soliq huquqi, huquqning har qanday sohasi kabi, umumiy va sohaviy (maxsus) tamoyillarning o'ziga xos ifodalanishi bilan ajralib turadi.

Soliq huquqi prinsiplari huquqiy fan sohasi sifatidayuridik fanlarga taalluqli umumiy tamoyillar bilan birgalikda soliq munosabatlarida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Soliq huquqi prinsiplari boshqa huquq sohalaridan farqli o'laroq, soliq huquqi tartibga

solinadigan munosabatlarning o'ziga xosligi, asosiy subyektlar tengligi mavjud bo'lmashligi, tartibga solish metodi bo'yicha buyruq va farmoyish shakllidagi bilan ajralib turadi.

Soliq huquqi prinsiplari – bu inson va fuqarolarning asosiy huquqlarini amalga oshirish va rioya etishni kafolatlash maqsadlarini nazarda tutadigan, tartibga solinayotgan soliq munosabatlari ishtirokchilariga qaratilgan asosiy qoidalar majmuasidir. Yuridik fan nuqtayi-nazaridan soliq huquqining asosiy prinsiplarini qonuniylik, oshkoralik, insonparvarlik, soliqlarning majburiyligi, demokratizm kabilar tashkil etadi.

Soliq huquqi prinsiplari – bu soliq huquqining boshlang'ich rahbariy g'oyalari bo'lib, ijtimoiy huquqiy (qonuniylik, odillik, tenglik prinsiplari) va maxsus huquqiy (soliq solishning qonuniyligi, umumiyliigi, tengligi, soliqning iqtisodiy asoslanganligi, soliqlardagi noaniqliklar soliq to'lovchi foydasiga hal etilishi, soliq majburiyatlarining belgilanganligi, soliq tizimining yagonaligi) prinsiplardan tashkil topadi.

Soliq huquqida va qonunchiligida shunday tamoyillar mavjudki, ular fanni o'rganish va qonunlarni amaliyotga joriy etish nuqtayi nazaridan ham muhim o'rin tutadi. Masalan, qonuniylik tamoyili soliq sohasidagi barcha qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq ravishda chiqarilishini, davlat uning organlari va mansabdor shaxslari Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq harakat qilishlarini hamda soliq sohasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar faqat qonun doirasida tartibga solinishi lozimligini namoyon etadi.

Nazariy jihatdan soliq qonun hujjatlari prinsiplari bu soliq qonun hujjatlari uchun yagona huquqiy qoidalar bo'la oladigan, davlatning vakolatli organlaridan qabul qilingan va soliq huquqiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlari uchun rahbariy g'oyalar, qoidalar majmuasidir. Soliq qonunchiligi prinsiplari bevositasoliqqa tortish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Bugungi kunda xalqaro umume'tirof etilgan prinsiplarni milliy qonunchilikni o'rganishda tahlil etish va ularni implementatsiya qilish soliq qonunchiligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlarining prinsiplari yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 5–1-moddalarida o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlarining prinsiplari deganda – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish,

hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda mazkur munosabatlar subyektlari amal qiladigan asosiy qoidalar va tamoyillar majmuidir.

O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortish jarayonidagi munosabatlarni tartibga soluvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi. Soliq to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlarining qoidalari Soliq kodeksida belgilangan prinsiplargazid bo'lishi mumkin emas¹. Mazkur tamoyillar nafaqat soliq kodeksi, balki barcha soliq qonun hujjatlari uchun umumiy manba, huquqiy asos, poydevor vazifasini o'taydi. Chunki soliq sohasidagi biror me'yoriy hujjat yoki xatti-harakat, iqtisodiy-ijtimoiy munosabat mazkur prinsiplarga zid kelmasligi belgilangan. Quyida mazkur prinsiplarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

● **Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart.** Hech kimning zimmasiga Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emasligi xususidagi qoidalari Soliq kodeksining 6-moddasida o'z ifodasini topgan. Ushbu prinsip Soliq kodeksidan nazarda tutilmagan va belgilanmagan biror majburiy to'lovni talab qilishga hech kimning haqqi yo'qligini ifoda etadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoki boshqa biror tartibda belgilangan soliq va yig'implarni, shuningdek, boshqa to'lovlarni to'lash majburiyati hech kimning zimmasiga yuklatilishi mumkin emas.

Soliq va yig'implar to'g'risidagi qonunga nisbatan boshqa darajadagi me'yoriy hujjatga kelsak, agar bunday hujjat qonunga muvofiq shu turdagi hujjatlarni chiqarish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan chiqarilgan bo'lsa yoki belgilangan tartibni buzgan holda chiqarilgan bo'lsa u noqonuniy, asossiz deb topilishi lozim. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar joriy etish vakolati Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining umumiy birgalikdagi vakolatiga kiritilgan. Shu bois qonun hujjatlarida belgilanmagan tarzda

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: Adolat., 2010-y.

hech qaysi tashkilot, tuzilma yoki mansabdor shaxs soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar joriy etishga haqli emas.

● O'zbekiston Respublikasida soliq qonun-hujjatlarida ***soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi*** kerak. Soliq to'g'risidagi qonun-hujjatlarida har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq belgilangan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda soliq to'lovchilar, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi kerakligi Soliq kodeksining 7-moddasida ifodalangan. Mazkur tamoyilning belgilab qo'yilganligi soliq qonun-hujjatlarining tushunarli bo'lishini ta'minlash bilan birga, soliq to'lovchilarga qator afzalliklar tug'diradi, ularning huquqiy ongini va soliq sohasidagi bilimi, madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

● Soliq kodeksining 8-moddasida ***soliq solishning adolatliligi prinsipi*** haqida bayon etilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida soliq solish barcha uchun umumiyliги e'tirof etiladi va soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerakligi belgilangan. Shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmasligi hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilmasligi belgilangan. Ushbu prinsip ma'nosida mamlakatda soliq to'lovchilarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, millati, tili, dini va boshqa jihatlaridan qat'i nazar qonun oldida tengligining kafolatlab qo'yilganligini ko'rish mumkin.

● Soliq kodeksining 9-moddasiga muvofiq, soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona bo'lib, O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. ***Soliq tizimining yagonaligi tamoyili*** respublika iqtisodiyoti yagonaligiga asoslanadi va u soliq tizimi yagonaligidan kelib chiqadi. Davlat soliq tizimining yagonaligi uning barcha hududida soliqlarning aynan bir xil turlari amal qilishini anglatadi. Soliq tizimining yagonaligi tamoyili bevosita Konstitutsiyaviy tamoyillar tarzda ham namoyon bo'lib,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasi qoidalari asos qilib olingan. Ushbu tamoyilga ko'ra, yagona iqtisodiyot doirasida tovarlar, xizmatlar; moliyaviy mablag'larning erkin ko'chishini cheklashi mumkin bo'lgan mahalliy soliqlarning kiritilishiga yoxud bir hududning budjetini boshqa hududlarning soliq daromadlari hisobiga shakllantirishga imkon beradigan mahalliy soliqlarning kiritilishiga yoki soliqlarning to'lanishini boshqa hududlarning soliq to'lovchilariga ko'chirilishiga yo'l qo'yilmasligini ifodalaydi.

- Soliq kodeksining 10-moddasida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining **oshkoraligi prinsipi** belgilangan bo'lib unga ko'ra, soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Barchaning e'tibori uchun rasmiy e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas. Mazkur prinsipni nazariy jihatdan barcha turkumdagi qonunchilik hujjatlari uchun umume'tirof etiladigan bevosita umumiy prinsiplar qatoriga ham kiritish mumkin.

- Soliq kodeksining 11-moddasiga muvofiq, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinishi belgilanishi xususidagi qat'iy norma o'z ifodasini topgan. Bu prinsip soliq qonun hujjatlarida **soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi** sifatida e'tirof etilib, hozirda aksariyat rivojlangan davlatlar soliq qonunchiligi hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Aynan mana shu tamoyilni hisobga olgan holda MDHning qator mamlakatlari soliq haqidagi qonun hujjatlarida belgilangan ushbu prinsipial qoidani milliy qonunchiligiga kiritishmoqda, mazkur qoidaga muvofiq soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining barcha bartaraf etib bo'lmaydigan shubhali jihatlari, qarama-qarshiliklari va noaniqliklari soliq to'lovchilarning foydasiga hal qilinishini ifodalaydi. Shuningdek, soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi amaliyotda soliq munosabatlarida qonuniylik va adolat qaror topishi barobarida soliq qonun hujjatlarini muntazam takomillashib borishini, soliq qonun hujjatlarini mukammal tarzda ishlab chiqilishini ta'minlaydi va taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, Soliq kodeksida belgilangan prinsiplar

amaliyotda o'zining ijobiy jihatlarni ko'rsatayotganligini va mazkur tamoyillar mavjud soliq qonunchilik hujjatlarining takomillashib borishiga huquqiy poydevor vazifasini o'tayotganligini e'tirof etish lozim.

2.3. O'zbekiston Respublikasida soliq qonun hujjatlarining vaqt va hudud bo'yicha amal qilishi

O'zbekiston Respublikasining *soliq qonunchiligi hujjatlari* – soliq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan me'yoriy hujjatlari tizimidan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga oid normalar Soliq kodeksining 2-moddasida o'zining ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari Soliq kodeksidan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amaldagi Soliq kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar Soliq kodeksining qoidalariga muvofiq bo'lmagan taqdirda, amaldagi Soliq kodeksining normalari va qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasida soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjat quyidagi hollarda Soliq kodeksiga muvofiq emas deb topiladi, ya'ni agar hujjat:

- Soliq kodeksiga muvofiq bunday hujjatni qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa yoki normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa;

- soliq munosabatlari subyektlarining huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa, soliq munosabatlari subyektlarining Soliq kodeksida belgilangan majburiyatlarining mazmunini, ular harakatlarining asoslari, shartlari, ketma-ketligi yoki tartibini o'zgartirsa;

- Soliq kodeksi bilan taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa va Soliq kodeksida belgilangan tushunchalar mazmunini o'zgartirgan yoki bu tushunchalar Soliq kodeksida qo'llanilganidan boshqacha ma'noda qo'llanilgan bo'lsa. Yuqorida keltirilgan holatlardan loaqal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda, soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar Soliq kodeksiga muvofiq emas deb topiladi.

Soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ yoki uning yuqori turuvchi organlari mazkur hujjatni bekor qilishga yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishga haqli. Mazkur organlar Soliqlik kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishni yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishni rad etgan taqdirda, bu hujjat sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida soliq qonun hujjatlari va boshqa manbalarining ***vaqt bo'yicha amal qilishi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga*** ega bo'lib, bu jarayonlar rivojlangan davlatlar soliq qonunchiligi o'rganilishi va milliy qonunchilikdagi tajribadan kelib chiqib belgilandi. Mazkur munosabatlar Soliqlik kodeksining 3-moddasida ifoda etilib, ushbu moddada soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining vaqt bo'yicha amal qilishi bilan bog'liq qoidalar o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliqqa oid qonun hujjatlarining amalga kiritilishi vaqti qonun hujjatining bevosita o'zida ko'rsatiladi yoki uning rasmiy manbalarda e'lon qilinishi uning amalga joriy etilishini ifodalaydi. Jumladan, qonunchilik hujjatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari rasman «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi», «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining to'plami», «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetalarida e'lon qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalar «O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to'plami», «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining to'plami», «Xalq so'zi» va «Народное слово» gazetalarida hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralariining normativ-huquqiy hujjatlari e'lon qilinadigan rasmiy nashrlari «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining to'plami» hisoblanadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari mazkur organlarning rasmiy nashrlarida e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, agar hujjatlarning o'zida boshqa

muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasman e'lon qilinganidan so'ng o'n kundan keyin kuchga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilangan tartibda kuchga kiradi va ular e'lon qilinishi lozim.

Soliq sohasidagi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng o'n kundan keyin kuchga kiradi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida barcha manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazilishi lozim. Normativ-huquqiy hujjatni manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish normativ-huquqiy hujjat matni bilan moneliksiz (erkin) tanishish huquqini ta'minlovchi har qanday shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Amaldagi Soliqlik kodeksining qoidalariga ko'ra, davlatning vakolatli organlari tomonidan yangi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishini, imtiyozlar to'liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari ular rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida uch oy o'tgach amalga kiritiladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin e'lon qilinishi kerak va ular rasmiy e'lon qilingan oydan keyingi hisobot davrining birinchi kundan e'tiboran amalga kiritiladi. Shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida agar ularda kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ular rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n kun o'tgach, kuchga kiradi.

Soliq qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari quyidagi holatlarda orqaga qaytish kuchiga ham ega bo'lishi mumkin:

- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan normalar;
- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni yengillashtiradigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bekor qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini kamaytirish, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bekor qilishni yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtirishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, agar bu soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan bo'lsa ham orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkinligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining soliq qonun hujjatlarining *hudud bo'yicha amal qilishi deganda*, vakolatli davlat organi tomonidan chiqarilgan soliqqa oid me'yoriy hujjatlar davlat miqyosida amal qilish doirasini, chegarasini hududiylikining belgilanishi tushuniladi. Masalan, aksariyat qonun hujjatlari butun O'zbekiston Respublikasi hududi uchun bir xilda amal qiladi, lekin ayrim qonun hujjatlari ma'lum hudud yoki mintaqa uchun (Navoiy erkin iqtisodiy hududi doirasida) amal qilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi rivojlangan davlatlar soliq qonunchiliklari talab darajasida ishlab chiqilgan bo'lib, soliqlarning rag'batlantiruvchi roli orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga, aholining farovonligi va turmush darajasining yuksalib borishiga iqtisodiyotning muhim tayanchi bo'lgan tadbirkorlikning jadal sur'atlari bilan rivoj topib borishga hamda soliq tizimining muntazam takomillashib borishiga xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. «Soliq huquqi» fanining prinsiplarini tushuntiring.
2. Huquq sohasida umumiy va maxsus tamoyillar deganda nimani tushunasiz?
3. Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq huquqi prinsiplari o'rnini izohlang.
4. Soliq huquqi manbalari tushunchasi va ularga qo'yiladigan talablarni ayting.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – soliq huquqi manbayi sifatida ahamiyatini tushuntirib bering.
6. «Soliq to'lovchilarning haqligi prezumpsiyasi» prinsipining mohiyatini qanday izohlaysiz?
7. Soliq qonun hujjatlarining vaqt va hudud bo'yicha amal qilishidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

III bob. SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR TUSHUNCHASI, MOHIYATI HAMDA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

3.1. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning shakllanishi hamda rivojlanishi.

3.2. Soliqlar tushunchasi, uning funksiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari.

3.3. Majburiy to‘lovlar tushunchasi, turlari va ularning o‘ziga xos belgilari.

3.4. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati.

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushunchasi va yuridik ta‘rifi. Soliqlarning paydo bo‘lish tarixi. Dastlabki soliq to‘lovlari ko‘rinishlari. Soliqlarning belgilari. Soliqlarni joriy etishda davlat organlari ishtirokining ahamiyati. Umumdavlat soliqlari. Mahalliy soliqlar tushunchasi va ularning ahamiyati. Majburiy to‘lovlar tushunchasi. Majburiy to‘lovlar, yig‘im, boj va bojxona to‘lovi tushunchalari. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar.

3.1. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning shakllanishi hamda rivojlanishi

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning paydo bo‘lishi insoniyat tarixining uzoq o‘tmishiga borib taqaladi. Jamiyatda davlatchilik belgilarining paydo bo‘lishi hamda uni boshqarish va tartibga solib turish uchun ma‘lum bir iqtisodiy manbalarga ehtiyoj yuzaga keldi. Davlat paydo bo‘lishi bilan birga o‘z siyosiy hokimiyatini tutib turish maqsadida hamda boshqaruv mexanizmini iqtisodiy ta‘minlab turish

uchun umummajburiy to'lovlarini — soliqlarni joriy qildi. Darhaqiqat, soliqlar davlat tomonidan joriy etilar ekan, uning bajarilishini ta'minlashning choralari ko'radi va qonunchilik hujjatlari orqali huquqiy himoyalash mexanizmini amalga oshiradi.

Qadimgi davrlarda dastlab, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar jamiyatning salbiy elementi sifatida zulm, bosqinchilik va istilochilik natijasi sifatida baholashgan. Soliqlarni qullik belgisi sifatida qarashib istilo qilinib bosib olingan hududlar aholining nochor va kambag'al mehnatkashlari qullar sifatida olib ketilib, soliqlar va turli o'lpon va to'lovlar obyekt sifatida munosabatda bo'lishgan. Keyinchalik jamiyat rivojlana borib soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar qullik belgisi emas, soliq to'lovchilar uchun ozodlik belgisi bo'lib qoldi. Adam Smitning soliqlar ozodlik ramzi sifatida xulosaga kelishiga demokratik huquqiy davlatlarda soliq to'lashning oshkora va qonuniy tartibi joriy etilayotganligi, xususi mulk huquqlariga keng imkoniyatlar berilganligi natijasida soliq to'lovchilar mustaqil xo'jalik faoliyatini erkin amalga oshirilishi va davlat tomonidan ularning muhofaza qilina borishi bilan izohlaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar davlat paydo bo'lishi bilan shakllanib, uni boshqaruv va tartibga solib turish uchun resurslar talab qilishi natijasida yuzaga kelgan. Jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning zaruriy tayanchi sifatida soliqlar (majburiyatlar) davlat siyosiy hokimiyati tomonidan o'rnatildi.

Soliqlarning davlat hokimiyatini ta'minlashning moliyaviy vositasi, iqtisodiyot va ijtimoiy ehtiyojlarini tartibga solish mexanizmi sifatidagi roli tovar-pul munosabatlarining rivojlanishini kuchaytirdi. Turli xil soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar davlatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishning asosiy bo'g'iniga aylandi.

Soliqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida ularning shakllari va tizimi o'zgarib, takomillashib kelmoqda. Hozirgi vaqtda soliqlar asosan pul shaklida undirilayotgan bo'lsa, qadim zamonlarda turlicha ko'rinishlarda, jumladan, natura shaklda, mehnat shaklda undirilgan. Bugungi kunga kelib jamiyatda tovar-pul munosabatlari rivojlangan sari iqtisodiy taraqqiyotga mos ravishda pul shakldagi soliq to'lovlari ham rivojlanib bormoqda. Soliqlarning paydo bo'lishi, rivojlanishini tarixiy nuqtayi nazardan bir necha bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqichda soliqlar dastlabki shakllanishini o'ziga xos

tomonlari ularning tartibsizligi, huquqiy asoslanmaganligi, asosan natura, mehnat tarzda ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Soliqlarning joriy etilishi jamiyatda davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning amal qilinishida davlat apparatining shakllanishi, hokimiyat tizimi, sud va armiyaning moliyaviy manbalar bilan ta‘minlanish zarurati, tovar ishlab chiqarilishining yo‘lga qo‘yilishi asosiy omillardan bo‘ldi. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, soliq tizimiga xos ilk munosabatlar Rim davlati shakllangan va imperator Oktavian Avgustin davrida soliq islohotlari amalga oshirilib, soliqlarning dastlabki pul ko‘rinishida undirish joriy etildi.

Bu davrlar Markaziy Osiyo hududida ham soliq munosabatlari dastlabki ko‘rinishlari mintaqadagi davlatlarning vujudga kelishi bilan bog‘liq. Baqtriya, Xorazm, keyinchalik, Kushon podsholigi davrida soliq masalalari shakllandi va arab istilosidan so‘ng soliqqa tortish tizimi bir muncha murakkablashib, turli soliq turlari xiroj – yer solig‘i, zakot – mol-mulk solig‘i, juz‘ya – jon solig‘i kabilar vujudga keldi va amalga kiritildi.

Markaziy Osiyo mintaqasi IX – XVI asrlarda har sohada keng rivoj topib, savdo, madaniyat, ishlab chiqarish, qurilish, fan va ta‘lim kabi jamiki yo‘nalishlar har jihatdan gullab yashnadi. Ushbu davrda soliq siyosati yuritilishida ham o‘ziga xos demokrik qarashlar shakllanib, bu ayniqsa, Amir Temur hukmronligi davrida nihoyatda samarali bo‘ldi. Amir Temur yuritgan soliq siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy omillaridan biri bu soliq islohotlari o‘z davrining yetuk mutaxassislari bilan kengashib tashkil etilganligi, har bir masalalarda qonun ustuvorligiga qat‘iy rioya etilishi bilan izohlash mumkin. Bu davrga taalluqli soliq munosabatlari tartibga solingan normativ hujjatlar, qonun darajasidagi qoidalar Markaziy Osiyoda ancha ilgari vujudga kelib, qator manbalarda saqlanib qolgan. Jumladan, «Temur tuzuklari»da soliqlarni hisoblab chiqish va undirilishini nazorat qilinishida ham adolat tamoyiliga amal qilib, soliqlar yerlarning unumdorligi va tegishli ravishda belgilangan baholariga muvofiq bo‘lishligiga aihoda e‘tibor qilinganligi, tuzuklarning naqadar insonparvar ekanligi, ijtimoiy adolat prinsipining amaldagi yaqqol ifodasini ko‘rish mumkin. Amir Temur yuritgan soliq siyosati bugungi zamonaviy soliq amaliyoti uchun ham yetarlicha ilmiy-amaliy manba bo‘la olishi mumkin.

Ikkinchi bosqich XVIII asr boshlarida yuzaga kelib, bu davrdan

soliqlar davlat budjetining asosiy manbayiga aylana boshladi. Soliq obyektlari, soliqqa tortish qonun qoidalari, to'g'ri va egri soliqlar tushunchalari vujudga keldi. Bu davrlarda Yevropada soliq munosabatlari ifoda etilgan dastlabki qonun hujjatlari paydo bo'ldi. Markaziy Osiyoda bu davrlardan boshlab soliq siyosati biroz sustlashdi, buni jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi turli siyosiy parokandalik holatlari bilan izohlash mumkin.

Uchinchi bosqich bu shartli ravishda birinchi jahon urushidan keyingi yillar deya belgilanib, bu yillar mobaynida soliq masalalari bilan bog'liq ilmiy nazariyalar yaratildi, moliya va soliq munosabatlarining dolzarb muammolari va ularning bartaraf etish bo'yicha qator ilmiy qarashlar va uning maktablariga asos solindi. Mazkur ilmiy izlanishlar samarasi o'laroq soliqlar bilan bog'liq deyarli barcha iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy masalalar asta-sekin yechimini topib bormoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlarida soliq munosabatlari ularning mustaqilligidan keyingi yillarda keskin o'zgarishlar, rivojlanish va takomillashuv jarayonlari tezlashdi, desak xato bo'lmaydi. Bugungi kunda mintaqa davlatlari soliq munosabatlarida qonun hujjatlarini erkinlashtirish va to'lov tartibini soddalashtirish, soliq tizimini liberallashtirish va unifikatsiyalash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

3.2. Soliqlar tushunchasi, uning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari

Soliqlar davlat daromadlarining manbayi sifatida muhim o'rin tutib, davlatning asosiy belgilaridan va ajralmas elementlaridan hisoblanadi. Soliqlar davlat bilan soliq to'lovchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarini tartibga solishga yo'naltirilgan, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarining doirasini belgilab beradi.

Soliqlar – bu davlat budjeti daromadlarini vujudga keltiruvchi, davlatning belgilangan funksiyalarini amalga oshirish maqsadida davlat vakolatli organlari tomonidan majburiy undiriladigan to'lovdur. Soliqning me'yoriy ta'rifi bugungi kunda turlicha talqin etilib kelinayotgan bo'lsa-da, ushbu holat soliq huquqi asoslarini nazariy jihatdan kengroq o'rganish va turlicha yondashuvlarni ilmiy o'rganishga zamin yaratadi.

Soliq – davlat hokimiyati subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklari, daromadlaridan undiriladigan, majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida tavsiflanadigan qonunda belgilangan majburiy to'lov turidir.

Soliq tushunchasining mazmun-mohiyati uning o'ziga xos xususiyatlarida yorqin namoyon bo'ladi. Bugungi kunda soliqlarni joriy qilish xorijiy davlatlar tajribasida turlicha bo'lib, buning asosiy sababi soliqlarning shakllanishi milliy xususiyatlari va tarixiy jihatlari muhim ahamiyatga ega.

1. Soliqlarni belgilash huquqi aksariyat mamlakatlarning tajribasida davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi – parlamentga beriladi. Mazkur xususiyat bevosita O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga ham tegishli bo'lib, soliqlarni joriy etish vakolati bevosita Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasi birgalikda amalga oshiradigan vazifalari turkumiga kiradi.

2. Soliqlarni barcha mulkdorlar, soliq to'lovchi subyektlar, jismoniy va yuridik shaxslar to'laydi. ya'ni mol-mulkka, mulkiy daromadga ega bo'lgan shaxslar soliq majburiyatlarini amalga oshiradilar.

3. Soliqlar jismoniy va yuridik shaxslar daromadlarining hamda mulklarining ma'lum qismini davlat budjetiga o'tkazishning birdan-bir qonuniy usuli hisoblanadi.

4. Soliq davlat budjetiga daromad olish uchun belgilanadi va o'z navbatida davlat budjeti xalq farovonligi va tinchligini ta'minlash uchun yo'naltiriladi.

5. Soliq to'lash barcha soliq to'lovchi subyektlar uchun umummajburiy bo'lib, qaytarilmaslik va bir tomonlama belgilanish xususiyatlariga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, soliqlarning miqdorlarini turli yo'llar bilan oshira borish davlatga va jamiyatga naf keltirmasligini ham anglab olishimiz kerak. Soliqlar daromadlarning bir qismigagina solinishi ayni vaqtda xalq xo'jaligi va aholiga kerakli mahsulot hamda mollarni ko'proq va yaxshiroq ishlab chiqarishga intilayotgan tashkilotlarni va kishilarni har jihatdan rag'batlantirishi ham lozim¹.

Soliq tushunchasi, mazmun-mohiyatini kengroq yoritish uchun,

¹ Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat. mafkura. T. 1. – T.: O'zbekiston, 1996. 120-b.

avvalo, soliqlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlarini batafsil o'rganishni talab etadi. Binobarin, soliq tushunchasi haqida turlicha fikr va qarashlar, huquqiy ta'riflar va qoidalar bildirilgan bo'lsada, uning yagona huquqiy ta'rifi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ifodalanmagan edi. Soliq tushunchasining yuridik ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 12-moddasida belgilanib, mazkur ta'rif soliq qonunchiligi hujjatlarida birinchi bor o'zining ifodasini topdi. Unga ko'ra, «*Soliqlar deganda ushbu Kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi*»¹.

Soliqlarning huquqiy ta'rifida anglashiladiki, soliqlarning boshqa ijtimoiy to'lovlar farqi o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- *birinchidan*, soliqlarning qonun hujjatlarida belgilab qo'yilganligi, ya'ni soliqlar qonun hujjatlarida ifodalanadi;

- *ikkinchidan*, soliqlar hamma vaqt davlatning ma'lum vakolatli organlari tomonidan joriy etiladi va bu ko'pgina davlatlarda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi;

- *uchinchidan*, soliqlar muayyan miqdorda belgilab qo'yiladi;

- *to'rtinchidan*, soliqlarning doimiy mavjudligi, ya'ni muntazamligi (davlat mavjud ekan hamma vaqt davlat mexanizmini harakatlanishini ta'minlovchi soliqlar mavjud bo'lgan);

- *beshinchidan*, soliqlarning qaytarib berilmasligi xususiyati;

- *oltinchidan*, soliqlarning beg'araz xususiyatga ega ekanligi bo'lib, uni to'lagan shaxslar muayyan talablar qo'ymasligi va davlatning asosan budjetidan ta'minlanadigan aholining barcha sohalaridagi ijtimoiy himoyasiga yo'naltirilganligidir;

- *yettinchidan*, soliqlar asosan pul to'lovlari shaklida amalga oshirilishi bilan ham o'ziga xos xususiyat sifatida ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasida soliqlarning budjetga yo'naltirilishiga ko'ra umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlarga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlariga quyidagi soliqlar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

¹O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: Adolat. 2010

- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Shuningdek, Soliq kodeksining 23-moddasida mahalliy soliqlar ham belgilangan bo'lib, unga ko'ra mahalliy soliqlar quyidagilardan iborat:

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida soliqlarni quyida keltirilgan xususiyatlariga ko'ra turlarga tasniflash mumkin:

1) soliq to'lovchilarga qarab:

- a) yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar (masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, daromad (foyda) solig'i);
- b) jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar (masalan, daromad solig'i);

2) soliq solish shakliga ko'ra:

- a) to'g'ridan-to'g'ri undiriladigan soliqlar (masalan, daromad solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i);
- b) egri soliqlar (masalan, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i);

3) soliqlarning hududiyiligiga ko'ra:

- a) umumdavlat soliqlari;
- b) mahalliy soliqlar;

4) soliqlarning kelib tushish manbasiga ko'ra:

- a) davlat budjetiga o'tkaziladigan davlat soliqlari;
- b) mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan mahalliy soliqlar.

Soliq funksiyalari bu soliqlarning harakati samarasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy tadbirlar majmuyi bajarilishi lozim bo'lgan uning xususiyatlarni ifodalash usullaridir. Soliq funksiyasi jamiyatdagi iqtisodiy, moliyaviy munosabatlarni tartibga solib, soliq to'lovchi subyektlarga va jamiyat taraqqiyotiga ma'lum imkoniyatlar yaratadi.

Soliq funksiyasi (lot.bajarish, majburiyat, vazifa) deyilganda soliqlar mohiyatining harakatda namoyon bo'lishini ifodalash usulidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar ijtimoiy funksiyalarining

ahamiyati oshib, iqtisodiy tartibga soluvchi vositalar sifatida yuzaga keladi. Soliqlar davlatning iqtisodiy faolligini tartibga solish, takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Soliq tizimida ularning funksiyalarini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- soliq hisobining xazinaga oid (fiskal) funksiyasi;
- nazorat qilish funksiyasi;
- rag'batlantirish funksiyasi;
- qayta taqsimlash funksiyasi;
- soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

Mazkur funsiyalardan shunday xulosa qilish mumkinki, jamiyatda soliq munosabatlarining samarali tartibga solinishi iqtisodiy taraqqiyot uchun xizmat qiladi. Soliqlarning undirilishi shaxs, jamiyat va davlat farovonligini ta'minlashi bilan birga uning ertangi kelajagini ham har jihatdan barqaror rivoj topishiga ko'maklashadi.

3.3. Majburiy to'lovlar tushunchasi, turlari va ularning o'ziga xos belgilari

Jamiyatda fuqarolik huquqiy munosabatlar, demokratik jarayonlar rivojlanib borar ekan, davlat budjeti ijtimoiy hayotini harakatlantiruvchi mexanizm va iqtisodiy tayanch sifatida takomillashib boradi.

Soliq tushunchasidan tashqari Soliq kodeksida boshqa majburiy to'lov tushunchasi ham belgilangan bo'lib, bunga majburiy yig'imglar, boj va boshqa to'lovlar kiradi. Soliqlar to'g'risidagi ta'rifga ko'ra, soliqlar belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi. Yuqorida keltirilgan ta'rifda soliqni yig'imglar va bojlardan ajratish imkonini beruvchi muayyan belgilar mavjud.

Soliq huquqi asoslarini o'rganishda davlat majburiy to'lovlari qatoriga davlat bojlari, bojxona to'lovlari, yig'imglar kabilar kiradi. Soliqlar to'lovchining faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadiga ega bo'lgan boshqa turli to'lovlardan farq qiladi. Shunday qilib, turli majburiy to'lovlar moliyaviy maqsadga ega emas, ular so'zning asl ma'no-mazmunidan anglatib soliqlar bo'la olmaydi. Lekin amaliyotda

qaytarilmaslik va beg'arazlik kabi soliqqa xos bo'lgan xususiyatlar asosida undirib olinadigan majburiy to'lovlar ham mavjud. Masalan, sudning hukmi va qarori bo'yicha uchinchi shaxslar yoki davlat foydasiga undirib olinadigan jarimalar, xorijiy davlat chegaralaridan mahsulotlar olib kelganlik uchun bojxona to'lovlari va boshqalar.

Ma'lumki, soliqlar ijtimoiy hokimiyat subyektlari davlat hokimiyati yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari foydasiga kelib tushadi. Bu bilan ular xuddi o'sha shartlar bilan undirib olinadigan, lekin markaziy yoki mahalliy davlat organlari bo'lmagan, ommaviy yoki xususiy huquqqa ega bo'lgan yuridik shaxslar foydasiga iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarda belgilangan to'lovlardan farq qiladi. Ushbu to'lovlar, masalan, turli texnik, kasb-hunar va ijtimoiy tashkilotlar foydasiga undirib olinadi. Ular maqsadli tushumlar xususiyatiga ega bo'lib, budget tushumlarida hisobga olinmaydi, bunda ular majbur qilish asosida undirib olinadi, shu sababli ularni belgilash, soliq yukini tartibga solish kabilar faqat qonunchilik yo'li bilan amalga oshiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, undirib olish va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilovchi soliq huquqining me'yorlari bir qator o'ziga xos o'xshashlik xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning bir tomonlama – hukmronlik xususiyati;

2) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning imperativ asosning ustunligi xususiyati;

3) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida ijro etilmasligi to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy va moliyaviy sanksiyalarini, ba'zi vaziyatlarda jinoiy ta'sir choralari ham nazarda tutadi.

Turli majburiy yig'im yoki boj to'lovlari to'lanayotganida hamma vaqt biror bir maxsus maqsad yoki alohida manfaatlar mavjudligi bilan izohlanadi. Soliq kodeksining 12-moddasi 2-qismida boshqa majburiy to'lovlar tushunchasiga batafsil yuridik ta'rif berilgan.

Unga ko'ra, ***boshqa majburiy to'lovlar deganda***, Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan, muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun

to'lanishi lozim bo'lgan yig'imler, davlat boji kabilar tushuniladi.

Ularning yanada mukammalroq ro'yxati Soliq kodeksining 23-moddasida boshqa majburiy to'lovlar sifatida belgilangan. Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi.

1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:

• yagona ijtimoiy to'lov;

• fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

• budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:

• Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

• Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imler;

3. Davlat boji.

4. Bojxona to'lovlari.

5. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Bojlar, bojxona to'lovlari va yig'imler soliqlarga qator o'xshash va farqli jihatlari mavjud bo'lib ularning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

*Birinchi*dan, boj va yig'imler qonun hujjatlari asosida belgilanib, davlat ijtimoiy funksiyalarini ta'minlashga yo'naltiriladi. Bojxona to'lovlari alohida Bojxona kodeksi va bojxonaga doir munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ularning barchasini belgilangan davlatning vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

*Ikkinchi*dan, bojlar va yig'imler odatda yakka tartibda to'lanadigan to'lovlar hisoblanib ularni undirishdan maqsad davlat va mahalliy organlari hamda muassasalari xarajatlarini qoplashdan iborat bo'lib, ularning faoliyati bilan bog'liq holda boj va yig'imler undirib boriladi.

*Uchinchi*dan, davlat bojini qo'llash hamma vaqt mamlakatning barcha hududlarida bir xilda amalga oshirilib, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda to'lanadi. Shuningdek, boj va yig'imler muddatli yoki bir martalik to'lov shaklida bo'lishi ham mumkin. Masalan, daromadga solinadigan soliq stavkasi muayyan vaziyatlarga bog'liq bo'lib, turli xususiyatlariga qarab turlicha stavkalarda belgilanishi mumkin, lekin yuridik xatti-harakatlar uchun davlat boji miqdoriga nisbatan buni qo'llab bo'lmaydi, u har doim to'lovchilar uchun bir xil bo'lib, boshqa biror sharoit, vaziyatga bog'liq emas.

Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar nazarda tutilgan bo'lib, ularga Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlar (avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir), budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar kiritiladi.

Yig'imlar aholiga madaniy-maishiy xizmatlarni ko'rsatish yoxud hukumatning mahalliy organlari nazorati ostida o'tkaziladigan boshqa chora-tadbirlarni, masalan, tovarlarning alohida turlari uchun litsenziya to'lovi, savdo huquqi uchun to'lov kabilarni amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash uchun yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan o'rnatilgan to'lovlar hisoblanadi. Yig'imlar — bu biror bir faoliyat turini amalga oshirish huquqi uchun, biror narsada ishtirok etish yoki undan foydalanish huquqi uchun, ko'pincha, ijtimoiy-huquqiy tartibdagi xizmat bilan bog'liq holda yakka tartibda davlat hokimiyati organlari tomonidan undirib olinadigan to'lovdur.

Bojlar va yig'imlar — ijtimoiy-huquqiy xususiyatdagi xizmat ko'rsatilishi munosabati bilan yakka tartibda undirib olinadigan pul majburiyatlaridir. Shu sababli, boj yoki yig'imning miqdori xizmatning xususiyati va miqdoridan kelib chiqqan holda aniq summada belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlarida mahalliy yig'imlar ham nazarda tutilgan.

Bojlar — O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi tomonidan o'rnatilgan, yuridik va jismoniy shaxslardan ularning manfaatlari ko'zlangan holda ma'lum harakatlarni qilish va yuridik ahamiyatga molik hujjatlarni maxsus vakolatli organlar (notarial harakatlarni amalga oshirganda, sud yo'li bilan bahs yuritganda) hujjatlarni berish uchun olinadigan to'lovdur.

Davlat boji bu yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lovlar hisoblanadi. Yuridik ahamiyatga molik

harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to'lovchilari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig'imi tariqasida undiriladi. Davlat bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona to'lovlari – O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan amalga oshirilib, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Bojxona siyosatining asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan va ichki bozorni himoyalashdan iboratdir. Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda bojxona to'lovlarining quyidagi turlari boj, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona yig'implari to'lanadi.

Bojxona yig'implarining ro'yxati va ularning stavkalari qonun hujjatlarida belgilanadi. Tovarlarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishda aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida soliq munosabatlari, soliq qonunchiligi mamlakat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutib, ularning vositasida davlat oldida turgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalar bajarilishi, jamiyatning iqtisodiy yuksalishi va davlat mexanizmining barcha bo'g'inlarida faoliyatning doimiy yuksalib borishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 24-moddasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

soliq solish obyekt soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir;

soliq solinadigan baza soliq solish obyektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi;

soliq stavkasi soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan

hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda, soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Soliq davri – bu soliq elementlaridan biri bo'lib, soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi, xavfsizligi, iqtisodiyotning taraqqiy topishi, madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti, jamiyatdagi ijtimoiy muhofazaning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, davlatning xalqaro miqyosida nufuzining barqarorligi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq siyosatiga va soliqlarning o'z vaqtida to'lanib ulardan maqsadli, samarali foydalanilayotganligiga bevosita bog'liqdir. Mamlakat soliq siyosatining oqilona olib borilishi va huquqiy asoslarining mukammalligi jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning yuksalib borishini ta'minlash bilan birga ijtimoiy, siyosiy, madaniy yuksalish jarayonlarining muntazamligini ta'minlaydi.

3.4. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati

Soliq munosabatlarini tartibga solishda va soliqlarning fiskal funksiyalarini ta'minlanishida soliq imtiyozlari muhim o'rin tutib, bu imtiyozlar ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish sharoitida ahamiyati yanada oshib bormadi. Soliq imtiyozlari soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biridir. Soliq huquqiy munosabatlarida soliq

imtiyozlarini amaliyotga keng joriy etishning bir qator obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bo'lib, bular soliq to'lovchi subyektlarning jamiyatda tutgan mavqeyi, ijtimoiy-iqtisodiy holati turlicha ekanligi, davlat iqtisodiyotga ta'sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshirishda turli xil vositalarga ehtiyoj sezishi ya'ni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning muhim strategik sohalarni faoliyatini rag'batlantirishi va bu orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartibga solib borish imkoniyatiga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, soliq imtiyozlari milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashini ta'minlashga, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq islohotlarini samarali yuritishga, soliq sohasidagi turli qonunbuzilish holatlarini oldini olish va soliq huquqbuzarliklarining kamayishiga xizmat qiladi.

Soliq imtiyozlari bu soliq to'lovchi subyektlarning soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqartirish, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi, soliqqa tortish bazasining kamayishi, soliq stavkalarining pasaytirilishi va boshqalar imtiyozlar belgilanishida namoyon bo'ladi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, *soliq imtiyozlari* vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan amaldagi qonunlarga muvofiq amalga oshiriladigan soliqlardan to'liq yoki qisman ozod qilishdir.

Soliq imtiyozlarning mavjudligi uzoq tarixiy davrlarda ham mavjud bo'lib, davlat organlari tomonidan turli soliq to'lovchi subyektlarga (alohida shaxslar, sulolalar, vaqf yerlari) berilgan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ta'kidlanishicha, soliq to'lovchilardan soliqlarni adolatli undirish soliq siyosatini diqqat markazida turadi. «Temur tuzuklarida» keltirilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qilsa yoki biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin¹. O'sha davr soliq siyosati shundan dalolat beradiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog'liq bo'lib, unda soliq imtiyozlari bilan budjet (xazina) daromadlarini shakllantirishning o'zaro bog'liqligi aks ettirilgan.

Soliq imtiyozlarining soliqqa tortish munosabatlaridagi o'rni xususida ingliz iqtisodchisi Keyns nazariyasida alohida fikr bildirilib, unga ko'ra, soliq imtiyozlari makroiqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotni

¹ Temur tuzuklari. T.: Cho'lpon, 1991. 98-b.

tartibga solishning tarkibiy elementi sifatida hamda davlatning tadbirkorlar manfaatiga ta'sir etish va budjetning daromad qismini to'ldirish borasidagi muhim iqtisodiy qurol sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarini belgilash orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirish, chet el investitsiyalari kirib kelishini kengaytirish, ishlab chiqarishning turli sohalarini rivojlantirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashi amalga oshirilmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida soliq siyosatini erkinlashtirishda, iqtisodiyotni tartibga solish va barqaror rivojlantirishda soliq imtiyozlarini keng joriy etish va uning maqsadli ijrosining ta'minlanishini amalga oshirish eng samarali va foydali usullardan hisoblanadi.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar soliq qonunchiligi va amaliyotida soliq imtiyozlarining samarali qo'llanilishining quyidagi ko'rinishlarini ko'rish mumkin:

- soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish;
- soliq to'lashdan qisman yoki vaqtincha ozod etish;
- soliqlardan butunlay ozod qilish;
- yangi tashkil etilgan tuzilmalarga imtiyozlar berish;
- eksportga va chet el investitsiyalarga imtiyozlar berish va b.

Binobarin, soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmidagi eng murakkab masala bu soliq imtiyozlarining mezonlarini adolatli tarzda belgilash hisoblanadi. Mazkur soliq imtiyozlarini belgilash jahon amaliyotida har bir mamlakatning milliy iqtisodiy siyosatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilansada, ammo u albatta adolatli va asosli belgilanishi, maqsadli va to'g'ri yo'naltirilgan, samarali bo'lishi lozim.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq tushunchasining yuridik ta'rifini va uning asosiy belgilarini ayting.
2. Soliq solish prinsiplari va ularning mazmunini izohlang.
3. Soliqlarning boshqa majburiy to'lovlardan farqli xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Soliqlarning davlat ijtimoiy hayotidagi o'rni qanday?
5. Boj va bojxona to'lovlarning ahamiyati haqida tushuntirib bering.
6. Majburiy to'lovlar nima va ularning soliq munosabatlaridagi o'rnini bayon eting?
7. Umumdavlat va mahalliy soliqlar tushunchalari hamda ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?

**IV bob. SOLIQ HUQUQIY MUNOSABATLARI,
SOLIQ TO'LOVCHILARNING ASOSIY
HUQUQLARI HAMDA MAJBURIYATLARI**

4.1. Soliq huquqiy munosabatlari tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

4.2. Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari. Rezident va norezident tushunchalari.

4.3. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar

Soliq huquqiy munosabatlari tushunchasi. Soliq huquqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Soliq huquqiy munosabatlari ishtirokchilari. Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar soliq to'lovchilar sifatida. Rezidentlar va norezidentlar tushunchalari, ularning farqlari. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari. Soliq to'lovchilarning huquqiy majburiyatlari. Soliq to'lovchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish usullari.

4.1. Soliq huquqiy munosabatlari tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq huquqi asoslari fanining tadqiqot obyektlaridan birini soliq huquqiy munosabatlarini tashkil etib, ushbu munosabatlar bevosita soliq qonun hujjatlari va boshqa ma'muriy qoidalar asosida tartibga solib boriladi.

Soliq huquqiy munosabatlari deb, davlat soliq idoralari va soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, soliqa va boshqa majburiy to'lovlar bilan bog'liq masalalarning soliq qonunchiligi me'yorlari bilan tartibga solinadigan iqtisodiy-ijtimoiy va ma'muriy munosabatga aytiladi. Huquqiy munosabatlar bu avvalo, huquqni amalga oshirish jarayoni va uning ijtimoiy mavjudligi shaklidir. Huquqiy munosabatlarga harakatdagi yuridik me'yor sifatida qaraladi. Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarda hamma vaqt davlat

yoki u vakolat bergan vakolatli organlar ishtirokchilardan biri sifatida qatnashadi, ikkinchi tomon soliq to'lovchi subyektlar esa har doim birinchi tomonning ma'muriy imperativ shakldagi me'yorlari asosida faoliyatini tashkil etadi.

Soliq to'lovchining majburiyatlari shartnomaviy munosabatlardan emas, balki qonun ko'rsatmalaridan kelib chiqadi. Davlat soliq xizmati organlari ushbu majburiyatlarning tegishli tarzda bajarilishini nazorat qiladi. Ushbu o'ziga xoslikni inobatga olib, soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar bilan masalan, munosabatlarning dispozitivligi, uni qatnashchilarining tengligi bilan tavsiflanuvchi fuqarolik huquqiy munosabatlardan farqlanadi. Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar va moliyaviy munosabatlar o'rtasida juda ko'p umumiyliklar mavjud bo'lib, moliyaviy munosabatlarning hajmi nisbatan kengroq bo'lib, mulkiy munosabatlarning ancha keng doirasini qamrab oladi.

Barcha huquqiy munosabatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarga ham tegishli bo'lib, soliq qonunchiligi me'yorlari bilan tartibga solinadigan soliqlar, majburiy to'lovlar va yig'implarni belgilash, hisoblash hamda undirib olish, soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy, moliyaviy munosabatlar ***soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar*** deb ataladi. Soliqqa doir huquqiy munosabatlarning o'ziga xos tomonlari shundaki, ular davlatning soliqlarni belgilash, soliqlarni undirib olish va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha faoliyati jarayonida yuzaga keladi.

Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarda soliq to'lovchilar (yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, shu jumladan, yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar; ayrim hollarda alohida balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan filiallar va boshqa alohida ajratilgan bo'linmalar soliq to'lovchi maqomini oladilar), davlat soliq organlari (moliya va bojxona organlari), soliqlarni to'lashga ko'maklashuvchi shaxslarga kiritilgan uchinchi shaxslar (banklar, soliq agentlari, soliq vakili, soliqlarni yig'uvchilar va b.) qatnashadi.

Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar soliq qonunchiligi me'yorlari bilan tartibga solinib, soliqlar va boshqa yig'implarni belgilash, hisoblash hamda undirib olish, nazorat qilish jarayonida yuzaga keladigan jamiyatdagi ma'muriy munosabatlardir. Boshqacha aytganda,

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan qoidalarga ko'ra, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq hamda soliq majburiyatlarini bajarish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarga soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar sanaladi.

Soliq sohasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'rnatish bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni amalga kiritish bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish, hisoblash bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar;

- soliq va boshqa majburiy to'lovlarning nazoratini amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar;

- soliq va boshqa majburiy to'lovlarga oid huquqbuzarliklar uchun moliyaviy, ma'muriy, jinoiy sanksiyalarni qo'llash bo'yicha bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar.

Boshqa huquqiy munosabatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarga ham tegishli bo'lib, lekin soliq huquqiy munosabatlari o'ziga xos bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- soliqqa oid huquqiy munosabatlar davlatning soliqlarni belgilash, soliqlarni undirib olish va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha faoliyati jarayonida yuzaga keladi;

- soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar hamma vaqt davlat yoki u vakolat bergan vakolatli organlar tomonlardan biri sifatida qatnashadi va har doim ushbu munosabatlar ma'muriy huquqiy ahamiyat kasb etadi;

- soliq to'lovchilarning majburiyatlari shartnomaviy munosabatlardan emas, balki ma'muriy-huquqiy normalarning talablaridan kelib chiqib, davlat soliq xizmati idoralarining xodimlari tomonidan majburiyatlarning tegishli tarzda bajarilishi nazorat qilinadi;

- soliq huquqiy munosabatlari moliyaviy huquqiy munosabatga turdosh bo'lib qator umumiy xususiyatlarga egadir. Moliyaviy munosabatlar nisbatan kengroq mulkiy munosabatlarni budjet jarayoni, moliya-kredit, hisob-kitob munosabatlari kabilarni qamrab

oladi. Mazkur jihatlar bilan soliq huquqiy munosabatlari fuqarolik huquqiy yoki boshqa turdosh ijtimoiy munosabatlaridan farq qiladi.

Soliq huquqi asoslarini asosiy vazifalaridan biri soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar mazmuni ularning ishtirokchilari, o'ziga xos xususiyatlari va turlarini kengroq o'rgatishdan iborat. Soliq huquqiy munosabatlari davlat daromadlarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan davlat vakolatli idoralari bilan soliq to'lovchilar ya'ni jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida soliqlarni undirish, to'lash munosabatlarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishidir.

Soliq huquqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari bois, ya'ni davlat ijro etuvchi yo'nalishida yuzaga keladigan, asosan ma'muriy munosabatlar bilan tartibga solinadigan, bo'ysinish-bo'ysindirilishga asoslangan ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Har qanday huquqiy munosabat — huquqiy munosabat subyektlari, mazmuni va obyektlaridan iboratdir.

Soliq huquqiy munosabatining **obyektlari** bo'lib soliq to'lovchining daromadlari, muayyan tovarlar mol—mulk qiymati, qimmatli qog'ozlarga doir operatsiyalar, tabiiy resurslardan foydalanish va boshqalar, ya'ni pul va mulkiy shakllarda mavjud bo'lgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hisoblanadi. Shuningdek, Soliq kodeksining 25-moddasida soliq solish obyektlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va to'lashishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol—mulk, harakat hamda harakat natijasi bo'lishi mumkin. Soliq munosabatlari o'z obyekti va predmetiga ega bo'lib, ko'p holatlarda ikkalasi bir tushuncha sifatida izohlanadi. Soliq obyekti soliq subyektda to'lashi majburiyiligining paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi yuridik dalillar, harakatlar ko'zda tutiladi. Soliq obyekti o'z mohiyati jihatidan soliq predmeti tushunchasiga yaqin bo'lib, soliq obyektida shaxsdagi muayyan daromadga bo'lgan huquqlari tushunilsa, soliq predmetida ushbu daromadning o'zi nazarda tutiladi. Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlar obyekti, odatda, moddiy boyliklar bo'lib, ular tufayli subyektlar huquqiy munosabatlarga kirishadi hamda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishadi. Obyektning xususiyatlari huquqning ushbu sohasi predmetining o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Soliq huquqiy munosabatlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun ma'lum bir holatlar mavjud bo'lib, ular yuridik

faktlar deb yuritilishi mumkin. Davlat organlari tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda yuridik ahamiyatli holatlarni, ularning oqibatlarini yuzaga keltiradi. Soliq huquqiy munosabatlarini vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar sifatida ko'rilgan huquqiy hujjatlar, yuridik harakat va hodisalarga *yuridik faktlar* deb aytiladi.

Yuridik hujjatlar — bu davlatning vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan, umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan, huquqlar va majburiyatlarning vujudga kelishiga asos bo'ladigan normativ me'yoriy hujjatlardir (bunga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Konstitutsiyaviy qonunlari, kodekslari, qonunlar, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnoma va kelishuvlar va h.k.).

Harakatlar deb, soliq huquqiy munosabatlarida qatnashuvchi subyektlarning erki, faoliyati bo'yicha qilinadigan yuridik faktlarga aytiladi va ular o'z navbatida qonuniy ya'ni huquq yo'l qo'ygan harakatlar va noqonuniy ya'ni huquq yo'l qo'ymagan harakatlarga bo'linadi. Bunga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib foyda (daromad) olish soliq majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirish yoki tadbirkorlik faoliyati davomida olgan daromadlari bo'yicha soliq to'lovlarni o'z vaqtida to'lamaslik kabilar misol bo'ladi.

Shuningdek, soliq huquqiy munosabati yuzaga kelishi, bekor bo'lishi yoki to'xtalishida *yuridik hodisalar* ham asos bo'ladi. Yuridik hodisalar bu obyektiv ravishda inson erki, xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi (masalan, o'lim, tabiat hodisalari) hisoblanadi. Obyektiv ravishda, inson xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi uchun shart-sharoitlar yaratadigan yuridik dalillarga kelsak, ular muayyan harakatlarni, masalan, tabiat hodisalarini amalga oshirish uchun sabab bo'lib xizmat qiluvchi yuridik hodisalar deb nomlanadi.

Iqtisodiy faoliyat, buxgalterlik hisobi soliq huquqiy munosabatlarida muhim o'rin tutib ularning hisob hujjatlari asosiy manbayidir. Hisob hujjatlari soliq solish obyektlari va uning bilan bog'liq obyektlarni aniqlash, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iborat. Mol-mulkni hisobga olib borish buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilar va vakolatli organlar soliq huquqiy

munosabatlarining asosiy subyektlaridir. Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarning mazmunini soliq huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquq va majburiyatlari tashkil etadi.

4.2. Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari. Rezident va norezident tushunchalari

Soliq huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari soliq to'lash, undirish, nazorat qilish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar bo'lib, ularni asosiy huquq va majburiyatlari, huquqiy maqomi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. *Soliq to'lovchilar* — Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash (hisoblash) majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari hisoblanadi.

Soliq huquqiy munosabatlarida soliq to'lovchi manfaatlarini, ularning funksiyalarini soliq agentlari, soliq to'lovchining vakillari ham amalga oshirishi mumkin. *Soliq agentlari* — bu zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir. *Soliq to'lovchining vakillari* — bu qonunga yoki ta'sis hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishiga vakolatli shaxslardir.

Soliq huquqiy munosabatlar mazmunini ushbu munosabat qatnashchilarining subyektiv huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Subyektiv huquqlar obyektiv huquq normalari, ya'ni davlat tomonidan belgilangan umumiy qoidalar asosida vujudga keladi va ularga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida subyektiv huquqlar qonun hujjatlari bilan kafolatlangan bo'lib, davlat bu huquqlarning amalga oshirishini ta'minlaydigan sharoitlarni yaratadi. Barcha huquqiy munosabatlar mazmunini huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlar ham tashkil etadi. Huquqiy majburiyatlarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, bunda huquqiy tartibning talabi bo'yicha uni o'z zimmasiga olgan shaxs ma'lum harakatlarni qilishga yoki muayyan harakatlarni qilishdan saqlanishga majbur bo'ladi.

Soliq munosabatlarining ishtirokchilari bevosita bir tarafdin davlat vakolatli organlari hisoblansa, ikkinchi tarafdin soliq to'lovchilar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu munosabatlarning huquqiy tartibga solinishini va ijro etilishi ustidan qonuniylikni ta'minlovchi hamda

mavjud nizolarga huquqiy baho beruvchi organlar ham ishtirok etishi mumkin. Soliq to'lovchilar tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq¹, zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari kirishi belgilab qo'yilgan.

Soliq huquqiy munosabatlarining asosiy ishtirokchilari bu soliq to'lovchilar bo'lib, ular umumiy tarzda asosiy ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Jismoniy shaxslar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar).

2. Yuridik shaxslar ya'ni o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qoidalarida ham yuridik shaxs tushunchasi nazarda tutilgan bo'lib, shunga o'xshash qoida tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 16-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotlar, shuningdek, chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilotlar hisoblanadi.

O'z navbatida ushbu soliq to'lovchi yuridik shaxslarni mazmun-mohiyati, asosiy faoliyat turi kabilarga ko'ra foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (**tijoratchi tashkilot**) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (**tijoratchi bo'lmagan tashkilot**) yuridik shaxslarga ajratish mumkin.

Soliq to'lovchilar o'z faoliyatlari davomida davlat budjetini shakllanishi bilan birga o'zini tadbirkorligi orqali o'zlari ham, davlat

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: «Adolat» 2010 yil.

va jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy negizini ta'minlanishiga ham xizmat qilmoqda. Bugungi kunda davlat soliq siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mezonlaridan biri soliq siyosatini yanada erkinlashtirish, soliq to'lovchilar manfaati ustuvorligini ta'minlash hamda moddiy va protsessual me'yoriy hujjatlarni ham shu maqsadga yo'naltirishdan iborat.

Soliq huquqiy munosabatlarida bir tomondan davlatning vakolatli organlari qatnashadi. Soliq huquqiy munosabatlarida davlatning vakolatli organlar quyidagilardir:

1) *davlat soliq xizmati organlari* – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari;

2) *bojxona organlari* – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari;

3) *moliya organlari* – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari;

4) boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.

Shuningdek, soliq huquqiy munosabatlarida rezident va norezident tushunchalari keng qo'llanilib, soliq to'lovchilari soliq huquqiy munosabatlarida rezident yoki norezident tarzda ishtirok etishadi. O'zbekiston Respublikasining **rezidenti** sifatida e'tirof etilishi uchun soliq qonunchiligida bir qator shartlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar;

- O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki joriy soliq davrida yakunlanayotgan har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida jami bir yuz sakson uch kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tarzda e'tirof etiladi.

Chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning quyidagilar sifatida turgan davri uning O'zbekiston Respublikasi

hududida haqiqatda turgan vaqtiga kiritilmaydi:

1) diplomatik yoki konsullik maqomiga ega bo'lgan shaxs sifatida;
2) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga ko'ra tuzilgan xalqaro tashkilotning xodimi sifatida;

3) diplomatik yoki konsullik maqomiga ega bo'lgan shaxslarning oila a'zosi sifatida, bunday jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmagan taqdirda;

4) faqat bir chet davlatdan boshqa chet davlatga O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tish (tranzit o'tish) uchun;

5) O'zbekiston Respublikasida faqat turist sifatida, davolanish yoki dam olish maqsadlari bilan turgan jismoniy shaxs bo'lsa.

Soliq qonunchiligi hujjatlariga asosan mazkur belgilangan mezonlar talablariga javob bermaydigan shaxslar O'zbekiston Respublikasining **norezidenti** deb e'tirof etiladi. Norezidentlarni soliqqa tortish masalasi Soliq kodeksi talablari asosida tartibga solinadi. Soliq to'lovchi sifatida norezidentlar quyidagi davlat soliq organlarida hisobga qo'yiladi.

– O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari – doimiy muassasaning joylashgan yeridagi va (yoki) faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida ro'yxatdan o'tadi.

– mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lovchilar bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasining norezidentlari – soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida ro'yxatdan o'tkaziladi. Yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari mazkur faoliyatni amalga oshirish boshlangan kundan e'tiboran 183 kundan kechiktirmasdan hududiy Davlat soliq inspeksiyasiga doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yish to'g'risidagi arizani taqdim etishi lozim.

4.3. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari

Soliq to'lovchilarning huquqlari deyilganda, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi va boshqa normativ me'yoriy hujjatlarda belgilangan amalga oshirishi mumkin bo'lgan qonuniy faoliyati, erkinligi tushuniladi. Soliq to'lovchilar huquqlarining takomillashib borishi jamiyatda demokratik jarayonlarning yuksalib borishi barobarida soliq to'lovchilarning huquqiy ongi va soliq madaniyatini yanada

rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari yangi tahrirda qabul qilinib, 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining IV bob, 31-moddasi qoidalarida batafsil belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

- o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

- boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

- boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

- soliq solish obyektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'yan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

- soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

- soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

- davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga

xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish, shuningdek soliq to'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi. Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi) deb e'tirof etiladi. Shuningdek, ushbu belgilangan huquqlar tugallanmagan bo'lib, soliq to'lovchilar soliq qonun hujjatlariga muvofiq boshqa o'zga huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchilardan tushgan davlat daromadlarining asosiy maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotga erishish orzusini ro'yobga chiqarishdan iborat bosh strategik vazifani oqilona amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarga sarflanadi. Soliq to'lovchining majburiyati unga soliq qonunchiligida belgilangan tartib – qoidalarga itoat qilgan holda, o'z xohish va imkoniyatlardan qat'i nazar soliqqa tortish munosabatlariga daxldor tadbirlarning bajarilishini ta'minlashdir.

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari – bu soliq to'lovchi subyektlarning soliqqa tortish munosabatlariga muvofiq bajarilishi lozim bo'lgan va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ongli faoliyatidir. Soliq to'lovchilarning asosiy majburiyatlari amaldagi Soliq kodeksining IV bob, 32-moddasi qoidalarida o'z ifodasini topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;
- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;
- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;
- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining

qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi shart. Soliq qonun hujjatlariga muvofiq soliq huquqiy munosabatlarda soliq to‘lovchilarning zimmasiga boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Soliq huquqiy munosabatlarida *soliq agentlari* quyidagi majburiyatlarni amalga oshiradi:

– soliq to‘lovchilarga to‘lanadigan mablag‘lardan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazishi;

– soliq to‘lovchilarga to‘langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart. Shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq soliq to‘lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Soliq to‘lovchilar o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan imkoniyatlardan foydalanish huquqiga egadirlar. Soliq to‘lovchilar amaldagi qonun hujjatlarini qo‘llashga doir yoki soliq munosabatlari subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan munozarali masalalarni hal qilish va soliq to‘lovchilarning huquqlarini himoya qilish quyidagi tarzda amalga oshirilishi mumkin:

1) davlatning vakolatli organlari tomonidan ma‘muriy tarzda, ya‘ni yuqori idoralar tomonidan (masalan, yuqori soliq idoralari, nazorat organlari, shuningdek prokuratura organlariga murojaat qilish orqali). Soliq to‘lovchilar huquqlarini himoya qilishning ma‘muriy tarzida ta‘minlanadigan hollarda yuzaga kelgan nizoli masalalar bo‘yicha yuqori soliq organlariga, agarda munozarali masalalar tuman inspeksiyasida hal etilmagan hollarda tegishli shahar, viloyat soliq boshqarmalaridan tortib Davlat Soliq qo‘mitasiga qadar murojaat qilinib hal etilishi mumkin;

2) soliq huquqiy munosabatlarida soliq to‘lovchilar manfaatini sud organlari orqali jumladan, fuqarolik, xo‘jalik, jinoyat va ma‘muriy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko‘rilishi orqali himoya qilinishi mumkin. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti- harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har qanday mansabdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan

qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishiga haqli ekanligi qonun hujjatlarida belgilangan. Sudlov ishlarini yuritishning asosiy vazifalari fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklarini va manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etishdan iboratdir. Sud ishlarini yuritish qonuniylik va huquq — tartibotni mustahkamlashga, demokratiyani, ijtimoiy adolatni ta'minlashga ko'maklashishi lozim. Sudlar soliq huquqiy munosabatidagi nizolarni ko'rib chiqishi davomida ham mazkur qonun tamoyillariga og'ishmay rioya etishlari lozim.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq huquqiy munosabatlari tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
2. Soliq huquqiy munosabat ishtirokchilari tushunchasi va turlari haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasi rezidenti va norezidenti tushunchalarini izohlab bering.
4. Soliq qonunchiligi bo'yicha soliq to'lovchilarning asosiy huquqlarini ayting.
5. Soliq to'lovchilar va soliq agentlarining asosiy majburiyatlari nimalardan iborat?
6. Soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilish usullarini ayting.
7. O'zbekiston Respublikasida soliq huquqiy munosabatlarida qonunlar ustuvorligini ta'minlash uchun yana qanday tadbirlarni amalga oshirishni taklif etasiz.

V bob. SOLIQ TIZIMINI BOSHQARISHDAGI DAVLATNING VAKOLATLI ORGANLARI

5.1. Soliq tizimini boshqarishdagi davlat vakolatli organlari tushunchasi va tizimi.

5.2. Soliq sohasidagi umumiy va maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari.

5.3. Soliq tizimini boshqaruvni amalga oshiruvchi davlat vakolatli organlari faoliyatida qonuniylik tamoyili.

Tayanch soʻz va iboralar

Soliq tizimini boshqarishda davlat boshqaruv organlari tushunchasi. Soliq sohasidagi umumiy vakolatli davlat organlari. Oʻzbekiston Respublikasining Oliy Majlisining davlat soliq siyosatini belgilashdagi oʻrni. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining soliq sohasidagi vakolatlari. Soliq sohasidagi maxsus vakolatli boshqaruv organlari. Oʻzbekiston Respublikasining Davlat soliq qoʻmitasi tashkil etilishi. Soliq sohasidagi davlat boshqaruv organlari faoliyatida qonuniylik tamoyili.

5.1. Soliq tizimini boshqarishdagi davlat vakolatli organlari tushunchasi va tizimi

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar bozor iqtisodiyotiga oʻtishga va iqtisodiy islohotlarni yanada takomillashtirishga zamin yaratdi. Davlatimiz uchun iqtisodiyotning, davlat budjetining asosiy tayanchi boʻlgan soliq tizimida yangicha boshqaruv siyosatini yaratish, avvalo, uning huquqiy asoslarini hamda tashkiliy tuzilmasini barpo etish ustuvor vazifalardan biri boʻlib hisoblanadi.

Ma'lumki, davlat bu oʻz hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuchga ega boʻlgan siyosiy tashkilotdir. Davlat mexanizmining boshlangʻich va asosiy tarkibiy elementlaridan biridan biri bu davlatning organlaridir.

Davlat organlari — davlatning asosiy funksiyalarini amalga

oshiradigan va davlat hokimiyati vakolatiga ega bo'lgan davlat mexanizmining bo'lagidir. Davlat – fuqarolarning siyosiy tashkiloti bo'lganligi sababli, tashkil qilinadigan davlat organlari davlat hokimiyati vakolatiga ega bo'ladi. Davlat organlari faoliyatida davlat-hokimiyat vakolati keng qo'llanilib, bu tushuncha uning mohiyatiga asosan quyidagilarni o'zida ifodalaydi:

1) davlat organlari davlat nomidan va davlat manfaatini ko'zlab huquqiy hujjat qabul qilishi va chiqarishi;

2) davlat organlari vazifalarini amalga oshirilishini ta'minlashida tarbiyalash, ishontirish va rag'batlantirish choralarini qo'llash orqali ta'sir ko'rsata olishi;

3) davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy aktlardan kelib chiqadigan vazifalarni ijro etilishining vakolatli organlar tomonidan nazorat qilishi;

4) davlat organlarining normativ tUSDagi huquqiy hujjatlarini himoya qilish, ya'ni huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan talablar buzilganda, davlatning majburiy ta'sir choralar qo'llash orqali himoya qilishining ta'minlanishi kabilardir.

Soliq sohasini davlat boshqaruvi o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, bu davlatning vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi. *Soliq tizimini boshqarishda davlat vakolatli organlari* deganda soliqqa oid munosabatlarni huquqiy asoslarini belgilovchi, yo'naltiruvchi, tartibga soluvchi hamda nazorat qiluvchi davlatning vakolatli organlari, tuzilmalari tushuniladi. Davlat organlari mamlakat soliq tizimini boshqarishga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib, faoliyatining mazmuniga ko'ra umumiy va maxsus vakolatlar doirasida qatnashadi.

Jamiyatda davlat boshqaruvining alohida sohasi soliq boshqaruvining tutgan o'rni va ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

a) davlat soliq boshqaruvi – davlat hokimiyatini amalga oshirish bo'yicha aniq faoliyat sohasi bo'lib, davlat hokimiyatining boshqa turlaridan o'zining funksional va vakolatlilik xususiyatiga qarab ajralib turadi;

b) davlat soliq boshqaruvi – oliy vakillik organi orqali soliqlarni belgilash, o'rnatish, amalga joriy etish hamda qonunchilik orqali tartibga solish doimiy umumiy vakolat doirasida rahbarlik qilish jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatdir;

d) davlat soliq boshqaruvi – soliq sohasida qonunlarni ijro etish

va ularni ijrosini ta'minlash yuzasidan farmoyishlar berish xususiyatidagi faoliyat bo'lib, uning asosiy maqsadi qonunlar va qonunosti hujjatlarini hayotga tatbiq qilish hisoblanadi;

e) davlat soliq boshqaruvi – maxsus subyektlar, ya'ni davlat boshqaruvi vakolatli organlari (Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Davlat Bojxona qo'mitasi) tomonidan amalga oshiriladi;

f) davlat soliq boshqaruvi – soliqqa oid ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni vakolatli davlat organlari orqali tartibga solish va boshqarish faoliyatidir.

Davlat soliq siyosatini oshiruvchi vakolatli davlat organlarni tizimi shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1) umumiy vakolatli davlat organlari (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi);

2) maxsus vakolatli davlat organlari (Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi va boshqa soliq tizimini boshqarish va huquqiy tartibga solishda ishtirok etuvchi vakolatli organlari).

Ma'lumki, har bir mustaqil davlat o'zining iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda soliq boshqaruv tizimini takomillashtirish, soliqqa tortish masalalarini va soliq sohasidagi turli imtiyozlarini qonun hujjatlari hamda o'zining soliq siyosatini markazlashtirilgan boshqaruv tartibi asosida amalga oshiradi. Umuman, soliq siyosati ma'muriy boshqaruvning bir ko'rinishidir. Siyosat degan so'z arabcha «siyosatun» – (rahbarlik etish, boshchilik qilish) davlat hokimiyatini amalga oshirish va saqlab qolishga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyatni, davlat ichkarisidagi va chet davlatlarda bo'ladigan xilma-xil iqtisodiy, moliyaviy va soliq masalalari bilan bog'liq munosabatlardagi davlat boshqaruv faoliyatining muayyan yo'nalishi, mazmun-mohiyati hamda vazifalarini anglatadi. Mamlakatning soliq siyosatidagi ustuvor yo'nalishlari ularning sohaga oid qonun hujjatlarida bayon etilgan bo'ladi. Davlat soliq xizmatini tashkil etishda ham ta'minlanishi kerak bo'lgan asosiy ustuvor tamoyillardan biri bu qonun ustuvorligi bo'lishi lozimdir. Zero, qonun ustuvor bo'lmagan boshqaruv munosabatlarida turli qonunbuzilishlari barobarida jamiyatda taraqqiyot va rivojlanish oldinga siljmaydi.

5.2. Soliq sohasidagi umumiy va maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari

Soliq sohasidagi *umumiy vakolatli davlat organlari* deganda qonun hujjatlariga ko'ra, soliq huquqiy munosabatlarini bevosita boshqarmasdan balki qonun hujjatlari doirasida mamlakat soliq siyosatining umumiy yo'nalishlarini belgilovchi va tartibga soluvchi vakolatli organlardir. Soliq sohasidagi umumiy vakolatli davlat organlari tizimiga O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasini kiritish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi davlat soliq boshqaruvini tartibga solishda umumiy vakolatli organ hisoblanib, uning jamiyat hayotidagi ta'sirini oshirishga qaratilgan ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo'shma majlisida Prezident I.A.Karimov «Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish» nomli ma'ruzasida davlatning keyingi strategik yo'nalishlarini deputatlar va Senatorlar e'tiboriga taqdim etdi. Ma'ruzada qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat Parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida belgilandi¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining X sessiyasida (2002-yil 12-dekabr) «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali Parlamentning jamiyat boshqaruvidagi ta'siri takomillashuviga zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida Qonunchilik palatasining Senat bilan birgalikdagi vakolatlari belgilangan bo'lib, bevosita 7, 8, 9-bandlarida soliq siyosati bilan

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash. mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishdir. Xalq so'zi, 2005. 29-yanvar, 1 20 (3565).

bog'liq vazifalari belgilandi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, suveren davlatchilikka erishish, yangi iqtisodiy negizning shakllanishi, xalqning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan uyg'onishi sobitqadam va astoydil harakat qilish yo'li bilan g'oyat katta qiyinchiliklarni yengib o'tish orqali amalga oshiriladi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan har bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlagan, yangi jamiyat barpo etish borasida o'z andozasini ishlab chiqqan. Bunda ilk asos vazifasini kishilarning o'z qadriyatlari tizimi va aniq maqsadni ko'zlab tutilgan yo'l, milliy an'analar va tarixiy shart-sharoit, real ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhit, odamlarning tarkib topgan turmush tarzi va dunyoqarashi o'tagan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan qabul qilingan normativ me'yoriy hujjatlar soliq sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda asosiy huquqiy manba bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining soliq tizimini boshqarishdagi ishtirokini quyidagi jihatlarda ko'rish mumkin:

a) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun ijodkorligi orqali, ya'ni soliq munosabatlariga doir ijtimoiy munosabatlarni amalda qabul qilinayotgan kodekslar va qonun hujjatlari orqali tartibga soladi va ta'sir etadi. Shuningdek, Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan xalqaro soliq masalalari, ikki tomonlama soliqqa tortmaslikka doir shartnoma va bitimlarni ratifikatsiya qilish orqali davlatning ma'lum soliqqa oid huquq hamda majburiyatlari yuzaga kelishiga zamin yaratadi;

b) Mamlakatning boj, valuta va kredit ishlari bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni qonun yo'li bilan tartibga solish vazifasi orqali davlat soliq siyosatiga ta'sir etadi;

v) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Respublika Davlat budgetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etishdagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan amalga oshiriladi.

g) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining soliq munosabatlarini boshqarish va tartibga solishdagi eng asosiy vazifasi va ishtiroki bu bevosita mamlakatda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish vazifasi orqali amalga oshiriladi.

Davlat hokimiyatining vakolatli organlari tizimi – Respublikaning umumiy vakolatli organlari, funksional va tarmoq organlarining yagona

majmuaviy va faol o'zaro hamkorlik qiluvchi tizimdir. Ularning vakolatlari o'zaro munosabatlari, ularning samarali o'zaro hamkorligini yuridik rasmiylashtirish orqali soliq sohasidagi davlat nazorati amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bir qator soliq sohasini tartibga soluvchi huquqiy me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi, «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi, «Chet el investisiyalari to'g'risida»gi, «Chet el investisiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Ipoteka to'g'risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Xususiy korxonalar to'g'risida»gi, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonunlari va boshqa qator qonun hujjatlarini keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi soliq sohasidagi umumiy vakolatli davlat organlari tizimida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ham muhim o'rin egallab, davlat hokimiyatdagi asosiy uchta tizimni o'zaro hamkorlikda ish olib borishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Prezidentning davlat boshlig'i sifatidagi vakolatlari mujassamlangan. Bu hokimiyat jamiyatdagi barqarorlikning va O'zbekiston Respublikasining islohotlar yo'lidan muvaffaqiyatli o'lga borishining kafolati bo'lgani holda, ya'ni o'zbek davlatchiligini asosiy tayanchiga aylandi.

Davlat boshqaruvining prezidentlik shaklida Prezident umumxalq saylovlarida saylanadi va davlat boshlig'i hisoblanadi. Prezident bevosita ijro hokimiyatiga boshqarishi mamlakatdagi barcha kuchlarni bir maqsad yo'lida birlashtirishga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, mamlakatda barqarorlik o'rnatishga asosiy mas'ul shaxs bo'ladi. «Prezident» tushunchasi Konstitutsiyaviy-huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim.

Prezident o'z faoliyati davomida davlat soliq siyosatini amalga

o'shishda bir qator vakolatlarga ega bo'lib, soliq huquqiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan butun O'zbekiston hududida bevosita amal qiladigan, majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar, farmoyishlar chiqaradi.

Farmon Prezident tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjat bo'lib, u huquqni qo'llash va ijrosini ta'minlash xususiyatiga ega. Farmoyish – individual tashkiliy va qisqa davrda amalga oshirishga mo'ljallangan xususiyatdagi hujjatdir. Qarorlar – muhim strategik maqsadlarni amalga oshirishni, tartibga solishni belgilovchi normativ hujjatdir. Prezident tomonidan qabul qilinadigan normativ hujjatlar farmonlar, qarorlar va farmoyishlar Konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lishi mumkin emas.

Davlat soliq xizmati organlarining vujudga kelishi, rivojlanishi va ularni boshqarishda, shuningdek respublikaning butun soliq solish tizimini takomillashtirishdagi Prezidentning roli u tomonidan chiqariladigan davlat faoliyatining ushbu sohaga taalluqli bo'lgan huquqiy hujjatlarining mazmunida yaqqol ko'zga tashlanadi. Prezidentning ko'plab farmon va qarorlari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining 2008-yil 13-fevraldagi «2008-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilda iqtisodiyotning barqaror rivojlantirishning eng muhim ustivor vazifalari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 18-noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹gi, 2008-yil 10-noyabrdagi «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2008-yil 28-noyabrdagi «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»²gi, 2008-yil 28-noyabrdagi «Iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»³gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 20-yanvardagi

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 47-son, 461-modda.

²O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 48-son, 471-modda.

³O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 49-son, 477-modda.

«Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»¹gi, 2009-yil 26-yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»²gi, 2009-yil 27-yanvardagi «2009-yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to‘g‘risida»³gi, 2010-yil 8-yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va o‘zining xususiyati, ularning izchilligi, ularda mujassamlangan chora-tadbirlarning tezkorligi mazkur davlat – huquqiy institutining umumiy mexanizmida muhim ekanligini belgilab beradi.

Umuman soliq sohasini boshqarishni tashkil etishga doir umumiy vakolatli organlar tizimida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti ham muhim o‘rin egallaydi, soliq masalalariga taalluqli xalqaro iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda davlat boshlig‘i sifatida ishtirok etadi, xalqaro kelishuvlarga doir muhim vazifalarni amalga oshirish choralari ko‘rilishini ta‘minlaydi, xalqaro kelishuv va bitimlarni imzolaydi. Shuningdek, mamlakatda davlat soliq siyosatini yuritishdagi maxsus davlat organlaridan biri Davlat soliq qo‘mitasining raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi.

Soliq sohasini boshqarishda umumiy vakolatli organlar tizimida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bob 98-moddasida hamda «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonuniga binoan, O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma‘naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta‘minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi organlari

¹O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil., 1-son, 19-modda.

²O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-yil, 5-son, 34-modda.

³O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009-yil., 1-son, 23-modda

tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir. Ijro hokimiyati organlari – davlat hokimiyatining bir bo'g'ini bo'lib, davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan siyosiy tashkilotdir. Ijro hokimiyati organlari tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: a) hukumat (Vazirlar Mahkamasi); b) vazirliklar; d) davlat qo'mitalari; e) agentliklar; f) qo'mitalar; g) komissiyalar; h) markazlar; z) davlat aksionerlik kompaniyalari; i) davlat uyushmalari; j) davlat assosiativlari; k) departamentlar; l) inspeksiyalar.

O'zbekiston Respublikasida soliq munosabatlarini tartibga soluvchi ijro hokimiyati organlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) faoliyatining hududiy doirasiga ko'ra soliq munosabatlarini tartibga soluvchi ijro hokimiyati organlari uch guruhga bo'linadi:

- markaziy ijro hokimiyati organi (Vazirlar Mahkamasi, Davlat soliq qo'mitasi);
- hududiy markaziy ijro hokimiyati organlari (Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalari);
- mahalliy tuman hududidagi ijro organlari (tuman, shahar soliq inspeksiyalari);

2) tashkil etish asoslariga ko'ra ijro hokimiyati organlari quyidagilarga bo'linadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida tashkil etiladigan organlar (masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi);
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida tashkil etiladigan organlar (masalan, vazirliklar, davlat qo'mitalari);

3) ijro hokimiyati organlari vakolatlarining hajmi va xususiyatiga ko'ra, ular quyidagilarga bo'linishi mumkin:

- umumiy vakolatli davlat organlari bo'lib, bu guruh davlat organlariga O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va hokimlarni kiritish mumkin. Bu davlat organlari, vakolat doirasida, barcha sohalariga taalluqli bo'lgan qarorlarni qabul qilishlari mumkin. Masalan, amaldagi qonunchilikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqarishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, uning vakolati mana shu sohalar doirasida

amalga oshiriladi;

- sohaviy vakolatga ega bo'lgan davlat organlari bo'lib, bu davlat organlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: *birinchidan*, bir soha bo'yicha vakolatli davlat organlari – bu organlar o'z faoliyatini aniq bir soha bo'yicha amalga oshiradi; *ikkinchidan*, sohalararo vakolatli davlat organlari – bu organlar bir necha sohalar bo'yicha harakat qilish vakolatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ijroiya hokimiyati organlariga Vazirlar Mahkamasi rahbarlik qilib, uning tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, shu jumladan, Davlat soliq qo'mitasi raisi ham kiradilar. Vazirlar Mahkamasi davlat soliq qo'mitasining, idoralar va davlat boshqaruvining boshqa organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi va yo'naltiradi.

Shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari to'g'risidagi tegishli Nizomlarni tasdiqlaydi hamda davlat organining tuzilishini va uning vakolatlarini belgilaydi. Davlat Soliq qo'mitasi ham Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi va uning oldida mas'uliyatli hisoblanadi. Agarda Davlat soliq qo'mitasining hujjatlari amaldagi qonunlarga zid bo'ladigan bo'lsa, ularni hukumat bekor qilishi mumkin. Davlat soliq qo'mitasining raisi ayni vaqtda hukumat a'zosi sifatida Vazirlar Mahkamasi yig'ilishlarida ishtirok etadi, mamlakatning soliq siyosati xususida hisobotlar taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi soliq boshqaruvidagi umumiy vakolatli organ sifatida mamlakat soliq siyosatini umumiy yo'nalishlarini belgilaydi, maxsus chora-tadbirlar rejasini va dasturlarini ishlab chiqadi, davlat soliq stavkalarini belgilanishini ta'minlaydi hamda mamlakat soliq tizimini boshqarishda qonuniylikning ta'minlanishi, soliq qonun hujjatlarining ijrosi yuzasidan umumiy nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini boshqaruvida alohida sohaviy vazifalarni maxsus vakolatli organlar amalga oshirib, O'zbekiston Respublikasida soliq tizimiga asosan Davlat soliq qo'mitasi markazlashgan rahbarlikni amalga oshiradi. Davlat soliq qo'mitasi soliq tizimida maxsus vakolatli organ sifatida shakllanganligiga uzoq bo'lmasada, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan amaliy ishlar diqqatga sazovordir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq va nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, yagona davlat soliq siyosatini o'tkazish, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy

manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining davlat soliq bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga amal qiladi.

Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalaridan etib, soliq intizomini mustahkamlash, soliq qonun hujjatlariga qat'iy amal qilish, soliq to'lovlarining budjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash, soliq haqidagi huquq buzilishlarining aniqlanishi, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish ustidan davlat nazoratni kuchaytirish, shuningdek soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish kabilar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi soliq munosabatlarini boshqarish jarayonida o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan normativ tusdagi qarorlari davlat boshqaruvi organlari, soliq idoralari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimini boshqarishda maxsus vakolatli organlar tizimida asosiy o'rin tutuvchi Davlat soliq qo'mitasi boshqaruv tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilmoqda. Davlat Soliq qo'mitasining yangi tahrirdagi Nizomi 2010-yil 21-mayda Vazirlar Mahkamasining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-sonli qarori¹ bilan tasdiqlandi va unga ko'ra Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilar belgilandi:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 yil, 21-son, 162-modda.

ta'minlash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini ta'minlash;

- soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, ma'lumotlarning kompyuter bazasi yagona tizimini yuritish asosida soliq to'lovchilarni hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliq sohasidagi huquq buzilishlarining oldini olish, aniqlash va ularga barham berish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

- pul mablag'larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumlarining o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish yuzasidan takliflar kiritish;

- bozorlar va savdo komplekslarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi yuzasidan qat'iy nazoratni amalga oshirish va ularning hududida aniqlangan huquq buzilishlari bo'yicha surishtiruvlar o'tkazish, jinoiy ishlarni huquqni muhofaza qilish organlariga berish;

- respublika nazorat qiluvchi organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishlarni o'tkazishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda o'z vakolatlari doirasida qonunchilikka qat'iy rioya etilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish;

- soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlash, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish holatlariga keskin barham berish ishlarini tizimli amalga oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni doimiy ravishda ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida soliqqa doir iqtisodiy munosabatlarni

boshqarish va soliq siyosatini samarali yuritilishini ta'minlashda davlatning yana bir maxsus vakolatli organi bo'lgan Moliya vazirligi ham ishtirok etadi. Moliya vazirligi soliqqa doir huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ijro etilishini ta'minlash barobarida, Davlat soliq qo'mitasi bilan hamkorlikda mamlakat soliq qonunchiligi ijrosini takomillashtirish yuzasidan yo'riqnomalar va boshqa ko'rsatmalar ishlab chiqadi.

5.3. Soliq tizimi boshqaruvini amalga oshiruvchi davlat vakolatli organlari faoliyatida qonuniylik tamoyili

Ma'lumki, soliqlar davlat xazinasini to'ldiruvchi asosiy elementlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun soliqlarga davlat budjetining daromad qismini shakllantiruvchi, eng muhim bo'lgan umumdavlat vazifalarini hal etish uchun zarur miqdordagi mablag'ni jamlantiruvchi dastak sifatida qarash lozimdir.

Soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bo'lishi bilan birgalikda yalpi milliy mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishda, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta'minlashda bevosita ishtirok etadi. Shu sababli ham yurtboshimiz I.A.Karimov «Soliq tizimining eng muhim vazifasi – ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir»¹ deb bejiz ta'kidlamagan.

Davlat organlarining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarining samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan davlat xizmatchilarining, shu jumladan, soliq xizmati organlarining faoliyatida qonuniylik va intizomning ta'minlanganligiga yoki unga qay darajada rioya etilayotganligiga bog'liqdir.

Qonuniylik deganda, davlat organlari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi tushuniladi. Intizom deganda esa, davlat soliq organlari faoliyatida o'rnatilgan tartibga rioya qilinishini ta'minlash tushuniladi. Davlat soliq organlari ijro hokimiyatining bir bo'g'ini sifatida o'zlarining faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston., 359-b.

Konstitutsiyasi va qonunlarga asoslanib ularni amaldagi ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshiradilar.

Qonuniylik – demokratik huquqiy davlat mavjud bo'lishi va rivojlanishining asosiy belgisidir. U – fuqarolar huquqlari va erkinliklarini, demokratik institutlarni, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va amalga oshirishni, davlat apparatini qurish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun zarurdir.

Qonuniylik bu davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar tomonidan qonunlarga va ularga asoslangan boshqa huquqiy aktlarga qat'iy rioya qilish (ijro etish) hisoblanadi.

Davlat boshqaruv jarayonida qonuniylik deganda, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarning aniq va og'ishmay bajarilishi tushuniladi. Qonuniylikning asosiy vazifasi – mamlakatning ijtimoiy va davlat tuzumini mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun mulkning turli shakllariga yo'l ochish va ularni qo'riqlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini mustahkamlashdir. Shu bois, mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lgan davlat soliq xizmati organlarining boshqaruv tizimini rivojlantirish, turli salbiy holatlarni oldini olish hamda mazkur yo'nalishdagi ma'muriy munosabatlarda qonuniylik va adolat bosh tamoyil sifatida xizmat qilmog'i lozimdir.

Har qanday davlatning xarajatlarini qoplovchi va davlat daromadlarini mustahkamlovchi birdan bir moddiy kuch soliq to'lovchilarning mehnat faoliyati bilan vujudga keladigan soliqlar va boshqa xilma-xil majburiy to'lovlardir. Davlatning mavjud bo'lishi va ish yuritishining muhim sharti mazkur davlat tomonidan soliqlarning majburiy tartibda mavjudligi bilan bevosita aloqadordir. Davlat Soliq qo'mitasi va uning quyi organlaridagi tuzilmalar, soliq xodimlari bevosita xalq bilan ishlovchi, ular bilan yuzma-yuz faoliyat olib boruvchi xizmat xodimlari hisoblanadi. Shuningdek, kundalik faoliyat jarayonida davlat boshqaruvining boshqa organlari bilan tez-tez munosabatlarga kirishadiki, bunday munosabatlar davlat nazoratining ushbu markaziy organi faoliyati tusini aniq-ravshan ajratib ko'rsatadi. Soliq sohasidagi munosabatlar va qonunchilik jarayoni mamlakat huquqiy tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Shu bois soliq qonunchiligiga rioya etilishiga erishish jamiyatda qonuniylik tamoyilining ta'minlanishiga ham xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida erkin raqobatga

asoslangan tadbirkorlikning keng rivojlanishi, xo'jalik, qoidalarning tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining tobora cheklanayotganligi soliq munosabatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, davlat daromadini shakllantirish, soliqlarni o'z vaqtida va to'la hajmda davlat xazinasiga kelib tushishini ta'minlashga qaratilgan asosiy vazifalarini bajaradi. Soliq tizimining samarali ishlashi, soliq qonunchiligiga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi mamlakatni tadrijiy rivojlanib borishining muhim shartlaridan sanaladi.

Davlat soliq xizmati faoliyatini amalga oshirishda, soliq huquqiy munosabatlarida avvalo, qonun ustuvorligiga qat'iy amal qilish, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyilini ta'minlash jamiyat va davlat taraqqiyoti, aholining farovonligiga erishishda muhim omillardan hisoblanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq tizimini boshqarish tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
2. Soliq boshqaruv tizimida umumiy vakolatli organlar va ularning vazifalarini sanang.
3. Soliq boshqaruv munosabati ishtirokchilari tushunchasi va turlari haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini boshqarishda Oliy Majlisning o'rni qanday?
5. Soliq tizimini boshqarishda maxsus vakolatli organlarning vazifalarini izohlab bering.
6. Davlat boshqaruv tizimida qonuniylik deganda nimalarni tushunasiz.
7. O'zbekiston Respublikasi soliq organlarini modernizatsiya qilish va takomillashtirishga doir qonun hujjatlarining mohiyatini izohlang.

**VI bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN
TO‘LANADIGAN SOLIQLAR**

- 6.1. Jismoniy shaxslar tushunchasi va ularni soliqqa tortish.
- 6.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i.
- 6.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.
- 6.4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i.
- 6.5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Tayanch so‘z va iboralar

Jismoniy shaxslar tushunchasi, ularni soliqqa tortishning huquqiy asoslari. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bo‘yicha imtiyozlar. Soliq to‘lash davri va muddatlari.

6.1. Jismoniy shaxslar tushunchasi va ularni soliqqa tortish

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida jismoniy shaxslar tushunchasiga qator ta’riflar berilgan bo‘lib, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 16-moddasi qoidalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, Shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar *jismoniy shaxslar* deb e’tirof etiladi. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z daromadidan olinadi. Jismoniy shaxslar davlat budjetiga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laydi:

- jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq;
- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;

- jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganligi uchun soliq;
- jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda daromadiga o'rnatilgan qat'iy stavkadagi soliq;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar.

Chet el jismoniy shaxslar, mamlakatimizning amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi hududida soliqqa tortiladi.

Xorijiy jismoniy shaxs – rezident, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari kabi, jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'iga tortiladi. Xorijiy jismoniy shaxs – norezidentga O'zbekiston Respublikasi manbalaridan olingan daromad bo'yicha (ularni to'lash joyidan qat'i nazar) jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq solinadi. Chet el jismoniy shaxslaridan soliq olinishi tegishli xorijiy davlatda O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslariga nisbatan xuddi shunday chora-tadbirlar amalga oshirilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida tugatilishi yoki cheklanishi mumkin. Amaldagi soliq qonunchiligida jismoniy shaxslarga daromad solig'ini hisoblashning ikki usuli nazarda tutiladi:

1) to'lov manbayidan;

2) jami daromad to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha.

Yuridik shaxs bo'lmay turib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan daromad solig'i davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan daromadlar va qilingan xarajatlar to'g'risidagi deklaratsiyalar, davlat soliq xizmati organlari tomonidan fuqarolarning faoliyatini tekshirishga doir materiallar hamda to'lovchilarning boshqa daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha hisoblanadi. Xorijiy jismoniy shaxslar – rezidentlar daromadlaridan olinadigan daromad solig'i davlat soliq xizmati organi tomonidan mo'ljallanayotgan daromadlar to'g'risida taqdim etilgan taxminiy deklaratsiyalar ma'lumotlari bo'yicha hisoblab chiqariladi.

6.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan *soliq to'lovchilari* hisoblanadi. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar *soliq solish obyektidir*. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun *soliq solinadigan bazadir*. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyektini bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

Soliq kodeksining 275-moddasi qoidalariga asosan, quyidagi hollarda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sobiq Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) 1941 – 1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa

vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

4) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolarning (shu jumladan, u yerga vaqtincha yo'llangan yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslarning). Mazkur imtiyoz tegishincha tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan, imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

5) qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

6) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

7) sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar ota-onalarining va rafiqalarining. Imtiyoz «halok bo'lgan askarning bevasi (onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoki pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining muhri va imzosi bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoki Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni himoya qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar xodimlarining beva xotinlariga (erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ soliq solish obyekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har yili 1-fevralgacha obyektning 1-yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatini va uning mulkdorini ko'rsatgan holda ma'lumot taqdim etadi.

Soliq solish obyektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda to'lanadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1-yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oying boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi. Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Shuningdek, soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q

qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan (amal qilishi tugagan) oйдan e'tiboran amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga har yili 1-maydan kechiktirmay davlat soliq xizmati organi tomonidan topshiriladi va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash teng ulushlarda bir yilda ikki marta ya'ni hisobot yilining 15-iyuniga va 15-dekabriga qadar amalga oshirilishi lozim.

6.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i budjet tushumlarida salmoqli o'rinni egallaydi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – davlat budjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va nerezidentlarga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, Shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi *soliq solish obyekt*i hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan *baza* bo'lib, jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy

shaxslarning daromad bo'yicha O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan soliq summolari O'zbekiston Respublikasida soliqni to'lashda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi. Mazkur hisobga olinadigan summalarning miqdori jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar kiradi. Jumladan, ***mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari, jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari va boshqa daromadlari*** tashkil etadi.

Qator xorijiy davlatlar singari O'zbekiston Respublikasida ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi progressiv hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o'rnatilgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. ***Soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadiga quyidagilar kiritilmaydi:***

1) moddiy yordam summolari: favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari – to'lafigicha; vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari – eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda; boshqa hollarda – soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno: O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summolari; O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'lmagan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida, uning oila a'zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan budget tashkilotlaridan chet el valutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori, fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) sanoat mulki obyektlariga va seleksiya yutug'i patentiga patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentni (litsenziyani) ularning amal qilish muddati doirasida, lekin foydalanish boshlangan kundan e'tiboran quyida ko'rsatilgan davrdan ko'p bo'lmagan muddatda sotishdan olgan daromadi summasi:

- ixtirolar va seleksiya yutug'idan – besh yil davomida;
- sanoat namunasidan – uch yil davomida;
- foydali modeldan – ikki yil davomida;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yig'ganlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, shuningdek amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan mol-mulkni sotishdan tushadigan daromadlar mustasno;

12) uy xo'jaligida, shu jumladan, dehqon xo'jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi: xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar; ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam;

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar,

Shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

17) depozit sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklar va kredit uyushmalaridagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan – grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo'naltiriladigan summalari, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

20) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan, oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, hayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

21) olingan alimentlar;

22) fuqarolarning sug'urta to'voni sifatida oladigan summalari;

23) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

24) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

25) davlat pensiyalari;

26) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

27) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalari;

28) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektga — yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

29) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari: yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda; «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankining kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipotekakreditlarini hamdaular bo'yichahisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda. Ushbu ko'rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandeda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

31) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining: O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalari; O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalari.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lashdan quyidagilar to'laligicha ozod qilinadilar:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning

o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik vakonsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari vakonsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari – agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar – xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalari bo'yicha;

7) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari – ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

8) gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

Shuningdek, quyidagi soliq to'lovchilarning daromadlari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni har bir to'liq oy uchun eng

kam ish haqining to'rt baravari miqdorida to'lashdan ozod etiladi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud 1941 – 1945-yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar. Bu imtiyozlarni berish uchun «O'zbekiston Qahramoni» guvohnomasi, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchasi, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlarning orden daftarchasi, urush nogironlarining tegishli urush nogironi guvohnomasi yoxud mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoki boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi, boshqa nogironlarning – Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi asos bo'ladi;

2) xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, 1941 – 1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, 1941 – 1945-yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari. Imtiyoz urush qatnashchisining guvohnomasi asosida, 1941 – 1945-yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari - Imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki mehnat va ijtimoiy ta'minot organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

3) Leningrad shahrida 1941-yil 8-sentyabrdan 1944-yil 27-yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar. Imtiyoz ushbu shaxslar qamal davrida Leningrad shahri korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida beriladi;

4) ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida nogiron bo'lib qolganlar. Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi imtiyozlar berilishi uchun asos bo'ladi;

5) bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek I va II guruh

nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) o'n va undan ortiq bolasi bor ayollar. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi mazkur imtiyoz berilishi uchun asos bo'ladi;

7) sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari. Imtiyoz «Halok bo'lgan askarning bevasi (onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoki pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining muhri va imzosi bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasalar, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizligi qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoki Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni himoya qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar xodimlarining beva xotinlariga (erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

8) xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar. Mazkur imtiyozni berish uchun Imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizligi qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligi mudofaa ishlari bo'yicha bo'limlari, harbiy qismlari, harbiy-o'quv yurtlari, korxonalari, muassasalari yoki tashkilotlarining ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

9) Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar. Imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish qatnashchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan, imtiyoz berilishi uchun asos bo'luvchi boshqa

hujjatlar asosida beriladi;

10) ikki va undan ortiq oʻn olti yoshga toʻlmagan bolalari bor yolgʻiz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDO) organlari tomonidan taqdim etiladigan maʼlumotnoma asosida beriladi;

11) ikki va undan ortiq oʻn olti yoshga toʻlmagan bolalari bor va boquvchisini yoʻqotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz erning (xotinning) vafot etganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma, bolalar tugʻilganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma, yangi nikohdan oʻtmaganligi hamda mehnat va ijtimoiy taʼminot organining boquvchisini yoʻqotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi maʼlumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

12) bolaligidan nogiron boʻlgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sogʻliqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy maʼlumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida – fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organining maʼlumotnomasi asosida beriladi.

Imtiyozlarga boʻlgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga boʻlgan huquqlar vujudga kelgan paytdan eʼtiboran qoʻllaniladi. Agar jismoniy shaxs bir nechta asos boʻyicha imtiyozlarga boʻlgan huquqqa ega boʻlsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Imtiyozni qoʻllash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, oʻqish) joyi boʻyicha, asosiy ish joyi boʻlmagan taqdirda – yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chogʻida amalga oshiriladi. Imtiyozga boʻlgan huquq yoʻqotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yoʻqotilgan paytdan eʼtiboran oʻn besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga maʼlum qilishi kerak. Imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi boʻyicha hisoblansa, imtiyozni qoʻllash asosiy ish joyi boʻyicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy boʻlmagan ish joyi boʻyicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻini hisoblab chiqarish chogʻida jismoniy

shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Fuqaro imtiyozlarga bo'lgan huquqni yo'qotganligini 15 kundan kechiktirmay, undan soliq ushlab qoladigan korxonaga, muassasaga, tashkilot, shuningdek jismoniy shaxslarni yoxud soliq organini (agar mazkur organ hisob-kitobni amalga oshirsa) ma'lum qilishi lozim. Asosiy ish joyidan olinadigan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab soliq solinadigan jami daromad summasidan amalga oshiriladi.

Fuqaro bir yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olguniga qadar belgilangan shakl bo'yicha joriy yilda to'langan daromadlar hamda ushlab qolingani soliq summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart.

Yangi ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshidan ilgari va yangi ish (xizmat, o'qish) joyida olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Avvalgi ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan hollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnoma keyinroq taqdim etilsa, u holda undirilgan umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

Avvalgi asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarining xodim tomonidan bajarilishi bilan bog'liq mukofot va boshqa to'lovlar unga ishdan bo'shatilganidan so'ng to'langan bo'lsa, mazkur mukofot va to'lovlar umumbelgilangan tartibda ularni to'lash chog'ida jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqqa tortiladi. Bu fuqarolarga to'langan daromadning hamda ushlab qolingani soliqning umumiy summasi haqida korxonaga, muassasaga, tashkilot bir oy muddatda istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan jami daromad summasidan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab (agar bunday daromadlar to'langan bo'lsa),

belgilangan stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirsa, daromadlarni to'lovchi yuridik shaxslar soliq to'lovchining arizasiga ko'ra soliqni ushlab qoladilar.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar daromadidan olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlangan soliq summasi to'g'risidagi taqdim etilgan deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha soliq xizmati organi tomonidan daromad solig'i yakuniy summasi hisoblab chiqariladi. Rezident jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasidan tashqarida (shu jumladan asosiy ish joyidan) olgan daromadlaridan daromad solig'i yakuniy summasini hisoblab chiqarish ham xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va budjetga o'tkazish uchun yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va penyalarni budjetga to'lashi shart.

Quyidagi jismoniy shaxslarning daromadlariga belgilangan eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi:

a) baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha qo'shimcha to'lovlar tariqasida olingan daromadlarga. Bunda cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga koeffitsiyentlar hisoblashning eng yuqori summasi hisoblash paytidagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida belgilanadi;

b) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga;

d) Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan

tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo'limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

O'z xodimlariga moddiy yordam ko'rsatgan va qimmatbaho sovg'alar bergan soliq agentlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda qayta hisob-kitob qiladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan moddiy yordam va qimmatbaho sovg'a olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlar to'g'risida deklaratsiya topshirgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga kiradi:

1) mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbayida soliq solinmagan bo'lsa;

2) ikkita yoki undan ko'p manbadan olingan daromadlar;

3) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.

Shuningdek, agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda uning arizasiga ko'ra ushlab qolingan bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to'laydilar. Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valutasida qayta hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda, Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinadi. Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish o'zarolik prinsipi bo'yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi. Chet ellik jismoniy shaxsning – O'zbekiston Respublikasi rezidentining daromadlariga Soliq kodeksida belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

6.4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i

O'zbekiston Respublikasi yer solig'iga doir qoidalar amaldagi Soliq kodeksining XII bo'lim, 49 – 50-boblarida o'z ifodasini topdi. *Jismoniy shaxslarning yer solig'i to'lovchilari* – bu mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi. Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish huquqi va foydalanish huquqi o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari ***soliq solish obyektidir***:

1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari kabilardir. Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari (tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga

yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari bundan mustasno) soliq solish obyektini bo'lmaydi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari ***soliq solinadigan baza***dir. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining soliq qonun hujjatlariga ko'ra, *jismoniy shaxslarning quyidagilari yer solig'ini to'lashdan ozod qilinadilar:*

1) yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;

2) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz «O'zbekiston Qahramoni» unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

3) 1941 – 1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan doiradagi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

4) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limining

ma'lumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

7) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan, vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar). Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

8) shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

9) ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran besh yilgacha;

10) shaxslar – ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan yer solig'ini hisoblab chiqarish amalga oshirilib, davlat soliq xizmati organlari yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadilar.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgartirish va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak. Yer solig'i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy budjetiga to'lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda,

yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Soliq qonun hujjatlariga ko'ra yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi. Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan yiliga ikki marta, ya'ni hisobot yilining 15-iyuniga va 15-dekabriga qadar teng ulushlarda amalga oshirilishi lozim.

6.5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq

O'zbekiston Respublikasi mahalliy soliqlar tizimida jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni ishlatganlik uchun soliq to'lov munosabatlari Soliq kodeksining XIV bo'lim qoidalari bilan tartibga solinadi.

Mazkur soliq turini jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilari hisoblanadi.

Ushbu soliq solish obyekti bo'lib, jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana realizatsiya qilish hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazning natura holidayi realizatsiya qilingan hajmi soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida qatorda ko'rsatiladi hamda jismoniy shaxslardan realizatsiya qilinayotgan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun mablag'larni olish

bilan bir vaqtda undiriladi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holdagi hisob-kitobi yoqilg'i quyish shoxobchasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz chakana realizatsiya qilingan oyning o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kunidan kechiktirmay, yoqilg'i quyish shoxobchasi joylashgan yerda har o'n kunda amalga oshiriladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Jismoniy shaxslar tushunchasi va ularning huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlarini ayting.

2. O'zbekiston Respublikasida soliq huquqiy munosabatlarida jismoniy shaxslarning ishtirokini belgilovchi qonun hujjatlari mohiyatini tushuntirib bering.

3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i tushunchasi va to'lash tartibini aytib bering.

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i obykti va to'lov muddatlarini ayting.

5. Yer solig'i va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqlarning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.

6. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlardagi imtiyozlar va ularning huquqiy ahamiyatini tushuntirib bering.

VII bob. YURIDIK SHAXSLAR TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA ULARNING HUQUQIY TAVSIFI

- 7.1. Yuridik shaxslar tushunchasi, turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
- 7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.
- 7.3. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i.
- 7.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i.
- 7.5. Qo'shilgan qiymat solig'i.
- 7.6. Aksiz solig'i.
- 7.7. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
- 7.8. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.
- 7.9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Tayanch so'z va iboralar

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida yuridik shaxslar tushunchasi va turlari. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar. Foyda solig'i. Mol-mulk solig'i. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i. Aksiz solig'i. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar. Yuridik shaxslardan undiriladigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar bo'yicha imtiyozlar.

7.1. Yuridik shaxslar tushunchasi, turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning yaxlit tizimi vujudga keltirilgan. Ularning har birida turli xo'jalik yuritish shakliga ega bo'lgan u yoki bu yuridik shaxslarga o'ziga xos ta'riflar, tushunchalar berilgan. Fuqarolik kodeksining 39-moddasida «O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki

operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan ham o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi¹ deb, ta'rif berilgan.

Yuridik shaxslar tushunchasiga amaldagi Soliq kodeksining 16-moddasida ham ta'rif keltirilib unga ko'ra², O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotlar, shuningdek chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot yuridik shaxslar sifatida e'tirof etiladi.

Ma'lumki, har qanday tashkilotlar yuridik shaxs bo'la olmaydi, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlarga yuridik shaxs maqomiga ega bo'la oladi. Yuridik shaxslarda avvalo, tashkiliy birlik, mulkiy mustaqillik, mustaqil mulki asosida yuridik javobgarlik, fuqarolik huquqiy munosabatlar muomalasida o'z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo'lishi lozim.

Yuridik shaxslarda tashkiliy birlik – bu yuridik shaxsning huquq subyektini sifatida tashkil bo'lganligini, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishligini bildiradi. Odatda, yuridik shaxslarning tashkiliy birlik ularning ustav yoki nizomlarida o'z aksini topadi.

Mulkiy mustaqillik – yuridik shaxs hisoblangan har qanday tashkilotning o'ziga xos mulkka ega bo'lishi, har qaysi davlat organlari tashkilotlarining o'ziga birlashtirilgan mol-mulki bo'lishini taqozo qiladi, ya'ni yuridik shaxslar o'z mustaqil balansiga, smetaga ega bo'lishlari lozim. Yuridik shaxslarning mol-mulki ularning ustavi doirasida aks ettiriladi. Ustav fondi ta'asischilarining qo'shgan pul mablag'lari, ko'chmas mol-mulklari, a'zolik badallaridan, tadbirkorlik faoliyatidan topilgan daromadlaridan, fuqarolarning ixtiyoriy xayriya

¹O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat. 2007 y.

²O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: Adolat. 2010 y.

mablag'laridan, aksiyalaridan tushgan dividendlardan va qonunda taqsiqlanmagan boshqa manbalardan tashkil topishi mumkin.

Yuridik shaxslarning mustaqil mulkiy javobgarlik belgisiga ko'ra, yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli bo'lgan mulki bilan davlat tashkilotlari esa o'ziga birlashtirib qo'yilgan mulki doirasida javob beradi. Fuqarolik kodeksi talablariga asosan, yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo'lmaydi, va o'z navbatida bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar. Yuridik shaxslar o'z majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi. Shuningdek, ayrim hollarda javobgar bo'lgan davlat korxonalarining mol-mulki yetarli bo'lmaganida davlat uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar (qo'shimcha) javobgar bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslarning o'z nomidan harakat qilishi bu yuridik shaxs hisoblangan tashkilot nomidan turli bitimlar tuza olish, huquqiy munosabatlarda qatnashib, mulkiy va mulkiy xarakterda bo'lmagan huquqlarga ega bo'la olish, shuningdek majburiyatlar vujudga keltira olish demakdir. Yuridik shaxs sudlarda o'z nomidan mustaqil ravishda davogar va javobgar bo'la oladi. Har bir yuridik shaxs o'z nomiga ega bo'lishi talab etiladi, yuridik shaxs nomi uning tashkiliy-huquqiy shaklini ifodalaydi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar va yig'implarning hal qiluvchi asosiy qismini yuridik shaxslarning soliqlari va boshqa majburiy to'lovlari asosida shakllantirilayotganligi ularning jamiyat va davlat taraqqiyotida muhim o'rin tutishini namoyon etmoqda.

Yuridik tashkilotlar o'z faoliyatining maqsadiga qarab tijorat hamda notijorat tashkilotlar tarzida faoliyat yuritishadi. *Tijorat tashkilotlar* o'z faoliyatining asosiy maqsadini foyda olishga yo'naltiradi. *Notijorat tashkilotlar* esa foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslarga aytiladi.

Notijorat tashkilotlariga budjet tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs

maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari shart. Yuridik shaxslar respublika budjetiga quyidagi soliqlarni to'laydilar:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- qat'iy belgilangan soliq kabilar.

Shuningdek, soliq qonun hujjatlarida yuridik shaxslar tomonidan mahalliy budjetga to'lanadigan soliq va boshqa yig'imglar belgilangan bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

- yer solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i;
- kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi;
- savdo qilish va alohida turdagi tovarlarni sotish uchun litsenziya;
- ro'yxatdan o'tganlik uchun yig'im kabilar.

2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan Soliq kodeksining 126-moddasiga asosan, foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hamda O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasi qoidalarida soliqlarni undirishning ikki darajali tizimi *umumdavlat va mahalliy budjetlarga yo'naltiriladigan soliqlar* belgilangan. O'zbekiston Respublikasida umumdavlat soliqlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz soliq, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

Shuningdek, ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar, ya'ni yagona ijtimoiy to'lov bo'lib, bu to'lov o'z navbatida quyidagi

jamg'armalarga taqsimlanadi: pensiya jamg'armasiga, bandlik jamg'armasiga va kasaba uyushmasi jamg'armasiga, fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar; Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar (Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imglar), davlat boji, bojxona to'lovlari; soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan umumdavlat soliqlari (yagona soliq to'lovi, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq kabilar) umumdavlat soliqlarini to'ldiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi.

7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida 1995-yil yanvar oyidan boshlab korxonalarining foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasiga muvofiq, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari tarkibini tashkil etib, u davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biriga aylandi.

Mazkur soliq turini to'lovchilar bo'lib moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanib, ular O'zbekiston Respublikasining rezidentlari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbayi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari kiradi. Yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Shuningdek, ayrim iqtisodiyot tarmoq korxonalari (energetika, neft-gaz kabi tarmoqlarida) budjet bilan hisob-kitoblarni markazlashtirilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshirishlari mumkin.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obykti bo'lib O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi hamda O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlari hisoblanadi.

Yuridik shaxslar foyda solig'ining to'lovchisi bo'lishlari uchun quyidagi talablarga javob berishlari lozim ya'ni qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilib, o'zining mustaqil mol-mulkiga ega bo'lishi, qonun hujjatlari ruxsat beradigan faoliyatdan foyda olishlari, mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi, bankda hisob raqamiga va identifikatsion raqamga ega bo'lishlari va hokimiyat organlaridan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslar foyda solig'ini to'liq va o'z vaqtida to'g'ri to'lashlari uchun ularning jami daromadlari manbayi muhim ahamiyatga ega. Yuridik shaxslarning jami daromadga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 132-moddasida boshqa daromadlari tushunchasiga aniqlik kiritilib, unga ko'ra boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi va ular quyidagilardan iborat:

- 1) soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- 2) mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- 3) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- 4) tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- 5) inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- 6) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar;
- 7) majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- 8) talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar;
- 9) jami daromaddan ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rni qoplash tarzida olingan daromadlar;
- 10) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;
- 11) birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- 12) undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar

va penya, shuningdek, qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan jarimalar va penya;

13) valuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi ijobiy farq;

14) dividendlar va foizlar;

15) royalti;

16) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar kiradi.

Kredit tashkilotlari bo'lgan yuridik shaxslarning daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari Soliq kodeksining 22-bobida belgilangan bo'lib unga ko'ra, kredit tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) kredit tashkilotining o'z nomidan va o'z hisobidan pul mablag'larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan olinadigan foizlar, boshqa foizli daromadlar. O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida berilgan kreditlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq foizlarni to'lash bo'yicha imtiyozli davr berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar kredit shartnomasiga ko'ra olish muddati yetib kelmagunicha soliq solinadigan daromad sifatida qaralmaydi;

2) mijozlarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik va yuritganlik hamda ularning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirganlik uchun olingan haq, shu jumladan, jo'natma, inkasso, akkreditiv va boshqa operatsiyalar, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan to'lov kartalarini hamda boshqa maxsus vositalarni rasmiylashtirganlik va xizmat ko'rsatganlik uchun, hisobvaraqlar bo'yicha ko'chirmalarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etganlik uchun va summalarni qidirganlik uchun vositachilik haqi hamda boshqa pul mukofotlari;

3) pul mablag'larini inkassatsiya qilishdan, veksellardan, to'lov va hisob-kitob hujjatlaridan hamda mijozlarga kassa xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

4) naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valuta operatsiyalarini o'tkazishdan, shu jumladan, chet el valutasini sotib olish yoki sotish, jumladan mijozning hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha operatsiyalarda vositachilik va boshqa mukofotlar, valuta boyliklari bilan operatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

5) uchinchi shaxslar uchun pul shaklida ijro etilishini nazarda

tutuvchi bank kafolatlari, majburiyatlari, avallari va kafilliklari berishga doir operatsiyalardan olinadigan pul shaklidagi mukofot;

6) hujjatlarni va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

7) pul mablag'leri, qimmatli qog'ozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini yetkazib berganlik, tashiganlik uchun haq;

8) qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni tashiganlik va saqlab turganlik uchun haq;

9) forfeyting va faktoring operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

10) kredit tashkilotlari tomonidan o'z professional faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.

Balansning valuta qismi qayta baholanishidan olingan daromadlar, shuningdek chet el valutasini kursining o'zgarishi munosabati bilan yuzaga kelgan ijobiy farq Soliq kodeksining 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar sifatida qaraladi. O'stirmaslik maqomini olgan kredit bo'yicha hisoblangan foizlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvaraqlaridan chiqarib tashlanadi.

Sug'urta tashkilotining daromadlariga sug'urta tashkilotlarining daromadlarini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq quyidagilar kiradi:

1) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari). Bunda birgalikda sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari) sug'urtalovchining (birgalikda sug'urta qiluvchining) daromadlari tarkibiga faqat uning birgalikda sug'urta qilish shartnomasida belgilangan sug'urta mukofotidagi ulushi miqdorida qo'shiladi;

2) avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug'urtaviy texnik zaxiralarni kamaytirishning (qaytarishning) qayta sug'urta qiluvchilarning sug'urta zaxiralardagi ulushi o'zgarishi hisobga olingan holdagi summalari;

3) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha pul mukofoti, shuningdek qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha tantemalar (foydadan olinadigan haq);

4) qayta sug'urta qilishga o'tkazilgan tavakkalchilik bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining o'rnini qayta sug'urta qiluvchilar tomonidan qoplash summalari;

5) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar summalari;

6) sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarari uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan, qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan daromadlari;

7) sug'urta agenti, broker, vositachi xizmatlarini ko'rsatganlik uchun mukofot;

8) sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar ko'rsatganlik uchun sug'urtalovchi tomonidan olingan pul mukofoti;

9) sug'urta xizmatlari ko'rsatishdan va qo'shimcha sug'urta faoliyatidan olingan boshqa daromadlar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan olinadigan, quyidagicha aniqlanadigan daromadlar:

- qimmatli qog'ozlar, bundan qarz qimmatli qog'ozlari (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) mustasno va ishtirok etish ulushi bo'yicha – realizatsiya qilish qiymati va olish qiymati (hissa) o'rtasidagi ijobiy farq sifatida;

- qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha – realizatsiya qilish qiymati bilan realizatsiya qilish sanasidagi diskont amortizatsiyasi va (yoki) mukofot inobatga olingan holda olish qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida;

2) qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilik va boshqa xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

3) mijozlarning mablag'laridan foydalanishdan yuzaga keladigan daromadning bir qismi;

4) depozitar xizmatlar, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar to'g'risida axborot taqdim etish, depo hisobvarag'ini yuritish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

5) qimmatli qog'ozlar egalari reestrini yuritish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

6) qimmatli qog'ozlar bilan birjada va birjadan tashqarida savdolarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

7) hisob-kitob-kliring faoliyati bo'yicha daromadlar;

8) qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarida

belgilangan investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha daromadlar;

9) qimmatli qog'ozlar bozorida maslahat xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

10) professional faoliyatdan olingan boshqa daromadlar kabilar tashkil etadi.

Soliq kodeksining 158-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi;

2) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;

3) jazoni ijro etish muassasalari;

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksi va yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

Soliq kodeksining 159-moddasiga ko'ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

3) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni olishga, lizing obyekti qiymatining o'rmini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda. Soliq solinadigan foydani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar qilingan soliq davridan e'tiboran, texnologik jihoz bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran besh yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologik jihoz xarid qilingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uchi yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi. Ushbu imtiyoz tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar tomonidan qo'llaniladi;

4) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

5) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan

ajratmalari summasiga.

Soliq davri kalendar yil hisoblanib, yilning choragi hisobot davridir.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

7.3. Yuridik shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i

O'zbekiston Respublikasi soliq qonun hujjatlariga binoan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqqa doir huquqiy munosabatlar Soliq kodeksining 47-bob qoidalarida belgilab berilgan.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarni to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining norezidentlari kiradi. Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi) va soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanmaydi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti bo'lib asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan qurilish obyektlari, belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun soliq solish obyekti O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi asosiy vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar, ushbu doimiy muassasa

faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk hisoblanadi, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish obyektidir.

Solih solinadigan baza asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha — asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidir. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati hamda O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati solih solinadigan bazadir.

Solih solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra solih solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, solih solinadigan baza solih solinadigan va solih solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, solih solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solih hisoblab chiqarilayotganda solih solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

1) uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarining. Uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga quyidagilar kiradi: uy-joy fondi, vodoproved

tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan, asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

3) yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta'lim o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkining;

4) qishloq xo'jaligi (o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalarini balansida bo'lgan mol-mulkning;

5) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari obyektlarining;

6) aloqa yo'ldoshlarining;

7) kredit hisobidan olingan asbob-uskunaning, uni foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko'p bo'lmagan muddatga;

8) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarning. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

9) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

10) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

11) lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

12) soliqlik to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;

13) shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport

vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezillari);

14) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan usbob-uskunalarining (foydalanish davriga);

15) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

16) ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yillik muddatga. Yangi texnologik jihozlar olingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki bepul berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi mol-mulk solig'ini to'lash majburiyatlari imtiyoz qo'llaniladigan butun davr uchun tiklangan holda bekor qilinadi.

Soliq kodeksi talablariga ko'ra, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, salq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda baharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi;

3) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941 – 1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik

shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

4) yangi tashkil etilgan korxonalar — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalarga, Shuningdek boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalardan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi;

5) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlarini — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar har oyda joriy to'lovlarni to'laydilar. Joriy to'lovlar summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatdan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi. Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shakldagi ma'lumotnomani joriy yilning 20-yanvarigacha taqdim etadi.

Budjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish uchun O'zbekiston Respublikasining norezidenti hisobot yilidan keyingi yilning 25-yanvarigacha doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga mavjud, soliq solinadigan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadi. Taqdim etilgan

ma'lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozadi.

O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga soliq to'lovchidan yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organdan olingan ma'lumotlar asosida to'lov xabarnomasini yozadi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmasdan to'lanishi lozim.

7.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i

Ma'lumki, yer qadimdan ulug' ne'mat sifatida qadrlanib, uni avaylab asrash, ehtiyotkorona munosabatda bo'lish har shaxsning muqaddas burchidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosida hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik ekanligi, ulardan oqilona foydalanish zarurligi hamda ushbu ne'matlar davlat tomonidan muhofaza etilishi belgilangan¹. 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi qabul qilinib, amalga kiritilishi yer fondini saqlashni yanada takomillashtirish va unga ehtiyotkorona foydalanishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur kodeksda yer bilan bog'liq munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlarida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi hamda yer uchun haq yillik yer solig'i sifatida undirilishi belgilandi².

O'zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko'ra quyidagi toifalarga bo'linadi:

1) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar – qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston. 2009.

² O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. Adolat 2007.

yerlarga bo'linadi;

2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar - ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar – alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

6) o'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) suv fondi erlari – suv obyektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) zaxira yerlar.

2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslardan yer solig'ini undirishni tartibi va yuridik asoslari, yer solig'ini undirishda soliqqa tortish obyekti, subyektlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartiblari ko'rsatib berildi. Amaldagi Yer kodeksining 2-moddasida yer bilan bog'liq qonun hujjatlarining asosiy prinsiplari sifatida yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash tamoyili ham mustahkamlandi. Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'implar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budjetlarning barqaror daromad manbayi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovlari ichida yer solig'i bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir. Mazkur soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini natijalari bilan bog'liq emasligidir. Ushbu soliqning joriy etilishidan maqsad yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik

yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda yerdan foydalanuvchilar tomonidan yerning talon-toroj qilinishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Qishloq ho'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, fermer xo'jaliklari sonining yildan-yilga ko'payib borayotganligi va o'rmon xo'jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarining bir qismining ular tasarrufiga o'tkazilishi hamda zaxira yerlarning o'zlashtirilishi tabiiy resurs, fuqarolar hayotiy faoliyatining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish bugungi kunda yer fondiga bo'lgan munosabatni tubdan yaxshilash zaruratini belgilaydi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari *yer solig'ini to'lovchilari* hisoblanadi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi. Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

O'zbekiston Respublikasida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari *soliq solish obyektidir*.

Quyidagi: aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi: maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar; aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar); kommunal-maishiy yerlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar) hamda zaxira yerlardan iborat.

Yer solig'i to'lashdan quyidagi yuridik shaxslarlar ozod qilinadi:

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari – o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941 – 1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) Yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalari bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalari kiradi;

3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab ajratilgan mintaqa yerlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan, tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan, jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan, kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyaqa qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan, nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

18) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan

yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

22) ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlarining va ovlanadigan qimmatbaho baliqlarning uvildiriq sohadigan joylarini muhofaza qiladigan boshqa suv obyektlarining sohillaridagi, temir yo'llar va avtomobil yo'llari yoqasidagi taqiqlangan mintaqalar; eroziyaga qarshi o'rmonlar; cho'l va yarim cho'l mintaqalaridagi o'rmonlar; shahar daraxtzorlari va o'rmonzor bog'lari; aholi punktlari hamda sanoat markazlari atrofidagi yashil mintaqalar daraxtzorlari; suv ta'minoti manbalari sanitariya muhofazasi mintaqalarining o'rmonlari; kurortlarning sanitariya muhofazasi tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmon massivlari; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari

soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga belgilangan yuqoridagi imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Yer solig'i har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15-fevraliga qadar taqdim etiladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart. Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etishi lozim. Yer solig'ini to'lash yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

7.5. Qo'shilgan qiymat solig'i

O'zbekiston Respublikasida va xalqaro soliqqa tortish amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlaridan biri bu qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi

Qo'shilgan qiymat solig'i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali bilvosita soliqdir. Korxonada kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xomashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi. Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xomashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi¹.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining dunyoda birinchi marta Yevropa davlatlaridan biri Fransiyada 1977-yilda qabul qilingan Direktivaga asosida joriy etilganligi bois ba’zi adabiyotlarda «yevropacha soliq» ham deb nomlanadi. Ushbu soliq turi G‘arbiy Yevropadagi iqtisodiy integratsion jarayonlarni shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992-yildan buyon amalda bo‘lib, oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga aksiz solig‘i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar jumlasiga soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar va oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashi mumkin.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 198-moddasiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘ining *obyekti* bo‘lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi. Tovarlarni (ish va xizmatlarni) *realizatsiya qilish oboroti* deganda — yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya’ni yuklab jo‘natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag‘i kelib tushishi davridan qat’iy nazar korxonada qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi lozim.

¹ Soliqlar va soliqqa tortish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/ A.V.Vahobov, A.S.Jo‘raev. – T.: Shartq 2009 y. 124-bet.

Soliq solinadigan import deganda esa – O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deb quyidagilar e‘tirof etiladi:

1) mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini o‘tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan:

- tovarni va boshqa mol-mulkni jo‘natish (sotish);
- ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa;
- mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish), shu jumladan, yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar to‘lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

- garov bilan ta‘minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga, mustaqil soliq to‘lovchilar bo‘lsa, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan, lizingga) berish;

4) to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan tovarni jo‘natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqni o‘tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

7) soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘zi ishlab chiqargan tovarlar berish, o‘z kuchi bilan ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish.

• O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga ko‘ra 2000-yildan hozirgi kungacha 20 foizli va “0” foizli stavka qo‘llanilib kelinmoqda. Umuman olganda «0» stavka deganda – korxonada ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘llanilmaydi

Soliq imtiyozlari boshqa soliq turlariga nisbatan ko‘proq qo‘shilgan

qiymat solig'iga imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular Soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan.

• soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti;

• soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar;

• soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari;

• soliqdan ozod etiladigan import.

1) Quyidagi realizatsiya qilish oborotlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi:

1) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig'im yoki boshqa to'lovlar undiriladigan xizmatlar;

2) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

4) dafn etish byuroolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;

5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

7) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

9) budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining budjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

10) shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu

jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari. Shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmalariga ko'ra shahar yo'lovchilar tashish transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga, shu jumladan, shahar tashqarisiga tashishga ham tatbiq etiladi;

11) oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

12) qimmatbaho metallarni vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirish va ularning eksporti;

13) tibbiy (veterinariya) xizmatlari (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno), dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar. Ushbu bandning qoidalarini qo'llash maqsadlarida:

- tibbiy xizmatlar jumlasiga tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmati ko'rsatish, diagnostika, profilaktika va davolash xizmatlari, gomeopatik, stomatologik xizmatlar, tish protezlari tayyorlash bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish komissiyalari, dezinfeksiya stansiyalari, sanitariya va epidemiyaga qarshi kurash yo'nalishidagi laboratoriyalar hamda bo'linmalar, boshqa tibbiy hamda tibbiy-sanitariya yo'nalishidagi muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi;

- veterinariya xizmatlari jumlasiga hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'laridagi, tajribaxonalardagi va boshqa shu kabilardagi jonivorlarni) kasalliklardan muhofaza qilish va ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yaxshi sifatli chorvachilik mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonlarga va insonga xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish tadbirlari kiradi;

14) chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

15) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari.

- sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlariga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonalari, bolalar dam olish oromgohlari va boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy ustav faoliyati doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi;

- turistik-ekskursiya xizmatlari jumlasiga safar tarkibida nazarda tutilgan turistik xizmatlar ko'rsatish uchun yo'llanmaning (vaucherning) qiymatiga kiritilgan barcha turistik-ekskursiya xizmatlari kiradi. Barcha turistik-ekskursiya xizmatlari turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasida belgilangan transportda xizmat ko'rsatishdan, yashab turishga, ovqatlanishga doir xizmatlardan, ekskursiya xizmati, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish xizmatlari va boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi;

- jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari jumlasiga sport inshootlarida sport musobaqalari, bayramlari, sport-tomosha tadbirlari, sport inshootlarida o'tkaziladigan kalendar va match uchrashuvlari, sport turlari bo'yicha o'quv guruhlar hamda komandalarida, sog'lomlashtirish, umumjismoniy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish yo'nalishidagi, chiniqish, suzish, sog'lomlashtirish maqsadidagi yugurish va yurish, atletika, ritmika va davolash gimnastikasi maktablari hamda klublarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari o'tkazish bo'yicha, sport inshootlariga qatnovchilarga biletning (abonementlarning) qiymatida nazarda tutilgan sport-texnika asbob-uskunalarini, trenajyorlarni, inventarlarni, sport ust-boshlarini berib turish bo'yicha xizmatlar hamda boshqa xizmatlar kiradi;

16) davlat mulkini xususiylashtirish tartibida realizatsiya qilinayotgan mol-mulk;

17) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

18) geologiya va topografiya ishlari;

19) bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab

chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari). Jumladan:

- bosma mahsulotlar jumlasiga kitoblar, gazetalar, jurnallar, ma'lumotnomalar, risolalar, albomlar, plakatlar, bukletlar, otkritkalar, daftarlar, rasm va chizmachilik albomlari, blankalar hamda boshqa bosma mahsulotlar kiradi;

- tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari) jumlasiga maket tayyorlash, kompyuter grafikasi, sahifalash, original maketlar tayyorlash, muqovalash, adadlarni tayyorlash, reklama murojaatlarini qabul qilib olish, rasmiylashtirish va nashrlarda joylashtirish, rang berish, yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash, axborot to'plash hamda uni qayta ishlash, matnlarni tarjima qilish ishlari, magnit va qog'oz nusxalarda pochta aloqasi hamda Internet orqali realizatsiya qilish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi tahririy, matbaa va noshirlik ishlari kiradi. Alohida va uzil-kesil ishlar (xizmatlar) tarzida amalga oshiriladigan, matbaa mahsuloti ishlab chiqarish hamda uni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan tahririy, matbaa va noshirlik ishlariga (xizmatlariga) qo'shilgan qiymat solig'i solinadi;

20) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

21) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

22) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

23) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o'rnatish hamda ularni tasarruf etish bo'yicha xo'jaliklar, yer resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan

foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

24) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo'linmalari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

25) davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;

26) o'zi etishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;

27) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;

28) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali sifatida beriladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish obyektlari;

29) budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;

30) davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;

31) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

32) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk.

II) Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan, bank kafolatlari berish;

2) depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan, vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;

3) to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar;

4) milliy valuta va chet el valutasini bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;

5) yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar dehisobvaraqlarini, shu jumladan, vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish;

6) qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar.

7) qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;

8) kliring operatsiyalari;

9) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

10) pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;

11) chet el valutasini bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;

12) kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);

13) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

14) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

15) lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);

16) jang'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti.

III) Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

b) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantemalar;

d) sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

e) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovini;

f) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo'yicha daromadlar;

g) sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

h) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug'urta qildiruvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan foizlar;

i) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

j) sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan, sug'urta rezervlari va sug'urta fondlari mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni);

b) preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

d) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

e) sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

IV) Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi tovarlarni import qilish ozod qilinadi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu

vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzar (kreditlar) mablag'lari, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan xomashyo;

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xomashyo, materiallar va yarim mahsulot.

1) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-tasta materiallari va yog'ochga belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgandan buyon soliqni hisoblashning ikki turdagi usuli amal qilgan.

1) ishlab chiqarilgan tovarlarni jo'natish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha hisobga olish usuli yoki hisobvara-q-faktura usuli.

2) ulgurji va chakana savdo, vositachilik xizmati ko'rsatish sohalarida hisobdan chiqarish usuli qo'llanilgan. Bunda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan baza narxlar farqi sifatida, ustama va mukofot haqi summasi sifatida aniqlanib shu summadan soliq hisoblangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni soliq to'lovchi orib boruvchi yakun bilan ro'yxatdan o'tgan joyidagi Davlat soliq idomalariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan va yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotni topshirish muddatida amalga oshiradi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari hisoblangan mikrofirma va kichik korxonalar yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda taqdim etadi. Soliq to'lovchilar (kredit va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtda hisobot davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalar reestrini ham taqdim etadilar. Hisobvara-q-fakturalar reestrining shakli davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

7.6. Aksiz solig'i

Aksiz solig'iga doir huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi VIII bo'lim, 229 – 241-moddalarida belgilab berilgan bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budjetga undirish shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i 1992-yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda joriy qilingan. Aksiz solig'ining qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va u bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan

qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz osti tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Aksiz solig'i stavkalari va aksizosti tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Aksiz solig'i to'lovchilar bo'lib O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar, O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar, oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi) bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Shuningdek, aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Aksiz solig'i solinadigan obyekt bo'lib quyidagi operatsiyalar hisoblanadi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan, tovarni sotish (jo'natish); garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish; aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish; aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish; aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma

ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xomashyo va materiallarni, shu jumladan, aksiz to'lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bo'xona hududiga import qilish.

7) Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi. Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek, tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bo'xona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bo'xona qiymati asosida belgilanadi.

Quyidagi aksizosti tovarlarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan hayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi 285-son «O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 1996-yil 1-oktabrdan boshlab tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarilishi, import qilinishi, saqlanishi, tashilishi va sotilishi ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek, aksiz solig'i to'liq undirilishi, ko'rsatilgan tovarlarni yashirincha ishlab chiqarish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelishning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga olib kelinadigan

tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni, pivodan tashqari, majburiy tarzda belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalash joriy etildi va ularni aksiz markalarini yopishtirmasdan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish, tashish (xalqaro tranzitdan tashqari), saqlash va sotish ta'qiqib qo'yildi. Aksiz tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar respublika budjetiga nominal qiymati bo'yicha buyurtma berilayotgan aksiz markalari miqdorining butun summasini to'lagach, davlat soliq inspeksiyalariga turlari bo'yicha aksiz markalarining zarur miqdorini xarid qilishga buyurtma xati topshiradilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari soliq inspeksiyalarining aksiz markalariga doir kelib tushgan buyurtmalarini hudud bo'yicha umumlashtiradilar va qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etadilar, bunda ishlab chiqaruvchi korxonalar ular buyurtirgan miqdorda aksiz markalarning nominal qiymatini to'plashganini tasdiqlaydilar. Kelayotgan yilga buyurtma umuman yil bo'yicha, choraklarga taqsimlagan holda beriladi. Aksiz markalarini bosish uchun buyurtmani «Davlat belgisi» Davlat ishlab-chiqarish birlashmasi (DICHB)ga joylashtirishni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi amalga oshiradi.

Soliq davri mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi, mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – bir oy hisoblanadi.

Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- aksiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tang'alanishi shart.

7.7. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

O'zbekiston Respublikasi mahalliy soliqlar turkumida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i muhim o'rin tutib, uning umumiy tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XIII bo'lim qoidalarida ifodalab berilgan. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir, bunda olingan (olinishi lozim bo'lgan) dividendlar summasiga, qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun esa sof qo'shimcha foyda summasiga ham kamaytiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar soliq solinadigan bazani hisoblangan foyda solig'i chegirib tashlangan holda yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasiga kamaytirilgan summasini qo'shish orqali aniqlaydi. Ijtimoiy infratuzilma obyektlariga sog'liqni saqlash obyektlari, ta'lim obyektlari va bolalar dam olish oromgohlari kiradi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksining 298-moddasida nazarda tutilgan bo'lib unga ko'ra, ushbu soliqni to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

7.8. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlar

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni amalga oshirishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining IX bo'lim, 42 – 46-boblarida o'z ifodasini topgan bo'lib, yer qa'ridan foydalanish jarayonidagi soliq huquqiy munosabatlari tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-moddasining talablarida¹ O'zbekiston Respublikasida yer, yer osti boyliklari umummilliy boylik sifatida e'tirof etilib, undan oqibora foydalanish lozimligi va davlat muhofazasida ekanligi belgilangan. O'zbekistonda 2002-yil 13-dekabrda «Yer osti boyliklari to'g'risida» qonunining yangi tahriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi bo'lib, yer osti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi. Soliq kodeksiga ko'ra, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Hugungi kunda xalqaro soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda, foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bomsalar, royalti va soliqlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- a) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- b) qo'shimcha foyda solig'i;

¹O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009.

d) bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarga yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar va foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar kiradi. Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan, bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati *soliq solinadigan bazadir*.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kavlab olishning (ajratib olishning) ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi lozim.

Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilar – ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar, foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni

amalgaga oshiruvchi yuridik shaxslar shuningdek ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan qo'shimcha foyda solig'i to'lovchisi etib belgilanishi mumkin. Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) qo'shimcha foyda solig'ini solish obyekti. Soliq solinadigan baza hisobot davridagi qo'shimcha foyda summasidan kelib chiqib, qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 45-bobida bonuslarga doir masalalar o'z ifodasini topib, unga ko'ra bonuslar bu yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdur. Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdagi bonuslarni imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusini to'laydi. Davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi. *Bonuslar* — bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'limasada, davlat budjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash, qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdur. Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay budjetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Tijoratbop topilma bonusi Soliq kodeksining 254-moddasi qoidalariga ko'ra, tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan, dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdur.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali

qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralari hajmi soliq solish obyektidir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati vakolatli davlat organi belgilagan axborot manbalarining ma'lumotlariga ko'ra xalqaro birjada belgilangan birja bahosi bo'yicha hisoblab chiqiladi. Jahon bozorida narx mavjud bo'lmagan taqdirda, qazib olinadigan foydali qazilmalarning qiymati vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida qazib olinadigan xom ashyo turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Foydali qazilmalarni qazib olishning tabiiy noqulay sharoitda ishlaydigan konlar davlat tomonidan qo'shimcha ravishda qo'llab quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalari va imtiyozlar joriy etish orqali bunday korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay; jismoniy shaxslar tomonidan – yilda bir marta, keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay muddatlarda taqdim etadilar. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

7.9. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

O'zbekiston Respublikasida qadimdan yer, suv muqaddas va qadrlin ne'matlar hisoblanib, ularga bo'lgan munosabat, ulardan tejamkorlik

bilan foydalanish doimiy ravishda jamiyat va davlat tomonidan nazorat qilib kelingan. Mazkur muqaddas tabiiy ne'matlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi qoidalari mazmuniga ko'ra¹, umummilliy boylik sifatida e'tirof etilib, ulardan oqilona foydalanish lozimligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika budjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, suv munosabatlari bilan bog'liq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi X bo'lim qoidalarida tartibga solingan. Mazkur bo'limda soliq to'lovchilar, soliq solish obyekti va bazasi, soliq solinadigan bazani belgilash tartibi, imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish tartibi kabi jarayonlar huquqiy tartibi belgilangan.

Soliq qonun hujjatlariga ko'ra, o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasi rezidentlari), faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir. Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyektidir. Suv resurslarining yer usti manbalariga daryolar, ko'llar, suv omboriari, turii xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari kiradi.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi. Foydalanilgan suvning hajmi *soliq solinadigan bazadir*.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2009.

suv obyektlaridan suvdan foydalanish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 261-moddasi qoidalariga ko'ra, *imtiyoz tarzda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagilar ozod etiladi.*

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941 – 1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

2) suv uchun budjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

3) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar – tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi. Jumladan, sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni

saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga tatbiq etiladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalar tashqari) uchun – bir oy; suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'ining umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun – yil choragi; qishloq xo'jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun – kalendar yil soliq hisobot davridir.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq qonunchiligida yuridik shaxslar tushunchasiga berilgan ta'rif va ularning turlari haqida izohlar bering.

2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar haqida nimalar bilasiz?

3. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i, mol-mulk solig'i va uning davlat budjetini shakllantirishdagi ahamiyati haqida ayting.

4. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i va uning huquqiy asoslarini tushuntiring.

5. Yuridik shaxslardan yer qa'ridan foydalanganliklari va suv resurslaridan foydalanganlik uchun undiriladigan soliqlarning ahamiyatini izohlang.

6. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning huquqiy asoslarini ayting.

7. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlarni o'z vaqtida bajarmaganlik uchun yuridik javobgarlik choralarini tushuntirib bering.

**VIII bob. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA
TO'LANADIGAN MAJBURIY
TO'LOVLARNING HUQUQIY TABIATI**

8.1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarning huquqiy asoslari.

8.2. Davlat maqsadli jamg'armalari, ularga to'lanadigan majburiy to'lovlar va yig'imlar.

Tayanch so'z va iboralar

O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalari tushunchasi. Davlat maqsadli jamg'armalarining o'ziga xos xususiyatlari va tasniflanishi. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarning huquqiy tabiati. O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va uning huquqiy asoslari. Respublika yo'l jamg'armasi va uning huquqiy asoslari. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imlar. Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasining ahamiyati.

**8.1. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarning
huquqiy asoslari**

O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalarning ahamiyati ham muhim o'rin kasb etib, ular ma'lum bir tarmoq yoki yo'nalishlarni yanada takomillashtirish va qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Davlat va mahalliy maqsadli pul jamg'armalari moliya tizimida paydo bo'lganligiga hali ko'p bo'lmagan bo'lib, uning ilk ko'rinishlari davlat budjetdan tashqari jamg'armalar sifatida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasida budjetdan tashqari jamg'arma sifatida dastlab pensiya jamg'armasi tashkil etildi.

Davlat, budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish orqali, o'zining moliyaviy mablag'laridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanishni ta'minlaydi. Budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar moliya tizimining o'ziga xos elementlaridan biri hisoblanadi. Davlat budjetidan farq qilgan holda budjetdan tashqari jamg'armalar ijro

etuvchi organlar ixtiyorida yoki boshqa maxsus organlar ixtiyorida bo'ladi. Bundan tashqari, budjetdan tashqari jamg'armalar uzoq yoki qisqa muddatli maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

Davlat va mahalliy maqsadli pul mablag'lari jamg'armalari bo'lib ularning o'ziga xos xususiyatlari jamg'armalar vakolatli organlar tomonidan aniq maqsadlar uchun tashkil etiladi, jamg'armalar faqatgina maqsadga muvofiq foydalaniladi, maqsadli jamg'armalarning huquqiy maqomi vakolatli organ tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanadigan nizomlar asosida tartibga solinadi. Davlat va mahalliy budjetdan tashqari jamg'armalar turli asoslarga ko'ra tasniflanadi.

1) Maqsadli yo'nalishiga qarab, iqtisodiy va ijtimoiyga bo'linadi.

2) Tashkil etish uslubiga ko'ra, budjet tarkibidagi jamg'armalarga va mustaqil boshqaruvga ega bo'lgan jamg'armalarga bo'linadi.

3) Boshqarish darajasiga asosan davlat maqsadli jamg'armalariga va mahalliy maqsadli jamg'armalarga bo'linadi.

4) Yuridik mohiyatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, vakolatli organlar qarorlari bilan tashkil etiladigan jamg'armalar (uy-joy qurilishi budjetdan tashqari jamg'armalar, sohaviy va sohalararo jamg'armalar, ekologik va boshqa) hamda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari kuchining talabi bilan tashkil etiladigan (O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasi, yo'l jamg'armalari va boshqalar) jamg'armalarga bo'linadi.

8.2. Davlat maqsadli jamg'armalari, ularga majburiy to'lovlar va yig'imlar

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XV, XVI bo'lim qoidalarida belgilab berilgan. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari 51-bobda ifodalangan bo'lib unga ko'ra, yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar bo'lib, yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalarini va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari, jismoniy shaxslar – O'zbekiston

Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilardir.

Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obyektidir. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak. Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari – hisobot yilining 1 oktabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kunidagi eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi lozim.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni huquqiy asoslari Soliq kodeksining 52-bobda ifodalangan bo'lib, uning to'lovini yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari

hamda oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxslar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilardir. Notijorat tashkilotlar, yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi: O'zbekiston Respublikasi fuqarolari pensiya yoshiga yetganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy yordam olish bo'yicha Konstitutsiyaviy huquqqa egadirlar. Ushbu huquqiy me'yorlar O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrda qabul kilgan «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minot to'g'risida»gi Qonunida ham belgilab berilgan. Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15- noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan «Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risida»gi Nizom¹ asosida tashkil qilinadi. Nizomga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar, ajratmalar va to'lovlarning to'liq yig'ilishini ta'minlash, aholini davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

Soliq qonun hujjatlariga ko'ra, sof tushum soliq qonun hujjatlarida belgilangan hollarda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlar to'plami. –T.: 2000., №12

ajratmalarning soliq solish obykti va soliq solinadigan bazasidir.

Soliq solish obykti va soliq solinadigan baza quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun - mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun - o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan, tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi haq summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun - tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga

majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktyabrdagi yangi tahrirda qabul qilingan «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi Qonun'ning 13-moddasiga binoan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini moliyalashtirishga ajratilgan mablag'lar belgilangan maqsadga ega bo'ladi va tegishli avtomobil yo'llarini ta'mirlash, saqlash hamda rivojlantirish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyojlar uchun (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari) olib qo'yilmaydi yoki sarflanmaydi.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalarini, shuningdek xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Xo'jalik avtomobil yo'llarini moliyalashtirish ular qaysi yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida bo'lsa, o'sha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi avtomobil yo'llari sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi, davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining avtomobil yo'llari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi, O'zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ro'yxatini tasdiqlaydi hamda avtomobil yo'llari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 19-avgustdagi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdagi «O'zavtoyol davlat aksiyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatni tashkil etish masalalari to'g'risida» gi qaroriga asosan 2003-yil 1-oktabridan boshlab yo'l xo'jaligini boshqarish tuzilmasidagi Respublika, viloyat va mahalliy yo'l jamg'armalari tugatildi va ularning o'rnida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida **Respublika yo'l jamg'armasi** tuzildi. Ushbu jamg'armaga mablag'larni yig'ish va

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007, 40-son, 410-modda.

uni nazorat qilish vazifasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi zimmalariga yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning huquqiy asoslari 53-bobida belgilanib, ularni amalga oshirish tartibi takomillashtirildi. Respublika yo‘l jamg‘armasiga *majburiy ajratmalar* to‘lovchilari bo‘lib yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari hamda oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxslar hisoblanadi.

Notijorat tashkilotlar, yagona soliq to‘lovi to‘lovchi yuridik shaxslar, ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo‘yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlar qismi bo‘yicha Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning to‘lovchilari bo‘la olmaydi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo‘jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta‘minoti korxonalari uchun - mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo‘shilgan qiymat solig‘i va tegishincha issiqlik ta‘minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta‘minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta‘minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta‘mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo‘shilgan qiymat solig‘i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta‘minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi, shu jumladan, tovarlarni sotish bo‘yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo‘yicha hamda

vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun Soliq kodeksining 148 va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi lozim.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 54-bobida *Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlar* ham nazarda tutilgan bo'lib, unga avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im, chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'imlar kiradi.

Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir. Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilar hisoblanadi.

Yig'imlar uchun *soliq solish obyekt*i avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish, chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish kabilar hisoblanadi.

Soliq solinadigan *baza* olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari hisoblanadi.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish *imtiyozlar* Soliq kodeksining 324-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog'idan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar – mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo'yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari – yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (yengil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

6) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek budjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar – avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini 3 – 5-bandlarida ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining no rezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi. Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari tizimida *Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi* ham muhim o'rin tutib, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi Farmoniga muvofiq, maktab ta'limini rivojlantirish maqsadida budjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasi tarzda tashkil etildi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtiriladi. Maktab ta'limini rivojlantirishga *majburiy ajratmalar to'lovchilari* bo'lib, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan

tartibda yagona soliq to'lovini to'laydigan yuridik shaxslardan tashqari, tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq solishning alohida tartibiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek ko'rsatilgan ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar to'lovchilari ular bo'yicha turlicha soliq solish obyektlari belgilangan bir qancha faoliyat turlari bilan shug'ullangan hollarda, ular alohida hisob yuritishlari va ushbu soliq solish obyektlaridan kelib chiqib belgilangan stavka bo'yicha maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarni to'lashlari lozim. Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarga tortish obyekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika maxsuslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari uchun – yalpi daromad;
- vositachilik, topshiriq shartnomalari va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – QQS chegirilgan holda komission taqdirlash summasi;
- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – QQSni chegirgan holda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi;
- kredit va sug'urta tashkilotlari uchun – daromad;
- moliyaviy ijara (lizing) xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar uchun – foizli daromad;
- tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun – QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi;
- kommunal xo'jaligi tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun – QQS va, tegishincha, issiqlik ta'minoti korxonalari uchun – issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun – suv, gaz ta'minoti korxonalari uchun – tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi;
- «O'zdonmahsulot» AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari) uchun – QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi;
- iqtisodiyotning qolgan tarmoqlari uchun – QQS va aksiz solig'ini chegirgan holda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi hisoblanadi. Jamg'armaga to'lanishi lozim bo'lgan maktab ta'limini

rivojlantirishga majburiy ajratmalar summasi belgilangan majburiy ajratmalarga tortish obykti va stavkasidan kelib chiqqan holda to'lovchilar tomonidan aniqlanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarning hisob-kitoblari ro'yxatdan o'tkazish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'sib boruvchi yakun bilan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrda «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq shaklda taqdim etiladi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar kirmaydigan korxonalar tomonidan — har oyda, hisobot davridan (oyidan) keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan (bundan yagona soliq to'lovini to'lovchilar mustasno) — har chorakda, hisobot davridan (choragidan) keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida amalga oshiriladi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarni to'lash har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida amalga oshiriladi. Majburiy ajratmalarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmatining organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Davlat maqsadli jamg'armalari tushunchasi va turlarini tushuntiring.

2. Davlat maqsadli jamg'armalarining o'ziga xos xususiyatlari va tasniflanishi asoslarini ayting.

3. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarning vazifalari nimalardan iborat?

4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi haqida nimalarni bilasiz?

5. Respublika yo'l jamg'armasi va uning huquqiy asoslari va ahamiyatini, o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

6. Maktab ta'limini rivojlantirish va Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlarning turlarini tushuntirib bering.

XI bob. SOLIQ TO'LOVCHILARNING AYRIM TOIFALARIGA SOLIQ SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

9.1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

9.2. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

9.3. Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

9.4. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

9.5. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksidagi soliq to'lovchilarining ayrim toifalariga soliq to'lashning alohida tartibini belgilashning o'ziga xos xususiyatlari. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Oddiy shirkat shartnomasi tushunchasi va u bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solish. Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solish.

9.1. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatida xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish va bu orqali mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy farovonligiga erishish muhim vazifalardan sanaladi. 2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi ham ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni huquqiy jihatdan tartibga soladi. Mazkur qonunchilik hujjatining «Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos

xususiyatlari» nomli alohida bo'limda to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar belgilandi. Jumladan, Soliq kodeksining 59-bobi «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari» deb nomlanib, Soliq kodeksining 376-moddasi talablariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutildi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar deyilganda, chet el davlatining fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining doimiy ravishda chet elda yashovchi fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushuniladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda *yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini, yagona soliq to'lovini, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni* to'lashdan muayyan muddatga ozod qilinadilar.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan *soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar* quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilanadigan ortiqcha ishchi kuchlari mavjud bo'lgan mintaqalar va qishloq aholi punktlarida joylashtirilganda;

- chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirilganda;

- yuridik shaxslarning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etganda;

- yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar kiritilganda;.

- xorijiy investitsiyalar erkin almashtiriladigan valuta yoki yangi

zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berilganligi natijasida ushbu imtiyozlarning qo'llanilish muddati mobaynida olingan daromadlar yuridik shaxsni yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirilganda.

Mazkur soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs imtiyozlar berilgan muddat tugaganidan keyin bir yil o'tmasdan faoliyatini tugatgan taqdirda, chet ellik investorning foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning summalari budjetga undirilganidan keyin amalga oshiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi imtiyozlarning qo'llanilish mezonlariga mos keladigan yuridik shaxs imtiyozlarni qo'llash boshlangan sana haqida soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda bildirishi lozim bo'ladi. Soliq davri mobaynida imtiyozlarga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tkazish joyidagi davlat soliq xizmati organini soliq to'lovchining imtiyozlarga bo'lgan huquqi yo'qotilgan sana to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etishi lozim.

Soliq kodeksida belgilangan shartlarga nomuvofiqlik aniqlangan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchi subyektlar soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha Soliq kodeksi 376-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozlarni olgan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxs belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan holda umumbelgilangan tartibda bajarishi ta'minlanadi.

9.2. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Oddiy shirkat shartnomasi bu fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan shartnoma turlaridan biri bo'lib, bu (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha sheriklar (ishtirokchilar) deb ataluvchi ikki yoki undan ortiq shaxs foyda olish yoki qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o'z hissalarini qo'shish va yuridik shaxs tuzmasdan birgalikda ish qilish majburiyatini olishidir.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 962-moddasi talablarida faqat yakka tadbirkorlar va (yoki) tijorat tashkilotlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat shartnomasining taraflari bo'lishlari mumkinligi belgilangan. Oddiy shirkat shartnomasi yozma shaklda tuzilib, sherik umumiy ishga qo'shadigan hamma narsa, jumladan pul, boshqa mol-mulk, kasbiy va boshqa bilimlar, malaka va mahorat, shuningdek ishbilarmonlik obro'-e'tibori sherikning qo'shgan hissasi hisoblanadi. Sheriklar, agar oddiy shirkat shartnomasidan yoki haqiqiy holatlardan boshqacha mazmun kelib chiqmasa, qiymati bo'yicha teng hissa qo'shadilar deb taxmin qilinadi. Sherikning qo'shgan hissasini pulda baholash sheriklar o'rtasidagi kelishuv bo'yicha amalga oshiriladi.

Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sheriklarning (ishtirokchilarning) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikda foydalanadigan mol-mulki birgalikdagi faoliyatga qo'shilgan hissa tarzida har bir sherikning (ishtirokchining) balansida hisobga olinishi lozim.

Oddiy shirkat shartnomasi doirasida birgalikda ishlab chiqarilgan tovar, birgalikda ko'rsatilgan xizmatlar, birgalikda bajarilgan ishlar «Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot» tushunchasini ifodalaydi. Agar ishonchli shaxs, oddiy shirkat shartnomasi doirasidagi faoliyatdan tashqari, mustaqil ravishda faoliyatni ham amalga oshirsa, u holda mazkur faoliyat bo'yicha uning (ishonchli shaxs) uchun amalda bo'lgan soliq solish tartibiga muvofiq tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lanadi.

Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq holda vujudga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash bo'yicha majburiyatlar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi

shaxs (ishonchli shaxs) tomonidan ijro etiladi. Bunda, agar oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarining) biri yuridik shaxs bo'lsa, faqat yuridik shaxs ishonchli shaxs bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar ishtirokidagi birgalikdagi faoliyat natijalariga soliq solish, Soliq kodeksining 380 – 381-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar oddiy shirkat shartnomasining barcha sheriklari (ishtirokchilari) yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lsa, birgalikdagi faoliyatga soliq solish Soliq kodeksining 382-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Iшонchli shaxs vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs soliq solish obyektlari va birgalikdagi faoliyat bo'yicha soliq solish bilan bog'liq obyektlar hisobini alohida-alohida yuritadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilayotgan ishonchli shaxs oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishni boshlagan kundan e'tiboran o'n kun ichida ishonchli shaxsning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organida birgalikdagi faoliyat doirasida soliq majburiyatlarini bajaruvchi soliq to'lovchi sifatida hisobga turishi lozimdir.

Soliq kodeksining 380-moddasiga muvofiq, ishonchli shaxs birgalikdagi faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, birgalikda chiqariladigan mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish hisobini alohida-alohida yuritadi. Iшонchli shaxs birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilish oborotlari bo'yicha Soliq kodeksida belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i (aksiz to'lanadigan tovar realizatsiya qilingan taqdirda) va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar to'laydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi bo'lmagan ishonchli shaxs birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida davlat soliq xizmati organida hisobga turishi shart sanaladi.

Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushadigan, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangan holdagi sof tushum bilan realizatsiya qilingan birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to'g'ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq tarzida aniqlanadi. Birgalikdagi faoliyat natijasida olingan daromad birgalikdagi faoliyat

sheriklari (ishtirokchilari) o'rtasida har bir sherikning (ishtirokchining) hissasi ulushi asosida yoki oddiy shirkat shartnomasi shartlariga muvofiq taqsimlanadi hamda har bir sherikning (ishtirokchining) boshqa daromadlari tarkibiga kiritiladi.

Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilgan va mol-mulk ushbu shartnoma sheriklariga (ishtirokchilariga) qaytarilgan taqdirda, har bir sherikning (ishtirokchining) o'zi kiritgan hissasi miqdori doirasida olingan mablag'lari oddiy shirkat shartnomasi sherigining (ishtirokchisining) daromadlari tarkibiga kiritilmaydi.

Oddiy shirkat shartnomasi sherigida (ishtirokchisida) birgalikdagi faoliyatga soliq solish tartibi amaldagi Soliq kodeksining 381-modda ifodalangan bo'lib, unga ko'ra mol-mulkni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirish sheriklar (ishtirokchilar) o'rtasida kelishilgan qiymat bo'yicha yoki buxgalteriya hisobi hujjatlarida hisobga olinadigan balans qiymati bo'yicha amalga oshiriladi hamda unga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish sifatida qaralmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bilan olingan va birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilayotgan ishonchli shaxsda hisobga olish uchun qabul qilinadi. Bunda oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) birgalikdagi faoliyatga topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish uchun qabul qilmaydi. Agar kiritilayotgan mol-mulk bo'yicha ilgari qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish amalga oshirilgan bo'lsa, mol-mulk birgalikdagi faoliyatga topshirilgan davrda ilgari mazkur mol-mulk olinganda hisobga olish uchun qabul qilingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kamayadi.

Oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi) o'zi ishlab chiqargan mahsulotni birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida topshirgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmaydi. Oddiy shirkat shartnomasining birgalikdagi faoliyatga hissa sifatida mol-mulk topshirayotgan sherigi (ishtirokchisi) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, ishonchli shaxs tomonidan hisobga olinishi uchun topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatgan holda hisobvaraqq-fakturani rasmiylashtiradi. Birgalikdagi faoliyatga topshirilgan mol-mulk bo'yicha rasmiylashtirilgan hisobvaraqq-faktura birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha budjetga to'lanishi lozim bo'lgan

qo'shilgan qiymat solig'ini hisob-kitob qilishda soliqning ushbu summasini ishonchli shaxs tomonidan hisobga olish uchun qabul qilishga asos bo'ladi. Hisobvaraqa-fakturada «jo'natiladigan tovarlar hujjatlari yoki shartnomalar raqami va sanasi» degan katakchada «birgalikdagi faoliyatga hissa» degan belgi qo'yiladi.

Birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olingan daromadlarga soliq solish oddiy shirkat shartnomasi sherigiga (ishtirokchisiga) soliq solishning amaldagi tartibiga muvofiq oddiy shirkat shartnomasining har bir sherigida (ishtirokchisida) boshqa daromadlar tarkibida amalga oshiriladi. Bunda qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar), shuningdek yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan oddiy shirkat shartnomasi sheriklarining (ishtirokchilarning) birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlariga dividendlarga soliq solishda belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Soliq kodeksining 382-moddasiga asosan, faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar amalga oshiradigan birgalikdagi faoliyatga soliq solish masalasi oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyat faqat yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan taqdirda, birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishonchli shaxs mazkur mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushumdan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi, shuningdek agar birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot aksiz to'lanadigan mahsulot bo'lsa, aksiz solig'i to'lovini amalga oshiradi.

Yagona soliq to'lovi birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiya qilinmasdan, birgalikdagi faoliyat sheriklari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlab olingan taqdirda ham to'lanadi. Bunda yagona soliq to'lovi summasi birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish doirasi uchun yagona soliq to'lovi hisob-kitobining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sheriklarning umumiy xarajatlari, zararlari va javobgarligi masalalari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 967-moddasida belgilangan bo'lib, unga muvofiq sheriklarning birgalikdagi faoliyatiga bog'liq xarajatlar va zararlarni qoplash tartibi ularning kelishuvi bilan

aniqlanadi. Bunday kelishuv bo'lmaganda har bir sherik o'zining umumiy ishga qo'shgan hissasi qiymatiga mutanosib ravishda xarajatlar va zararlarni zimmasiga oladi. Sheriklardan birortasini umumiy xarajatlarni yoki zarni qoplashda ishtirok etishdan to'liq ozod etadigan kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Agar oddiy shirkat shartnomasi uning ishtirokchilari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lmasa, umumiy shartnoma majburiyatlari yuzasidan har bir sherik o'zining umumiy ishga qo'shgan hissasi qiymatiga mutanosib ravishda butun mol-mulki bilan javobgar bo'ladi. Oddiy shirkat shartnomasidan kelib chiqmagan umumiy majburiyatlar bo'yicha sheriklar solidar javobgar bo'ladilar. Agar oddiy shirkat shartnomasi uning ishtirokchilari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lsa, sheriklar umumiy majburiyatlar bo'yicha ularning yuzaga kelish asosidan qat'i nazar solidar javobgar bo'ladilar.

9.3. Dehqon xo'jaliklariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlashda, agrar sohaning keng rivojlanib borishida dehqon xo'jaliklarining o'mi beqiyosdir. Dehqon xo'jaliklari faoliyatining huquqiy asoslari 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunida belgilab qo'yilgan.

Mazkur qonunning 1-moddasiga ko'ra, *dehqon xo'jaligi* oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi. Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo'jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi hamda u davlat ro'yxatiga olinganidan va unga belgilangan tartibda yer uchastkasi berilganidan keyin tashkil etilgan hisoblanadi.

Yer uchastkasi berish to'g'risidagi ariza so'ralayotgan yer uchastkasining joylashgan yeri, maydoni, dehqon xo'jaligining tarkibi hamda yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanish

ko'rsatilgan holda qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruviga yoxud boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkilotining ish beruvchisiga (ma'muriyatiga) beriladi. Qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) boshqaruvi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining ish beruvchisi (ma'muriyati) dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish imkoniyati to'g'risidagi xulosani fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan kelishilgan holda tayyorlaydi. Mazkur xulosa asosida qishloq xo'jaligi kooperativining (shirkat xo'jaligining) umumiy majlisi, boshqa qishloq xo'jaligi yoki o'rmon xo'jaligi korxonasi, muassasasi, tashkilotining vakolatli organi dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida iltimosnoma bilan tuman hokimiga murojaat qilish haqida qaror qabul qiladi.

Tuman hokimi iltimosnoma asosida va yer uchastkalari berish (realizatsiya qilish) to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha tuman komissiyasining xulosasi asosida dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish hamda mazkur xo'jalikni davlat ro'yxatiga olish haqida qaror qabul qiladi.

Dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish dehqon xo'jaligini doimiy yashash joyidagi tuman hokimligi tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hujjatlar bilan birgalikda ariza berilgan paytdan e'tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Dehqon xo'jaligiga Yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari har bir dehqon xo'jaligini xo'jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo'jaligining tarkibi, xo'jalik boshlig'i yoxud uning vazifasini bajaruvchi shaxs, shuningdek xo'jalikning tashkiliy-huquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan) to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib qo'yadi. Dehqon xo'jaliklarini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida dehqon xo'jaliklarini soliqqa tortish munosabatlari amaldagi Soliq kodeksining 61-bob, 383-moddasi talablari asosida tartibga solinadi.

Mazkur qoidalarga ko'ra, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari Soliq kodeksida jismoniy

shaxslar – soliq to'lovchilar uchun nazarda tutilgan tartibda soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshiradilar. Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda dehqon xo'jaliklari quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- bojxona to'lovlari;
- qonunda belgilangan holatlarda davlat boji;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari yuqorida keltirilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash bilan bir qatorda Soliq kodeksining 311-moddasida nazarda tutilgan tartibda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lovini ham amalga oshiradilar.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish, o'zlari etishtirgan mahsulotni qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda qonunda nazarda tutilgan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari lozim.

9.4. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida bozorlar faoliyati bilan bog'liq faoliyatni soliqqa tortish bilan bog'liq jarayonlar amalda Soliq kodeksining normalari asosda tartibga solinib, bozorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi. Mazkur 384-modda talablariga ko'ra, bozorlarning daromadlariga patta to'lovi tushumlari, boshqa tushumlar kiradi.

Patta to'lovi bu Soliq kodeksining 385-moddasida belgilanganidek, har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdur. Bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar patta to'lovini to'laydilar.. Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pul olib, unga bir vaqtning

o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki kvitansiya berish orqali undiriladi.

Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan hollarda, patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi. Patta to'lovining miqdorlarini mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan belgilanadi.

Amaldagi Soliq kodeksining 386-moddasida boshqa tushumlar tushunchasi ham belgilangan bo'lib, bozorlarning *boshqa tushumlari* jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) bozorlarning hududida joylashgan va ularning tasarrufida bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarni ijaraga berishdan olingan tushumlar;

2) sotuvchilarga va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

3) bozor ma'muriyati yoki uning savdo-xarid korxonalarini tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va realizatsiya qilishdan (dehqon bozorlari uchun) olingan daromadlar;

4) qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

Sotuvchilar va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatilganligi, yer maydonlari, binolar, inshootlar hamda boshqa mol-mulk yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berilganligi hamda bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar uchun haq shartnoma asosida undiriladi. Bunda yer uchastkalari uchun ijara haqining summasi yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkasidan kam bo'lmashligi va ushbu joy uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorining uch baravaridan ko'p bo'lmashligi kerak.

Bozorlardan Soliq kodeksining 385 – 386-moddalarida ko'rsatilgan daromadlaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undirilmaydi. Bozorlar zimmasida to'lov manbayida soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha majburiyatlar hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagilarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- davlat boji;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar;

• avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib borilganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Bozorlar daromadlarining umumiy summasidan, bozorlar daromadidan to'lanadigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangandan keyin qolgan mablag'larning 50 foizi bozorlar joylashgan joydagi tegishli mahalliy budjetlarga belgilangan tartibda yo'naltiriladi. Qolgan 50 foizi bozorlar ma'muriyati tasarrufida qoladi va ulardan joriy xarajatlarni qoplash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash uchun foydalaniladi. Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari bozorlar tomonidan amalga oshirilganda, bunday faoliyatdan olingan daromadlarga Soliq kodeksining 58-bobiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq solinadi. Olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bozorlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlagan shaklda taqdim etadi. Mablag'larni budjetga o'tkazish olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan bir oyda bir marta amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009-yil 30-oktyabrdagi farmoyishiga ijrosini ta'minlash hamda bozorlar faoliyatini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2010-yil 8-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga¹ asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasida *Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi tashkil etildi*. Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash avtomobil to'xtash joylari, shuningdek ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini o'z vakolatlari doirasida nazorat qilish;
- bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2010 yil, 1-2-son, 4-modda.

avtomobil to'xtash joylarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquq buzilishlarini aniqlash, ularning oldini olish va barham berish;

- bozorlar va savdo komplekslari hududida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashish;

- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash avtomobil to'xtash joylari, shuningdek ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari va mablag'lar tushumi hisobining to'liq yuritilishini ta'minlash;

- moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovdan oldingi tekshirishlarni tashkil etish va olib borish, jinoiy ishlar qo'zg'ash, ular bo'yicha surishtiruv ishlarini amalga oshirish, jinoyat ishlarini tergovga tegishligiga ko'ra huquqni muhofaza qilish organlariga topshirish;

- soliq bilan bog'liq huquq buzilishlari natijasida davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirish chora-tadbirlarini ko'rishdan iborat.

9.5. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mamlakatimizda inson hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, bu Konstitutsiyaviy qoida Qomusimizning 13-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Ijtimoiy qadriyatlar Konstitutsiyaviy prinsip darajasiga ko'tarilishi fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlaridan bo'lib, bunda advokatura instituti asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun Konstitutsiyamizning 116-moddasida, tergov va sud ishi yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirish advokatura instituti, zimmasiga yuklatilgan. 2008-yil 1-mayda ularning faoliyatini takomillashtirish maqsadida «O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi advokatlik tuzilmalari, ularning huquqiy maqomi va ularga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi munosabatlarning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi «Advokatura to'g'risida»gi

qonunda¹, 1998-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi qonunda, shuningdek yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 64-bobida o'z ifodasini topgan.

Advokatlik firmalari, byurolari, huquqiy yordam ko'rsatuvchi muassasa sifatida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi alohida shaxslarning mustaqil, ixtiyoriy, kasbiy birlashmasi sifatida e'tirof etiladi. Advokatlik tuzilmalari hamda advokatlarga nisbatan soliq solishda bir qator o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular tadbirkorlik faoliyatiga o'xshashligi bilan munozarali masaladir.

Tadbirkorlikning o'zi muayyan huquqiy an'analariga asoslangan kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarga taalluqlidir. Advokatlik faoliyatining ko'pgina muhim tarkibiy unsurlari uni amalga oshirishning kasbiy layoqatiga bog'liqdir. Kasbiy xususiyat bu so'zsiz, advokatlarga xos bo'lishi shart bo'lgan, lekin soliq solishga aloqador bo'lmagan yuqori malaka ko'rsatkichi sifatidagi kasbiy layoqat emas balki, advokatura institutining alohida mohiyati, uning davlat va jamiyatdagi alohida o'rni tushuniladi. Shuning uchun ham advokatlar hay'ati a'zolari xususiy amaliyotchi yuristlar va shu kabilar tadbirkorlar hisoblanmaydi².

Yuridik faoliyat ham advokatlik kabi tadbirkorlik balki kasbiy faoliyat turidir. Shuni aytib o'tish kerakki, advokatlik amaliyotining notijorat xususiyati haqidagi qoida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan.

MDH mamlakatlari advokaturasi haqidagi qonunchilik qiyosiy – huquqiy tahlil qilinganda³, Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida advokatlik idorasi notijorat tashkilot hisoblanib, yuridik yordam tadbirkorlik faoliyati hisoblanmasligi ko'rsatilgan. Qirg'iziston qonunchiligida advokatlik faoliyati advokatlik muassasasi orqali yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati sifatida shug'ullanishga ruxsat bergan. Tojikiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi qonunida advokat litsenziyalar asosida yuridik yordam ko'rsatuvchi tadbirkor deb belgilanib, advokat hay'atiga a'zo bo'lmagan professional

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997 yil. 2-son.

² Предпринимательское право: курс лекций. – М.: Юридлит.1993, стр 20.

³ Xvan.L.B. Soliq huquqi. – T.: Konsaudinform, 2001 yil.

yuristlarning yuridik yordam ko'rsatishi tadbirkorlik faoliyati uchun belgilangan tartibda lietsenziyalar asosida amalga oshiriladi. Bunda qonun shuni qayd etadiki, advokatlar hay'atlari daromad solig'i, mahalliy soliqlar va yig'implardan tashqari umumdavlat soliqlari, yig'implar va boshqa to'lovlardan ozod qilinadi.

Haq to'lanishi yuridik yordamning haq evaziga ko'rsatilishi advokatura kasbiy faoliyat tabiatini o'zgartirmaydi. Maishiy xususiyatdagi maslahatchilik yoki xizmatlarning boshqa shakllaridan farqli tarzda advokatura Konstitutsiyaning bevosita talabiga binoan doimo mavjud bo'lishi hamda huquqiy yordam ko'rsatishi lozim. Lekin u davlat va mahalliy budjet asosida faoliyat ko'rsata olmaydi chunki, u holda advokaturaning mustaqil muassasa sifatidagi mazmuni buziladi.

O'zbekiston Respublikasida advokatlik amaliyotining o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari va advokatlik hay'atlari, firmalari, byurolariga taalluqli soliq qonunchiligi hujjatlarini tegishlicha tushunishni inobatga olgan holda soliq solish tartibi qoidalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XI bo'limi «Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari» deb nomlanib, uning 64-bobi qoidalariga ko'ra¹, advokatlar hay'atlari advokatlik firmalari va advokatlik byurolari nodavlat, notijorat tashkilotlari sifatida faoliyatining advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatish bilan bog'liq qismi bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan ozod etilganligi ko'rsatilgan. Shuningdek, *bojxona to'lovlari, yagona ijtimoiy to'lov, avtotransport vositalarini olganlik va vaqtincha olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im, to'lov manbayidan ushlab qolinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar* bundan mustasno bo'lib, soliq qonun hujjatlariga ko'ra to'lovni belgilangan tarzda amalga oshiradilar. Advokatlar hay'atlari advokatlik firmalari va advokatlik byurolari advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni Soliq kodeksida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi *yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan qoidalar* asosida to'lovni amalga oshiradilar.

Advokatlarning daromadlariga soliq solishning huquqiy tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 392-moddasida belgilab

¹ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2010.

qo'yilgan bo'lib unga ko'ra, advokatlar tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan gonorarlar summalariga *jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i* solinadi. Advokatlarning daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i obykti bo'lib hisoblanadi. *Advokatning daromadi* advokat tomonidan yuridik yordam (xizmat) ko'rsatganlik uchun olingan summa bilan, advokatlar hay'atlari advokatlik firmalari va advokatlik byurolarini saqlab turish uchun o'tkazilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. *Soliq solinadigan baza* advokat daromadidan advokat gonorarida hisobga olinadigan yagona ijtimoiy to'lov chegirib tashlangan holda aniqlanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksidagi soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq to'lashning alohida tartibini belgilashning huquqiy asoslarini ayting.

2. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq to'lashning alohida tartibining o'ziga xos xususiyatlari va zaruratini tushuntiring.

3. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

4. Oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha soliq solishning tartibi asoslari nimalardan iborat?

5. Advokatlar hay'atlari, advokatlik firmalari, advokatlik byurolari va advokatlarga soliq solishning o'ziga xos jihatlari izohlang.

X bob. SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI

10.1. Soliq nazorati tushunchasi, vazifalari va uning huquqiy asoslari.

10.2. Soliq nazoratining shakllari.

10.3. Soliq tekshiruvlari tushunchasi va ularning turlari.

Tayanch soʻz va iboralar

Soliq nazorati tushunchasi, soliq nazoratining vazifalari. Soliq nazoratini tartibga soluvchi qonun hujjatlari. Soliq nazoratining shakllari. Soliq toʻlovchilarni hisobga olish. Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bogʻliq obyektlarni hisobga olish. Budgetga va davlat maqsadli jamgʻarmalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish. Kameral nazorat tushunchasi. Naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometriji. Soliq tekshiruvlari tushunchasi va turlari. Rejali, rejadan tashqari va muqobil tekshiruvlar.

10.1. Soliq nazorati tushunchasi, vazifalari va uning huquqiy asoslari

Soliq nazorati – soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishni, soliq toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar davlat budjeti va boshqa maqsadli jamgʻarmalariga toʻgʻri hisoblab chiqarilishni, toʻliq va oʻz vaqtida toʻlanishini nazorat qilishdan iborat faoliyatdir. Soliq nazorati qanchalik qatʻiy boʻlsa va tekshiruvlar natijasida aniqlangan huquqbuzarliklar boʻyicha chora koʻrish muqarrarligi toʻliq taʼminlansa davlat budjeti manfaatlari har tomonlama muhofaza qilingan va budget daromadlarining shakllanishi kafolatlangan boʻladi. Shu nuqtayi nazardan soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ishlarining huquqiy masalalari, nazoratni tashkil qilishning uslubiy yoʻnalishlari, nazorat natijalarini rasmiylashtirish va soliq qonunchiligiga rioya etishda qonunbuzarlikka yoʻl qoʻygan soliq toʻlovchilarga oʻz vaqtida samarali taʼsir etish va tegishli choralar koʻrish tartiblarini

ta'minlanishi soliq nazoratining ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Soliq nazoratini amalga oshirishda asosiy talablardan biri bu soliq solish sohasidagi soliq to'lovchilarning asosiy huquq va erkinliklariga daxl qilmaslikni amalga oshirishni va rioya etishni kafolatlashdir. *Soliq nazoratining vazifalari* quyidagilardan iborat:

- soliq va yig'implarning to'liq va to'g'ri hisoblanishi hamda budjet (budjetdan tashqari fondlarga) o'z muddatlarida to'lanishini ta'minlash;
- soliq va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish va huquqbuzarliklarga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlash choralarini ko'rish;
- soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish, soliq to'lovchilarning soliq va yig'implar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki to'liq bajarmaganligi natijasida davlat budjetiga yetkazilgan zararni undirishdan iboratdir.

Soliq nazorati moliyaviy-xo'jalik nazorati turi hisoblanib, davlat moliyaviy nazoratiga xususiy va umumiy belgilariga ko'ra yaqindir. Lekin, soliq nazorati o'zining obyekti, mazmuni, usul va uslubi, nazorat qiladigan shaxslar va idoralar turiga qarab davlat moliyaviy nazoratidan farq qiladi. Bundan tashqari, soliq nazorati davlat budjeti daromad qismini to'ldirish bilan bog'liq maxsus vazifalarni nazorat qilishi bilan ham boshqa nazoratlardan farq qiladi.

Soliq nazoratining obyekti — soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish hamda ushbu majburiyatlarni bajarmagan soliq to'lovchilarni javobgarlikka tortish bilan bog'liq munosabatlar majmuyidir.

Ma'lumki, soliq to'lovchilarga soliq huquqiy munosabatlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq majburiyatlarini o'z vaqtida to'g'ri bajarish yuklatilgan. Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etilishi yuridik ta'rif sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 34-moddasi qoidalarida ifoda etilgan. Soliq majburiyatlarini bajarish uchun soliq to'lovchi tomonidan Soliq kodeksida belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishlari, soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishlari, moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi lozimligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida soliq nazoratining huquqiy asoslarining

bir qator qonun hujjatlarida belgilangan bo'lib, barchasi uchun muhim ustuvor huquqiy manba O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qoidalarida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasi mazmuniga ko'ra, davlat organlari, uning mansabdor shaxslari jamiyat va fuqarolar farovonligini ko'zlab xalq manfaati uchun xizmat qilishi belgilangan. Mazkur qoida bevosita davlat soliq xizmati organlar faoliyatiga ham tegishlidir. Shuningdek, Konstitutsiyaning 15-moddasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar¹. Mazkur normalar soliq nazoratini tashkil etishning umumiy yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi qoidalaridir.

O'zbekiston Respublikasida soliq nazoratining asosiy qoidalari va tashkil etish tartibi amaldagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining III-bo'lim qoidalarida tartibga solingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida soliq nazoratini tashkil etishning me'yoriy huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi va «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat nazorati to'g'risida»gi Qonunlarida hamda Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida»gi, «Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Nazorat-kassa mashinalaridan foydalanishda javobgarlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining bir qator me'yoriy hujjatlari ham soliq nazoratini tashkil etishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab bergan.

Shuningdek, «Soliq nazorati soliqqa tortiladigan subyektlar va obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iborat» ekanligi O'zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonunida ham o'z ifodasini topgan. Davlat soliq qo'mitasi soliq nazorati

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston, 2009 y.

bilan bog‘liq yuzaga keladigan nizolarni hal etishda Moliya vazirligi, Adliya vazirligi va qonunlarga rioya etilishi uchun mas‘ul prokuratura organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tartibga solish, nazorat organlari tomonidan ularning faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida «Tekshiruvlarni tartibga solish va nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish to‘g‘risida» 1996-yil 8-avgustdagi farmoni bilan **Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi** tuzildi. Mazkur Kengash xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat nazorat etish sohasidagi markaziy muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Kengash qarorlari xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirishga vakolat berilgan barcha organlar uchun majburiy hisoblanadi.

Davlat soliq qo‘mitasining soliq nazorat sohasidagi asosiy vazifasi soliq to‘lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi, soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab yozilishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

10.2. Soliq nazoratining shakllari

Soliq nazorati bugungi bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir davrda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy bazasini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlarni olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish bo‘yicha soliq nazoratini bojxona organlari o‘z vakolatlari doirasida Soliq kodeksiga va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirishadi.

O‘zbekiston Respublikasida soliq nazorati bir necha shakllarda amalga oshirilib, uning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 67-moddasi qoidalarida belgilangan. Soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- soliq to‘lovchilarni hisobga olish;
- soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish;
- budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushayotgan

tushumlarni hisobga olish;

- kameral nazorat;
- naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji;
- soliq tekshiruvlari;
- fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash;
- aksiz to‘lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish;

– davlat daromadiga qaratilgan mol-mulknii realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag‘lari davlat daromadiga o‘z vaqtida va to‘liq tushishini nazorat qilish;

– boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish.

Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha hamda u to‘layotgan barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan, elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi.

Budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini yuritishi lozim. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish budjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organlari budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning, shuningdek penya va jarimalarning hisoblangan hamda to‘langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi. Shuningdek, soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning har bir turi bo‘yicha ochiladi.

Kameral nazorat bu soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek, soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o‘rganish hamda tahlil etish asosida amalga

oshiriladigan nazoratdir. Rivojlangan mamlakatlarda soliq to'lovchilar to'g'risidagi butun axborot bazasi va auditorlik tekshiruvlari natijalaridan foydalanilgan holda kameral nazorat soliq organlarining nazorat vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hujjatli tekshirish faqat soliq to'lashdan bo'yin tovlash alomatlarini topilganida amalga oshiriladi. Shu sababli, soliq organlarini nazorat vazifalarini amalga oshirishning ogohlantiruvchi va ayni vaqtda samarali shakllaridan biri sifatida kameral nazorat O'zbekiston soliq munosabatlarida ham keng joriy etildi.

Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yerda amalga oshiriladi. Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqida soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi.

Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi lozim bo'ladi.

Soliq to'lovchining naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji soliq qonun hujjatlariga ko'ra, xronometraj o'tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Odatda, naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji naqd hisob-kitob asosida tovarlar realizatsiya qiladigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan soliq to'lovchi huzurida bevosita tovarlar realizatsiya qilinadigan, xizmatlar ko'rsatiladigan joyda davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkaziladi.

Davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan tushum miqdori kamaytirilganligini taxmin qilish imkonini beradigan tafovutlar aniqlangan taqdirda qabul qilinadi.

Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji kelib tushayotgan pul tushumini kuzatish va qayd etish orqali o'tkaziladi. Xronometrajini

o'tkazish jarayoniga boshqa shaxslarni, shu jumladan, ekspertlarni jalb etishga yo'l qo'yilmaydi. Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji natijalaridan faqat taqdim etilayotgan soliq hisoboti to'g'riligini tahlil etish uchun, shuningdek soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yuritish uchun foydalaniladi. Xronometraj natijasi soliq to'lovchini javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash amaldagi soliq qonunchiligi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga kiritilgan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari majburiy qo'llanilgan holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan Nazorat-kassa mashinalarining davlat reestri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibda shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi texnik jihatdan vaqtincha nosoz bo'lgan yoki elektr energiyasi bo'lmagan taqdirda naqd pul bilan hisob-kitob qilishni xaridorlargakvitatsiyalar, chiptalar, talonlar yoki chekka tenglashtirilgan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan shakldagi qat'iy hisobdagi boshqa hujjatlarni berish orqali amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

Aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliya inspektori lavozimi aksiz solig'ini to'lovchi korxonalarda va boshqa ayrim korxonalarda joriy etilishi mumkin. Moliya inspektori lavozimi joriy etiladigan korxonalar ro'yxati va uning faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda hamda shartlar asosida tamaki va alkogolli mahsulotlar (pivo mahsulotidan tashqari) aksiz markasi bilan tamg'alanishi lozim.

Davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq

tushishini nazorat qilish. O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmati organlari davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilish jarayonidan tushadigan pul mablag'larining davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Bu jarayon ham soliq nazoratini amalga oshirishning eng muhim shakllaridan hisoblanadi.

Boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish. Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq undirib olinishi hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi.

10.3. Soliq tekshiruvlari tushunchasi va ularning turlari

Soliq tekshiruvlari bu davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvlari ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi);
- 2) soliq to'lovchini qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) bu soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir.

Qisqa muddatli tekshiruv bu soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 86-moddasida soliq tekshiruvlarining turlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- rejali soliq tekshiruvi;
- rejadan tashqari soliq tekshiruvi;

- muqobil tekshiruv.

Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) – tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir.

Rejali soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

1) tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan olingan, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan ko'chirma bo'lib, bunda ko'chirma uning asliga to'g'ri ekanligi ko'rsatilgan holda tegishli imzo va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

2) davlat soliq xizmati organining tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasi asosida tekshiruvni maqsadlari, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr va tekshiruv o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'ladi.

Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruvi (taftishi) – yuridik shaxs tugatilayotganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiquvchi tekshiruvlarni o'tkazish zarur bo'lganda, davlat soliq xizmati organiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo'shimcha ma'lumotlar tushgan hollarda o'tkaziladigan tekshiruvdir.

Soliq qonun hujjatlariga ko'ra, rejadan tashqari soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

1) nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan obyektning nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruvning maqsadlari, tekshiriladigan davr (taftish uchun), tekshiruv o'tkazish muddatlari va uni asoslovchi sabablar ko'rsatilgan tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori;

2) davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr ko'rsatilgan holdagi buyrug'i asos bo'ladi.

Muqobil tekshiruv – operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'langan va turli soliq to'lovchilarda bo'lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat

tekshiruvdir. Muqobil tekshiruv uchinchi shaxslarga nisbatan, agar soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organida mazkur shaxslar bilan bog'liq bo'lgan, soliq to'lovchi o'tkazgan operatsiyalar soliq bo'yicha hisobga olishda to'g'ri aks ettirilganligi haqida qo'shimcha ma'lumot olish zaruriyati kelib chiqqan hollarda o'tkaziladi.

Muqobil tekshiruv o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

1) nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan obyektning nomi, tekshiruv o'tkazish maqsadlari, muddatlari, shuningdek o'zaro munosabatlarning tekshirilishi lozim bo'lgan predmeti ko'rsatilgan holdagi muqobil tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori;

2) davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan holdagi buyrug'i asos bo'ladi

Qisqa muddatli tekshiruvlar rejadan tashqari soliq tekshiruvi tarzida o'tkaziladi.

Soliq tekshiruvlarida bevosita davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to'lovchilar ishtirok etishadi. Shuningdek, soliq tekshiruvlari jarayonida soliq to'lovchining vakili ishtirok etishi mumkin. Soliq qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda soliq tekshiruviga soliq tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo'lmagan ekspert, tarjimon va xolislar jalb etilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining a'zosi bo'lgan soliq to'lovchilarni soliq tekshiruvlari amalga oshirayotgan jarayonlarda uning vakillari ishtirok etishi mumkin.

Tugatilayotgan yuridik shaxsni rejadan tashqari soliq tekshiruvidan o'tkazish tugatuvchining yoki yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning yuridik shaxs tugatilishi to'g'risidagi yozma bildirishi hamda davlat soliq xizmati organining tekshiruv maqsadlari, tekshiruv o'tkaziladigan muddatlar va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'ladi.

Soliq qonun hujjatlariga ko'ra, soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak. Alohida hollarda bu muddat nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori bilan uzaytirilishi mumkin. Qisqa muddatli

tekshiruv o'tkazish muddati bir ish kunidan oshmasligi kerak. Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) bir yilda ko'pi bilan bir marta, belgilangan normalar va qoidalarga o'z vaqtida hamda to'liq hajmda rioya etayotgan soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari esa, ikki yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

Mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) qonun hujjatlariga asosan to'rt yilda ko'pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) esa uch yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

Soliq qonun hujjatlariga asosan, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yilda rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmaydi.

Soliq tekshiruvlari davlat soliq xizmati organlari tomonidan boshqa tumanlarda (shaharlarda) davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik subyektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazish, ularning ishlab chiqarish binolari, savdo nuqtalari va xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) joyi qaerda joylashganligidan qat'i nazar, takrorlashga yo'l qo'yilmagan holda, tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi tegishli davlat soliq xizmati organlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchiga yoxud uning egaligida, foydalanishida yoki tasarrufida bo'lgan mol-mulkka soliq tekshiruvini o'tkazishda g'ayriqonuniy harakatlar orqali zarar yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq tekshiruvini o'tkazishda davlat soliq xizmati organlari yoki ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari orqali yetkazilgan zararlarning, shu jumladan, boy berilgan foydaning o'rni davlat soliq xizmati organlari tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Shuningdek, sud qaroriga binoan zararlarning o'rmini qoplash davlat soliq xizmati organlari qaysi mansabdor shaxslarining aybi bilan zarar yetkazilgan bo'lsa, o'sha mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organlari va ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy harakatlar sodir etganligi natijasida soliq to'lovchiga yetkazilgan zarar uchun qonunda nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq nazorati tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
2. Soliq nazoratining huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
3. Soliq nazorati qaysi vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi?
4. Soliq nazoratining shakllari qanday?
5. Kameral nazorat nima maqsadda o'tkaziladi?
6. Soliq tekshiruvlari va ularning o'tkazilish tartibini ayting.
7. Rejali va rejadan tashqari o'tkaziladigan tekshirishlarning asoslari nimalardan iborat?
8. Soliq tekshiruvlari natijasida yetkazilgan zararining undirish tartibini tushuntirib bering.

XI bob. DAVLAT BOJI VA BOJXONA TO'LOVLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

- 11.1. Davlat boji to'lovlarining huquqiy asoslari.
- 11.2. Davlat bojxona to'lovlarini undirish masalalari.
- 11.3. Davlat bojxona qo'mitasi va uning asosiy vazifalari.

Tayanch so'z va iboralar

Davlat boji tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida boj to'lovlarini tartibga solishning huquqiy asoslari. Davlat boji stavkalari. Davlat boji to'lovlari bo'yicha imtiyozlar tushunchasi va turlari. Bojxona to'lovlari iqtisodiy va huquqiy tushuncha sifatida. Davlat bojxona to'lovlarining huquqiy asoslari. Bojxona yig'implari. Davlat bojxona qo'mitasi va uning vazifalari.

11.1. Davlat boji to'lovlarining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida davlat boji bilan bog'liq huquqiy munosabatlar 2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XVII bo'lim qoidalari bilan tartibga solinadi. Mazkur Soliq kodeksining 326-moddasiga ko'ra, *davlat boji bu* – yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun olinadigan majburiy to'lov hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida davlat bojining stavkalariga doir masalalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat bojini to'lovchilar bo'lib yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjatlar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Davlat boji to'lovlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 328-moddasiga binoan quyidagi obyektlardan undiriladi:

- 1) sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular

mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudlarning qarorlari ustidan beriladigan apellatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun;

2) da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ajrimlari ustidan berilgan apellatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan;

3) davlat notarial idoralari, O'zbekiston Respublikasining konsullari va shaharchalar, qishloqlar, ovullarning fuqarolar yig'ini misllari (oqsoqollari) tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun;

4) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy guvohnoma berganlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma berganlik uchun;

5) chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni berganlik uchun; yashash guvohnomasini berganlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika

hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza berganlik uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan;

6) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar berganlik uchun;

7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik uchun;

8) yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun;

9) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya berganlik uchun;

10) ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma berganlik uchun.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida **davlat boji undirilishida imtiyozlar** nazarda tutilgan bo'lib, *umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat bojini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:*

1) da'vogarlar – ish haqini undirib olish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan;

2) da'vogarlar – mualliflik huquqlari va turdosh huquqlardan, shuningdek ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va tovar kelib chiqqan joy nomiga, seleksiya yutug'iga bo'lgan huquqdan kelib chiqadigan da'volar yuzasidan;

3) da'vogarlar – alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

4) da'vogarlar – mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek, boquvchisi vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

5) da'vogarlar – noqonuniy hukm etish, jinoiy javobgarlikka tortish, ma'muriy jazo berish tufayli jismoniy shaxsga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash bilan bog'liq nizolar yuzasidan;

6) da'vogarlar – jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

7) jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zararining undirib olinishi

to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi nizolashilayotgan jinoyat ishlari bo'yicha apellatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

8) nikohni bekor qilish to'g'risidagi mol-mulkni bo'lish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar bo'yicha apellatsiya va kassatsiya shikoyatlari bilan murojaat qilgan shaxslar;

9) yuridik va jismoniy shaxslar — jinoyat ishlari va alimentlarni undirishga doir fuqarolik ishlari bilan bog'liq hujjatlarni ularga berganlik uchun;

10) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquqlari hamda manfaatlarini hunoya qilinishini so'rab sudga ariza bilan murojaat etgan yuridik va jismoniy shaxslar;

11) yuridik va jismoniy shaxslar sudning ishni tugatish yoki uni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimini bekor qilish to'g'risidagi ariza bo'yicha; sudning hal qiluv qarori ijrosini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib ijro etish, ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza bo'yicha; da'voni ta'minlash yoki da'voni ta'minlashning bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi ariza bo'yicha; sudning yangi ochilgan holatlar bo'yicha hal qiluv qarorini, ajrimini yoki qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bo'yicha; sud tomonidan belgilangan jarimani bekor qilish yoki kamaytirish to'g'risidagi, sudning hal qiluv qarori ijrosini o'zgartirish to'g'risidagi, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi ariza bo'yicha;

12) yuridik va jismoniy shaxslar — sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlar yuzasidan, sudning jarimani bekor qilish yoki kamaytirishni rad etish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyatlar hamda sud ajrimi ustidan boshqa xususiy shikoyatlar yuzasidan;

13) tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

14) iste'molchilar — o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq da'volar yuzasidan; tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari; iste'molchilarning jamoat birlashmalari. — iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining)

manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atilgan da'volar yuzasidan;

15) da'vogarlar – o'rmon daraxtlarini o'zboshimchalik bilan kesish hamda o'rmondan foydalanish, o'rmonni qo'riqlash va muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli o'rmon fondiga yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

16) davlat organlari – o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarni buzish to'g'risidagi da'volar yuzasidan, shuningdek, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan, tarixiy, badiiy qimmatga yoki jamiyat uchun boshqa qimmatga ega bo'lgan mol-mulkni jismoniy shaxslar bu mol-mulkka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lgan hollarda jismoniy shaxslardan davlat mulkiga olib qo'yish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

17) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi – palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar bo'yicha, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab qilingan shikoyatlar yuzasidan;

18) nodavlat notijorat tashkilotlari – o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

19) nogironlarning jamoat birlashmalari, shuningdek ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari – barcha da'volar yuzasidan;

20) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – majburiy badallarni kiritish va kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

21) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari, shuningdek fuqarolar – tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli yetkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

22) tumanlar, shaharlar (shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari – kommunal xizmatlar ko'rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to'lash va majburiy badallarni kiritish bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da'volar yuzasidan;

23) tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari — zarar yetkazuvchidan quyidagi summalarni undirib olish to'g'risidagi regress da'volar bo'yicha — jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga to'langan pensiyalar va nafaqalar summalarini; benzina, avtomototransport vositalarini ta'mirlashga, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ehtiyot qismlar olishga, nogironlarni avtomototransport vositalarini haydashga o'rgatishga ketadigan xarajatlarni qoplash summalarini, shuningdek noto'g'ri to'langan pensiyalar va nafaqalarning summalarini undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

24) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning joylardagi organlari — ko'chish joyiga bormagan yoki ko'chib borgan joylarini o'zboshimchalik bilan tark etgan ko'chirib keltiriluvchilarga nisbatan ko'chish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning o'rnini qoplash to'g'risida taqdim etilgan da'volar yuzasidan;

25) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari — atrof muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularning muhofaza qilishning tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

26) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda uning joylardagi organlari — suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

27) sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari — majburiy sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq ishlar yuzasidan;

28) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi — investorlarning, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir da'volar yuzasidan;

29) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash organlari — barcha ishlar va hujjatlar yuzasidan, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar berganlik uchun;

30) ichki ishlar organlari — alimentlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni qidirish uchun qilingan xarajatlarni undirish to'g'risidagi ishlar yuzasidan;

31) prokuratura organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini koʻzlab qilingan daʼvolar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

32) adliya organlari — davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini koʻzlab qilingan daʼvolar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

33) undiruvchi yoki sud ijrochisi — qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish boʻyicha xarajatlarning oʻrmini qarzdor tomonidan qoplash toʻgʻrisidagi ishlar yuzasidan.

Oʻzbekiston Respublikasi xoʻjalik sudlarida davlat bojini toʻlashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) qishloq xoʻjaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — tayyorlov va xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi bilan bogʻliq daʼvolar boʻyicha;

2) tadbirkorlik subyektlari — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlari hamda boshqa organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda;

3) arizachi va javobgar — qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xoʻjalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va (yoki) oʻz ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirmagan korxonalarni tugatishga doir ishlar boʻyicha;

4) daʼvogʻarlar — oʻrmon daraxtlarini oʻzboshimchalik bilan kesish hamda oʻrmondan foydalanish, oʻrmonni qoʻriqlash va muhofaza qilish tartibi va shartlarini boshqacha tarzda buzish tufayli oʻrmon fondiga yetkazilgan zararni undirish toʻgʻrisidagi, oʻrmon xoʻjaligi daromadi summalarini (shu jumladan, oʻrmon daraxtlarini oʻsib turgan joyida sotish qoidalarini buzganlik uchun zarar va neustoykani, shuningdek oʻzboshimchalik bilan oʻrmon daraxtlarini kesganlik, pichan oʻrganlik va mollarni oʻtlatganlik uchun jarimalarni) undirish toʻgʻrisidagi ishlar boʻyicha;

5) Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi — palata aʼzolarining manfaatlarini koʻzlab qilingan daʼvolar yuzasidan, shuningdek davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata aʼzolarining manfaatlarini koʻzlab qilingan shikoyatlar boʻyicha;

6) nodavlat notijorat tashkilotlari — oʻz huquqlari va qonuniy

manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda;

7) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – majburiy badallarni to'lash va kommunal xizmatlar to'lovi bo'yicha qarzlarni undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

8) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – tuzilgan shartnomalar shartlari aholiga uy-joy-kommunal xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

9) tumanlar, shaharlar (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar) hokimliklari – kommunal xizmatlar ko'rsatuvchilar yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining kommunal xizmatlar haqini to'lash va majburiy badallarni to'lash bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi taqdimnomasiga muvofiq kiritiladigan da'volar yuzasidan;

10) nogironlarning jamoat birlashmalari, Shuningdek, ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari – barcha da'volar bo'yicha;

11) tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlari – zarar yetkazuvchidan quyidagi summalarni undirish to'g'risidagi regress da'volar bo'yicha – jabrlanuvchiga yoki uning oila a'zolariga to'langan pensiyalar va nafaqalar summalarini; benzina, avtomototransport vositalarini ta'mirlashga, ularga texnik xizmat ko'rsatishga va ehtiyot qismlar olish, nogironlarni avtomototransport vositalarini haydashga o'rgatishga ketadigan xarajatlarni qoplash summalarini;

12) da'vogarlar va javobgarlar – sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish organlari - majburiy sug'urta operatsiyalari bilan bog'liq barcha ishlar bo'yicha;

13) «O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi, uning direksiyasi va joylardagi bo'linmalari – qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan bank kreditlarini to'lamaslik xavfini hamda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish, shuningdek, fyuchers kontraktlar bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun oldindan beriladigan mablag'larning qaytarilishini sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha to'langan sug'urta to'lovini uchun qishloq xo'jaligi korxonalaridan qarzni undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

14) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, uning joylardagi organlari – suv to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun mablag'larni davlat daromadiga undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

15) tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari – qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini ko'zlab berilgan da'volar bo'yicha;

16) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari – atrof-muhitni ifloslantirganlik, tabiatdan o'zboshimchalik bilan foydalanganlik va tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning tartib va shartlarini boshqacha tarzda buzganlik tufayli tabiiy obyektlarga va komplekslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

17) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda uning joylardagi organlari – standartlarni, texnik shartlarni joriy etish va ularga rioya etilishi hamda mahsulotlar sifati ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar yoki shunday vakolatga ega bo'lgan boshqa organlar jo'natishni man etgan mahsulotlarni yetkazib bergan yuridik shaxslardan budjet daromadiga jarimalar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

18) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari – davlat mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun davlat daromadiga mablag'lar undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha;

19) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi – investorlarning, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir da'volar bo'yicha;

20) davlat soliq xizmati organlari, moliya hamda bojxona organlari, shuningdek monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash organlari – barcha ishlar va hujjatlar bo'yicha, shuningdek alohida yuritiladigan ishlar bo'yicha sudga arizalar berganlik uchun;

21) prokuratura organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

22) adliya organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda berilgan arizalar yuzasidan;

23) undiruvchi yoki sud ijrochisi – qonunda nazarda tutilgan taqdirda, qarzdorni yoki uning mol-mulkini qidirish bo'yicha harajatlarning o'rnini qarzdor tomonidan qoplash to'g'risidagi da'volar yuzasidan.

24) yuridik va jismoniy shaxslar – sud ijrochisining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyatlari bo'yicha;

25) xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan hukumatlararo kelishuvlar asosida berilgan kreditlar bo'yicha asosiy qarzdor sifatida qatnashuvchi davlat organlari va tashkilotlari – subzayom oluvchilardan paydo bo'lgan qarzdorliklarni undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan;

26) davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish shartnomalari bo'yicha sotib oluvchi hisoblangan davlat organlari va tashkilotlari – yetkazib beruvchilar (pudratchilar) tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi bilan bog'liq da'volar yuzasidan.

Soliq kodeksining 331-moddasi talablariga ko'ra, quyidagilar notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi:

1) shaxslar – davlat pensiyalari va nafaqalarini olish uchun zarur bo'lgan, shuningdek vasiylik qilish va farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar yuzasidan hujjatlarning ko'chirma nusxalari to'g'riligini ularga tasdiqlab berganlik uchun;

2) shaxslar – mol-mulkini davlat foydasiga, shuningdek yuridik shaxslar foydasiga hadya qilish to'g'risidagi vasiyatnomalari va shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

3) davlat soliq xizmati organlari va moliya organlari – ularga davlatning merosga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) berganlik, shuningdek ushbu guvohnomalarni (guvohnomalarning dublikatini) olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar uchun;

4) nogironlarning jamoat birlashmalari, ularning muassasalari, o'quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari – barcha notarial harakatlar bo'yicha;

5) shaxslar – ularga quyidagilar uchun merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berganlik uchun – Vatanni himoya qilish chog'ida, boshqa davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotganligi munosabati bilan yoxud inson hayotini qutqarish, davlat mulkini va huquq-tartibotni muhofaza qilish bo'yicha fuqarolik burchini ado etish

munosabati bilan halok bo'lgan shaxslarning mol-mulki uchun; uy-joy (kvartira) uchun yoki uy-joy-qurilish kooperatividagi pay uchun, agar ular meros qoldiruvchining vafot etish kunigacha birga yashagan, turar joyda qayd etilgan bo'lsa va meros qoldiruvchining vafotidan keyin ham shu uy-joyda (kvartirada) yashayotgan bo'lsa; banklardagi omonatlar, shaxsiy va mulkiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta summalari, davlat zayom obligatsiyalari uchun, ish haqi summalari uchun, adabiyot va san'at asarlari muallifi va ijrochisining mulkiy huquqlari, ixtiro, foydali model va sanoat namunasi uchun mualliflik va ijrochilik haqi summalari uchun;

6) shaxslar — pensiyalar va nafaqalar olish uchun ishonchnomani tasdiqlatganlik uchun;

7) onalar — ko'p bolalik uchun ularga orden va medallar berilganligi haqidagi ishlar bo'yicha hujjatlar ko'chirma nusxalarining to'g'riligini tasdiqlab berganlik uchun;

8) maktab-internatlar — farzandlarining maktab-internatdagi ta'minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

9) moliya organlari — farzandlarining O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ixtisoslashtirilgan maktablaridagi ta'minoti uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

10) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli vafot etish va halok bo'lish hodisasiga korxonalar va tashkilotlar hisobidan sug'urta qilingan jismoniy shaxslarning merosxo'rlari — sug'urta puliga vorislik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma berganlik uchun;

11) surunkali ruhiy kasallikka chalingan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vasiylik belgilangan shaxslar — mol-mulkka vorislik qilishlari to'g'risida guvohnoma olganliklari uchun;

12) O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda uning joylardagi organlari — xodimlarni tashkiliy yo'sinda ishga qabul qilish tartibida tuziladigan mehnat shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

13) 1941 — 1945-yillardagi urush nogironlari, 1941 — 1945-yillardagi urush frontlarida yaralangan shaxslar va 1941 — 1945-yillardagi urush frontlarida halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan shaxslarning oila a'zolari, 1941 — 1945-yillardagi urush qatnashchilari hamda Vatanni himoya qilishda va Sovet Armiyasida o'z xizmat burchini

o'tayotganda yaralangan shaxslar, Afg'oniston Respublikasida baynalminal burchini o'tagan shaxslar, shuningdek 1986 – 1987-yillarda Chernobil AESining zaharlangan mintaqasi doirasida avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar, 1986-yilda Chernobil AESidagi avariya munosabati bilan zaharlangan mintaqadan ko'chirilgan (shu jumladan, o'z ixtiyori bilan chiqib ketgan) shaxslar, agar ular vafot etgan bo'lsa, ularning oila a'zolari – imtiyozlar berilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar ko'chirma nusxalarining to'g'riligini tasdiqlatganligi uchun;

14) O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi – mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan mukofotning undirilishi to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

15) shaxslar – ularga yo'lovchilarning majburiy sug'urtasi yuzasidan sug'urta summalariga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulkning majburiy sug'urtasi yuzasidan sug'urta to'lovi summalarini bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berganlik uchun;

16) fermer xo'jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar – ularga fermer xo'jaligining mol-mulki bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berganlik uchun;

17) yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo'rlar – ularga dehqon xo'jaligi mol-mulki bo'yicha merosga bo'lgan huquqi to'g'risida guvohnoma berganlik uchun;

18) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydalanish tashkilotlari – majburiy badallarni to'lash va kommunal xizmatlar to'lovi bo'yicha qarzlarni undirish to'g'risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun.

Quyidagilar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishda davlat boji to'lashdan ozod qilinadi:

1) xalq ta'limi organlari, balog'atga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar – yetim bolalarni va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni bolalar muassasalariga va o'quv yurtlariga yuborish uchun tug'ilganlik to'g'risida takroriy guvohnomalar berganlik uchun;

2) jismoniy shaxslar – tug'ilish, o'lim qayd etilganligi uchun, ularga farzandlikka olingan, otalik belgilangan, jinsi o'zgartirilgan hollarida, shuningdek, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish chog'ida yo'l qo'yilgan xatolar munosabati bilan tug'ilganlik

to'g'risidagi hujjatlar yozuvlari o'zgartirilgan, to'ldirilgan va tuzatilgan taqdirda guvohnomalar berganlik uchun;

3) jismoniy shaxslar – ularga belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb yoki ruhiy holatining buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar yoxud qilgan jinoyatlari uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish to'g'risida sudning hal qiluv qarori asosida guvohnomalar berganlik uchun;

4) jismoniy shaxslar – ularga reabilitatsiya qilingan qarindoshlarining vafot etganligi to'g'risidagi takroriy guvohnomalar berganlik yoki ilgari berilgan guvohnomalarni almashtirganlik uchun;

5) tabiiy ofatlar natijasida jabrlangan jismoniy shaxslar – ularga takroriy guvohnomalar berganlik uchun.

Quyidagilar fuqarolarni turar joyga qayd etganlik va ro'yxatdan chiqarganlik (yashash joyini qayd etganlik) uchun davlat boji to'lashdan ozod qilinadi: qariyalar va nogironlarning internat-uyalarida yashovchi qariyalar va nogironlar; maktab-internatlar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning to'liq davlat ta'minotida bo'lgan va yotoqxonalarda yashovchi o'quvchilari.

Davlat boji davlat boji undiriladigan harakatlar amalga oshirilguniga qadar naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda to'lanadi. To'lovchining davlat bojini naqd pulsiz shaklda to'laganligi fakti bankning to'lov ijro etilganligi to'g'risidagi belgisi bo'lgan to'lov topshiriqnomasi bilan tasdiqlanadi.

To'lovchining davlat bojini naqd pul shaklida to'laganligi fakti bank tomonidan to'lovchiga beriladigan belgilangan shakldagi kvitansiya yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi belgilagan shaklda to'lovni amalga oshirgan mansabdor shaxs yoxud davlat organi va tashkilotning kassasi tomonidan to'lovchiga beriladigan kvitansiya bilan tasdiqlanadi.

Sudlarga beriladigan da'vo arizalaridan, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalardan, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sudlarga beriladigan shikoyatlardan, sudlarning hal qiluv qarorlari ustidan apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibidagi shikoyatlardan, shuningdek sudlar tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun davlat boji quyidagi tartibda undiriladi:

1) shartnomalarni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi, shartnomalarni bekor qilish to'g'risidagi yoki ularning shartlariga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi da'vo arizalariga shartnoma to'raligicha yoki uning biron bir qismi nizolashilayotganligidan qat'i nazar, shartnoma oldi nizolari bo'yicha arizalar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi;

2) qarshi da'vo arizalaridan, shuningdek uchinchi shaxslarning ishga mustaqil da'vo talablari bilan kirishganligi to'g'risidagi arizalardan davlat boji umumiy asoslarda undiriladi. Sud dastlabki da'vogarni uning roziligi bilan boshqa shaxs bilan almashtirganda, bu shaxs davlat bojini umumiy asoslarda to'lashi lozim. Ishdan dastlabki da'vogar chiqib ketgan va u huquqiy voris bilan almashtirilgan hollarda, davlat boji, agar u dastlabki da'vogar tomonidan to'lanmagan bo'lsa, huquqiy vorisdan undiriladi.

Sudya bir yoki bir nechta birlashgan da'vo talablarini alohida ish yuritish uchun ajratgan taqdirda, da'vo taqdim etilganda to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi va qaytarilmaydi. Alohida ish yurituvga ajratganlik yuzasidan davlat boji ikkinchi bor to'lanmaydi.

Ilgari ko'rmasdan qoldirilgan takroran berilgan arizalar bo'yicha davlat boji qaytadan umumiy asoslarda to'lanadi. Agar ariza ko'rmasdan qoldirilganligi munosabati bilan davlat boji qaytarilishi kerak bo'lgan, lekin qaytarilmagan bo'lsa, agar davlat boji budjetga o'tkazilgan kundan e'tiboran fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq da'vo muddati tugamagan bo'lsa, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat takroran berilgan arizaga ilova qilinishi mumkin.

Davlat boji hisoblab chiqariladigan da'vo bahosi da'vogar tomonidan, belgilangan hollarda esa, fuqarolik protsessual va xo'jalik-protsessual qonun hujjatlariga muvofiq sud tomonidan aniqlanadi. Agar ishni muhokamaga tayyorlash paytida da'vogar alimentlarni undirish to'g'risidagi ishni tugatish haqida ariza bergan bo'lsa, bunday hollarda javobgardan davlat boji undirilmaydi.

Da'vogar tomonidan da'vo talablari kamaytirilgan taqdirda, to'langan davlat boji qayta hisoblab chiqilmaydi. Da'vo summasi ko'paytirilgan taqdirda, davlat bojining yetishmayotgan summasi da'voning ko'paytirilgan summasiga muvofiq undiriladi. Da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan taqdirda da'vo qanoatlantirilsa, davlat boji javobgardan (agar u davlat bojini to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa) davlat daromadiga belgilangan da'vo summasiga muvofiq undiriladi.

Da'vo birgalikda bir nechta da'vogar tomonidan bir yoki bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda, davlat boji da'voning umumiy

summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi va da'vogarlar tomonidan ular qo'ygan talablar ulushiga mutanosib tarzda to'lanadi.

Da'voning umumiy summasidan kelib chiqqan holda davlat boji quyidagi hollarda ham undiriladi:

– da'vo da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilganda;

– da'vo arizalarini qabul qiladigan sudya bir tUSDagi bir necha talabni bir ish yurituviga birlashtirganda.

Davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bir yoki bir nechta da'vogar tomonidan bir nechta javobgarga nisbatan taqdim etilgan da'vo to'liq yoki qisman qanoatlantirilganda davlat bojini undirish sudning hal qiluv qaroriga binoan har bir javobgardan belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda alohida-alohida amalga oshiriladi. Agar bunday da'vo bir nechta da'vogarlar tomonidan bir javobgarga nisbatan taqdim etilgan bo'lsa, davlat boji javobgardan umumiy belgilangan qarz summasidan kelib chiqqan holda budgetga undiriladi.

Sud boshqa shaxsni ikkinchi javobgar sifatida jalb qilgan va da'vo summasining bir qismini bir javobgardan, qolgan qismini esa ikkinchisidan undirishga hukm qilgan taqdirda va, agar bunda da'vogar davlat bojini to'lashdan ozod qilingan bo'lsa, davlat boji da'voning qanoatlantirilgan umumiy summasidan hisoblab chiqariladi hamda har bir javobgardan unga belgilangan da'vo summasi miqdoriga mutanosib ravishda budgetga undiriladi.

Davlat bojini to'lashdan ozod qilingan da'vogar o'z talablarini da'vo berilganidan keyin ular javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'liq yoki qisman qanoatlantirilganligi tufayli qo'llab-quvvatlamagan hollarda davlat bojining summasi javobgardan sud ajrimi bo'yicha budgetga undirilishi lozim.

Da'vogar arizada da'vo summasini ko'rsatmagan hollarda sudya da'vo arizasini qabul qilish asnosida, da'voning taxminiy bahosidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojining miqdorini dastlabki tarzda belgilaydi. Agar sud hal qiluv qarorini chiqarganda da'voning umumiy summasi oshsa, davlat boji da'voning oshgan summasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda vujudga kelgan farq javobgardan yoki da'vo to'liq qanoatlantirilgan taqdirda – javobgardan budget daromadiga undirilishi lozim. Sud qonun hujjatlarida belgilangan hollarda ish holatlariga bog'liq ravishda da'vogar arizada ko'rsatgan talablar doirasidan chiqib ketganda, davlat boji

shunday tartibda hisoblab chiqariladi. Bunday hollarda da'vo qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji javobgardan da'voning qanoatlantirilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, davlat bojining qolgan qismi esa da'vogardan undirilishi lozim.

Sud mol-mulkni meros qilib olish huquqi to'g'risida hal qiluv qarori qabul qilgan taqdirda, davlat boji mol-mulkning umumiy qiymatidan kelib chiqqan holda sud tomonidan hisoblab chiqariladi va har bir merosxo'rdan uning ulushiga mutanosib ravishda undiriladi. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi, mol-mulkni talab qilib olish to'g'risidagi, mol-mulkdagi ulushga bo'lgan huquqni e'tirof etish to'g'risidagi, umumiy mol-mulkdan ulush ajratish to'g'risidagi va merosxo'rlarning o'zlariga tegishli mol-mulk ulushini talab qilib olish to'g'risidagi da'vo arizalari uchun davlat boji ushbu mol-mulk yoki uning ulushi qiymatidan kelib chiqqan holda to'lanishi lozim.

Bir vaqtning o'zida mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan da'vo arizalari uchun mulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha va nomulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari uchun belgilangan stavkalarga ko'ra har bir talab bo'yicha alohida-alohida davlat boji to'lanadi. Qiymat jihatidan baholanmaydigan talablar (o'zboshimchalik bilan egallangan joylarni bo'shatish to'g'risidagi, natira shaklida maydon berish to'g'risidagi, topshirish balansini qabul qilishga majburlash bilan bog'liq nizolar va boshqalar) nomulkiy xususiyatdagi da'vo arizalari jumlasiga kiradi.

Nikohni bekor qilish bilan bir vaqtda mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi da'vo arizalaridan nikohni bekor qilganlik uchun va mol-mulkni bo'lganlik uchun davlat boji undiriladi. Arizani (iltimosnomani) qabul qilishni rad etishga yoki ish yuritishni tugatishga asos bo'lgan sharoitlar bartaraf etilganidan so'ng takroran beriladigan arizalarga, davlat boji takroran to'lanishining oldini olish uchun, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi dastlabki hujjat ilova qilinishi mumkin.

Arizachi davlat bojini to'lashdan ozod qilingan hollarda da'vo qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji, agar javobgar davlat bojini to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, qanoatlantirilgan da'vo talablari miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan undiriladi.

Muayyan sudda ko'rilishi kerak bo'lgan bir necha ishlar uchun bir to'lov topshiriqnomasi bo'yicha davlat boji o'tkazilgan hollarda topshiriqnoma ishlarning biriga ilova qilinadi. Mazkur ish bo'yicha to'langan davlat bojining summasi to'g'risida qolgan ishlarga belgi

qo'yiladi va to'lov topshiriqnomasi qo'shib qo'yilgan ish ko'rsatiladi.

Sud buyrug'i bekor qilingan taqdirda, undiruvchi tomonidan to'langan davlat boji qaytarilmaydi. Da'vo undiruvchi tomonidan qarzdorga nisbatan da'vo ishini yuritish tartibida qo'zg'atilgan taqdirda u to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji hisobiga olinadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun davlat boji dalolatnomalarni ro'yxatda qayd etish chog'ida, takroriy guvohnomalar berganlik uchun esa, ular berilayotganida to'lanadi.

Shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik hamda ular tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun davlat boji tasdiqlangan shakldagi kvitansiya berilgan holda naqd pulda to'lanadi.

Chet elga chiqish, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirganlik uchun, bu hujjatlarga o'zgartirishlar kiritganlik uchun, shuningdek yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasini berganlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik yoxud chet ellik fuqarolarning pasportlariga yoki ularning o'rmini bosadigan hujjatlariga chiqib ketish yoki kirib kelish huquqini beradigan vizalar qo'yanlik uchun davlat boji tegishli hujjatlar olinguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalardan esa, bunday arizalar berilguniga qadar to'lanadi. Chet eldan kirish va chet elga chiqish huquqini beruvchi hujjatlarni, yashash guvohnomasini, fuqaroligi bo'lmagan shaxs guvohnomasini berganlik yoki ularning muddatini uzaytirganlik, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan chet elga xizmat safariga yuboriladigan fuqarolarning xorijga chiqish huquqini beruvchi hujjatlardan davlat boji belgilangan tartibda ushbu korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan to'lanadi. Chet elga xizmat safariga yuborilgan xodimlar bilan birgalikda ularning xotini va bolalari xizmat safarining butun muddatiga safarga borganida davlat boji xizmat safariga yuborilganlarning o'zlaridan undirilgani kabi tartibda va miqdorlarda undiriladi. Oila a'zolari chet elga xizmat safariga yuborilgan shaxsning oldiga mehmon bo'lib oddiy safarga borganlarida davlat boji umumiy asoslarda undiriladi.

Chet ellik fuqarolarga O'zbekiston Respublikasidan chiqishga vizalar

berganlik uchun davlat boji har bir shaxsga alohida viza yoki bir nechta shaxsga umumiy viza berilayotganligidan qat'i nazar, o'n olti yoshga to'lgan har bir shaxsdan undiriladi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik, ov qilish huquqi uchun nuxsatnoma berganlik uchun davlat boji hujjat berilayotganda to'lanadi.

Davlat boji naqd pulsiz o'tkazilganligiga doir to'lov topshiriqnomalari, bankning davlat bojini to'lash uchun pul qabul qilib olinganligi to'g'risidagi kvitansiyasi davlat bojini undiradigan davlat organlarida qoladigan tegishli materiallarga qo'shib qo'yiladi. Notarial harakatlarni ro'yxatdan o'tkazish reestrda kiritilgan davlat boji summasi, bank hujjatining sanasi va raqami ko'rsatiladi.

Shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlarining raislari (oqsoqollari) to'lovchiga davlat boji to'langanligi to'g'risida kvitansiya beradi, to'lovchilarga beriladigan tasdiqlangan hujjatlarga, ushbu hujjatlarning nusxalariga hamda shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari daftarlariga esa, undirilgan davlat boji summasi to'g'risidagi kvitansiyaning raqami ko'rsatilgan holda belgi qo'yiladi.

Shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilayotganda to'langan davlat boji summasi to'g'risidagi yozuv dalolatnomalar daftaridagi maxsus shu uchun mo'ljallangan joyga yoki dalolatnoma oxiriga kiritiladi. Bunda davlat boji to'langanligi to'g'risidagi yozuv davlat bojini to'lagan shaxs tomonidan albatta tasdiqlanishi kerak.

Davlat bojini to'lashdan tushgan summalar tushumlar ro'yxatiga yoziladi va kunning oxirida umumiy yakun bilan shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlarining kassa daftariga kiritiladi. To'lovchilar davlat bojini to'lashdan ozod etilgan hollarda, tegishli hujjatlarga (reestrlarga, daftarlarga va boshqa shu kabilarga) tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari ilova qilingan holda belgi qo'yiladi.

Davlat boji tushumlarini hisobga olish davlat bojini undiradigan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Davlat boji tushumlari bo'yicha hisobot davlat bojini undiruvchi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan taqdim etiladi. Davlat boji quyidagi hollarda to'liq

yoki qisman qaytarilishi lozim:

1) davlat boji qonun hujjatlarida talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to'langanida;

2) sud arizani (shikoyatni) qabul qilishni rad etganida, shuningdek, davlat notarial idoralari yoki shaharcha, qishloq va ovullar fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda;

3) arizasi (shikoyat) harakatsiz qoldirilganligi munosabati bilan da'vogarga qaytarib berilganda;

4) agar ish sudga taalluqli bo'lmasa, ishni yuritish tugatilganda;

5) ariza ko'rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

6) ishda qatnashgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa;

7) da'vogar nizoni sudga qadar hal etish (pretenziya bildirish) tartibiga rioya etmaganida, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo'lsa;

8) voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotinning nikohi o'zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to'langanda, agar er-xotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo'lsa;

9) agar ishda qatnashayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo'lsa;

10) sud buyrug'i chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilish rad etilganda;

11) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjat berish rad etilganda. Davlat boji O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa hollarda ham to'liq yoki qisman qaytarilishi mumkin.

Davlat boji summalarini qaytarish to'lovchining yozma arizasiga binoan yoki sudning hal qiluv qarorlari asosida amalga oshiriladi. Davlat boji summasini qaytarish uchun arizachi davlat bojini undirgan tegishli davlat organiga yoki tashkilotga murojaat qilishi kerak. Davlat bojini undirgan davlat organi yoki tashkilotning rahbari uni qaytarish qonuniyligini tasdiqlagan taqdirda, davlat organi yoki tashkilot va davlat bojining boshqa oluvchilari ilgari o'z hisobvaraqlariga o'tkazilgan davlat boji summalarining tegishli qismlarini qonun hujjatlariga muvofiq qaytaradilar.

11.2. Davlat bojxona to'lovlarini undirish masalalari

Bojxona organlari bojxona ishini amalga oshirishda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to'lovlarini undiradi. Bojxona to'lovlarini to'lovchilar, bu to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash, qaytarish va undirish tartibi, shuningdek bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 1998-yil 1-martdan amalga kiritildi. Mazkur qonun hujjatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida bojxona siyosatining asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qoidalariga binoan, tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishda aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha imtiyozlar tartibga solinadi. Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda hamda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda bojxona to'lovlarining boj, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabilar to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda tovarlar va transport vositalarini, shu jumladan, kuzatuvchisiz bagajda, xalqaro pochta jo'natmalari va yuklarda olib o'tilayotgan notijorat maqsadlaridagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun, tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazganlik uchun, tovarlar va transport vositalarini bojxona organlari egaligidagi bojxona omborlari va vaqtincha saqlash omborlarida saqlaganlik uchun, tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun bojxona yig'implari undiriladi.

Tovarlar va transport vositalarining qonun hujjatlarida belgilanadigan bojxona qiymati bojni, aksiz solig'ini va tegishli boj yig'implarini hisoblab chiqarish uchun asos bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun tovarning bojxona qiymati asos bo'lib, unga to'lanishi lozim bo'lgan boj, aksizga tortiladigan tovar

bo'yicha esa, aksiz solig'ining summasi ham qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining qoidalariga ko'ra, bojxona to'lovlari deklarant tomonidan to'lanadi. **Deklarant** bu tovarlarni olib o'tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki tovar olib o'tuvchi shaxs nomidan ishr olib borayotgan bojxona brokeridir. Har qanday manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lovchining o'rniga bojxona to'lovlarini to'lashga haqlidir.

Bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilingunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda to'lanadi. Tovarlarni notijorat maqsadlari uchun olib o'tilayotganda, bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasini qabul qilish bilan bir vaqtda to'lanadi. Bojxona to'lovlarini to'lash muddatining o'tishi bojxona deklaratsiyasini topshirish muddati tugaganidan keyingi kundan boshlanadi.

Bojxona to'lovlari bojxona organiga, xalqaro pochta jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan esa, — aloqa korxonalariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda to'lanadi. Bojxona to'lovlari O'zbekiston Respublikasining milliy valutasida to'lanadi. To'lanmagan bojxona to'lovlari, to'lamaganlik fakti qachon aniqlanganligidan qat'i nazar, undirilishi lozim. Qarzdorlik vaqti uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun boqimanda hisobidan summasining 0,05 foizi miqdorida penya undiriladi. Tadbirkorlik subyekti tomonidan ortiqcha to'langan summalarga teng bo'lgan qarzdorlik summasiga penya hisoblab chiqarilmaydi. Penya miqdori tadbirkorlik subyekti bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlik summasidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlangan yoki to'lovchida pul mablag'lari bo'lmagan taqdirda undiruv qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

11.3. Davlat bojxona qo'mitasi va uning asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasida bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq hamda amaldagi O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining normalari asosida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997- yil 8-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil qilish

to'g'risida»gi Farmoni, 2006-yil 9-martdagi «Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-martdagi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining Intizomiy ustavi, 2003-yil 22-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlari va boshqa qonunchilik me'yorlari bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlari hisoblanib, ular o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Bojxona kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga hamda xalqaro shartnomalariga amal qiladilar.

Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq o'z faoliyatini davlat hokimiyati mahalliy organlaridan mustaqil tarzda amalga oshiradilar. Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi lozim.

Bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi va davlat budjeti mablag'laridan ta'minlanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi bitilgan muhrga egadir. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparatining tuzilmasi mazkur apparat xodimlarining cheklangan soni bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi nizom, shuningdek uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari apparatining, ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari, bojxona komplekslari va postlarining namunaviy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiradigan tadbirlar majmuyidan iboratdir. Bojxona organlari bojxona nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona

qo‘mitasi raisining o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari va ixtisoslashtirilgan bojxona majmualari boshliqlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra, bojxona organlarining mansabdor shaxslari g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizliklari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tarzda javobgar bo‘ladilar. Bojxona organi mansabdor shaxsining yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazgan zarari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qoplanishi lozim. Noto‘g‘ri undirilgan bojxona to‘lovlari va jarima summalari qaytarilishi lozim, bojxona organlarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari tufayli yetkazilgan zarar esa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o‘z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash;
- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- bojxona to‘lovlarini undirish;
- bojxona nazoratidan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o‘tkazilishini ta‘minlash;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan, kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo‘yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;
- O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash.

Bojxona ishi O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o‘tish, boj to‘lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruv, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlarining o‘z vakolati

doirasida amalga oshiradigan asosiy huquqlari quyidagilardan iborat:

- tovarlar va transport vositalarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, jismoniy shaxslarning o'zini ko'zdan kechirish;
 - yuridik va jismoniy shaxslardan ko'zdan kechirish uchun tovarlar va transport vositalarini, shuningdek zarur hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;
 - valuta nazoratini amalga oshirish;
 - moliya, bank va boshqa tashkilotlardan, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan axborot va hujjatlarni hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni olish;
 - bojxona nazoratidan o'tkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan namuna va nusxalar olish;
 - bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar saqlanayotgan hududlarga va binolarga belgilangan tartibda kirish;
 - bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir materiallarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish;
 - bojxonaga oid huquqbuzarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar va transport vositalarini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda ushlab turish hamda olib qo'yish;
 - eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlar O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilayotganda, shuningdek aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda, transportirovka (xalqaro tranzitdan tashqari) qilinganda va saqlanganda ularni (xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan sud tartibida) musodara etish to'g'risida qaror qabul qilish;
 - surishtiruv o'tkazish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
 - bojxonaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga xizmat qiladigan texnikaviy va maxsus vositalarni qo'llash, shuningdek, bojxona organlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadirlar.
- O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlarining o'z faoliyati doirasida quyidagilarga majburdirlar:***
- yagona davlat bojxona siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etishga;
 - bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, bojlar to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishga;

- davlat xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, atrof muhitni muhofaza etish chora-tadbirlari amalga oshirilishiga ko'maklashishga;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlarini qo'llanish bo'yicha belgilangan tartibda uslubiy ko'rsatmalar va normativ hujjatlar ishlab chiqish hamda ularni nashr etishga;

- yuridik va jismoniy shaxslarni tovarlar va transport vositalarini olib o'tish hamda bojxona chegarasidan o'tish vaqtidagi huquqlari va majburiyatlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilishga;

- faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini beradigan maxsus ruxsatnomalarni (litsenziyalarni) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishga;

- o'z xizmat vazifalarini bajarishlari natijasida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan davlat siri va tijorat siri hisoblangan axborotni oshkor etmaslikka majburdirlar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Davlat boji tushunchasi va ularning belgilari, o'ziga xosligini tushuntiring.

2. O'zbekiston Respublikasida boj to'lovlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini ayting.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko'ra davlat boji to'lovlarini undirishda vakolatli davlat organlarining vazifalari nimalardan iborat?

4. O'zbekiston Respublikasi bojxona to'lovlarining undirilishdagi imtiyozlarning huquqiy asoslarini izohlab bering.

5. Bojxona to'lovlari iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatida ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

6. Davlat bojxona to'lovlarining huquqiy asoslarini tushuntirib bering.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va uning vazifalari haqida nimalarni bilasiz?

**XII bob. SOLIQA TORTISH JARAYONIDA
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQ
ORGANLARINING G'AYRIQONUNIY
HARAKATLARIDAN HIMOYALASH**

12.1. Tadbirkorlik subyektlarini davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy asoslari.

12.2. Tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy shakl va usullari.

12.3. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlariga soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari.

12.4. Tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini ta'minlashda soliq maslahatining ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar

Tadbirkorlik subyektlari tushunchasi. Davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan tadbirkorlik subyektlarini himoyalashning huquqiy asoslari. Soliq to'lovchilarni soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy shakllari. Soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari tushunchasi va turlari. Tadbirkorlik subyektlarini davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoya qilishning huquqiy usullari. Soliqqa tortish jarayonida soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari. Soliq maslahati tushunchasi va uning huquqiy asoslari.

12.1. Tadbirkorlik subyektlarini davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy asoslari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-huquqiy islohotlarining asosiy mazmunini jamiyatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirish, qishloq joylaridagi tadbirkorlikning huquqiy asoslari va ular faoliyatining yuridik kafolatlarini mustahkamlovchi qonunchilikni yanada takomillashtirish hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga

davlat organlarining g'ayriqonuniy aralashuvlarini cheklash va ularning oldini olish, amaliyotda yuzaga kelayotgan turli to'siqlarni bartaraf etish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarini himoyalashning fuqarolik huquqiy usullarining amaldagi ta'sirini yanada oshirishni talab etmoqda. «Nega deganda, mehnat faoliyatining aynan shu yo'nalishi bugungi kunda aholimizning katta qismi uchun nafaqat asosiy daromad manbai, balki dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham shakllanib kelayotgan o'rta sinf bo'lmish mulkdorlar sinfining muhim tarkibiy qismi, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining tayanchi va suyanchi hisoblanadi»¹.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining xususiy mulk obyektlariga nisbatan vakolatlarini amalga oshirishga keng imkoniyat yaratilishi iqtisodiyotni rivojlantirishga, tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoyalashga oid qonun hujjatlaridagi takomillashuvlar esa tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini kengaytirish barobarida mulkiy huquq va manfaatlarini huquqiy himoya qilish mexanizmining mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlarining mulkiy vakolatlarini amalga oshirishda va ular huquq hamda manfaatlarining himoyasini ta'minlashda Konstitutsiyaviy normalar qonunchilik asoslari takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. «Tadbirkorlik faoliyatida Konstitutsiyaviy kafolatlardan oqilona foydalanish tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhimdir»². O'zbekiston Respublikasi konun hujjatlarida jamiyat iqtisodiy negizlarining Konstitutsiyaviy kafolatlari mustahkam-langanligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkiy vakolatlarini amalga oshirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarning mulkka egalik tuyg'usini shakllantirish va xususiy mulkchilikni qaror toptirishda katta ahamiyatga egadir.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda³ belgilanganidek, *tadbirkorlik faoliyati bu* tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyati hisoblanadi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi — biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Xalq so'zi. 2009 yil 6-dekabr soni.

² Ro'zinazarov SH.N. Yuridik fanlarning rivojlanishi va zamonaviy muammolari. / Ma'sul muharrir: H. Rahmonqulov. — T.: 2006. B. 165.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000, №5 — 6, 140-modda.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy himoyalash mexanizmining qonunchilik asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunchilik hujjatlarida, shuningdek bir qator qonunosti me'yoriy hujjatlarda jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 19-noyabrdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida»gi, 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹gi, 2005-yil 20-iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi, 2005-yil 24-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarlikni erkinlashtirish to'g'risida»gi, 2006-yil 5-yanvardagi «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari hamda 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi, 2005-yil 21-sentabrdagi «Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ruxsatnoma turlarini qisqartirish va ularni berish tartib-qoidalarini soddalashtirish to'g'risida»gi, 2005-yil 5-oktabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2009-yil 15-maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarining qabul qilinishi tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning qo'shimcha kafolatlarini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

¹O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005. 23 – 24-son, 167-modda.

12.2. Tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy shakl va usullari

Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish sharoitida moliyaviy javobgarlik tizimini yanada erkinlashtirish, nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini kamaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatleri himoya qilinishini ta'minlash tadbirkorlik faoliyati asossiz cheklanishiga yo'l qo'ymaslikni talab etmoqda. *Tadbirkorlik subyektlari* – belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan davlat va jamiyat farovonligini yo'lida mehnat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir. «...hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi ijtimoiy faol aholining 70 foizidan ortig'i aynan kichik biznes va tadbirkorlik sohasida band. Shunday ekan, bu sohani yanada rivojlantirmasdan turib, biz iqtisodiyotimizning kelgusi taraqqiyotini o'zimizga tasavvur qila olmaymiz»¹.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning ikki shakli keng qo'llaniladi:

1. *Ma'muriy shakl* bo'lib, bu g'ayriqonuniy harakatlar sodir etgan soliq organlariga nisbatan e'tiroz va shikoyatlar yoki boshqa holatlarga nisbatan yuqori turuvchi tuzilma tegishli choralar asosida bartaraf etadi. Lekin ma'muriy tarzda hal etilgan murojaatlardan qoniqish hosil qilmagan subyektlarning sudga murojaat qilinishi inkor etilmaydi.

2. *Fuqaroviy shaklda* ya'ni tadbirkorlik subyektlari, umuman soliq to'lovchilar o'ziing zarar yetkazilgan huquqlarini tiklash uchun yoki davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalaniish uchun sudga murojaat qilishi orqali hal etishi tushuniladi.

Fuqaroviy tarzdagi ishlarni hal etish asosan fuqarolik qonun hujjatlari bilan hal etiladi. Tadbirkorlik subyektlariga yetkazilgan zarar yoki boshqa g'ayriqonuniy harakatlar nisbatan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-modda qoidalarida mulk huquqini himoya qilishning mustahkamlanganligi, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish usulining alohida keltirilganligi, fuqarolik qonun hujjatlarida ham fuqarolarning, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. //Xalq so'zi. 2009-yil 6-dekabr.

himoyalash mexanizmining huquqiy kafolatlanganligini ko'rish mumkin. Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqini himoya qilishning boshqa usullarini ham nazarda tutadi. Tadbirkorlarning *subyektiv huquqlarini himoya qilish usullari* deganda qonun bilan mustahkamlangan majburlash tusidagi moddiy—huquqiy normalar vositasi bilan huquqni tan olish, buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqni tiklash va huquqni buzuvchiga nisbatan iqtisodiy ta'sir choralar ko'rish tushuniladi.

Fuqarolik kodeksining 11-moddasida fuqarolik huquqlarini *himoya qilish usullari* o'zining ifodasini topgan. Unga ko'ra, fuqarolik huquqlarini himoya qilish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi: huquqni tan olish orqali; huquq buzilishidan avvalgi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatning oldini olish; bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash; davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish; tadbirkorning o'z huquqini himoya qilishi; qonun yoki shartnomadan kelib chiqadigan burchni aslicha (natura shaklida) bajarishga majbur qilish; zararni to'lattirish; neustoyka (aybona)ni undirish; ma'naviy zarar, ziyonni qoplash; huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish; davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini nizolarni ko'rishda sud tomonidan qo'llamaslik va tadbirkorning fuqarolik huquqlarini qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan fuqarolarning (tadbirkorlik subyektlarining) huquqini himoya qilish usullarining qonunda belgilab qo'yilganligi huquqi buzilgan tadbirkorga buzilgan huquqini himoya qilishning aynan o'ziga maqbul bo'lgan aniq bir usulini tanlab olish imkoniyatini beradi. Fuqarolik kodeksining 11-moddasidagi qayd etilgan usullar, qonunda va shartnomada belgilangan boshqa usullar nazariy jihatdan 3 guruhga bo'linadi:

- a) himoyani faqat sud orqali amalga oshirilishi;
- b) huquqni himoya qilishni sud orqali amalga oshirish hamda sudga murojaat qilmasdan amalga oshirish;
- v) huquqni himoya qilishni sudning ishtirokisiz, ya'ni o'z huquqini o'zi himoya qilish usuli bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 105-moddasida Soliq tekshiruvini o'tkazishda g'ayriqonuniy harakatlar orqali zarar

yetkazilishiga yo'l qo'ymaslik qoidalari belgilangan. Soliq tekshiruvini o'tkazishda soliq to'lovchiga (jumladan, tadbirkorlik subyektlariga) yoxud uning egaligida, foydalanishida yoki tasarrufida bo'lgan mulkka g'ayriqonuniy harakatlar orqali zarar yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq organlari soliq tekshiruvini o'tkazish yoki soliqqa doir huquqiy vakolatlarini amalga oshirish vaqtida davlat soliq xizmati organlari yoki ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zararlarning, shu jumladan boy berilgan foydaning o'rni davlat soliq xizmati organlari tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Sud qaroriga binoan zararlarning o'rmini qoplash davlat soliq xizmati organlari qaysi mansabdor shaxslarining aybi bilan zarar yetkazilgan bo'lsa, o'sha mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkin. Davlat soliq xizmati organlari va ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy harakatlar sodir etganligi natijasida soliq to'lovchiga yetkazilgan zarar uchun qonunda nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

12.3. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlariga soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 15-moddasida belgilanganidek, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan, davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjat chiqarilishi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar davlat tomonidan yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan to'lanishi kerak. Shuningdek, qonunchilik yetkazilgan zararni qoplashni zarar yetkazishda bevosita aybdor bo'lgan shaxsning zimmasiga sud qarori asosida yuklatilishi ham nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda davlat organlari tomonidan tadbirkorlarning subyektiv mulk huquqi buzilgan hollarda davlatning javobgar bo'lishi va mulkdorlarning tegishli davlat organlari qarorlarining qonuniyligi yuzasidan bahslashish imkoniyatini belgiladi. Lekin tadbirkorlik subyektlariga davlat organlari, ularni mansabdor shaxslarining

ayrtiqonuniy harakatlardan fuqarolik huquqiy himoyalashning asoslari fuqarolik qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan bo'lsada, amaliyotda uni qo'llash bo'yicha ko'rsatma yoki tushuntirishlar yo'qligi, shuningdek davlat organlari xatti-harakatlari yoki harakatsizligi natijasida ziyon ko'miyotgan tadbirkorlik subyektlari hamon mavjudlini inkor etib bo'lmaydi. Mazkur salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmonga ko'ra, 2005-yilning 1-iyulidan boshlab tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarni faqat sud orqali qo'llanishi tartibi joriy etildi. Tadbirkorlik subyektlarining moliya xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) belgilangan tartibda faqat davlat soliq xizmati organlari, ular tomonidan tekshirish davomida soliq va valyutaga oid jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda esa – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadalni legallashtirishga qarshi kurash departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarini o'z vakolatlari va nazorat sohasi doirasidan tashqari masalalar bo'yicha har qanday tekshiruvlar o'tkazganligi uchun shaxsan javobgarligi belgilandi. Faqat qo'zg'atilgan jinoiy ish yuzasidan tekshirishni tayinlash to'g'risidagi qaror yoki shunday tekshiruvlarni o'tkazish to'g'risida nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus vakolatli organning qarori mavjud bo'lgandagina qonunda ko'zda tutilgan hollarda tadbirkorlik subyektlarining tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt bilan o'zaro munosabatlarnigina muqobil tarzda tekshirishga yo'l qo'yiladi. Muqobil tekshirishlarni o'tkazish chog'ida tadbirkorlik subyektlariga borish va ulardan tekshirishga taalluqli bo'lmagan moliya-buxgalteriya yoki boshqa hujjatlarni talab qilish man etiladi. Mazkur farmon talablariga ko'ra, davlat organlarining noqonuniy qarorlari yoki shu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zararining o'rni sud qarori asosida to'la hajmda bevosita ana shu davlat organlari tomonidan, birinchi navbatda, ularning budjetdan tashqari jamg'arma mablag'lari hisobiga qoplanishi lozimligi, zararlarning o'rnini qoplash sud qarori bilan ana shu yetkazilgan zarar uchun aybdor bo'lgan davlat organlarining

mansabdor shaxslariga, qonun hujjatlarida belgilangan tartib va miqdorlarda yuklanishi mumkinligi belgilandi. Mazkur me'yoriy hujjatning qabul qilinishi tadbirkorlik subyektlarini nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga katta mas'uliyat va javobgarlik hissini his etish kerakligini hamda faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash lozimligini belgilab berdi.

Bugungi kunda ko'pgina xorijiy davlatlar, xususan Germaniya va Fransiya qonunchiligi va amaliyoti natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, soliq organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan g'ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zararni fuqarolik-huquqiy usullar orqali undirish hamda fuqarolik huquqiy javobgarlik choralari keng qo'llashni talab etmoqda.

Davlat organlari tomonidan yetkazilgan zarar qaysi organ yoki qaysi organ mansabdor shaxsining g'ayriqonuniy harakati yoki qonunga muvofiq bo'lmagan hujjat chiqarishi natijasida yetkazilgan bo'lsa, o'sha organ yoki mansabdor shaxs xizmat qiladigan organ tomonidan qoplanishi kerak. Zararni undirish haqidagi da'vo ham o'sha organga nisbatan qo'zg'atilishi kerak¹. Shuningdek, g'ayriqonuniy harakat natijasida yetkazilgan zarar aybdor organning o'zi yoki mansabdor shaxs mansub bo'lgan organ tomonidan qoplanishi lozimligi, davlat mablag'lari umumiy va yagona fond davlat budjetiga jamlanganligini hisobga olib, yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni bevosita davlat budjeti ma'sul organ moliya organlari zimmasiga yuklash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi². Ko'p hollarda davlat organi yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy harakati ular tomonidan hokimiyat vakolatlarini amalga oshirib qabul qilinadigan biror bir huquqiy hujjatni qabul qilish shaklida ifodalanadi³.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi «Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi O'zbekiston

¹Rahmonqulov H. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi.1997.100b.

²Baratov M.X. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida davlatning ishtiroki: nazariya va amaliyot. TDYuI,2008.106-b.

³Baratov M.X. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarida davlatning ishtiroki: nazariya va amaliyot.-TDYuI,2008. 88-b.

Respublikasi Bosh prokuraturasi, Adliya vazirligi, Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi muntazam ravishda joylarda davlat boshqaruvi hamda davlat hokimiyati organlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qonun hujjatlarida belgilangan huquqlariga hoya etilishi kuchaytirishga xizmat qildi: Tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquq va manfaatlariga zarar yetkazayotgan davlat boshqaruvi hamda davlat hokimiyati organlarining g'ayriqonuniy qarorlarini to'liq yoki qisman haqiqiy emas (noqonuniy) deb e'tirof etish, joylardagi davlat boshqaruvi hamda davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlar huquqlarini cheklovchi qarorlar qabul qilgan mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish to'g'risida sudlarga da'vo arizalari kiritilishini ta'minlash jamiyatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ular faoliyatiga davlat organlari, ularning mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy aralashuvini cheklash hamda qonuniy manfaatlariga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni o'z vaqtida to'la undirishini huquqiy kafolaydi.

Davlat organlari, jumladan soliq organlari ularning mansabdor shaxslari tomonidan g'ayriqonuniy harakatlar natijasida tadbirkorlik subyektlariga yetkazilayotgan moddiy va ma'naviy zarar, turli xil noqonuniy aralashuv va tekshiruvlarning mavjudligi jamiyatda tadbirkorlik faoliyatini yuksalib borishiga, ulardagi ishchanlik kayfiyati va davlat organlariga nisbatan ishonchni susayishiga, eng muhimi fuqaro, jamiyat va davlatning iqtisodiy farovonligini va qonun ustuvorligini ta'minlanishiga sun'iy to'siq bo'ladi.

Tadbirkorlarga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi ayni kunda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga katta e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, ularning organlar mansabdor shaxslari tomonidan yetkaziladigan zararlarni qoplash masalalarining huquq asoslari 2002-yil 12-yanvarda Adliya vazirligidan tomonidan 1095-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplashga davlat budjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini

amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma bilan tartibga solinadi. Yo'riqnoma davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida yetkazilgan zararni qoplashda davlat budjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini to'lash to'g'risida tegishli organlarning qarorlarini bajarish tartibini, shuningdek moliya organlari tomonidan suddan tashqari tartibda davlat budjeti mablag'lari hisobidan pul to'lovlarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Davlat organlari, ularning organlar mansabdor shaxslari tomonidan yetkaziladigan zararlarni qoplash uchun davlat budjeti mablag'lari hisobidan pul mablag'larini to'lash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

a) davlat organlari va ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari (harakatlari) natijasida yetkazilgan mulkiy (shu jumladan, davlat daromadiga o'tkazilgan pul mablag'lari va mol-mulk qiymatini qaytarish) va ma'naviy zararni davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplash to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda;

b) sud tomonidan berilgan ijro varaqasi taqdim etilganda;

d) keyinchalik oqlangan shaxsga yetkazilgan mulkiy zararni qoplashga pul to'lovlarini amalga oshirish to'g'risida sud ajrimi yoki tergovchi yoxud prokurorning qarori chiqarilganda;

e) tegishli organlarning mol-mulkni davlat daromadiga o'tkazish to'g'risidagi hukmi, ajrimi yoki qarorini bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilganda;

f) mol-mulk bir qismini banddan ozod etish (xatlovdan chiqarish) to'g'risida sud organlarining hal qiluv qarori yoki ajrimi chiqarilganda va qonun hujjatlarida yoki sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshiriladi.

12.4. Tadbirorlik subyektlari huquqiy himoyasini ta'minlashda soliq maslahatining ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatishga bo'lgan talab va ehtiyoj oshib bormoqda. Ayniqsa, soliq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bu borada professional soliq maslahatini ko'rsatishni tashkiliy – huquqiy ta'minlash choralarini ko'rishni talab etdi. Shu bois milliy qonunchiligimizda yangi «soliq maslahati» institutini joriy etishga huquqiy asos solindi. *Soliq maslahati* soliqqa tortish sohasida maslahat

va tavsiyalar ishlab chiqish, tahliliy xat va xulosalar tayyorlash, solliq muammolarini hal qilishning oqilona yo'llarini asoslab topishga qaratilgan maslahat xizmatini ko'rsatishdir. Solliq maslahati yuridik amaliyotning murakkab sohalariidan biri bo'lib hisoblanadi.

Solliq maslahati yuridik amaliyotning Yangi sohasi bo'lib, bunday turdagi xizmat ko'rsatish endi shakllanayotganligi sababli solliq maslahatchilarining maqbul ish yuritish usuli va ko'nikmalarini rivojlantirish obyektiv jarayondir. Solliq maslahati instituti kelgusida ommaviy tus olishini nazarda tutsak, bunday maslahat xizmatini ko'rsatishni tizimli rivojlantirish uning huquqiy asoslarini mantiqiy izchillikda milliy qonunchiligimizda ifoda etish va uni takomillashtirish istiqboldagi muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.

Solliq qonunchiligini erkinlashtirish jarayoni davom etayotgan hozirgi sharoitda solliq maslahati ko'rsatishning roli va ahamiyati yanada oshib borishidan dalolat beradi. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va ularning huquqiy himoya tizimini mustahkamlashda malakali solliq maslahati ko'rsatishga bog'liq ekanligini nazarda tutsak, bunday maslahat xizmat ko'rsatish iqtisodiyotni rivojlantirishda salmoqli o'rin tutadi. Shuningdek, solliq maslahatini ko'rsatish tadbirkorlik subyektlari huquq va manfaatlarini sudda ishonchli himoya qilishga ham yordam beradi.

Solliq kodeksida solliq agenti va solliq to'lovchining vakillari kabi Yangi institutlarning ifodalanishi uning huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 21-sentyabrdagi «Solliq maslahati to'g'risida»gi Qonunining qabul qilinishi solliq munosabatlarida vakillik institutiga asos solinishi solliq maslahati ko'rsatishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga zamin yaratdi.

Mazkur qonunchilik hujjatining asosiy maqsadi solliq maslahati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, unda ilk marotaba solliq maslahati tushunchasi ifodasini topgan. *Solliq maslahati* solliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida solliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir. Ushbu yo'nalishni tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 703-moddasida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining mazmuni ham muhim o'rin egallaydi.

Solliq maslahatchisi malaka sertifikatini olish uchun talabgorlar quyidagi shartlarga javob berishi lozim. Jumladan, oliy ma'lumotga ega bo'lishi, solliq maslahatchilarini tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv

kursini o'tagan bo'lishi, kamida besh yillik ish stajiga, shu jumladan, iqtisodiy yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxs talabgor bo'lishi mumkin.

Soliq maslahati sohasidagi vakolatli davlat organi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vakolatli davlat organi soliq maslahati bo'yicha faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, soliq maslahatchisi malaka sertifikatini beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi, soliq maslahatchilari reestrini yuritadi, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Vakolatli davlat organi huzurida o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi soliq maslahati bo'yicha kengash tuziladi. Soliq maslahati bo'yicha kengash tarkibiga davlat organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, soliq maslahati sohasidagi mutaxassislar kirishi mumkin. Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tijorat tashkilotidir. Soliq maslahatchilari tashkilotining rahbari soliq maslahatchisi bo'lishi kerak.

Soliq maslahatchilari tashkiloti «Soliq maslahati to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan soliq maslahati bo'yicha xizmatlar bilan bir qatorda, buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash va yuritish, moliyaviy hisobot tuzish, buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha konsalting xizmatlari ham ko'rsatishi mumkin. Soliq maslahatchilari tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq maslahatchilari tashkiloti mijozdan (ishonch bildiruvchidan) soliq maslahatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni va boshqa ma'lumotlarni olish, soliq maslahati berish jarayonida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha mijozdan (ishonch bildiruvchidan) og'zaki yoki yozma tushuntirishlar olish, soliq maslahatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot, ma'lumotnomalar, hujjatlar va boshqa materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muassasalar hamda tashkilotlardan so'rab olish, soliq solish masalalari bo'yicha davlat organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda murojaat qilish (iltimos qilish, takliflar kiritish, so'rovlar, arizalar, shikoyatlar berish va boshqa shu kabilar) hamda ulardan javoblar olish, soliq maslahatida ishtirok etishga boshqa mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb qilish, mijoz (ishonch bildiruvchi) soliq maslahatini amalga oshirish uchun

zarur bo'lgan hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmagan taqdirda, soliq maslahati berishni rad qilish kabi huquqlarga ega. Soliq maslahatchilari tashkiloti qonun hujjatlariga va soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq maslahatchilari tashkiloti mijozning (ishonch bildiruvchining) huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan usullari hamda vositalaridan foydalanishi, soliq maslahatini amalga oshirayotganda olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi, soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzilayotganda mijozning (ishonch bildiruvchining) talabiga binoan malaka sertifikatini ko'rsatishi, mijozga (ishonch bildiruvchiga) uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarar yetkazilganligi haqida dalolat beruvchi faktlar, shuningdek qonun hujjatlarining buzilganligi aniqlangan taqdirda, bu haqda mijozga (ishonch bildiruvchiga) ma'lum qilishi shart. Soliq maslahatchilari tashkilotining zimmasida qonun hujjatlariga va soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. Soliq maslahatchilari tashkiloti mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliq maslahati bo'yicha hisobot taqdim etadi. Soliq maslahati bo'yicha hisobot soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan soliq maslahati predmeti haqidagi axborotni o'z ichiga oladi. Soliq maslahati bo'yicha hisobotdagi axborot maxfiydir va oshkor qilinishi mumkin emas. Soliq maslahati bo'yicha hisobotning har bir beti soliq maslahatini amalga oshirgan soliq maslahatchisi tomonidan imzolanadi, hisobot soliq maslahatchilari tashkiloti rahbarining imzosi va mazkur tashkilotning muhri bilan tasdiqlanadi.

Soliq maslahatchilari va ularning yordamchilari sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar tomonidan ekspertlar hamda mutaxassislar sifatida, shuningdek tekshiruvlarni amalga oshirishga jalb etilishi mumkin emas. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida xizmat qiluvchi shaxslar soliq maslahatiga jalb etilishi mumkin emas.

Soliq maslahatchilari va (yoki) soliq maslahatchilarining tashkilotlari umumiy manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq maslahatchilari birlashmasini tashkil etish huquqiga ega. Soliq maslahatchilari tashkiloti

soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida mijozga (ishonch bildiruvchiga) zarar yetkazganligi uchun javobgar bo'ladi. Mijozga (ishonch bildiruvchiga) yetkazilgan zararlarning, shu jumladan boy berilgan foydaning o'rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi kerak.

Soliq qonunchiligining erkinlashtirish sharoitida soliq maslahatini ko'rsatishning roli va o'rining oshib borishi, fuqaro va tadbirkorlarning soliqlarni to'lovi bo'yicha huquqiy madaniyatini oshirishda bunday vakillik institutidan oqilona foydalanishi mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishda va tadbirkorlik subyektlariga soliq maslahati xizmatini ko'rsatishda yangi sahifa ochish imkonini beradi. Soliq maslahati xizmatini ko'rsatishni huquqiy tartibga solish va uni amaliyotda tatbiq etishning takomillashtirilishi soliq munosabatlarida tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish mexanizmining samaradorligini oshirishni, huquqiy munosabatlarda adolat va qonuniylikni ta'minlashning muhim garovi bo'lib xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Tadbirkorlik subyektlari tushunchasi va ularni davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy asoslarini tushuntirib bering.

2. Soliq to'lovchilarni, jumladan, tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashning huquqiy shakllarini ayting.

3. Tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan ma'muriy va sud tartibida himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.

4. Soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari tushunchasi va turlari hamda tadbirkorlik subyektlarini ularning g'ayriqonuniy harakatlaridan himoya qilishning fuqarolik-huquqiy usullarini ayting.

5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlariga soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari qanday hal etilgan?

XIII bob. SOLIQQA OID HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIK TUSHUNCHASI VA TURLARI

13.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi va turlari.

13.2. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari.

13.3. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy, ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik.

Tayanch so'z va iboralar

Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi. Soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning turlari. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning o'ziga xos xususiyatlari. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va uning xususiyatlari. Moliyaviy javobgarlik. Jarima va penya tushunchalari. Ma'muriy javobgarlik tushunchasi va turlari. Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik tushunchasi yuridik asoslari.

13.1. Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasi va turlari

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliq idoralarining jahon amaliyoti tajribasi asosida soliq subyektlarining o'zaro munosabatlarini, soliqqa tortish va huquqiy javobgarlik masalalari qonuniy belgilab berilgan.

Soliqqa oid huquqbuzarlik — bu soliq qonun hujjatlari bilan yuridik javobgarlik nazarda tutilgan, huquqqa xilof, aybli harakat (harakatsizlik) bo'lib, soliq munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi, soliq majburiyatlarining bajarilmaganligi bilan bevosita bog'liqdir. Soliq huquqbuzarligi sodir etilganda bevosita davlat majburlov choralari qo'llaniladi.

Soliq sohasidagi davlat majburlov choralari deganda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan, vakolatli davlat organlari

tomonidan soliq sohasidagi huquqbuzarlarga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralari yig'indisi tushuniladi. Bu choralarni qo'llash, soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash maqsadini ko'zlaydi hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, bartaraf etish, buzilgan huquqlarni qayta tiklashga qaratilgan bo'ladi.

Soliq sohasidagi huquqbuzarlik bu ijtimoiy ma'noda, fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlariga xavfni vujudga keltiruvchi xulq-atvor bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ularning buzilishiga olib keladi. Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar qasddan (aksariyat hollarda) yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan xulq-atvor bo'lib, uning natijasida fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlariga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkaziladi. Huquqbuzarlik – bu huquq talablaridan chetga chiqish, muayyan imperativ yuridik majburiyatni buzish yoki huquqdan uning maqsadiga xilof ravishda foydalanish (huquqni suiiste'mol qilish) demakdir. Shunday qilib, soliq sohasidagi huquqbuzarlik tushunchalarining muqarrar belgilari huquqqa xilofilik, aybdorlik, yuridik sanksiyalar bilan taqiqlanganligidir.

Soliq huquqbuzarligi uchun qonun hujjatlarida soliq javobgarligi belgilangan bo'lib, bu davlat tomonidan majbur qilishning tarkibiy qismi bo'lgani holda uning barcha belgilarini o'zida mujassamlashtirgan va bir vaqtning o'zida o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'ladi. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) soliq javobgarligiga soliq sohasidagi huquqbuzarlik asos bo'ladi;

b) u huquqbuzarga (yuridik va jismoniy shaxsga) nisbatan ma'muriy, moliyaviy va jinoiy jazo choralari ham qo'llanishidan iborat;

d) javobgarlikka tortishning alohida tartibi belgilangan. Soliq javobgarligi hamma vaqt ham huquqbuzarga muayyan salbiy oqibatlar keltirish bilan bog'likdir.

Soliq sohasidagi huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikning mohiyati davlat tomonidan soliq haqidagi qonun hujjatlari qoidabuzarlariga nisbatan soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarda qo'llaniladigan ta'sir etishning huquqiy choralari kompleksligidan iborat. Soliq sohasidagi huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikning turlari ularning qilmishning ijtimoiy xavfliligi, yetkazilgan zararining miqdori, qonunda belgilangan og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda quyidagi choralar tayinlanadi:

- 1) moliyaviy (moddiy) javobgarlik;
- 2) ma'muriy-huquqiy javobgarlik;
- 3) jinoiy-huquqiy javobgarlik;

Soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikka soliq to'lovchilar (xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularning mansabdor shaxslari, fuqarolar) ham, davlat soliq xizmati organlari (ularning mansabdor shaxslari, fuqarolar) ham ega bo'lishi mumkin. Bu O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonunda, O'zbekiston Respublikasining davlat soliq qo'mitasi to'g'risida Nizom va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan.

Soliq munosabatlari sohasida talablar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:

a) ular yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga birdek qo'llaniladi hamda soliq sohasida qonunchilikni ta'minlash, soliqlarni to'lash qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga qaratiladi;

b) moliyaviy jazo choralari, ma'muriy majburlov va jinoiy jazo choralarini soliqqa majburlash chorasi sifatidagi qo'llanilgan mexanizmlari tegishli moliya huquqi, ma'muriy va jinoyat huquqiy qonunchilik sohalari bilan uyg'un holda belgilanishi nazarda tutiladi;

d) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliqqa oid majburlov choralari maxsus davlat vakolatli organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan yoki sud orqali qo'llaniladi;

e) soliq sohasidagi davlat majburlovining asosiy maqsadi — soliq qonunlariga qat'iy amal qilinganlikni, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq davlat budjetiga kelib turishini ta'minlashdan iborat;

f) soliq sohasidagi majburlov choralarini qo'llash tartibi moliyaviy qonun hujjatlarida ma'muriy-protsessual me'yorlarda belgilab qo'yiladi, ya'ni ma'muriy huquq doirasida qo'llaniladi. Soliq sohasidagi majburlov choralari soddalashtirilgan tartibda (huquqbuzarlik aniqlanadi — qayd etiladi, bayonnoma yoki dalolatnoma vositasida — jazo qo'llaniladi) tatbiq etiladi.

I.I.KucheroVning fikricha, barcha soliq huquqbuzarliklarni xususiyati va yo'nalishiga qarab shartli ravishda to'rt guruhga ajratadi:

1) soliq hisobi bilan bog'liq majburiyatni bajarmaganlikda ifodalanuvchi huquqbuzarliklar;

2) soliq obyektlarining, daromadlar va xarajatlarning hisobini olib borish, soliq organlariga soliq deklaratsiyalarini taqdim etish

tartibini buzish;

3) soliqlar va yig'implarni to'lash, ushlab qolish va o'tkazish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar;

4) soliq organlarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar¹.

Soliqqa oid huquqbuzarlik tushunchasiga Soliq kodeksining 106-moddasida ham ta'rif belgilanib, unga ko'ra soliq to'lovchining Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi. Jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik yoshi o'n olti yoshdan boshlab vujudga keladi.

Soliq huquqbuzarligi iqtisodiy huquqiy mazmuniga ko'ra turlari amaldagi Soliq kodeksining 17-bobida belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

• 113-modda. Davlat soliq xizmati organida hisobga turishdan bo'yin tovlash;

• 114-modda. Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash yoxud tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish);

• 115-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibini buzish;

• 116-modda. Buxgalteriya hisobini yuritish tartibini buzish;

• 117-modda. Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish;

• 118-modda. Hisob varaq-fakturalarni rasmiylashtirish tartibini buzish;

• 119-modda. Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibini buzish;

• 120-modda. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish;

• 121-modda. Yer uchastkalaridan ularga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish.

Yuqoridagi qoidalarni umumlashtirgan holda, soliq huquqbuzarligi bu soliq qonun hujjatlariga asosan huquqqa xilof aybli harakat yoki harakatsizlik bo'lib, soliq to'lovchining tegishli budjetlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi bilan yoki davlat soliq xizmati organlari (mansabdor

¹ Кучеров И.И. Налоговое право России. Курс лекций. – М:2001.259с.

shaxslari) tomonidan soliq to'lovchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzishda ifodalanadi.

13.2. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari

Yuridik javobgarlik bu huquqbuzarga nisbatan davlat tomonidan qonun hujjatlariga ko'ra sanksiyalar doirasida majburlov choralarini qo'llash bo'lib hisoblanadi. Yuridik javobgarlikning umume'tirof etilgan turlariga moddiy, intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarliklarni keltirish mumkin. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ular:

1) soliq huquqiy normalarining buzilishi oqibatida yuzaga keladi va davlat majburlov choralari qo'llanilishida ifodalanadi.

2) aybli harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzaga kelib, sanksiyalarni qo'llashni yuzaga keltiradi.

3) sodir etilgan qilmishga va huquqbuzarga nisbatan davlat nomidan yakuniy qaror qabul qilinib, tegishli protsessual shaklda amalga oshiriladi.

Soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etilganda huquqbuzarni javobgarlikka tortishda bir qator umumiy shartlar mavjud bo'lib, unga ko'ra hech kim soliqqa oid huquqbuzarlik uchun Soliq kodeksida nazarda tutilganidan boshqa asoslar bo'yicha va tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Shuningdek, hech kim soliqqa oid sodir etilgan aynan bitta huquqbuzarlik uchun takroran javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilanganidek, javobgarlikka tortishning asosiy shartlaridan biri bu jismoniy shaxs sodir etgan soliqqa oid huquqbuzarlikda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlarini bo'lmasligi lozimdir. Yuridik shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, uning mansabdor shaxslari ma'muriy, jinoiy va boshqa javobgarlikka tortiladi.

Shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmaguniga qadar, u soliqqa oid huquqbuzarlikni sodir etishda aybdor hisoblanmaydi. Javobgarlikka tortilayotgan shaxs o'zining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikda aybsiz ekanligini isbotlashi shart emas. Soliq to'lovchining soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka

tortilishi uni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

Quyidagi holatlardan loaqal bittasi mavjud bo'lgan taqdirda shaxs soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas:

- soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganligi faktining yo'qligi;
- soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilishida shaxsning aybi yo'qligi.

Shuningdek, soliq to'lovchi soliq tekshiruvi o'tkazilguniga qadar xatoni o'zi tuzatgan taqdirda javobgarlikdan ozod etiladi. Quyidagilar shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi *aybini istisno qiladigan holatlar* deb e'tirof etiladi:

a) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo'lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi (mazkur holatlar hammaga ma'lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan belgilanadi);

b) soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlari bo'lgan qilmish bunday qilmish sodir etilgan paytda kasallik oqibatida o'z harakatlarini o'zi idora etolmaydigan yoki boshqara olmaydigan holatda bo'lgan (mazkur holatlar mazmuni, mohiyati va sanasi bo'yicha soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilgan o'sha soliq davriga taalluqli bo'lgan hujjatlarni taqdim etish orqali isbotlanadi) jismoniy shaxs — soliq to'lovchi tomonidan sodir etilganda;

d) vakolatli organlar yoki ular mansabdor shaxslarining soliqqa oid qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari bo'yicha o'z vakolatlari doirasida bergan yozma tushuntirishlari soliq to'lovchi tomonidan bajarilganda (mazkur holatlar ushbu organlarning tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan taqdirda belgilanadi, ushbu hujjatlar ma'nosi va mazmuniga ko'ra, hujjatlar qabul qilingan sanadan qat'i nazar, soliqqa oid huquqbuzarlik yuz bergan soliq davriga taalluqli bo'lishi lozim).

Quyidagilar shaxsni soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun *javobgarlikka tortishni istisno qiladigan holatlar* deb e'tirof etiladi:

- soliqqa oid huquqbuzarliklar huquqbuzarlik sodir etish vaqtida o'n olti yoshga to'lmagan jismoniy shaxs tomonidan sodir etilganda;
- soliq majburiyatlari bo'yicha da'vo muddatlari tugaganda.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar Soliq kodeksining 111-moddasida ifodalangan bo'lib, ularga quyidagilar e'tirof etiladi: huquqbuzarlikni og'ir shaxsiy yoki oilaviy

sharoitlar kechishi oqibatida sodir etish; huquqbuzarlikni tahdid yoki majburlash ta'sirida yoxud moddiy, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramlik sababli sodir etish, shuningdek sud tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi deb topilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar bo'lishi mumkin.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning ilgari xuddi shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilganligi javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi.

13.3. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy, ma'muriy hamda jinoyi javobgarlik

Moliyaviy javobgarlik. Mamlakatimiz qonunchiligida «moliyaviy jazo (sanksiya)» atamasi qo'llanilib kelinadi. Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda ishlatilib kelinayotgan «iqtisodiy sanksiya», «moliyaviy jarima» yoki «moliyaviy jazo» atamalarini bir xil nom bilan, ya'ni «moliyaviy sanksiya» deb nomlash lozim. Moliyaviy sanksiya deganda, mulkiy va nomulkiy ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan, soliq hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni buzganlik uchun tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llaniladigan davlatning majburlov chorasi tushuniladi.

Mazkur ta'rifdan ko'rinib turibdiki, moliyaviy sanksiyalar huquqbuzarlarga nisbatan nafaqat mulkiy, balki nomulkiy ta'sir etish xususiyatiga ham ega ekanligi e'tirof etilmoqda.

Moliyaviy sanksiya deganda, moliyaviy javobgarlik chorasi va doirasini o'z ichiga olgan, moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi va moliyaviy huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda vakolatli organ (sud) tomonidan qo'llaniladigan, huquqbuzarga nisbatan mulkiy va nomulkiy ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan moliyaviy javobgarlik normasining majburiy tuzilmaviy elementi tushuniladi.

Moliyaviy javobgarlik davlat majburlovining alohida chorasi bo'lib, soliq munosabatlarini, budjetni shakllantirish va ijro etish bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlarni, bank, valuta munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilish jarayonida qo'llaniladigan yuridik javobgarlikning bir turidir.

Moliyaviy sanksiyalarning maqsadi moliyaviy tizimga zararlarni bartaraf etish, ijtimoiy adolatni tiklash, moliyaviy huquqbuzarliklarni

takror sodir etilishini ogohlantirishdan iborat. Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar faqat sud tartibida qo'llaniladi. Soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penya materiallar sudga berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda tadbirkorlik subyekti – soliq to'lovchi o'ziga nisbatan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaganligi uchun jarimalar qo'llanilishidan ozod qilinadi.

Moliyaviy sanksiyalar jarima va penya ko'inishida bo'lgan, soliq hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni buzganlik uchun soliq to'lovchilarga nisbatan faqat sud tartibida qo'llaniladigan jazo turlaridan biridir.

Moliyaviy sanksiyalarning quyidagi belgilari mavjud:

– moliyaviy sanksiyalar moliyaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi hamda moliyaviy sanksiyalar milliy huquq tizimidagi sanksiyalarning mustaqil turi hisoblanadi.

– moliyaviy sanksiyalar moliyaviy javobgarlikni ta'minlashning muhim vositasidir;

– moliyaviy sanksiyalar huquqbuzarning pul mablag'lariga ta'sir etish xususiyatlariga ega bo'lib, o'z navbatida bu ta'sir pul mablag'larini undirish yoki pul mablag'laridan foydalanishni cheklash yoxud huquqni tashkiliy jihatdan cheklashni nazarda tutadi;

– moliyaviy sanksiyalarni qo'llashga moliyaviy huquqbuzarlikning sodir etilishi, ya'ni yuridik fakt asos bo'lib xizmat qiladi;

– moliyaviy sanksiyalar qo'llash o'ziga xos protsessual tartibi bilan ham ajralib turadi.

Moliyaviy sanksiyalar quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. *Huquqni tiklashga qaratilgan sanksiyalar.* Ushbu sanksiyalarni amalga oshirish davlatning moliyaviy manfaatlariga qarshi qaratilgan va huquqqa hilof faoliyat orqali yetkazilgan zararni bartaraf etishga, moliyaviy majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, ularni majburiy ijroga qaratishga hamda davlatning buzilgan mulkiy huquqlarini tiklashga olib keladi.

2. *Jazolovchi (jarima) sanksiyalar.* Ularni amalga oshirish budjet huquqiy munosabatlarida yuz berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olish va uni ogohlantirish, shuningdek, budjet qonunchiligini buzuvchilarni jazolashga qaratilgan bo'ladi.

Moliyaviy sanksiyalar boshqa huquqiy ta'sir etish choralari kabi huquqbuzarga nisbatan ruhiy ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, bu borada yuz berishi mumkin bo'lgan qonunbuzilishlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar ma'muriy-huquqiy javobgarlikning chorasi sifatida ma'muriy jazo ishtirok etsa, moliyaviy-huquqiy javobgarlikning chorasi sifatida jarima va penya qatnashadi. **Jarima va penya** — bu soliq to'lovchi tomonidan soliq haqidagi qonun hujjatlari me'yorlarining (davlat oldidagi soliq majburiyatlarining) bajarilmaganligi yoki keraklicha bo'lmagan tarzda bajarilganligi hollarida undiriladigan pul summalaridir.

Jarima — bu soliq haqidagi qonun hujjatlarida foizlarda yoki muayyan miqdor (masalan, eng kam oylik ish haqining miqdori, soliqlar va yigimlarning qo'shimcha hisoblab yozilgan summasi)ga nisbatan baravar miqdorlarda belgilanadigan bir marta undiriladigan summadir.

Penya — bu soliqlar yoki yig'implarni to'lash muddati o'tkazib yuborilgan har bir taqvim kuni uchun ortib boruvchi yakun bilan undiriladigan pul summasidir. Penya bu qonun kuchi bilan soliqning majburiy va majburlovchi xususiyatidan kelib chiqadigan, soliqni to'lash kechiktirilgan hollarda soliq to'lovlarini o'z muddatida to'lig'icha olmaganlik natijasida ko'rilgan davlat budjeti yo'qotishlarining o'ziga xos kompensatsiyalanishidir.

Ma'muriy javobgarlik. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo'llaniladigan asosiy yuridik javobgarlikning yana bir turi bu ma'muriy javobgarlikdir. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kiritilgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 1-moddasiga binoan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari: mazkur kodeks, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining qarorlari, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlari, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlarining qarorlaridan iborat.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining soliq sohasidagi asosiy vazifasi — soliq sohasidagi o'rnatilgan ijtimoiy munosabatlarni, inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy

muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, soliq bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarining o'z vaqtida obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 10-moddasiga binoan esa **ma'muriy huquqbuzarlik deganda** (faktik asosi) – qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun qo'llaniladigan ma'muriy javobgarlikning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1) ma'muriy javobgarlik ijtimoiy xavfi yuqori bo'lmagan huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llanilib, ma'muriy huquqbuzarlik xususiyatlari mavjud bo'lgan huquqqa xilof qilmishlar ma'muriy nojo'ya xatti-harakat deb ataladi;

2) ma'muriy javobgarlik fuqarolarning yoki mansabdor shaxslarning soliq qonunchiligi normalarini buzishda ifodalanuvchi huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligining oqibati bo'lib hisoblanadi;

3) soliq qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik soliq munosabatlarida davlat nomidan harakat qiluvchi davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan qo'llaniladi;

4) soliq sohasida ma'muriy huquqbuzarliklarning obyekt sifatida davlat va ma'muriy hududiy tuzilmalarning fiskal manfaatlarini hisoblanadi.

Soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlik bu qonun hujjatlari bilan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan hamda soliq sohasida boshqaruvning o'rnatilgan tartibiga tajovuz qiladigan aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan) sodir etilgan qilmish harakat (harakatsizlik) tushuniladi. Soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikning asosiy xususiyatlari bu huquqqa xiloflik, aybning mavjudligi, ma'muriy qonunchilik asosida jazoga sazovorlik kabilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida soliq sohasidagi ma'muriy javobgarlik masalalari qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi,

demokratizm, odillik, ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi. Soliq sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklarning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining «*Savdo, tadbirkorlik va moliya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik*», deya nomlanuvchi 13-bobida keltirilgan. Unga ko'ra quyidagi soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik choralari qo'llaniladi;

- 174-modda. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash;

- 174¹-modda. Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish;

- 175-modda. Soliq solinadigan obyektlarning hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini, shuningdek to'lov intizomini buzish;

- 175¹-modda. Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish;

- 175²-modda. Budget intizomini buzish;

- 175³-modda. Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzish va boshqalardir.

Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik yuridik javobgarlikning barcha xususiyatlari ham xos bo'lgan huquqiy normalar asosida o'rnatiladi, shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qo'llaniladi va vakolatli davlat organlari (mansabdor shaxslar) tomonidan o'rnatilgan protsessual tartibda huquqiy normalarda nazarda tutilgan sanksiyalarni qo'llashda ifodalanadi.

Ma'muriy javobgarlik masalasi ko'pgina huquqshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ularning aksariyati bu masalaga deyarli bir xilda yondoshgan. Ma'muriy javobgarlik – bu ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy-protsessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.

Jinoiy javobgarlik. Jinoiy javobgarlik o'zining xususiyatlari, oqibatlar va og'irligi va boshqa belgilariga ko'ra boshqa yuridik javobgarliklardan farqlanib, javobgarlik faqat jinoyat qonunchiligi bilan tavsiflanadi, javobgarlik subyektlari faqatgina jismoniy shaxslar hisoblanadi, javobgarlik sud tartibida amalga oshirilib, xavfli ijtimoiy

qilmish uchun jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonun hujjatlari asosida qo'llaniladi. Soliq jinoyatlari soliq sohasida sodir etgan aybli qilmishning ijtimoiy xavfliligi, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdori, jinoyatning obyekti va subyekti bilan belgilanadi. Soliq jinoyatlari soliq huquqiy munosabat subyektlari tomonidan ijtimoiy xavfli, aybli, huquqqa xilof sodir etilgan qilmish bo'lib, zarur bo'lgan moliyaviy hisobot hujjatlarini taqdim etmaganlik, vaqtida taqdim etmaganlik yoki ularga belgilanmagan tartibda daromadlar, xarajatlar va boshqa soliq solish obyektlari to'g'risida ma'lumotlarni kiritganlik, ko'p yoki juda ko'p miqdorda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik yoki yashirganlikda ifodalanadi.

Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining «Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash» deya nomlangan 184-moddasida ifodalangan.

Agarda soliq sohasidagi huquqbuzarlik foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko'rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovlashni ancha miqdorda¹ sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa amaldagi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 184-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Mazkur 184-moddaning 2-qismda soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatini takroran yoki ko'p miqdorda² sodir etgan shaxslar uchun yuridik javobgarlik ifodalangan. 184-moddaning 3-qismda soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash juda ko'p miqdorda³ sodir etgan shaxslarga jinoiy javobgarlik jazosi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 184-moddasi 4-qismida yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq majburiyat ifoda etilgan bo'lib, unga ko'ra huquqbuzar qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda

¹Ancha miqdor – eng kam oylik ish haqining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan miqdordir.

²Ko'p miqdor – eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdordir.

³Juda ko'p miqdor – eng kam oylik ish haqining uch yuz baravari va undan ortiq bo'lgan miqdordir.

(daromad) bo'yicha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'liq to'langan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi deb ko'rsatib o'tilgan.

Ma'lumki, soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash (JKning 184-moddasi) iqtisodiyot sohasida sodir etilayotgan jinoyatlardan hisoblanadi va bu har bir kishi tomonidan qonun bilan belgilangan soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdek konstitutsiyaviy burchlarini qasddan bajarmaslikda ifodalanadi. Qayd etilgan toifadagi ishlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish davlat soliq organlari va shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) o'rtasida vujudga keladigan soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarning qonuniyligini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Jinoyat kodeksi 184-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatning subyekti qonunga binoan foyda, daromad va soliq solinadigan boshqa obyektlar to'g'risida to'liq ma'lumot berish va belgilangan summani davlat foydasiga o'tkazish vazifasi zimmasiga yuklatilgan shaxslar bo'lishi mumkin. Bular qatoriga mulk shaklidan qat'i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash bilan bog'liq buxgalteriya hisobotini olib borish, hujjatlar taqdim qilish zimmasiga yuklatilgan (korxonalar, muassasa va tashkilotlarning rahbarlari, ularning o'rinbosarlari, bosh hisobchilari va hisobxonaning mansabdor shaxslari) mansabdor shaxslari kiradi.

Qonunga binoan belgilangan hisobot shaklida hujjatlar taqdim etishga va soliq to'lashga majbur bo'lgan jismoniy (soliq to'lovchilar) shaxslar ham ushbu jinoyatning subyektlari bo'lishi mumkin, o'zlarining harakatlari bilan foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa obyektlarning kamaytirilishiga ko'maklashgan boshqa shaxslar esa ushbu jinoyatning ijrochilari emas, balki ishtirokchilari (tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi) bo'lishi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikning huquqiy asoslarini ayting.
2. Soliqqa oid huquqbuzarliklar tushunchasi va ularning belgilarini sanang.
3. Soliqqa oid huquqbuzarliklarning iqtisodiy-huquqiy mazmuniga ko'ra turlari.
4. Soliq sohasidagi huquqbuzarliklar uchun moliyaviy jazo choralari va ularning qo'llash tartibini ayting.
5. Soliq qonunchilini buzganlik uchun ma'muriy jazo choralari va ularni qo'llash tartibi.
6. Ma'muriy va jinoiy javobgarlik tushunchalari va ularning xususiyatlarini tushuntiring.

XIV bob. **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT
SOLIQ XIZMATI ORGANLARINING
HUQUQIY MAQOMI**

14.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq organlari faoliyatining huquqiy asoslari.

14.2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va uning huquqiy maqomi.

14.3. Soliq xizmati organlari tuzilmalari tomonidan bozorlar faoliyatini nazorat qilish masalalari.

14.4. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmat o‘tashning o‘ziga xos xususiyatlari.

14.5. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari xodimlarining yuridik javobgarligi

Tayanch so‘z va iboralar

Davlat soliq xizmati tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasi soliq organlari faoliyatining huquqiy asoslari. Davlat soliq qo‘mitasining faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari. Davlat soliq qo‘mitasining asosiy huquq va majburiyatlari. Davlat soliq qo‘mitasining asosiy funksiyalari. O‘zbekiston Respublikasida soliq xizmatini o‘tash tartibi. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari xodimlarining yuridik javobgarligi.

14.1. O‘zbekiston respublikasi soliq organlari faoliyatining huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasida istiqloq yillari davomida soliq siyosatining eng muhim yutuqlari shundaki, bu yo‘nalish yosh mustaqil davlat uchun yangi soha bo‘lsada, iqtisodiy, siyosiy, milliy o‘ziga xos xususiyatlari, uzoq yillik davlatchilik an‘analari hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalaridan ijobiy foydalangan holda milliy davlat soliq xizmati tizimi tashkil etildi. Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi soliq qonun hujjatlari yaratildi va

ularning amaldagi ijrosini ta'minlashga xizmati qiluvchi soliq xizmati organlari shakllantirildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar nafaqat ijtimoiy zarurat, balki davlat boshqaruvi mexanizmini barqarorligini ta'minlovchi asosiy bo'g'inga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi soliq xizmati organlari Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 12-avgustdagi 217-sonli qarori asosida alohida faoliyat yo'nalishi bilan shug'ullanuvchi, soliq siyosatini ijrosini ta'minlovchi soliq organlari shakllantirilib o'z faoliyatini boshladi. Mazkur davlat boshqaruvining tuzilmasi 1994-yilgacha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi tarzda faoliyat yuritdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qoidalariga muvofiq nazorat organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, yagona davlat soliq siyosatini olib borish hamda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasini Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tashkil etildi. Keyinchalik Davlat soliq qo'mitasi va soliq xizmati xodimlari faoliyatini takomillashtirish, davlat soliq xizmati organlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning budjetga to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlovchi davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonunida belgilab berildi.

Mazkur qonun 16-moddadan iborat bo'lib, soliq xizmati xodimlarining asosiy vazifalari, huquqlari, majburiyatlari, boshqa organ va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash va mansabdor shaxslarining maxsus unvonlari berish tartibi, davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilish va ularning javobgarligi, davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarini ijtimoiy himoyalash, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish hamda moddiy ta'minoti, shuningdek xalqaro hamkorlik masalalarining huquqiy asoslari belgilab berilgan.

2000-yil 3-martda soliq intizomini mustahkamlash, soliq qonun

hujjatlariga qat'iy amal qilish, soliq to'lovlarining budjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash, soliq haqidagi huquq buzilishlarining aniqlanishi, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish ustidan davlat nazoratni kuchaytirish, shuningdek soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida» qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini takomillashtirildi. Davlat soliq qo'mitasining vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasi soliq qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiruvchi davlat soliq xizmatining Markaziy organi hisoblanib, uning joylardagi tuzilmalari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari davlat soliq siyosatini ijrosini ta'minlovchi bo'g'inlari tarzda faoliyat yuritishi belgilandi.

Soliq organlarini faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida 2010-yil 8-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori¹ qabul qilinishi mamlakatda to'plangan va chet el tajribasining yutuqlaridan foydalangan holda respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Soliq organlarining funksiyalari, vakolatlari va tuzilmasi zamonaviy talablarga javob beradigan darajaga olib chiqish, ular fiskal-moliya organlari tuzilmasida, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish, Davlat budjetining daromad qismini barqaror shakllantirishning belgilangan topshiriqlarini bajarish masalalarida faol bo'lishi uchun qator vazifalar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 1-2-son, 4-modda.

to'g'risida»gi 98-sonli Qarori qabul qilindi¹ va mazkur qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi yangi tahrirdagi Nizomi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi to'g'risidagi Nizomlari tasdiqlandi. Bugungi kunda davlat soliq xizmati organlari jamiyat taraqqiyotining barcha bo'g'inlarida o'z hissalarini qo'shish bilan birga davlat soliq siyosatining qonuniy ijrosini o'z vaqtida bajarilishida samarali ishlarni amalga oshirmoqda.

14.2. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi va uning huquqiy maqomi

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi 1994-yildan buyon soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlanishida, mamlakatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida, shuningdek davlat soliq siyosati ijrosining doimiy ta'minlanishida muhim ahamiyatga ega davlat soliq xizmatining Markaziy organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonun hujjatlariga hamda O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga amal qiladi. Davlat soliq qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Davlat soliq qo'mitasining raisi Davlat soliq qo'mitasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun javob beradi, o'z o'rinbosarlarining, Qo'mitaning mustaqil tarkibiy bo'linmalari, bo'sunuvchi davlat soliq xizmati organlari rahbarlarining javobgarlik darajasini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 21-son, 162-modda.

• Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga¹ ko'ra Davlat soliq qo'mitasining oldiga bir qator muhim vazifa va funksiyalar belgilab berildi:

- davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, ularning to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga, davlatning maqsadli jamg'armalariga va budgetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini ta'minlash;

- soliqlar yig'ilishini ko'paytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, ma'lumotlarning yagona kompyuter bazasini yuritish asosida soliq to'lovchilarni hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko'rsatilayotgan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliq sohasida huquq buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni ro'yobga chiqarish;

- pul mablag'larining noqonuniy muomalada bo'lishi manbalarini bartaraf etish, aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd tushumning o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish yuzasidan takliflar kiritish;

- dehqon bozorlari va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyatini, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini qattiq nazorat qilish hamda jinoiy ishlarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirgan holda ularning hududlarida aniqlangan huquq buzilishlari bo'yicha surishtiruvlar o'tkazish;

- respublika nazorat qiluvchi organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha ishlari muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valuta va eksport-import

¹ «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2010-yil, 1-2-son, 4-modda.

operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni o'z vakolatlari doirasida amalga oshirish;

• soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali xodimlar bilan ta'minlash, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan munosabatda bo'lish holatlariga qat'iy ravishda barham berish bo'yicha tizimli ish olib borish, doimiy asosda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirib borilishini ta'minlash kabilardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «*Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida*»gi 98-sonli Qarori bilan tasdiqlangan¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining raisi vakolatlari quyidagilar:

– davlat soliq xizmati organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda ularga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun javob beradi;

– belgilangan vakolatlar doirasida, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda boshqa qonun hujjatlari asosida va ularni bajarish yuzasidan buyruqlar, yo'riqnomalar, qoidalar, nizomlar chiqaradi hamda davlat soliq xizmati hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

– Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparatining shtat jadvalini tasdiqlaydi;

– xodimlarning belgilangan cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Davlat soliq qo'mitasi va davlat soliq xizmati hududiy organlari tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega;

– davlat soliq xizmati organlari xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

– alohida o'mak ko'rsatgan xodimlarni faxriy unvonlar va respublika davlat mukofotlari berishga belgilangan tartibda taqdim etadi, davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari uchun O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan maxsus unvonlar beradi;

– O'zbekiston Respublikasi davlat organlari, muassasalari va

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 21-son, 162-modda.

tashkilotlarida, shuningdek boshqa davlatlarning davlat soliq xizmati organlari bilan munosabatlarda davlat soliq xizmati manfaatlarini ifodalaydi. Shuningdek, Davlat soliq qo'mitasi raisi o'ziga berilgan vakolatlar doirasida boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

Davlat soliq qo'mitasida Davlat soliq qo'mitasining raisi, raisning birinchi o'rinbosari, rais o'rinbosarlari va Davlat soliq qo'mitasining Davlat soliq qo'mitasi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi. Hay'atning soni va shaxsiy tarkibi Davlat soliq qo'mitasi raisining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at quyidagilar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi:

Davlat soliq qo'mitasi faoliyatining soliq qonunchiligiga rioya etilishini yanada ta'minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish bo'yicha Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, Davlat soliq qo'mitasi rahbarlari va xodimlarining ularni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarligini oshirish. Shuningdek, hay'at Davlat soliq qo'mitasi vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

Hay'at majlisiga Davlat soliq qo'mitasi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin. Hay'at agar uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari Davlat soliq qo'mitasi qarorlari va raisning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Hay'at raisi va a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda rais paydo bo'lgan

kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin. Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliqlar boshchilik qiladi. Davlat soliq inspeksiyalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi.

Davlat soliq xizmati hududiy organlari faoliyatining, shu jumladan, hay'at qarorlarini va Davlat soliq qo'mitasi topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq eng muhim masalalarni hal etish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarida kengashlar tashkil qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari kengashlarining shaxsiy tarkibi tegishli hududiy davlat soliq boshqarmasi boshlig'ining taqdimiga binoan Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadi. Soliqqa oid qonun hujjatlarini qo'llashning eng murakkab va munozarali masalalari bo'yicha qarorlar tayyorlash, yuqori malakali maslahatlashuvlar o'tkazish uchun davlat soliq boshqarmalarida maslahat-ekspert kengashlari tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi yangi tahrirdagi Nizomga asosan Davlat soliq qo'mitasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) davlat soliq siyosatini amalga oshirish sohasida:

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va budjetdan tashqari jamg'armalarga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi;

solliqqa oid qonun hujjatlarini, shu jumladan, tabiiy resurslardan ehtiyotlab va samarali foydalanishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, solliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni unifikatsiya qilish, solliq yukini qisqartirish, solliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rag'batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo'yicha takliflar tayyorlashda

qatnashadi;

belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklari va idoralari bilan birgalikda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish masalalari bo'yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

soliq hisobotlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

soliq qonunchiligi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlarini nashr qiladi, davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan soliq sohasida hamkorlik qilish masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi hamda ularning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlaydi;

b) soliq sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash sohasida:

soliq to'lovchilar faoliyatini belgilangan tartibda soliq bo'yicha tekshiradi, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya majburiy badallarining to'g'ri hisoblab chiqilishini, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularning fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga to'liq va o'z vaqtida to'lanishini tekshiradi;

davlat soliq xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valuta eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;

soliq to'lovchilardan yoki ularning mansabdor shaxslaridan tushuntirish xatlari oladi, soliq to'lovchining mol-mulki mavjudligini tekshiradi, shuningdek hududlarni, ishlab chiqarish, omborxonalar, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan, soliq to'lovchilar tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechiradi (tekshiradi);

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pul mablag'lari va moddiy

boylklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boylklarni olib kirish va u yerdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;

soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) davomida hisobotdagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligini aniqlash, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarida faktlarning buzib ko'rsatilishini aniqlash va ularni bartaraf qilish uchun buxgalteriya hisoblari va moliyaviy hisobotlarni tekshiradi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

soliq sohasidagi qonun hujjatlarining buzilishlari to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshiradi;

soliq qonunchiligining buzilishi holatlarini tahlil qiladi hamda soliqqa doir huquq buzilishlariga ko'maklashadigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlarga takliflar kiritadi;

huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda soliqqa oid huquq buzilishlariga qarshi kurashishning uzoq muddatli hamda joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha respublika nazorat organlari faoliyatining muvofiqlashtirilishini, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi;

d) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini ta'minlash sohasida:

davlat organlari va soliq to'lovchilarning majburiyatlari paydo bo'lishi to'g'risida axborot taqdim etadigan boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

belgilangan tartibda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan moliya va soliq hisobotlarini, shuningdek soliq to'lovchilarning faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organlarida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish asosida kameral nazoratni amalga oshiradi;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag'larining davlat daromadiga to'liq va o'z vaqtida tushishini, Shuningdek davlat organlariga berilgan mol-mulk hisobini nazorat qiladi;

yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lov muddati o'tgan qarzlarni yig'adi va mablag'larning to'liq tushishini nazorat qiladi;

e) solliq to'lovchilar, solliq solish obyektlari hamda solliq solish bilan bog'liq bo'lgan obyektlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash, ularni to'liq qamrash va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, solliq to'lovchilar identifikatsiyalash tartib raqamlarining yagona reestrini yuritish sohasida:

solliq to'lovchilar, solliq solish obyektlari hamda solliq solish bilan bog'liq bo'lgan obyektlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlaydi;

yuridik shaxs bo'lmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni chetdan keltiruvchi jismoniy shaxslarni davlat solliq xizmati organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlaydi;

yuridik va jismoniy shaxslarga ularni, identifikatsiyalash tartib raqamlari bergan holda, solliq to'lovchilar sifatida hisobga qo'yish to'g'risida hujjatlar berishni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qiladi;

Solliq to'lovchilar identifikatsiyalash tartib raqamlarining yagona reestrini shakllantiradi va yuritadi;

ma'lumotlarning yagona elektron bazasida solliq to'lovchilar bo'yicha solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblab chiqilishi va amaldagi tushumlari hisobini yuritadi;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar hisobini yuritadi;

banklar tomonidan tegishli axborot taqdim etilishiga ko'ra bank schyotlari bo'yicha olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik faoliyati bo'yicha — uch oy mobaynida) pul operatsiyalarini amalga oshirgan holda moliya-xo'jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarni aniqlaydi;

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat solliq xizmati organlarida hisobga turishdan bosh tortishi mexanizmlarini o'rganadi, aniqlaydi va bartaraf etadi;

axborot xavfsizligi ta'minlanishini hisobga olgan holda, barcha soliq to'lovchilar va soliq tushumlari bo'yicha ma'lumotlarning yagona elektron bazasini tashkil qiladi;

soliq axborotlarini qabul qilib olish, ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

davlat soliq xizmati organlarida, axborot xavfsizligini ta'minlashni hisobga olgan holda, yagona axborot, dasturiy-texnik va telekommunikatsiya tizimi joriy etilishini tashkil qiladi;

davlat soliq xizmati organlari ishiga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etadi hamda xarajatlarni maqbullashtirish va resurs ta'minotini rivojlantirish uchun ularni texnologik jarayonlarni yuritishning zamonaviy tizimlari va boshqarishning tezkor vositalari bilan jihozlaydi;

f) soliq solish bazasini kengaytirish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, soliq sohasidagi huquq buzilishlarining oldini olish, aniqlash va ularga barham berish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish sohasida:

soliqqa oid huquq buzilishlarini sodir qilgan shaxslarni qidirib topish uchun materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga belgilangan tartibda beradi, davlatga etkazilgan zararni belgilangan tartibda undirishni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

soliqlar hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va budjetdan tashqari jamg'armalarga boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzlarning O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq undirishga yo'naltirilgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlar tashkil etilishi va qo'llanishini ta'minlaydi;

aksizga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqarish va ularning muomalada bo'lishidagi huquq buzilishlarini aniqlash, oldini olish va ularga barham berishni belgilangan tartibda tashkil qiladi va amalga oshiradi;

ishlab chiqarish va daromadlar miqdorlarini yashirish, sotilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmlarini kamaytirib ko'rsatish mexanizmlarini o'rganish va aniqlashni tashkil qiladi hamda amalga oshiradi, ko'rsatib o'tilgan mexanizmlarning qo'llanishini bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

ma'muriy huquqbuzilishlari bo'yicha ishlarni yuritadi;

soliqqa oid jinoyatlarning sodir etilishi holatlarini aniqlash uchun, surishtirish, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish uchun ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanadi;

g) pul mablag'larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, naqd pul tushumining aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan banklar kassalariga o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash sohasida:

savdo va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishning qonunchilikka muvofiqligi, shu jumladan, nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llash, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

tovarlarni ulgurji sotishda qonun hujjatlarida belgilangan talablarning bajarilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiladi;

naqd pul mablag'lari muomalada bo'lishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul aylanmasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan huquq buzilishlarini aniqlash, oldini olish va ularga barham berish tadbirlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

savdo, umumiy ovqatlanish va pulli xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan savdo va naqd tushumni banklar kassalariga topshirish qoidalariga rioya etilishini belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshirishlarni amalga oshiradi;

h) soliq qonunchiligiga rioya etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda yordam ko'rsatish, ularga ko'rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari turlarini kengaytirish sohasida:

soliqqa doir qonun hujjatlarini nashr etish, ko'paytirish va davlat soliq xizmati hududiy organlariga yetkazish, maslahat xizmatlari ko'rsatish, soliq to'lovchilarni soliqlarni o'z vaqtida hisoblab chiqish, soliq hisobotlarini va soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishga o'qitish uchun servis-markazlar tashkil qiladi;

soliq solish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to'lovchilarga o'z vaqtida yetkazish ishlarini tashkil etadi;

yuridik va jismoniy shaxslarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoyalashini ta'minlaydi;

yuridik va jismoniy shaxslarning soliq solish va soliq qonunchiligi buzilishi masalalari bo'yicha murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlarning mahfiylikiga rioya etish ishlarini tashkil qiladi;

i) bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan qat'iy nazoratni amalga oshirish sohasida:

bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquq buzilishlarini aniqlaydi, ularning oldini oladi va ularga barham beradi;

bozorlar va savdo komplekslari hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashadi;

bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylaridan, shuningdek ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari va mablag'lar tushumi hisobining to'liqligini ta'minlaydi;

bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylaridan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovdan oldingi tekshirishlarni tashkil etadi va olib boradi, jinoyiy ishlar qo'zg'aydi, ular bo'yicha surushtiruv ishlarini amalga oshiradi, jinoyat ishlarini tergovga tegishlilikiga ko'ra huquqni muhofaza qilish organlariga beradi;

soliqqa oid huquq buzilishlari natijasida davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararining belgilangan tartibda undirilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

y) davlat soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali, o'z ishiga sadoqatli xodimlar bilan ta'minlash, kadrlar tarkibining sifat darajasini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish sohasida:

qo'yilgan talablarga muvofiq kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish

ishlarini, shu jumladan, davlat soliq xizmatining hududiy organlarida tashkil etadi;

belgilangan tartibda ta'lim muassasalari tashkil etish, shuningdek davlat oliy ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan foydalanish yo'li bilan davlat soliq xizmati organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarining doimiy asosda tashkil etilishini ta'minlaydi;

davlat soliq xizmati organlari xodimlari lavozimlarining malaka tavsifnomalarini ishlab chiqadi, rahbarlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o'tkazadi, ularga o'z vakolatlari doirasida maxsus unvonlar beradi;

kadrlarni O'zbekiston Respublikasiga sodiqlik, vatanparvarlik, halollik hamda huquqiy davlat g'oyalari va asoslarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash yuzasidan uzluksiz ishlarni amalga oshiradi;

tegishli tanlovdan o'tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo'shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan nazoratni ta'minlaydi;

davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to'lovchilarga nisbatan g'arazli maqsadlarda noqonuniy ta'sir ko'rsatish holatlarini aniqlaydi va ularga barham beradi;

soliq organlarida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga va ularga barham berishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;

xizmat vazifalarini bajarayotganda davlat soliq xizmati organlari xodimlarini noqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

har ikki yilda ko'pi bilan bir marta davlat soliq xizmati hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlarining budjet va xo'jalik faoliyati bo'yicha xarajatlar smetalari ijrosi yuzasidan taftishni amalga oshiradi. Juda zarur bo'lganda va moliya-xo'jalik faoliyatida qonun buzilishlariga yo'l qo'yilgan holatlar to'g'risida ishonchli axborot mavjud bo'lgan taqdirda navbatdan tashqari taftishlar o'tkazilishi mumkin;

davlat soliq xizmati hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan moddiy va pul resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bajarilishini ta'minlaydi, xo'jasizlik,

isrofgarchilik, davlat mablag'larini va budjetdan tashqari mablag'larni asossiz ravishda sarflash, smeta intizomini buzish hollariga barham beradi.

14.3. Soliq xizmati organlari tuzilmalari tomonidan bozorlar faoliyatini nazorat qilish masalalari

O'zbekiston Respublikasida soliq organlari tuzilmalarini modernizatsiya qilish va ular faoliyatini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish maqsadida 2010 yilda Davlat soliq qo'mitasi huzurida yangi bosh boshqarma tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»¹gi qaroriga¹ asosan mazkur boshqarma faoliyatining huquqiy asoslari belgilanib, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»²gi 98-sonli Qarorga bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi².

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. Bosh boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»²gi hamda «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»²gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi to'g'risida Nizomga amal qiladi.

Bosh boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining raisiga va raisning birinchi o'rinbosariga hisobot beradi. Bosh boshqarmaning o'ziga berilgan vakolatlar doirasida qabul qilgan qarorlari Bosh boshqarmaning barcha hududiy bo'limlari tomonidan bajarilishi majburiydir.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 1-2-son, 4-modda.

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-yil, 21-son, 162-modda.

Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini o'z vakolatlari doirasida nazorat qilish;

- bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy sohadagi hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquq buzilishlarini aniqlash, ularning oldini olish va ularga barham berish;

- bozorlar va savdo komplekslari hududida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashish;

- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari va mablag'lar tushumlari hisobining to'liqligini ta'minlash;

- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari hududlarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovdan oldingi tekshirishlarni tashkil etish va o'tkazish, jinoiy ishlar qo'zg'ash, ular bo'yicha surishtiruv ishlarini amalga oshirish, jinoiy ishlarini tergov bo'yicha tegishliligiga ko'ra qonun hujjatlariga muvofiq huquqni muhofaza qilish organlariga berish;

- soliqqa oid huquq buzilishlari natijasida davlatga, yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararining belgilangan tartibda undirilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish kabilardir.

Mazkur bosh boshqarma o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig'imning, ijara to'lovining to'liq tushishini va topshirish hisobini, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va hisob-kitob terminallaridan foydalanilishini, shuningdek savdo va xizmatlar ko'rsatish qoidalarini qisqa muddatli tekshirishlarni tashkil etish va o'tkazish, keyinchalik Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashini yoki uning hududiy komissiyalarini Bosh boshqarma va uning hududiy bo'limlari tomonidan o'tkazilgan

tekshirishlar to'g'risida qisqa muddatli tekshirish o'tkazilgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida xabardor qilish;

2) bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy oqimlari harakati hisobini yuritish va monitoringini amalga oshirish;

3) bozorlar va savdo komplekslari (manbalar bo'yicha), ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarining daromadlari, ularning hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarning soni (faoliyat turlari bo'yicha), ularning daromadlari, tovar aylanmasi, shuningdek ushbu subyektlar tomonidan to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish va yuritish;

4) bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari pul mablag'lari tushumlari va tovar aylanmasi to'g'risida davlat soliq xizmati organlariga tushadigan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish uchun banklar hamda statistika organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

5) bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari uchun soliq haqidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalarga rioya qilish masalalari bo'yicha keng tushuntirish va profilaktika ishlarini olib borish;

6) bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari hududlarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi qoida buzishlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshirish;

7) bozorlar va savdo komplekslarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) tovarlarni tayyorlash va sotish hamda kontrabanda tovarlarini sotish holatlarini aniqlash va ularga barham berish bo'yicha zarur xatti-harakatlarni amalga oshirish;

8) bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida soliq haqidagi qonun hujjatlari buzilishi belgilarini, shuningdek ularni sodir etgan shaxslarni aniqlash, moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi jinoyatlar va boshqa huquq buzilishlariga barham berish hamda ularning oldini

olish maqsadida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

9) soliq haqidagi qonun hujjatlari buzilishlari to'g'risidagi ishlar bo'yicha dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida huquq buzilishlarini tekshirishning zamonaviy, tezkor, ilmiy-texnik vositalari va usullarini joriy etish ishlarini tashkil qilish;

10) bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi jinoyatlar va huquq buzilishlari sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovgacha bo'lgan tekshirishlarni tashkil qilish va o'tkazish;

11) davlat soliq xizmati organlari tomonidan beriladigan, ularda bozorlar va savdo komplekslari faoliyatida soliq haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi belgilari aniqlangan soliq tekshiruvlari materiallarini o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqish;

12) qonun hujjatlarida berilgan vakolatlar doirasida davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni olib qo'yish va sotishni tashkil etish, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqqa doir huquq buzilishlari natijasida davlatga yetkazilgan zararining belgilangan tartibda undirilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;

13) bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida aniqlangan huquq buzilishlari bilan bog'liq ma'muriy amaliyot bo'yicha ishlarning holatini muntazam ravishda tahlil qilib borish;

14) bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida aniqlangan huquq buzilishlari bo'yicha ma'lumotlarning elektron bazasini yuritish;

15) soliq haqidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlarini to'plash, har tomonlama tahlil qilish va baholash hamda huquq buzilishlari sodir etilishiga ko'maklashadigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun soliq va iqtisodiy sohalardagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha tegishli organlarga takliflar kiritish;

16) Bosh boshqarma va uning hududiy bo'limlari faoliyati masalalari bo'yicha statistik hisob va hisobotlarni yuritish;

17) yuridik va jismoniy shaxslarning Bosh boshqarma xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan shikoyat qilgan murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

Bosh boshqarma o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

– banklar va boshqa kredit-moliya tashkilotlaridan bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tadbirkorlik subyektlarining bank hisob raqamlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda olish;

– tekshirilayotgan, soliq haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'ygan xo'jalik yurituvchi subyektlardan soliq haqidagi qonun hujjatlarining sodir etilgan buzilishlari to'g'risida dalolat beradigan hujjatlarni, shuningdek huquq buzilishlari predmetlarini belgilangan tartibda olib qo'yish;

– bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining kassalari va kassa xonalari, omborlari, arxivlarini zarur hollarda muhrlab qo'yish;

– tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni xatlovdan o'tkazishni talab qilish;

– tahlillar, tekshirishlar va ekspertizalar o'tkazish uchun tovarlar, buyumlar, xom ashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar namunalari, shuningdek hujjatlarni olib qo'yish;

– bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari hududlarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquq buzilishlari sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovgacha bo'lgan tekshiruvlarni o'tkazish, ular bo'yicha jinoiy ishlar qo'zg'ash va surishtiruv o'tkazish;

– tekshiruvlarda qatnashishga ichki ishlar organlari, sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari hamda boshqa vazirliklar va idoralar xodimlarini belgilangan tartibda jalb etish;

– Bosh boshqarmaga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat soliq xizmati organlari xodimlarini belgilangan tartibda jalb etish;

– bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport

vositalarini vaqtincha saqlash joylaridan, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlaridan qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish;

– Bosh boshqarma vakolatiga kiradigan masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisiga va hay‘atiga ko‘rib chiqish uchun kiritish;

– Bosh boshqarma vakolatiga kiradigan materiallarni umumlashtirish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rahbariyatiga uning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlariga berilgan, Bosh boshqarma vakolatiga kiradigan boshqa vakolatlarga muvofiq xatti-harakatlarni amalga oshirish kabilardan iborat.

Bosh boshqarma nazorat boshqarmasi, surishtiruv bo‘limi, tahlil va statistika bo‘limidan iborat bo‘ladi.

Bosh boshqarmaga belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq boshchilik qiladi.

Bosh boshqarma boshlig‘i:

• Bosh boshqarma va uning hududiy bo‘limlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularning ishini tashkil etadi;

• tekshiruvlarni tashkil etish to‘g‘risida hamda qonun hujjatlariga muvofiq Bosh boshqarma va uning hududiy bo‘limlari vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo‘yicha buyruqlar chiqaradi;

• Bosh boshqarma va uning hududiy bo‘limlariga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

• xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ularning zarur darajada bajarilishini nazorat qiladi;

• shtatlarni shakllantirish, ishga qabul qilish, lavozimdan lavozimga o‘tkazish va ishdan bo‘shatish, shuningdek Bosh boshqarma xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va mukofotlash, ularga moddiy yordam ko‘rsatish miqdorlari va shakllarini belgilangan tartibda aniqlash bo‘yicha takliflar kiritadi va Bosh boshqarma faoliyatiga tegishli boshqa masalalarni hal qiladi.

Bosh boshqarma boshlig‘ining bir nafar o‘rinbosari—belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan Nazorat boshqarmasi boshlig‘i bo‘ladi. Bosh boshqarma boshlig‘ining

o‘rinbosari – Nazorat boshqarmasi boshlig‘i o‘ziga ishonib topshirilgan ish uchastkasi uchun javob beradi, Bosh boshqarma boshlig‘i bo‘lmaganda uning vazifalarini bajaradi.

Bosh boshqarmaning hududiy bo‘limlari bevosita Bosh boshqarmaga bo‘ysunadi. Bosh boshqarmaning hududiy bo‘limlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining raisi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliqlar boshchilik qiladilar. Bosh boshqarma va uning hududiy bo‘limlarining tekshiruvlarni tashkil etish, xodimlarning funksional vazifalarini taqsimlash, ishlarni yuritish tartibi, tekshiruvlarni tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha ichki masalalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan Bosh boshqarma reglamentida belgilanadi.

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini qisqa muddatli tekshirishlar Bosh boshqarma va uning hududiy bo‘limlari boshliqlarining buyruqlari asosida o‘tkaziladi, keyinchalik bu haqda Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi yoki uning hududiy komissiyalari qisqa muddatli tekshirish o‘tkazilgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida xabardor qilinadi. Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini soliq bo‘yicha tekshiruvlarning boshqa turlari belgilangan tartibda Bosh boshqarma va uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bosh boshqarma va uning hududiy bo‘limlari xodimlari:

- o‘z funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi, ijro intizomini buzganligi;

- Nizom va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaganligi;

- o‘zining noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) tufayli soliq to‘lovchilarga moddiy va ma‘naviy zarar yetkazganligi;

- o‘zining noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) tufayli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish hajmlarini pasaytirganligi va soliq solish bazasini kamaytirganligi;

- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan qarorlar qabul qilganligi va boshqa huquq buzilishlari uchun belgilangan tartibda javob beradilar.

14.4. O'zbekiston Respublikasi Davlat solih organlarida xizmat o'tashning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida davlat solih xizmatini o'tashning asosiy talab va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-maydagi «Davlat solih xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi davlat solih organlarida xizmatni o'tash to'g'risidagi Nizomda belgilangan. O'zbekiston Respublikasi solih organlarida xizmatga qabul qilish tartibini va mansabdor shaxslar tomonidan davlat xizmatini o'tash shart-sharoitlarini, ularning mas'uliyatini, shuningdek ularga maxsus unvonlar berish va ulardan mahrum qilish tartibini belgilaydi. Mazkur Nizomga 2010-yil 21-maydagida Vazirlar Mahkamasining «Davlat solih xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-sonli Qarorga asosan bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Davlat solih qo'mitasi raisi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ozod qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat solih qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari, rais o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat solih boshqarmalari boshliqlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat solih qo'mitasining mansabdor shaxslari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat solih boshqarmalari boshliqlari o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat solih boshqarmalari bo'limlari boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bo'limlari mansabdor shaxslari, tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat solih inspeksiyalari boshliqlari belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat solih qo'mitasi raisining buyrug'i bilan tayinlanadilar.

Solih organlarida xizmatga yoshi, millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va mansab mavqeyidan qat'i nazar, o'zlarining kasb,

ishchanlik, shaxsiy va axloqiy sifatlariga, ma'lumoti darajasiga va salomatligiga ko'ra davlat soliq organlariga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari qabul qilinadilar.

Soliq organlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan shaxslardan tashqari, rahbarlik lavozimlari oliy iqtisodiyot, moliya yoki yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tanlov asosida egallanadi. Sudlangan, uni o'tamagan yoxud qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmagan shaxslar, belgilangan tartibda mehnatga layoqatsiz yoki mehnatga layoqati cheklangan deb e'tirof etilgan yoki mehnat qonunchiligiga muvofiq ilgari ish beruvchi tashabbusiga ko'ra soliq organlaridan bo'shatilgan shaxslar soliq organlariga xizmatga qabul qilinmaydilar.

Soliq organlarining mansabdor shaxslari uchun biron-bir tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlash (ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish bundan mustasno), o'z xizmat vazifalarini bajarganlik yoki bajarmaganlik uchun mukofotlar yoki xizmatlarni qabul qilish, qarindoshlar, tanishlar va boshqa chet shaxslar iltimosiga ko'ra amaldagi qonun hujjatlariga rioya etmaslik, ish tashlashlar, siyosiy manifestatsiyalar va yurishlarni tashkil etish va ularda qatnashish, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida spirtli ichimliklar iste'mol qilish, respublika soliq organlari sha'niga dog' tushiruvchi shaxslar bilan munosabat o'rnatish, soliq organlarida uchinchi shaxslar ishi bo'yicha ishonchli vakillar yoki vakillar bo'lish, moddiy-texnika va axborot bilan ta'minlash, moliya vositalaridan, davlatning boshqa mol-mulkidan, shuningdek xizmat axborotlaridan lavozim vazifalari bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

Davlat soliq xizmatining mansabdor shaxslariga bosh davlat maslahatchisi, soliq xizmatining I, II, III darajali davlat maslahatchisi unvonlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, soliq xizmatining I, II, III darajali maslahatchisi, soliq xizmatining I darajali inspektori unvonlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan, soliq xizmatining II va III darajali inspektori, soliq xizmatining inspektori unvonlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq bosh boshqarmalari boshliqlari tomonidan beriladi.

Mansabdor shaxslar maxsus unvonda xizmat qilishining quyidagi muddatlari belgilanadi:

- solix xizmatining I darajali maslahatchisi – 4 yil;
- solix xizmatining II darajali maslahatchisi – 4 yil;
- solix xizmatining III darajali maslahatchisi – 3 yil;
- solix xizmatining I darajali inspektori – 3 yil;
- solix xizmatining II darajali inspektori – 2 yil;
- solix xizmatining III darajali inspektori – 2 yil;
- solix xizmatining inspektori – 1 yil.

Soliq xizmatining bosh davlat maslahatchisi, solix xizmatining I, II, III darajali davlat maslahatchisi uchun maxsus unvonlarda xizmat qilish muddatlari belgilanmaydi

Soliq organlarining intizomiy jazo olgan yoxud unga nisbatan jinoiy ish qo'zgatilgan yoki qonunchilikni yoki xizmat intizomini buzganlik fakti bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan mansabdor shaxslarini navbatdagi maxsus unvonlarni berishga yoki rag'batlantirishga tavsiya etish intizomiy jazo olib tashlangungacha yoxud jinoiy ish ozod qiluvchi asoslar bo'yicha to'xtatilungacha yoki xizmat tekshiruvi tugagungacha amalga oshirilmaydi,

Soliq organlarining vakolatli mansabdor shaxslari istisno tartibida, navbatdagi maxsus unvonlarni muddatidan oldin yoki egallab turilgan shtatdagi lavozim bo'yicha belgilangandan bir daraja yuqori unvonni xizmat burchini bajarish vaqtida ko'rsatgan qahramonligi, jasorati va mardligi uchun – egallab turilgan maxsus unvondagi xizmat muddatidan qat'iy nazar va xizmat vazifalarini vijdonan bajargani va ishdagi yuksak yutuqlari uchun – maxsus unvon bo'yicha belgilangan xizmat muddatining kamida yarmi o'tgandan keyin beriladi.

Soliq organlarining mansabdor shaxslariga maxsus unvon egallab turilgan shtatdagi lavozim bo'yicha belgilangandan bir daraja yuqori unvon soliq organlaridagi xizmatning butun davri mobaynida faqat bir marta berilishi mumkin.

Soliq organlarining mansabdor shaxslariga berilgan maxsus unvonlar ularda umrbod saqlanib qoladi. Davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qaytadan qabul qilingan shaxslarda ilgari berilgan maxsus unvonlar saqlanadi. Mansabdor shaxslarga navbatdagi maxsus unvon berishga tavsiya etishni kechiktirish, maxsus unvonni bir darajaga pasaytirish Davlat soliq qo'mitasining raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari

boshliqlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida, tegishli darajadagi boshqarma rahbarlari taqdimnomasiga binoan, xizmat burchini buzganlik, xizmat vazifalarini zarur darajada bajarmaganlik uchun amalga oshiriladi. Mansabdor shaxslarning ilgarigi maxsus unvonga tiklangunlarigacha ularga navbatdagi unvon berilishiga yoki ularning maxsus unvoni takroran pasaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq organlarining mansabdor shaxslari maxsus unvondan xodim o'z nomiga isnod keltiruvchi qilmishlari uchun davlat soliq organlaridan bo'shatilganda, jinoyat sodir etganlik uchun – sudning qonuniy kuchga kirgan hukmiga binoan mahrum etilishi mumkin.

Soliq organlarining mansabdor shaxslarini xizmatdan bo'shatish O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi. Jinoyat sodir etganlik uchun sud tomonidan jazolangan mansabdor shaxslar, hukm qonuniy kuchga kirgandan keyin soliq organlaridan bo'shatiladilar. Soliq organlarining vafot etgan, halok bo'lgan yoki belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb e'tirof etilgan mansabdor shaxslari xodimlar tarkibidan chiqariladilar.

14.5. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari xodimlarining yuridik javobgarligi

O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmati organlari xodimlarining yuridik javobgarligini belgilovchi huquqiy normalar amaldagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, Mehnat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, Jinoyat kodeksi normalari, O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risidagi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o'tash to'g'risidagi Nizomi va boshqa qonunchilik hujjatlari orqali belgilangan. Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat berish asoslari Soliq kodeksining 122-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra har bir soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berish uchun davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega. Davlat soliq xizmati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor

shaxsiga) shikoyat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat berilganligi shunday shikoyatni sudga berish huquqini istisno etmaydi.

Sudga shikoyat berish sudning qarori qonuniy kuchga kirguniga qadar shikoyat qilinayotgan qarorni yoki harakatni ijro etishni, shu jumladan, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirishni, shuningdek moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishini to'xtatib turadi. Soliq to'lovchi tegishli tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda davlat soliq xizmati organini sudga shikoyat bergani to'g'risida xabardor qilishi lozim.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat davlat soliq xizmatining tegishli yuqori turuvchi organiga yozma shaklda beriladi. Davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organiga shikoyat soliq to'lovchi o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida beriladi. Shikoyatga uni asoslantiruvchi hujjatlar ilova qilinadi.

Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyat davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi tomonidan shikoyat olingan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi. Davlat soliq xizmati organining qarori, uning mansabdor shaxsining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish yakunlariga binoan davlat soliq xizmatining yuqori turuvchi organi shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldirishga, davlat soliq xizmati organining shikoyatga sabab bo'lgan qarorini bekor qilish yoki o'zgartirishga haqlidir.

Davlat soliq xizmati yuqori turuvchi organining shikoyat yuzasidan qarori o'ttiz kun ichida qabul qilinadi. Shikoyat bergan shaxsqa qabul qilingan qaror to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida yozma shaklda ma'lum qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmati organlari va ularning mansabdor shaxslari ish faoliyatida ya'ni mehnat munosabatlari jarayonida soliq xizmatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, ichki me'yoriy talablar bilan birga albatta, Mehnat kodeksi talablariga qat'iy rioya qilishlari lozim. Soliq xizmatidagi xodim o'z mehnat vazifalarini halol, vijdonan bajarishi, mehnat intizomiga rioya qilishi, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va aniq bajarishi hamda

soliq munosabatlari bilan bog'liq qonun talablariga qat'iy rioya etishlari lozim. Ish faoliyati davomida sodir etgan intizomiy huquqbuzarliklariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasi talablari asosida intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi. Soliq tizimida xodimlar mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llashga haqli:

1) hayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin.

3) mehnat shartnomasini bekor qilish.

Intizomiy jazolar ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi. Intizomiy jazo qo'llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo'ya xatti-harakati uchun jazo qo'llashga to'siq bo'la olmaydi. Intizomiy jazoni qo'llanishda sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning qay darajada og'ir ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat, xodimning oldingi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi.

Har bir nojo'ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanishi mumkin. Intizomiy jazo berilgani to'g'risidagi buyruq (farmoyish) yoki qaror xodimga ma'lum qilinib, tilxat olinadi. Intizomiy jazoning amal qilish muddati jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshib ketishi mumkin emas. Agar xodim shu muddat ichida yana intizomiy jazoga tortilmasa, u intizomiy jazo olmagan deb hisoblanadi. Intizomiy jazoni qo'llagan ish beruvchi o'z tashabbusi bilan, xodimning iltimosiga binoan, mehnat jamoasi yoki xodimning bevosita rahbari iltimosnomasiga ko'ra jazoni bir yil o'tmasdan oldin ham olib tashlashga haqlidir.

Davlat soliq qo'mitasining mansabdor shaxslari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'zining funksional vazifalarini bajarmaganligi yoxud zarur darajada bajarmaganligi, ijro intizomini buzgan hollarda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaganda, noqonuniy xatti-harakatlar (harakatsizlik) tufayli fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazganda, o'zining noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi)

tufayli xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish hajmlarini pasaytirganligi va soliq solish bazasini kamaytirganligi uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qarorlar qabul qilganda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq yuridik javobgarlikka tortiladi. Davlat soliq organlari xodimlari tomonidan xizmat vakolatlarining oshirib yuborilishi, shuningdek ularga yuklangan funksional vazifalarning bajarilmasligi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka olib keladi.

Soliq tekshiruvini o'tkazishda davlat soliq xizmati organlari yoki ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari orqali yetkazilgan zararlarning, shu jumladan, boy berilgan foydaning o'rni davlat soliq xizmati organlari tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Sud qaroriga binoan qonun hujjatlari asosida zararlarning o'rni qoplash davlat soliq xizmati organlari qaysi mansabdor shaxslarining aybi bilan zarar yetkazilgan bo'lsa, o'sha mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Davlat soliq xizmatining huquqiy asoslarini belgilovchi qonun hujjatlari haqida tushuncha bering.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tashkil etilishining ahamiyatini tushuntiring.

3. Davlat soliq xizmati to'g'risidagi Qonunning mohiyatini izohlang.

4. Davlat soliq xizmati xodimlarining asosiy huquq va majburiyatlarini tushuntirib bering.

5. Soliq xizmati xodimlariga maxsus unvonlar berish tartibini ayting.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Qaror mohiyatini tushuntiring.

7. Davlat soliq xizmati xodimlarining yuridik javobgarlikka tortish asoslari va tartibini ayting.

XV bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ SOHASIDA XALQARO HAMKORLIGI MASALALARI

15.1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida soliq sohasidagi xalqaro hamkorlikning afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlari.

15.2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro soliq munosabatlari-dagi hamkorligining huquqiy masalalari.

Tayanch so'z va iboralar

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida soliq sohasidagi xalqaro hamkorlikning afzalliklari. Soliqqa tortishdagi kelishuvlarning o'ziga xos xususiyatlari. Ikki tomonlama soliqqa tortish. O'zbekiston Respublikasida ikki tomonlama soliqqa tortish masalalari. Rezident bilan nerezidentning soliqqa tortishi. Damiy muassasa.

15.1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida soliq sohasidagi xalqaro hamkorlikning afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlari

Jahon davlatlari iqtisodiy faolligi va o'zining milliy iqtisodiy farovonligini ta'minlashida bir qator jihatlarga alohida e'tibor qaratib, ana shunday muhim masalalardan biri mamlakatlarning olib borayotgan soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan siyosatidir. Xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro moliya munosabatlarining muhim ajralmas tarkibiy qismi sifatida davlatlararo soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalalari bilan shug'ullanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida dunyo davlatlari mamlakat soliq siyosatini qayta ko'rib chiqish, uni takomillashtirish va inqirozni yumshatish va bartaraf etishda aynan soliq tizimiga alohida e'tibor qaratish lozim hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida tijorat faoliyatlarining keng miqyosida rivoj topib borishi hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining

yuksalishi natijasida davlatlarning milliy chegaralari borgan sari kichik ahamiyat kasb etib bormoqda. Tovarlarini realizatsiya qilish uchun yangi jahon bozorlarni ochilish zaruriyati, qo'shimcha foyda olishga intilish, yangi resurslar, texnologiyalar va ishlab chiqarish quvvatiga yo'l ochish — tadbirkorlik faoliyatini bir davlat chegarasidan o'tib, jahon miqyosida faoliyat yurtishiga imkoniyatlar tug'dirmoqda.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash sharoitida iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanib borishi xorijiy mamlakatlar soliq tizimlaridagi huquqiy qoidalarni o'zaro qayta ko'rib chiqishiga olib keladi. Lekin turli mamlakatlarda soliqqa tortishni u yoki bu masalani yechishga bo'lgan yondashuvlarni bir-biriga to'g'ri kelmasligi nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Muammoning birinchi tomoni mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan xorijliklarga soliq qonunchiligining qanday qo'llanilishi bo'lsa, ikkinchi tomoni, xorijda faoliyat yuritayotgan mamlakat fuqarolariga nisbatan soliq tartibining qo'llanilishi yoki qabul qiluvchi mamlakat soliq qonunchiligi tomonidan mazkur shaxslar huquqlarini paymol etilishidan muhofaza etish muammosidir. Ikkinchi muammoning o'ziga xos tomoni shundaki, hech bir mamlakat boshqa mamlakatdan o'ziga tegishli fuqarolar va ularning daromadlariga soliq imtiyozlari berishni talab qilish huquqiga ega emas. Ammo har qanday mamlakat o'zaro kelishuvlar asosida, shaxslar va ularning daromadlari bo'yicha soliqlarni mahalliy shaxs va ularning daromadlariga yoki uchinchi mamlakat vakillariga nisbatan tenglashtirish imkoniyatiga ega, bunday holatda qabul qiluvchi tomon, mahalliy aholiga nisbatan, xorijliklarga soliqlar bo'yicha alohida imtiyozlar yaratgan bo'lsa. Aks holda, ikkinchi mamlakat ushbu oddiy tartibni buzgan tomonning shaxslari yoki ularning daromadlariga nisbatan mos ravishda, soliq bo'yicha diskriminatsiya tadbirlarni o'tkazish bilan qo'rqitishi mumkin. Bular barchasi, xalqaro soliqqa tortish munosabatlari va qoidalarini yanada mukammal o'rganish zaruratini oshiradi.

Har bir mamlakatda soliq yurisdiksiyasini kengaytirish va uni muhofaza etish, shuningdek tovar, xizmatni eksport qiluvchilarga soliq imtiyozlari berish bilan bog'liq tadbirlarning umumiy yig'indisi mamlakatning tashqi soliq siyosatini belgilaydi. Ushbu siyosatning qaysi tomonga yo'nalishi muayyan vaziyatdan kelib chiqadi ya'ni u budjet daromadlarini oshirish nuqtayi nazaridan yoki eksportni qo'llab-

kuvvatlash maqsadidan kelib chiqishi mumkin.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozini bartaraf etish sharoitida ko'pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo'llanilayotgan bo'lsa, eksport mahsulotining sotishdan tushumlarga qator soliq imtiyozlarini joriy etishmoqda. Bu eksportni rag'batlantirishga, ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko'p bo'lganda o'z mahsulotlari kabi import mahsulotlarga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish ham valuta tushumini tartibga solishda qo'shimcha imkonlarni beradi.

Soliq munosabatlarida xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish tushunchasi bu ikki yoki undan ko'p mamlakatda bir soliq to'lovchini bir obyektiga nisbatan bir yoki o'xshash soliq bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortilishi tushuniladi. Odatda, ikki tomonlama soliqqa tortishni belgilovchi bir qator ko'rsatkichlar mavjud bo'lib ularga soliqqa tortish obyektining va subyektlarining o'xshashligini, soliq to'lash muddatining o'xshashligi, soliq to'lovchi subyektlarning huquqiy maqomi o'xshashligini keltirish mumkin.

Bugungi kunda jahon soliq amaliyotida xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish munosabatlarining asosan ishtirokchilari davlatlar, ular vakolat bergan tuzilmalar hamda yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanib, daromadi va mol-mulkini soliqqa tortish masalalarida xalqaro soliq munosabatlarining asosiy tadqiqot obyektidir.

Moliyaviy inqiroz sababli jahon davlatlari mamlakat soliq siyosatini takomillashtirishda asosan ikkita qarama-qarshi usulni tanlayotganligi mazkur davlatlarning milliy iqtisodiy o'ziga xosligi, rivojlanish bosqichi turlichaligi hamda jamiyatdagi iqtisodiy-soliq islohotlarining asosiy yo'nalishlari va ularning taraqqiyot tendensiyalari bilan ham belgilanadi.

Iqtisodiy inqiroz sharoitida aksariyat rivojlangan davlatlar qattiq soliq siyosatiga amal qilib, soliqlarni stavkalarini daromadning miqdoridan kelib chiqib ko'tarishni afzal bilishgan bo'lsa, ikkinchi guruh rivojlanayotgan aksariyat davlatlar asosan milliy ishlab chiqarishga tayangan hoida milliy bozorni qo'llab-quvvatlash orqali ichki soliq siyosatida soliq stavkalarini saqlab qolishga harakat qilishmoqda.

Odatda, daromadlarga nisbatan ikki tomonlama soliqqa tortilishiga quyidagi holatlar sabab bo'ladi:

1. Bir soliq to'lovchi subyektnining olayotgan daromadini bir necha davlat qonunchiligi bo'yicha soliqqa tortsa.

2. Soliq to'lovchi davlatning rezidenti bo'lib, daromad va sarmoyasini boshqa davlatdan olsa va har ikkala davlat ana shu daromad yoki sarmoya bo'yicha soliq undirsa;

3. Bir necha davlat ulardan birortasining rezidenti bo'lmagan birgina shaxsni ana shu davlatlarda oladigan daromadi yoki u yerda egalik qiladigan sarmoyasi bo'yicha soliqqa tortsa.

Xalqaro soliq huquq amaliyotida soliq munosabatlarini tartibga solinishining quyidagi ikki usuli orqali daromadlarga ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etiladi (oldi olinadi):

- Xalqaro soliq masalalarining bir yoqlama chora-tadbirlar yoki milliy soliq siyosatining qoidalari orqali amalga oshirilib, boshqa mamlakatlar va ularning hukumatlari bilan hech qanday kelishuvlarsiz amalga oshiriladi, bunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan xorijliklar soliq to'lovchilarga va mamlakatning xorijda faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchi subyektlariga nisbatan soliq tartibining huquqiy masalalari milliy qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

- Xalqaro soliq masalalarining shartnomaviy chora-tadbirlar orqali, ya'ni ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama kelishuvlar (ikki yoki undan ortiq shartlashayotgan mamlakatlarning milliy soliq siyosatlari va qonunlarini o'zaro muvofiqlashtirish) asosdagi chora-tadbirlari orqali amalga oshiriladi.

Ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berilishida har bir mamlakatning ichki me'yorlari asosida ta'minlanadi. Soliq kelishuvlarida ikki yoqlama soliqqa barham berish bo'yicha Yangi tartib, kelishuv asosida joriy etilishi mumkin. Odatda, quyidagi **«ozod qilish»** qoidasi yoki **«soliq krediti»** qoidasi qo'llaniladi. Soliq kelishuvi tuzilayotgan paytda tomonlar ushbu ikki usuldan birini tanlashi yoki ularni ikkalasidan ham zaruriy paytlarda foydalanishi mumkin. Soliq kelishuvlari ikki yoqlama soliqqa tortishga barham berish maqsadlaridan tashqari muhim maqsad soliq to'lashdan chetga chiqish holatlariga qarshi kurashni ham ko'zlaydi. Ushbu sohada soliq kelishuvlari orqali soliq organlari hamkorligining asosi va tartibi belgilab olinadi. Shuning uchun ham, soliq kelishuvlarida daromadlarni yashirishga qarshi, chet elga daromadni yashirin tarzda o'tkazishga qarshi soliq organlarining birgalikdagi kurashi bo'yicha bir qator qoidalar kiritiladi.

15.2. O'zbekiston Respublikasining xalqaro soliq munosabatlaridagi hamkorligining huquqiy masalalari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, davlat boshqaruvining yangi sohasi soliq munosabatlarini tartibga solishga yo'naltirilgan soliq qonun hujjatlari bosqichma-bosqich shakllantirildi. Mazkur qonun hujjatlari ichida xalqaro soliq masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari alohida o'rin tutib, ushbu munosabatlarining asoslari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi normalari asosida tartibga solinishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining soliq sohasidagi xalqaro shartnomaviy munosabatlari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, shuningdek amaldagi «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunning 3-moddasi mazmuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi – respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvdir. Soliq sohasidagi xalqaro shartnomalar (kelishuvlar) shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanishi va shunday ko'rinishda tuzilishi, shuningdek xalqaro huquq normalariga muvofiq boshqacha tarzda ham nomlanishi mumkin. Soliq sohasidagi xalqaro shartnomaviy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning soniga qarab ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar bo'lishi mumkin.

Soliq sohasidagi xalqaro shartnomalar (kelishuvlar) amal qilish muddatiga qarab muddatli va muddatsiz bo'lishi yoki kelishuvning o'zida muayyan davr yoki maqsad beligilanishi mumkin. Soliq sohasidagi kelishuvlar (shartnomalar) yozma ravishda tuzilib, O'zbekiston Respublikasining davlat tili va ahdlashayotgan boshqa tomonning (tomonlarning) tili ifodalanishi, subyektlarining kelishuviga muvofiq boshqa til shartnoma tili deb ham tan olinishi mumkin. Xalqaro shartnoma (kelishuv) matni qaysi tilda tuzilgan bo'lsa, u ushbu shartnoma matnida ko'rsatiladi, uning autentikligi va rasmiyligi belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining soliq masalalaridagi xalqaro munosabatlarida muzokaralar olib borish va

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolash vakolatlari O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnoma (bitim, kelishuv)larga nisbatan, — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan; O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufiga tegishli masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan, — O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan; O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan, — O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan; idoralararo shartnomalarga nisbatan, — O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda beriladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan soliq sohasidagi xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilinadi. Tuzish vaqtida tomonlar kelgusida uni ratifikatsiya qilish to'g'risida kelishib olgan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ham xuddi shunday ratifikatsiya qilinadi. Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yoki u vakolat bergan organlar tomonidan xalqaro moliya institutlari bilan tuzilgan O'zbekiston Respublikasining xalqaro zayom va kafolatli shartnomalari ratifikatsiya qilinmaydi va O'zbekiston Respublikasi uchun imzolangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Yuqoridagi xalqaro shartnomalarni joriy etish maqsadida, soliq qonunchiligida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilish qoidasi kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasida soliq munosabatlaridagi xorijiy subyektlar norezidentlar tushunchasi bilan ishtirok etib, norezident tushunchasi talablari amaldagi soliq qonunchiligi normalir bilan belgilanadi. Rezident bilan norezidentning soliqqa tortish yuzasidan farqi shundaki, rezidentlar faqat tegishli davlat rezidenti sanalib, ushbu davlat soliq qonunchiligida belgilangan barcha soliq va boshqa majburiy to'lovni to'laydilar, norezidentlar esa xalqaro miqyosda tadbirkorlik faoliyati yuritishishi natijasida olgan daromadlari bo'yicha ikki marotaba, ya'ni rezident bo'lib hisoblanadigan davlatda va norezident bo'lib hisoblanadigan davlatda soliqqa tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida norezidentlarning soliq munosabatlaridagi ishtiroki doimiy muassasa tushunchasi orqali

ifodalanib, *norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda* norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan, faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi. Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e'tirof etiladi.

Shu jihatlarni hisobga olgan holda davlatlar iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish maqsadida xalqaro shartnomalarni imzolaydilar. Ushbu xalqaro shartnomalarga muvofiq, mazkur ikki davlat korxonalari yoki jismoniy shaxslari soliqqa tortiladi, ya'ni bir davlat boshqa davlat korxonasining olgan daromadlarini xalqaro shartnoma shartlariga muvofiq soliqdan ozod qiladi yoki qisman to'latadi, boshqa davlat esa ushbu to'langan yoki to'lanmagan soliqni hisobga olib o'z mamlakatining soliq qonunchiligiga asosan soliqqa tortadi.

Hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo'yicha qirqdan ortiq davlatlar bilan shartnoma imzolagan. Jumladan, Avstriya, Ozarboyjon, Belarus, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Vetnam, Germaniya, Gretsiya, Gruziya, Misr, Isroil, Hindiston, Indoneziya, Eron, Italiya, Qozog'iston, Kanada, Xitoy, Koreya, Quvayt, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Luksemburg, Malayziya, Moldova, Niderlandiya, BAA, Pokiston, Polsha, Portugaliya, Rossiya Federatsiyasi, Ruminiya, Slovakiya, Buyuk Britaniya, Tailand, Turkmaniston, Turkiya, Ukraina, Finlandiya, Fransiya, Chexiya, Shveysariya, Yaponiya kabi mamlakatlardir. Ushbu ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo'yicha xalqaro shartnomalar faqatgina shartnomada belgilangan soliq'larga (odatda, daromad solig'i) joriy etiladi hamda shartnoma shartlariga va tartibiga asosan soliqqa tortiladi. Bundan tashqari, soliq qonunchiligiga rioya etish masalalarida hamkorlik qilish va o'zaro yordam ko'rsatish maqsadida xalqaro bitimlar qabul qilinadi. Ushbu bitimlar doirasida soliq idoralari orqali soliq qonunchiligining zarur darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida, bir-birlariga quyidagi masalalarda o'zaro ko'mak ko'rsatishi belgilanishi mumkin:

–soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va uni bartaraf etishda hamda soliq huquqbuzarliklariga qarshi kurashishda o'zaro ko'maklashish;

—ko‘maklashish to‘g‘risidagi so‘rov bo‘yicha yoki tashabbus ko‘rsatish tartibida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi yuzasidan axborotlarni taqdim etishga kelishuvlar;

—milliy soliq tizimlari va soliq qonunchiligidagi joriy o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish hamda soliq idoralari ishini ta‘minlovchi kompyuter tizimlarini yaratish va ishlatishdagi hamkorliklar;

—soliq to‘lovchilar va soliq idoralari bilan ishlarni tashkil etish, jumladan soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda kadrlarni o‘qitish va mutaxassislarni tayyorlashdagi tajriba almashish;

—shuningdek, soliq munosabatlarini xalqaro xamkorligini talab etuvchi boshqa o‘zaro birgalikdagi harakatlarni talab etuvchi boshqa masalalar bo‘yicha hamkorliklardir.

Mazkur yo‘nalishlardan biri soliq to‘lovchilar va soliq idoralari bilan ishlarni tashkil etish, jumladan, soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda kadrlarni o‘qitish va mutaxassislarni tayyorlashdagi tajriba almashish bo‘yicha Yaponiya bilan tuzilgan o‘zaro hamkorlik doirasidagi amaliy ishlarni e‘tirof etish joiz. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro soliq masalalarini tartibga solishdagi amalga oshirilyotgan chora-tadbirlar jamiyatdagi soliq munosabatlarini yanada taraqqiy etishiga, xorijiy hamkorlarning ko‘lamini kengayishiga va mamlakat farovonligini yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Soliq sohasidagi xalqaro hamkorlikning roli va ahamiyatini izohlab bering.

2. Xalqaro miqyosda ikki yoqlama soliqqa tortish muammolarining yuzaga kelishi va ularni bartaraf etish yo‘llari nimalardan iborat?

3. Xalqaro soliq bitimlari va shartnomalarini tuzish tartibini ayting.

4. Ikki tomonlama soliqqa tortishdan ozod etish prinsiplarini izohlab bering.

5. Xorijda olingan daromadlar yuzasidan soliqqa tortishning huquqiy asoslarini tavsiflab bering.

«SOLIQ HUQUQI» FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARNING SAVOLLARI

Mavzu. Soliq huquqi fanining predmeti, tizimi va boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqasi

Reja:

1. Soliq huquqi fanining predmeti va vazifalari. Soliq huquqi fani tizimi va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Soliq huquqi asoslari fanining rivojlanish bosqichlari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
3. Soliq huquqi asoslari yuridik fan sohasi sifatida konstitutsiyaviy, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik, xo'jalik hamda moliya huquqi kabi fanlar bilan aloqasi.
4. Soliq huquqi fanini nazariy va amaliy fan sifatida takomillashtirishning zarurati va ahamiyati.

Mavzu. Soliq huquqi manbalari va tamoyillari, ularning umumiy tavsifi

Reja:

1. Soliq huquqining manbalari tushunchasi, ularning ahamiyati va yuridik kuchiga ko'ra turlari.
2. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi tushunchasi, tarkibi va xususiyatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini tartibga solishning konstitutsiyaviy asoslari.
4. Soliq huquqi prinsiplarining tushunchasi va mazmuni. Soliq huquqi prinsiplarini tasniflashning huquqiy asoslari.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: tuzilishi va tizimi.
6. Soliq huquqining manbasi sifatida xalqaro shartnomalarning tutgan o'rni.

Mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi, mohiyati hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Soliq tushunchasi va mohiyati. Soliqning yuridik belgilari.

2. Boj, bojxona to'lovlari, yig'im va boshqa majburiy to'lovlar tushunchasi. Soliqlarning boj, yig'im va boshqa majburiy to'lovlardan farqi.

3. Soliqlarning funksiyalari.

4. Jamiyat iqtisodiy farovonligining ta'minlanishida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tutgan o'rni.

5. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozini bartaraf etish sharoitida davlat soliq siyosatini erkinlashtirish va liberallashtirishning ahamiyati.

Mavzu. Soliq huquqiy munosabatlar, soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari hamda majburiyatlari

Reja:

1. Soliq huquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va o'ziga xos xususiyatlari.

2. Soliq huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, ularning huquqiy maqomi.

3. Soliq to'lovchilar tushunchasi va turlari. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari hamda ularning mazmuni.

4. Soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilishning shakl va usullari.

5. Soliq to'lovchilarning huquqbuzarliklari uchun yuridik javobgarlik masalalari.

Mavzu. Soliq tizimini boshqarishdagi davlatning vakolatli organlari

Reja:

1. Soliq tizimini boshqarishdagi davlat vakolatli organlari tushunchasi va turlari.

2. Soliq sohasidagi umumiy vakolatli davlat organlari (Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi).

3. Soliq sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari, ularning soliq munosabatlarini tartibga solishdagi ishtiroki.

4. Soliq tizimini boshqarishdagi davlat vakolatli organlarining vakolatlari va vazifalari

Mavzu. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar

Reja:

1. Jismoniy shaxslar tushunchasi va ularning huquqiy maqomi.

2. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlarning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan to'lanadigan soliqlarning yuridik tabiati.

3. Chet ellik fuqarolarining jismoniy shaxslar sifatida soliq munosabatlaridagi ishtiroki va uning o'ziga xos xususiyatlari.

4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, daromad solig'i, yer solig'i.

5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarlarga nisbatan belgilanadigan imtiyozlar va ularning huquqiy asoslari.

Mavzu. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlari va ularning huquqiy tavsifi

Reja:

1. Yuridik shaxslar tushunchasi, uning belgilari va turlari.

2. Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar.

3. Yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yer solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va boshqa to'lanadigan to'lovlar.

4. Yuridik shaxslar tomonidan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish muddatlari va belgilanadigan soliq imtiyozlari.

Mavzu. Davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlarning huquqiy tabiati

Reja:

1. Davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan majburiy to'lovlar tushunchasi. Davlat ijtimoiy sug'urtasiga yagona ijtimoiy to'lov, majburiy ajratmalar va badallar.

2. Mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning majburiy sug'urta badallarini to'lovchilar, obykti, imtiyozlar va uni o'tkazish tartibi. Boshqa majburiy ajratmalarni hisoblab chiqish va to'lash tartibining xususiyatlari.

3. Budjetdan tashqari davlat jamg'armalariga to'lanadigan mablag'larning kelib tushishi va sarflanishi ustidan nazorat.

4. Respublika yo'l jamg'armasi, maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalarining shakllantirilishi.

Mavzu. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

1. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari tushunchasi va turlari, ularga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. To'g'ridan to'g'ri chet el xususiy investitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan to'lovchilarga soliq solish.
3. Bozorlarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Nodavlat notijorat tashkilotlar va advokatlik tuzilmalarini soliqqa tortish.
5. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishdagi imtiyozlar va to'lov muddatlari.

Mavzu. Soliq nazoratining huquqiy asoslari

Reja:

1. Soliq organlari nazorat tekshiruv shakllari va uning mazmun-mohiyati.
2. Tekshiruvlar, ularning turlari va muddatlari, joriy tekshiruvlarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan me'yoriy hujjatlar.
3. Soliq organlarining soliq nazorati amalga oshirish borasidagi vakolatlari.
4. Soliq to'lovchilar hisobini olib borish va soliqlarni to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida tushishi hamda soliq-buxgalteriya hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish.

Mavzu. Davlat boji va bojxona to'lovlarini huquqiy tartibga solish

Reja:

1. Davlat boji tushunchasi va turlari.
2. Bojxona to'lovlari tushunchasi va tasnifi. Bojxona bojining huquqiy tabiati.
3. Tovarining bojxona qiymati tushunchasi va uni aniqlash usullari. Import qilinadigan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini huquqiy tartibga solish.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining huquqiy maqomi.
5. Davlat boji va bojxona to'lovlarini bajarilishini ta'minlovchi vakolatli davlat organlari va ularning vazifalari.

Mavzu. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalash

Reja:

1. Soliq to'lovchilarni, tadbirkorlik subyektlarini davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalash tushunchasi va mazmuni.
2. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoyalash tizimi va ushbu faoliyati belgilovchi qonunchilik hujjatlari.
3. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalash shakl va usullari.
4. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq munosabatlarida sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ular ustidan shikoyat qilish masalalari.
5. Soliq to'lovchilarni, tadbirkorlik subyektlarini davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida yetkazilgan zararni undirish masalalari.

Mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik tushunchasi va turlari

Reja:

1. Soliqqa oid huquqbuzarliklar tushunchasi va turlari.
2. Soliq munosabatlarida soliq to'lovchilar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va ularni belgilovchi qonunchilik hujjatlari.
3. Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik masalalari (moliyaviy, ma'muriy, jinoiy javobgariik choralari).
4. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq huquqbuzarliklarini oldini olish choralari qo'llanilishi va yuridik javobgarlikni belgilashdagi o'ziga xos xususiyatlar.
5. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yuridik javobgarlikni erkinlashtirish masalalari va jazolarning muqarrarligini ta'minlash choralari.

Mavzu. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarining huquqiy maqomi

Reja:

1. Davlat soliq xizmati tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi soliq organlari faoliyatining huquqiy asoslari.
2. Davlat soliq qo'mitasining faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari. Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari.

3. Davlat soliq qo‘mitasining rahbarlarini tayinlash tartibi. Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlarining huquqiy maqomi.

4. O‘zbekiston Respublikasida soliq xizmatini o‘tash tartibi. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari faoliyatini modernizatsiyalash masalalari.

5. Soliq idoralari xodimlarining huquq va majburiyatlari hamda intizomiy javobgarliklari.

Mavzu. O‘zbekiston Respublikasining soliq sohasida xalqaro hamkorligi masalalari

Reja:

1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozini bartaraf etish sharoitida soliq sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda xalqaro hamkorlik masalalari.

2. Xalqaro miqyosda ikki yoqlama soliqqa tortish muammolarining yuzaga kelishi va ularni bartaraf etish yo‘llari.

3. Xalqaro soliq bitimlari va shartnomalarini tuzish tartibini va bu bo‘yicha vakolatli davlat organlarining vazifalari.

4. O‘zbekiston Respublikasida ikki tomonlama soliqqa tortishdan ozod etish qoidalari va qonunchilik asoslari.

«SOLIQ HUQUQI» FANIDAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Soliq huquqi manbalarining yuridik tartibga solinishi va asosiy tamoyillari.
2. O‘zbekiston Respublikasida soliq idoralarining ma‘muriy huquqiy maqomi.
3. Soliq huquqi manbalarining tushunchasi, ularning ahamiyati va turlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi: tushunchasi, tarkibi va xususiyatlari.
5. Soliq to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik muammolari.
6. Xalqaro hamkorlik doirasida soliq qonunchiligining umumiy tavsifi.
7. Soliq huquqbuzarliklari uchun ma‘muriy javobgarlikka tortishning asoslari.
8. O‘zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmatini bosqicha-bosqich takomillashtirish masalalari.
9. Soliqqa oid munosabatlarda kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish.
10. Nazorat tekshiruvlarini o‘tkazishda soliq qonunlar hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash.
11. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish sharoitida O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy himoyalash masalalari.
12. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi qonunning mohiyati.
13. Soliq to‘lovchilarning huquq va manfaatlarini sud tomonidan himoyalaniishi.
14. Soliq huquqining boshqa turdosh fanlar bilan o‘zaro aloqasi.
15. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar.
16. Yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlarning umumiy tavsifi.

17. Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar.

18. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida davlat boji va bojxona to'lovlarini huquqiy tartibga solish.

19. Soliq organlarining huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorligi.

20. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida soliq imtiyozlarining ahamiyati.

21. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarining huquqiy maqomi.

22. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yagona soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.

23. Soliq huquqi prinsiplarining tushunchasi, turlari va yuridik ahamiyati.

24. O'zbekiston Respublikasida soliq huquqining shakllanishi va rivojlanishi.

25. Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari va majburiyatlari tushunchasi va mazmuni.

26. Soliq tizimini boshqarishdagi davlat vakolatli organlari, turlari ularning huquq va vazifalari.

27. Budjetdan tashqari davlat jamg'armalariga to'lanadigan mablag'larning kelib tushishi va sarflanishi ustidan nazorat.

28. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.

29. To'g'ridan to'g'ri chet el xususiy investitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan to'lovchilarga soliq solish masalalari.

30. Nodavlat notijorat tashkilotlarni va advokatlik tuzilmalarini soliqqa tortishdagi o'ziga xos xususiyatlari.

31. Soliq organlari nazorat tekshiruv shakllari va uning mazmun-mohiyati.

32. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish masalalari.

33. Soliqqa tortish jarayonida tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoyalashni takomillashtirish masalalari.

34. Soliq huquqiy munosabatlarida soliq maslahati xizmatini ko'rsatishning zarurati va uning vazifalari.

35. Soliq maslahati faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalari.

36. Moliyaviy javobgarlik bo'yicha xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tajribasining tavsifi va uning milliy qonunchilikni takomillashtirishdagi o'rni.

37. Soliq organlarining huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorligi.

38. Bozor munosabatlarining rivojlanish va shakllanish jarayonida soliq huquqining tutgan o'rni.

39. Soliq organlari faoliyati ustidan shikoyat qilish tartibi.

40. Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining qarorlarini mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizliklari) ustidan shikoyat berish yuzasidan ish yuritish.

41. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yuridik javobgarlikni erkinlashtirish masalalari va jazolarning muqarrarligini ta'minlash choralari.

42. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq siyosatining konstitutsiyaviy asoslari.

43. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – soliq huquqining manbaya sifatida ahamiyati va mohiyati.

44. Xufyona iqtisodiy jarayonlarning soliq organlari tomonidan baholanishi.

45. Tadbirkorlarni huquq va manfaatlarini himoya qilishda soliq organlarining roli va vazifalari.

46. Ma'muriy amaliyotni tashkil etish va nazorat qilishni huquqiy ta'minlash muammolari.

47. Soliq organlarining ma'muriy va moliyaviy jazo qo'llash bo'yicha vakolatlari.

48. O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xavfsizlik va shaxsiy tarkib orasida sodir etilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini olish masalalari.

49. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi, alomatlari va ijtimoiy xavfi.

50. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish sharoitida tadbirkorlik subyektlarini soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan huquqiy himoya qilish usul va shakllari hamda ularni ta'minlash masalalari.

51. Soliq tizimi xodimlarini huquqiy savodxonligini oshirish masalalari.

52. Xorijiy davlatlarda soliq organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari.

53. Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash.

54. Soliq munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha xo'jalik sudida da'vo ishlarini yuritishning xususiyatlari.

55. Tadbirkorlik subyektlariga soliq organlari hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik.

56. Soliq munosabatlarini tartibga solishda xalqaro huquqiy hujjatlarning qo'llanilishi.

57. Davlat soliq xizmati organlarining yuridik xizmat ko'rsatish tartibi va asoslari.

58. Soliq organlari ishtirokida tuziladigan fuqarolik huquqiy shartnomalarning huquqiy tabiati.

59. O'zbekiston Respublikasida soliq organlari mulklarini operativ boshqarish huquqi.

60. Davlat soliq qo'mitasining ta'lim muassasalarida yuridik ta'lim berishni takomillashtirish muammolari.

61. Soliq kodeksi asosiy tushunchalarining huquqni qo'llashdagi roli: nazariya va amaliyot muammolari.

62. Soliq ta'lim muassasalarida yuridik fanlarni o'qitish bo'yicha pedagogik jarayonlarni boshqarish va uning samaradorligini oshirish muammolari.

63. Xorijiy davlatlarda soliq huquqi va uning milliy qonunchilikni rivojlantirishdagi ta'siri.

64. Soliq sohasidagi norma ijodkorligi, qonun hujjatlari texnikasi va monitoringi.

65. Soliq idoralari xodimlarining huquq va majburiyatlari hamda ularni bajarmaganligi uchun intizomiy javobgarlik masalalari.

66. Soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashning borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va ularning samaradorligini oshirish masalalari.

67. O'zbekiston Respublikasida shakllangan soliq tizimi, uning mamlakat iqtisodini isloh qilishdagi ahamiyati.

68. Soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oqibatlari, soliqqa oid jinoyatlarning iqtisodiy-huquqiy mazmuni, ularni sodir etishning sabablari.

69. O'zbekiston Respublikasida davlat soliq xizmatini takomillashtirish va modernizatsiya qilish masalalari.

70. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, uning mamlakat iqtisodiy farovonligini ta'minlashdagi o'rni.

TEST SAVOLLARI

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi tuzilishi qanday?

- A) 2 qism, 20 bo'lim, 64- bob, 413-moddadan iborat.
- B) 2 qism, 22 bo'lim, 64-bob, 392-moddadan iborat.
- D) 2 qism, 22 bo'lim, 69-bob, 382-moddadan iborat.
- E) 2 qism, 21 bo'lim, 64-bob, 392-moddadan iborat.

2. Soliq munosabatlarida da'vo qilishning umumiy muddati qancha?

- A) 2 yil.
- B) 3 yil.
- D) 4 yil.
- E) 5 yil.

3. Soliq sohasidagi umumiy vakolatli davlat organlari tizimiga qaysi biri kiritilmaydi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
- E) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi.

4. O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida keltirilgan?

- A) 120-moddasida.
- B) 121-moddasida.
- D) 122-moddasida.
- E) 123-moddasida.

5. Rezident yuridik shaxs —

- A) O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs.
- B) O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs.
- D) O'zbekiston Respublikasida soliq to'layotgan yuridik shaxs.
- E) O'zbekiston Respublikasida foyda olayotgan yuridik shaxs.

- 6. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi Senat tomonidan qachon ma'qullangan?**
- A) 2007-yil 30-noyabr. B) 2007-yil 23-noyabr.
D) 2008-yil 1-yanvar. E) 2007-yil 25-dekabr.
- 7. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?**
- A) 1996-yil 1-yanvar. B) 1997-yil 10-sentabr.
D) 1998-yil 15-may. E) 1997-yil 29-avgust.
- 8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida soliq va boshqa majburiy yig'imlar to'lash majburiyligi aks etgan?**
- A) 50-moddasida. B) 51-moddasida.
D) 52-moddasida. E) 53-moddasida.
- 9. Yuridik faktlar deb nimaga aytiladi?**
- A) Soliq huquqiy munosabatlarini vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar sifatida ko'rilgan huquqiy hujjatlar, yuridik harakat va hodisalarga.
B) Soliq huquqiy munosabatlardagi harakat yoki harakatsizlik natijasiga.
D) Soliq huquqiy munosabat obyekti va subyekti o'rtasidagi hodisalarga.
E) To'g'ri javob yo'q.
- 10. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq majburiyati deb nimaga aytiladi?**
- A) Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatiga.
B) Soliq huquqiy munosabatlarga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatiga.
D) Xalqaro huquqning normalariga asosan yuzaga keladigan majburiyatiga.
E) Moliyaviy huquqiy majburiyatlarga muvofiq yuzaga keladigan majburiyatlarga.

11. Penya – bu ...

A) Soliqlar yoki yig'implarni to'lash muddati o'tkazib yuborilgan har bir taqvim kuni uchun ortib boruvchi yakun bilan undiriladigan pul summasidir.

B) Qonun kuchi bilan soliqning majburiy va majburlovchi xususiyatidan kelib chiqadigan, soliqni to'lash kechiktirilgan hollarda soliq to'lovlarini o'z muddatida to'lig'icha olmaganlik natijasida ko'rilgan davlat budjeti yo'qotishlarining o'ziga xos kompensatsiyalanishidir.

D) Soliq huquqbuzarligi uchun yuridik javobgarlik choralarining qo'llanishidan qat'i nazar tayinlanadi va u, xuddi soliq bo'yicha boqimandalikni undirish kabi, jazolash ahamiyatiga ega emas.

E) Barcha javoblar to'g'ri.

12. Soliq sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari tizimiga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

A) Davlat soliq xizmati organlari.

B) Ichki ishlar organlari.

D) Davlat hokimiyati organlari va tashkilotlar.

E) Davlat bojxona organlari.

13. Soliq kodeksiga binoan quyidagi bandlardagi yuridik shaxslarning qaysi biri yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?

A) Davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari.

B) Davolash muassasalariga homiylik qilayotgan yuridik shaxslar.

D) Ishlovchilar umumiy sonining kamida 45 foizini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar.

E) Ishlovchilar umumiy sonining kamida 50 foizini ikkinchi jahon urush yillaridagi urush va mehnat faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar.

14. Soliq kodeksiga binoan davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashning qaysi imtiyoz shakli qo'llaniladi?

A) Soliqdan batamom ozod qilish.

B) Vaqtincha ozod qilish.

D) Qisman ozod qilish.

E) Soliq bazasini kamaytirish.

15. Soliqqa doir huquqiy munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini belgilang.

A) Davlatning soliqlarni belgilash, soliqlarni undirib olish va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etishi.

B) Davlatning soliqlarni belgilash, soliqlarni undirib olish va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha faoliyati jarayonida yuzaga keladi.

D) Soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarning yuridik mazmuni ular qatnashchilarining huquq va majburiyatlari hisoblanadi.

E) D va E javoblar to'g'ri.

16. Soliq huquqiy munosabatining obyektlari bo'lib nimalar hisoblanadi?

A) Soliq to'lovchining daromadlari, tabiiy resurslardan foydalanish va boshqalar ya'ni pul va mulkiy shakllarda mavjud bo'lgan moddiy ne'matlar hisoblanadi.

B) Soliq to'lovchining daromadlari, muayyan tovarlar mol-mulk qiymati qog'ozlarga doir operatsiyalar, tabiiy resurslardan foydalanish va boshqalar ya'ni pul va mulkiy shakllarda mavjud bo'lgan moddiy ne'matlar hisoblanadi.

D) Soliqqa tortiladigan daromad, mol-mulk, oborot.

E) D va E javoblar to'g'ri.

17. Soliq to'lovchilarning majburiyatlari O'zbekiston Respublika Soliq kodeksining nechanchi moddasida belgilangan?

A) 30-modda.

B) 31-modda.

D) 32-modda.

E) 33-modda.

18. Soliq majburiyati qaysi hollarda tugatiladi?

A) Jismoniy shaxs vafot etganda, uni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risida sud qarori qonuniy kuchga kirganda.

B) Yuridik shaxs tugatilganda, qo'shib yuborilganda, qayta tashkil etilganda.

D) Mamlakat fuqaroligi bekor qilinganda.

E) A va D javoblar to'g'ri.

19. Soliqni tartibga solish funksiyasiga ta'rif bering.

A) Bu bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning alohida rolga egaligi, soliqni iqtisodiy jarayonning bosh boshqaruvchisi, tartibga soluvchi sifatida tushunish kerak.

B) U iqtisodiyotning muayyan sohalari yoki faoliyatning muayyan turlarini rivojlantirishga yunaltirilgan, imtiyozlarning amaldagi tizimi vositasida namoyon bo'ladi.

D) U soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbayi sifatida ahamiyatga egadir.

E) To'g'ri javob ko'rsatilmagan.

20. Soliq huquqining manbayi hisoblangan normativ hujjatlarni belgilang:

A) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

B) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.

D) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunlari va Qarorlari.

E) Barcha javoblar to'g'ri.

21. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddalarida soliq munosabatlari bayon qilingan?

A) 51-78-100-123-moddalarida.

B) 51-68-100-123-moddalarida.

D) 51-58-100-123-moddalarida.

E) 51-48-100-123-moddalarida.

22. Soliqlarni joriy qilish qaysi davlat organi vakolatiga kiradi?

A) O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi.

B) O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi.

D) O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi.

E) O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda.

23. Yuridik shaxslar uchun foyda solig'i qachon joriy etilgan?

A) 1991-yil 1-yanvardan.

B) 1992-yil 14-yanvardan.

D) 1993-yil 6-maydan.

E) 1995-yil 1-yanvardan.

24. Soliq kodeksining nechanchi moddasida soliq tushunchasiga yuridik ta'rif berilgan?

A) 12-moddasida.

B) 13-moddasida.

D) 14-moddasida.

E) 15-moddasida.

25. Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda soliqni va penyani kim to'laydi?

- A) Jismoniy shaxs. B) Bosh hisobchi.
D) Soliq agenti. E) Rahbar.

26. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qachon amalga kiritilgan?

- A) 1996-yil 1-mart. B) 1997-yil 24-aprel.
D) 2008-yil 1-yanvar. E) 1999-yil 1-yanvar.

27. Soliq huquqiy munosabatlarning asosiy ishtirokchilari soliq to'lovchilar bo'lib, ular qaysilar?

A) Jismoniy shaxslar (O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar).

B) Yuridik shaxslar ya'ni o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

- D) O'zbekiston Respublikasi rezident va norezidentlari.
E) Barcha javoblar to'g'ri.

27. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari...

A) Soliq majburiyati Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi kerak.

B) Soliq to'lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli.

D) Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun) o'tishi bilan belgilanadi.

- E) Barcha javoblar to'g'ri.

28. Jismoniy shaxslarga soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarlik necha yoshdan belgilangan?

- A) Pasport olgandan boshlab. B) 16 yoshdan.
D) 18 yoshdan. E) Yosh belgilanmagan.

29. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida penya har bir kechiktirilgan kun uchun qancha miqdorda belgilangan?

- A) 0.05 %
- B) 0.005 %
- D) 0.5 %
- E) 0.07 %

30. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga egami?

A) Soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo‘lgan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilib orqaga qayish kuchiga ega emas.

B) Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilgandan keyin yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

D) Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega.

E) B va D javoblar to‘g‘ri.

31. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq qonun hujjatlarining nechta prinsipi mavjud?

- A) 7 ta.
- B) 8 ta.
- D) 5 ta.
- E) 6 ta.

32. Soliq to‘lovchining haqligi prezumtsiyasi tamoyili Soliq kodeksining nechanchi moddasida aks etgan?

- A) 11-moddasida.
- B) 12-moddasida.
- D) 13-moddasida.
- E) 14-moddasida.

33. Soliq stavkalarini belgilash qaysi davlat organi vakolatiga kiradi?

- A) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
- D) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
- E) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Moliya vazirligi kelishgan holda.

34. Mol-mulk solig‘ini to‘lash haqidagi to‘lov xabarnomalari soliq to‘lovchilariga qaysi muddatdan kechiktirmay topshirilishi shart?

- A) Joriy yilning 5-yanvarigacha.
- B) Joriy yilning 25-apreligacha.

D) Joriy yilning 15-iyunigacha.

E) Joriy yilning 1-mayigacha.

35. Quyidagilardan qaysi biri soliq elementlari emas?

A) Soliq obyekt.

B) Soliq stavkasi.

D) Soliq manbai.

E) Soliq davri.

36. Soliq va majburiy to'lovlarni to'lash tartibini buzish uchun 0,05 foizli penyani hisoblash qaysi kundan boshlanadi?

A) To'lov muddatidan keyingi kundan.

B) To'lov muddatining oxirgi kunidan.

D) Inkassa topshiriqnomasi qo'yilgan kundan boshlab.

E) To'lov muddatining oxirgi kunidan 10 kun o'tgandan boshlab.

37. Jismoniy shaxslar daromadlari va daromad solig'i to'g'risida hisob-kitoblar soliq agenti tomonidan qaysi muddatda soliq organlariga topshiriladi?

A) Oy tugagandan keyingi oyning 10 sanasigacha.

B) Oy tugagandan keyingi oyning 15 sanasigacha.

D) Soliq davri tugagandan keyin 30 kun ichida.

E) Oy oxirida.

38. Soliq to'lovchilar tekshirish natijalari ustidan qancha muddatda shikoyat berishlari mumkin?

A) 10 kun.

B) 1 oy.

D) 15 kun.

E) 3 kun.

39. Soliqlar, jarimalar va boshqa majburiy to'lovlar budjetga qanday tartibda o'tkaziladi?

A) Jarimalar, daromadlar, soliqlar.

B) Penya, jarima, majburiy to'lovlar.

D) Majburiy to'lovlar, soliqlar, penya.

E) Asosiy summa, penya, jarima.

40. O'zbekiston hududida soliqlar va yig'imlar qaysi pul birligida hisoblab chiqiladi?

A) muayyan holatlarga qarab so'mda yoki erkin almashtiriladigan valutada.

B) milliy valutada.

D) rezidentlar uchun soʻmda, norezidentlar uchun chet el valutasida.

E) Oʻzbekiston Respublikasining pul birligida.

41. Soliq haqidagi masalalar referendum predmeti boʻlishi mumkinmi?

A) ha, muayyan holatlarda.

B) yoʻq.

D) ha, agar bu jismoniy shaxslarga soliq solinishiga taalluqli masalalar boʻlsa.

E) ha, agar bu yuridik shaxslarga soliq solinishiga taalluqli masalalar boʻlsa.

42. Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksini har tomonlama umumiy monitoring va tahlili 2008–2009-yillar mobaynida qaysi vakolatli organ tomonidan amalga oshirishi belgilangan?

A) Vazirlar Mahkamasi.

B) Davlat Soliq qoʻmitasi.

D) Moliya vazirligi.

E) Adliya vazirligi.

43. Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan prinsipni toʻgʻri belgilang.

A) Soliq solishning aniqligi.

B) Soliq solishni ixtiyoriyligi.

D) Soliq solishning ustuvorligi.

E) Soliq solishning erkinligi.

44. Quyidagilardan soliq toʻlovlaridan qaysi biri umumdavlat soliq toʻlovlariga tegishli?

A) Aksiz soligʻi.

B) Mol-mulk soligʻi.

D) Yer soligʻi.

E) Barcha javoblar toʻgʻri.

45. Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati toʻgʻrisida»gi qonunning asosiy maqsadi nimadan iborat?

A) Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilaydi.

B) Davlat soliq xizmati tekshirish tartibini belgilaydi.

D) Soliq va bojxona organlari faoliyatini tartibga soladi.

E) Soliq toʻlovchilarning huquq va majburiyatlarni belgilaydi.

46. Quyidagilardan qaysi biri soliq qonun hujjatlari prinsipi hisoblanmaydi?

- A) Soliq solishni insonparvarligi.
- B) Soliq solishning majburiyligi.
- D) Soliq solishning aniqligi.
- E) Soliq solishning adolatlilik.

47. Kameral nazorat ...

- A) Soliq to'lovchi huzuriga bormasdan tekshirish.
- B) Boshqa vaolatli organlar bilan birgalikda tekshirish.
- D) Muvofiqlashtirish rejasisiz tekshirish.
- E) Muvofiqlashtirish rejasi asosida tekshirish.

48. Jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llanilish tartibini belgilang?

- A) Sud tartibida.
- B) Soliq idoralari tomonidan.
- D) Prokuratura organlari tomonidan.
- E) Soliq organlarining mansabdor shaxslari tomonidan.

49. Jismoniy shaxslar soliq qonunchiligini buzganlik uchun qanday javobgarlik choralarini mavjud?

- A) Moliyaviy, ma'muriy va jinoiy.
- B) Intizomiy, moliyaviy va ma'muriy.
- D) Intizomiy, ma'muriy va jinoiy.
- E) Yuqoridagi javobgarlik choralarini barchasi to'g'ri.

50. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi mohiyati nimani anglatadi?

- A) Soliq qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan noaniqlik va qarama-qarshiliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinishini.
- B) Soliq munosabatlaridagi nizolarda soliq to'lovchining haqligi.
- D) Soliq to'lovchining aybi isbotlanmanguncha aybdor deb topilmasligi.
- E) Soliq kodeksidan tashqari barcha soliq munosabatlarida soliq to'lovchining ustunligi.

51. Quyidagi qaysi belgilar soliqlarning xususiyati hisoblanmaydi?

- A) Soliqlarning pul yoki natura va boshqa shakllarda bo'lishi.
- B) Soliqlarning muntazam bo'lishi.
- D) Soliqlarning qaytarib berilmasligi.
- E) Soliqlar doim muayyan miqdorda undirilishi.

52. Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar qanday hollarda O'zbekiston Respublikasi soliq qonun hujjatlaridan ustun ahamiyatga ega bo'ladi?

- A) Xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilingan bo'lsa.
- B) Xalqaro shartnomalar imzolangan bo'lsa.
- D) Har qanday holatlarda ustun xarakterga ega.
- E) O'zbekiston Respublikasi soliq qonun hujjatlari xalqaro shartnomalardan har doim ustun xarakterga ega bo'ladi.

52. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi faoliyatini tashkil etishning dastlabki huquqiy asoslari qaysi me'yoriy hujjatda belgilab berildi?

- A) O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risidagi Qonunida.
- B) Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorida.
- D) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida.

E) O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksida.

53. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Yangi tahrirdagi Nizomi qachon tasdiqlangan?

- A) 1994-yil 18-yanvarda.
- B) 2010-yil 8-yanvarda.
- D) 2000-yil 5-mayda.
- E) 2010-yil 21-mayda.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA QILINAYOTGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti LA. Karimov asarlari

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. – T O'zbekiston. 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston. 1993.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: O'zbekiston. 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston. 1995.
5. Karimov I.A. Tadbirkorlik – iqtisodiyot garovi / Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston 1996.
6. Karimov I.A. Vatan taraqqiyoti uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. –T.: O'zbekiston. 2000.
7. Karimov I.A. Adolat va qonun ustuvorligida / Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. –T. O'zbekiston. 2002.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston. 2003.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat – T.: O'zbekiston. 2005.
10. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va Yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston. 2005.
11. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009.
12. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.
13. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va Yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi.// Xalq so'zi, 2009, 14-fevral.
14. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2009, 6-dekabr.
15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir / 2009-yilning yakunlari va 2010-yilda

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2010, 30-yanvar.

II. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari

16. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston. 2009.

17. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – T.: Adolat. 2010.

18. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. – T.: «Adolat», 2008.

19. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. – T.: Adolat. 2008.

20. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat. 2007.

21. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat. 2008.

22. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. – T.: Adolat. 2009.

23. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – T.: Adolat. 2007.

24. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, № 9, 227-modda.

25. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, № 9, 230-modda.

26. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, № 9, 232-modda.

27. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998, № 5-6, 93-modda.

28. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998, № 9, 170-modda.

29. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999, № 1, 8-modda.

30. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda «Investitsiya

faoliyati to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999, №1, 10-modda.

31. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000, № 5-6, 140-modda.

32. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000, № 5-6, 142-modda.

33. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 1 – 2, 6-modda.

34. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 1-2, 8-modda.

35. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 9-10, 169-modda.

36. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Yangi tahrirda Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003, № 1, 7-modda.

37. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004, № 9, 160-modda.

38. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda «Davlat budjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004, № 9, 164-modda.

39. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 21-sentabrda «Soliq maslahati to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006, № 9, 497-modda.

40. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrda «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi hamda ularning moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006, № 10, 536-modda.

41. O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 16-oktabrda «Hakamlik sudlari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006, № 10, 541-modda.

42. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 28-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007, № 12, 608-modda.

43. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-aprelda «Bojxona imtiyozlarining qo'llanilish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008, № 4, 179-modda.

44. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 29-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008, № 12, 639-modda.

45. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda «Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008, № 12, 640-modda.

46. O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 16-aprelda «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009, № 4, 137-modda.

47. O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-aprelda «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va ko'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009, № 4, 139-modda.

48. O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 30-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. Xalq so'zi, 2009-yil 31-dekabr.

49. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi Farmoni. / «O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi» 1994 y., N 1, 40-modda.

50. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005. – №23 – 24 – 167-moddalar.

51. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005. -№23-24. 168-modda.

52. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyun «Mikrofimlar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005.-№25-26. 177-modda.

53. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 24-iyun «Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarlikni erkinlashtirish to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2005. -№25-26. 178-modda.

54. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 21-sentabrdagi «Tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ruxsatnoma turlarini qisqartirish va ularni berish tartib-qoidalarini soddalashtirish to'g'risida»gi Farmoni // Xalq so'zi. 2005. -22-sentabr.

55. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 5-oktabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // Xalq so'zi.2005, 6-oktabr.

56. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 3-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Soliq akademiyasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006, 27-son, 248-modda.

57. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1024-sonli Qarori. 2008-yil 29-dekabr.

58. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1245-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil, 52-son, 560-modda.

59. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari

to'plami, 2010-yil, 1-2-son, 4-modda.

60. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-may «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori.// «O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami», 2000-y., N 5, 23-modda.

61. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgust «O'zavtoyol» davlat aksiyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi Qarori.// «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2003 y., 15 – 16-son, 132-modda.

62. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 29-fevraldagi «Davlat boji stavkalariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qarori.// «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2008, 10-11-son, 59-modda.

63. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-sonli Qarori.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010, 21-son, 162-modda.

III. Maxsus adabiyotlar

64. Soliq qonunchiligi asoslari: O'quv qo'llanmasi. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2000.

65. Soliq huquqi/ Xvan L.B. Ma'sul muharrir: M.X.Rustamboyev.-T.: Konsauditinform, 2001.-432b.

66. Soliq qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlik. Xojiyev E. Monografiya.T.:2006. 157-b.

67. Soliqlar va soliqqa tortish: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/A.V.Vahobov, A.S.Jo'rayev.-T.: Sharq, 2009. 448-b.

68. Налоговое право: Учебник/Чимичева Н. И. – М.: БЕК, 1997.-336 с.

69. Налоговое право: Учебное пособие/ Под ред. С.Г.Пепеляева. – М.: ID FBK-PRESS, 2000.-608с.

70. Налоговое право: Учебник / Под ред. С.Г.Пепеляева. – М.: Юрист, 2004.-594с.

71. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., Fofurov A.V., Tuxliyev B.K.-T.:Iqtisodiyot, 2009 y.

72. Tadbirkorlik huquqi. Tahrir hay'ati H.Rahmonqulov,

Sh. Ro'zinazarov va boshqalar. Darslik. – T.: Konsauditinform 2002. 1-2-T.

73. Abdusalomov M.E. Tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning fuqarolik huquqiy usullari va muammolari // Yurid. fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun diss... avtoref. – T.: 2003.

74. Abdusalomov M., Ro'zinazarov Sh. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqiy layoqati va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish muammolari // Huquq-Pravo-Law-2002-№4.

75. Oqyulov O. Tadbirkorlikni rivojlantirish va unga nisbatan to'siqlarni bartaraf etishning huquqiy muammolari. // (Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). – T.: TDYUI. 2002.

76. Otaxonov F.X. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishda yuridik xizmatning roli. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish muammolari. // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: TDYUI 2000. 73 – 81-b.

77. Rahmonqulov H.R. Xususiy mulk va tadbirkorlikning huquqiy asoslari // «Tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish muammolari» mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDYUI. 2003.

78. Ro'zinazarov Sh. Yuridik fanlarning rivojlanishi va zamonaviy muammolari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. T.: 2007.

79. Ro'zinazarov Sh. Moliyaviy iqtisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida yuridik fan va ta'limning dolzarb muammolari. Mas'ul muharrirlar: H. Rahmonqulov. O'zbekiston Respublikasi FA akademigi, yuridik fanlari doktori, professor, E. Gadoev iqtisod fanlari nomzodi, dosent. Soliq akademiyasi. – T.: 2009. 302-b.

80. Shodmonov F. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolari : Yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun diss. ... avtoref. – T.: 2002.

81. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini shakllantirish sharoitida budjet – soliq siyosatining dolzarb masalalari. /Soliq akademiyasi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari./ 29-may 2007.

82. Mamlakat soliq siyosatini yanada erkinlashtirish – iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida. /Soliq akademiyasi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari/ – T.: 27–28-may 2008.

83. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda soliq siyosatini erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari va O'zbekiston sharoitida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirini bartaraf etishdagi soliq mexanizmining o'rni // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. – T.: 2009

ILOVALAR

**Davlat soliq qo‘mitasining 2009-yil 11-sentabrdagi
184-sonli buyrug‘iga ilova tarzida tasdiqlangan**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI XODIMLARINING KASB ODOBNOMASI

I bob. UMUMIY QOIDALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari xodimining Kasb odobnomasi (keyingi matnlarda Kasb odobnomasi deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 13-martdagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 87-sonli va 2000-yil 5-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida»gi 180-sonli qarorlari hamda ushbu qarorlar bilan tasdiqlangan Nizomlar, shuningdek soliq organlarida o‘rnatilgan rejim va ichki mehnat tartib qoidalariga muvofiq ishlab chiqildi.

2. Kasb odobnomasi O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari xodimlari (keyingi matnlarda xodim deb yuritiladi) oldiga qo‘yilgan xizmat burchlarini bajarish chog‘idagi muomala madaniyati, hulq-atvori va kasb etikasiga umumiy talablarni belgilaydi.

3. Mazkur Kasb odobnomasi bilan belgilangan talab va qoidalar mansab mavqeyidan va egallab turgan lavozimidan qat’i nazar har bir xodim uchun majburiy hisoblanadi.

4. Kasb odobnomasi kundalik faoliyatida rioya etilishi shart bo‘lgan xizmat hujjati sifatida har bir xodimda mavjud bo‘lishi va mukammal o‘rganilishi lozim.

5. Kasb odobnomasining asosiy vazifasi davlat soliq xizmati organlari shaxsiy tarkibining kasb etikasi va madaniyatini yanada yuksaltirish, soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlovchi qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishini ta‘minlash,

mansabni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik va boshqa nojo'ya xatti-harakat (harakatsizlik)larni sodir etish kabi holatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishdan iborat.

6. Egallab turgan lavozimidan qat'i nazar davlat soliq xizmati organlari barcha xodimlarining odob-axloq qoidalari halollik, xolislik, odillik, xushfe'lilik, jamoatchilik ishonchi, to'g'rilik, javobgarlik, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustunligi, vatanparvarlik, or-nomus va g'urur prinsiplariga asoslangan bo'lishi lozim.

II bob. KASBIY ODOB-AXLOQ QOIDALARI

7. Xodim:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga so'zsiz rioya etishi, Vatanni himoya qilishi, uni ardoqlashi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar inson, uning hayoti, erkinligi va boshqa daxlsiz huquqlari sha'ni va qadr- qimmatini hurmat qilishi;

Davlat obro'sini, fuqarolarning davlat institutlariga ishonchini mustahkamlashga ko'maklashishi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, soliq to'lovchilarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini hurmat qilishi, davlat manfaatlarini himoya qilishi;

xizmat faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi;

soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlashi, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilishi;

soliq sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi bo'yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni, topshiriqlarni sidqidildan sifatli bajarishi, soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha izlanuvchan, tashabbuskor bo'lishi;

ijro intizomini buzmaslik, o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi, prinsipial, obyektiv va xolisonaish yuritishi;

texnika xavfsizligi va mehnat himoyasi me'yorlarini e'tiborga olib ish vaqtini ish unumdorligi yo'lida samarali sarf qilishi, shaxsiy yoki hamkasblari sog'ligi va xavfsizligiga xavf solishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyat haqida o'zidan yuqori turuvchi rahbari va rejim xizmatini zudlik bilan ogoh qilishi;

o'z hamkasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun xizmat

majburiyatlarini bajarish chog'ida kasbiy malakasi va tajribasini, mahoratini dunyoqarashini doimiy ravishda oshirib borishi, xizmat vazifalarini bajarishda ijodiy yondashuvni namoyon qilishi;

xizmat vazifalarini bajarish chog'ida unga ma'lum bo'lgan xizmat sirlari va boshqa ma'lumotlarni, shuningdek davlat sirlarini saqlashi, ularning oshkor etilishiga yo'l qo'ymasligi;

tadbirkorlikning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi, asossiz aralashmasligi, ularning manfaatlariga zarar yetkazmasligi;

korruptsiya va soliq tizimi sha'niga dog' tushiruvchi boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz bo'lishi, shaxsiy xavfsizligini ta'minlashi;

shaxsiy manfaatlarini xizmat manfaatlaridan yuqori qo'ymasligi, xizmat axborotlaridan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlarida foydalanmasligi;

soliq to'lovchilar bilan bo'lgan muloqatlarda muomala madaniyatiga qat'iy amal qilishi;

ota-onalariga g'amxo'rlik qilishi, o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqishi va tarbiyalashi shart.

8. Xodimga:

O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, yaxlitligiga va xavfsizligiga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi siyosiy va diniy ruhdagi partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyatida ishtirok etish;

ish tashlashlar, siyosiy manifestatsiyalar va yurishlarni tashkil etish va ularda qatnashish;

biron-bir tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlash (ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish bundan mustasno);

o'z xizmat vazifalarini bajarganlik yoki bajarmaganlik uchun mukofotlar yoki xizmatlarni qabul qilish hamda qarindoshlari, tanishlari va boshqa shaxslar iltimosiga ko'ra amaldagi qonun hujjatlariga rioya etmaslik;

qimor o'ynash, giyohvand moddalar, shuningdek xizmat vazifalarini bajarish chog'ida spirtli ichimliklar iste'mol qilish;

Respublika soliq organlari sha'niga dog' tushiruvchi shaxslar bilan munosabat o'rnatish;

soliq organlarida uchinchi shaxslar ishi bo'yicha ishonchli vakillar yoki vakillar bo'lish;

moddiy-texnika va axborot bilan ta'minlash, moliya vositalaridan, davlatning boshqa mol-mulkidan, shuningdek xizmat axborotlaridan lavozim vazifalari bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish;

soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlovchi qonun hujjatlariga rioya etmaslik hamda ularning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish va aralashish;

o'ziga qonun bilan berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqadigan harakatlarni qasddan sodir etish;

o'z vazifalariga loqaydlik yoki vijdotsizlarcha munosabatda bo'lish, ularni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik;

xizmat vazifasi yuzasidan bajarish shart va mumkin bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmaslik;

g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarini qo'llab, rasmiy hujjatlarga bila turib, soxta ma'lumotlar va yozuvlar kiritish, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki bila turib, soxta hujjatlar tuzish va taqdim etish taqiqlanadi.

III bob. XODIMNING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN MUOMALA MADANIYATI

9. Soliq organlari xodimlarining yurish-turish, ichki madaniyati, tirishqoqligi, xizmatga shayligi, intizomliligi, fuqarolarning ishonchiga sazovor qiluvchi, insonga estetik zavq beruvchi, hamkasblari va atrofdegilarga axloqiy-ruhiy ta'sir o'tkazib tarbiyalovchi bo'lishi lozim.

10. Har bir xodim xizmat burchini bajarishda, eng avvalo o'zining davlat xizmatchisi ekanligini, odamlar uning xulq-atvori, xatti-harakati, so'zohangi va tashqi ko'rinishiga qarab soliq tizimiga baho berishlarini, uning obro'si davlat obro'si ekanligini unutmasligi kerak.

11. Fuqarolarga, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga (keyingi o'rinlarda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) murojaat qilganda salomlashish qoidalariga to'liq rioya etishlari, o'zini to'liq tanishtirishi, so'ngra murojaat qilish sababini va maqsadini tushuntirib, ularni diqqat va sabr-toqat bilan eshitishlari shart.

12. Og'zaki murojaatlarga, berilgan barcha savollarga xushmuomalalik bilan javob berilishi, yotig'i bilan asosli va qonuniy tushuntirishlar berishi lozim.

13. Soliq organlari shaxsiy tarkibiga fuqarolar bilan muomala qilish

chog'ida dimog'dorlik, manmanlik, qo'pollik qilish, dag'al tarzda tanbeh berish, suhbat va muomala jarayonida inson qadr-qimmati, shaxsini tahqirlovchi boshqa xatti-harakatlarga yo'l qo'yish qat'iy man etiladi.

14. Davlat soliq xizmati xodimi tadbirkorlik subyektlarida soliq nazoratini (soliq tekshiruvi, xronometraj va boshqa tadbirlarni) amalga oshirish mobaynida, mazkur subyektlarda yuzaga kelgan shaxsiy munozaralarga va baxslarga aralashmasligi kerak.

15. Xodim ishdan bo'sh vaqtda murojaat qilgan fuqarolarga nisbatan befarq bo'lmasligi, ularga to'g'ri maslahatlar berishi va savollarga javob topish uchun imkon darajasida amaliy va ma'naviy yordam ko'rsatishi zarur (Foydalanish doirasi chegaralangan axborotlar hamda davlat, soliq va xizmat sirlari bundan mustasno).

16. Davlat soliq xizmati organlarida fuqarolarni qabul qilish madaniyati yuqori darajada bo'lishi ta'minlanishi shart, ya'ni:

fuqarolarni qabul qilish vaqti aniq belgilangan va kimlar qanday masalalar bo'yicha qabul qilinishi ko'rsatilgan bo'lishi;

qabul qiladigan xodim maxsus kiyimda bo'lishi, o'zini kamtarona tutishi, xizmatga shayligi fuqaroga sezilib turishi;

tashrif buyurgan fuqaroning barcha savollariga, shikoyatlariga to'liq javob berilishi, javobning tushunarli bo'lganligiga ishonch hosil qilinishi;

murojaatga aloqador mansabdor shaxslar suhbat chog'ida ishtirok etayotgan bo'lsa, ularning barchasi fuqaroga tanishtirilishi;

fuqaro bilan suhbat chog'ida ularga berilayotgan javob aniq va ishonchli bo'lishi uchun javobni qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan asoslash;

suhbat davomida ko'rilayotgan masala ushbu idora vakolatiga taalluqli bo'lmasa, fuqaroga bu haqda tegishli idoraga murojat qilishi mumkinligi qonun normalariga asoslangan holda, yotig'i bilan tushuntirilishi;

ko'rilayotgan masalani hal qilish uchun qo'shimcha ma'lumotlar, hujjatlarni ko'rish yoki muayyan tashkiliy tadbirlarni o'tkazish zarur bo'lsa, bu haqda murojaat etuvchiga ma'lum qilinib, masala hal qilinishi lozim bo'lgan aniq vaqt belgilanishi talab etiladi.

17. Davlat soliq xizmati organlari xodimlari nutq madaniyatida quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratishlari lozim:

so'z tartibi grammatika qoidalariga to'la asoslangan bo'lishi, fikr sodda, aniq va qisqa ifodalanishi, fikr kasbga doir terminlar asosida bayon qilinishi, og'zaki so'zlashuv uslubiga xos so'zlar ishlatmasligi kerak.

IV bob. XODIMNING JAMOADAGI XULQ-ATVORI VA HAMKASBLARI BILAN BO'LGAN AXLOQ MUNOSABATLARI

18.Xodim:

hamkasblariga nisbatan muloyim va xushfe'l bo'lishi. Hamkasblariga hurmat bilan murojaatning umumqabul qilingan shakli – ismi yoki familiyasi bo'yicha murojaat etishi;

hamkasblarning va rahbarining tanqidini to'g'ri va e'tibor bilan qabul qilishi, shuningdek yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni o'z vaqtida tan olishi;

hamkasblarning kelib chiqishidan, ijtimoiy, mansab va mulkiy holatidan, jinsidan, irqidan, millatidan, tilidan, dinga mansubligidan, e'tiqodidan, yashash joyidan va boshqa holatlardan qat'i nazar g'ururi va qadr-qimmatini hurmat qilishi;

odatdan tashqari vaziyatlar yuzaga kelganida hamkasblariga o'z maslahatlari bilan yordam berishi va xatoliklarga yo'l qo'ymasligi haqida ogohlantirishi hamda oqibatlarini tushuntirishi;

hamkasblari bilan munosabatlarda tajovuzkor xulq-atvorga, suiiste'molikka yoki surbetlikka, shuningdek dag'al leksikaning ishlatilishiga yo'l qo'ymasligi;

hamkasblarning qonuniy ishga to'sqinlik qiladigan harakatlar sodir etmasligi;

xodimlar haqida ularning shaxsiyatiga tegadigan va xizmatiga, obro'siga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatmasligi g'iybat bilan shug'ullanmasligi;

hamkasblariga nisbatan munosabatlarda odobsizliklarning har qanday ko'rinishlariga yo'l qo'ymasligi, ayniqsa yosh, tajribasiz xodimlarga odob-axloqda, o'z mutaxassisligini o'zlashtirishda butun kuch va g'ayratni ayammasligi, o'rnak bo'lishi;

o'z hamkasblaridan shaxsiy, moddiy va boshqa turdagi noqonuniy xizmatlarni talab qilmasligi kerak.

V bob. RAHBAR XODIMNING ASOSIY AXLOQ PRINSIPLARI

19.DSQ Markaziy apparati tuzilmalari, Davlat soliq boshqarmalari, Davlat soliq inspeksiyalarining rahbar xodimlari : jamoada sog'lom, ishchan ma'naviy-ruhiy muhitning shakllanishi

va saqlanishiga ko'maklashishi, qo'l ostidagi xodimlarida ma'naviy-ruhiy, axloqiy va kasbiy ko'nikma, xislatlarni yuksaltirishi, ularni vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashi;

qo'l ostidagi xodimlarining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi, shaxsiyatni kamsitmasligi va ularga nisbatan obyektiv munosabatda bo'lishi;

xodimlardan soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining sifatini belgilangan standartlarga muvofiq ravishda doimiy tarzda oshirishni talab qilishi;

xodimlardan shaxsiy (ijobiy yoki salbiy) munosabatidan qat'i nazar xizmat vazifalarini bajarilishini bir xilda talab qilishi;

qo'l ostidagi xodimlari oldiga uzoq va qisqa muddatli topshiriq va vazifalarni to'g'ri qo'ya olishi, shu vazifalarni hal etishda jamoani jipslashtirishi;

soliq ma'murchiligini takomillashtirishi jarayonida barcha xodimlarning faol qatnashishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishi;

jamoada doimiy ravishda mehnat intizomi, sog'lom ishchan ma'naviy-ruhiy muhit holatini yaratishi, salbiy holatlarga murosasiz bo'lishi;

xodimlarning madaniy xordiq chiqarishi va sport sog'lomlashtirish tadbirlari uchun shart-sharoit yaratib berishi;

shaxsiy tarkib oldida asoslanmagan talablarni qo'ymasligi yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo'lgan topshiriqlarni bermasligi, qo'l ostidagi xodimdan shaxsiy, moddiy va boshqa turdagi noqonuniy xizmatlarni talab qilmasligi;

xizmat vazifalarini lozim darajada bajarilmaganligi va xato qarorlar qabul qilganligi uchun o'z javobgarligini qo'l ostidagi xodimlarga yuklamasligi;

qo'l ostidagi xodimi tomonidan bildirilgan tanqidni agressiv tarzda qabul etmasligi va bildirilgan tanqid tufayli xodimni ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymasligi;

shaxsiy tarkibi tomonidan sodir qilingan jinoyatlar, huquqbuzarliklar va qo'pol tartibbuzarliklar haqida o'zidan yuqori turuvchi rahbarini darhol xabardor etish lozim.

VI bob. JAVOBGARLIK

20. Xodim ushbu Kasb odobnomasi qoidalarini buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-sonli qarori bilan tasdiqlangan tahriri bayoni

Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati va unga qarashli ta'lim muassasalari:

Shtatdagi lavozim	Maxsus unvon
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari	Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari, o'rinbosarlari, Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasining boshqarma boshliqlari, viloyatlar markazlari shaharlari davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo'lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari	Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi
Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi boshqarma boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari mustaqil bo'limlari va sho'balari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, shaharlar, viloyatlar markazlari davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo'lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining tezkor xodimlari, bosh buxgalterlari, navbatchi qismlari boshliqlari	Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 21-maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-sonli qarori bilan tasdiqlangan tahriri bayoni

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bo'limlari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shaharlardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari apparati:

Shtatdagi lavozim	Maxsus unvon
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlari	Soliq xizmatining III darajali davlat maslahatchisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari, o'rinbosarlari, Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasining boshqarma boshliqlari, viloyatlar markazlari shaharlari davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo'lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari	Soliq xizmatining I darajali maslahatchisi
Toshkent shahar davlat soliq boshqarmasi boshqarma boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari mustaqil bo'limlari va sho'balari boshliqlari, Toshkent shahridagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlari, shaharlar, viloyatlar markazlari davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlari, 200 ming kishidan ortiq aholisi bo'lgan shaharlar davlat soliq inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining tezkor xodimlari, bosh buxgalterlari, navbatchi qismlari boshliqlari	Soliq xizmatining II darajali maslahatchisi

Shtatdagi lavozim	Maxsus unvon
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari davlat soliq katta inspektorlari, yetakchi mutaxassislari, davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq bosh inspektorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari mutaxassislari, Soliq akademiyasi ilmiy kengashi kotibi, katta surishtiruvchilar	Soliq xizmatining I darajali inspektori
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalarining davlat soliq inspektorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq katta inspektorlari, surishtiruvchilar	Soliq xizmatining II darajali inspektori
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq uchastka inspektorlari, yetakchi mutaxassislari	Soliq xizmatining III darajali inspektori
Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari davlat soliq inspeksiyalarining davlat soliq inspektorlari, I toifali mutaxassislari	Soliq xizmatining inspektori

**BERDIYAROV RAHMATJON
TOJINOROVICH
QURBONOV ZIYAT NIYAZOVICH**

SOLIQ HUQUQI
(o'quv qo'llanma)

Muharrir: S. Badalboyeva
Tex.muharrir: A. Rahmatov
Sahifalovchi: N. Ortiqov
Musahhiha: D. Avvalboyeva

AI 092 – 16.07.07.

«Yurist-media markazi nashriyoti», Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Bosishga 23. 10. 2010-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84
1/16. Times garniturasida, ofset bosma usulida chop etildi.
Nashr tabog'i 22,5. Shartli b.t. 20,5. Adadi 300 nusxa.

Buyurtma 32/10.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Dizayn-print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. 100100.
Buyurtma №57. Toshkent shahri, Bobur ko'chasi 22-uy.

ISBN 9789943387034



9 789943 387034

